O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O’RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

SH.SH.OLIMOV, SH.X.SAMIYEVA, N.X.ASLANOVA, F.J.RO’ZIYEV

INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI



O`rta professional ta`limning “4.11.02.02 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi” kasbi uchun darslik

Buxoro – 2022 y

Muharrir:

B.R.Adizov BuxDU professori, p.f.d.

Taqrizchilar:

G.Sh.Karimova Buxoro viloyat maktabgacha ta’lim boshqarmasi boshlig’i o’rinbosari

M.M.Axmetjonov BuxMTI professori, p.f.n.

Sh.Sh.Olimov, Sh.X.Samiyeva, N.X.Aslanova, F.J.Ro’ziyev

Innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari. O`rta professional ta`limning “4.11.02.02 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi” kasbi uchun darslik. Buxoro, 2022 y.

“Innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari” darsligi o`rta professional ta`limning 4.11.02.02 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi kasbi bo`yicha tahsil olayotgan bo’lajak mutaxassislar uchun mo’ljallangan bo’lib, innovatsion ta’lim texnologiyalari tushunchasi, maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg’ulotlarida interfaol usullarni qo`llash, xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi ilg`or pedagogik tajribalari, bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari haqidagi mavzular batafsil bayon etilgan.

KIRISH

Ta’lim tizimini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishini sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi. Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar ta’limning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda.

Xususan, shu kunlarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ushbu tizimining ham mazmuni va shakllarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017-yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-sonli Qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartlari”ni tasdiqlash to’g’risidagi qarori kabi hujjatlarning qabul qilinishi ushbu tizimning mamlakatimiz ta’lim tizimi uchun nechog’lik muhimligini ko’rsatmoqda. Bu me’yoriy-huquqiy hujjatlar zamirida maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish orqali kelajagimiz davomchilarining to’laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoirlar yaratishdan iborat. 2020-yil 24-sentyabrda kuchga kirgan O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonununing 8-moddasi aynan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya”ga bag’ishlangan bo’lib, unda Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni

intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turi ekanligi, maktabgacha ta’lim va tarbiyaning olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutishi, maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek, «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanishi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Uzluksiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi, ta`limning yangi metodlaridan keng foydalanish, moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish, masofaviy ta’limni joriy etish, ta’lim tashkilotlarining mintaqaviy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning hamda ta’lim sifatini boshqarishga xalqaro standartlar talablarini joriy etish tizimni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahon ta`lim tizimida kreativ fikrlashni kuchaytirish va yangi texnik fikrlashni izlashning nazariy asoslari va uslubiy vositalarining rivojlanishi yo’nalishi paydo bo'ldi. Bu shuni ko'rsatadiki, ijodkorlikning ilmiy asoslarini rivojlantirish, kreativ jarayonni kuchaytirish usullarini ishlab chiqish, innovatsion ta`lim metodlarini o'rgatish, ilmiy, loyihalash va konstruktorlik va texnologik tashkilotlarda, korxonalar va universitetlarda ijod uchun qulay sharoitlar yaratish dolzarb ehtiyojga aylandi.

Zamonaviy ta'lim mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini yaratishi uzoq vaqtdan ma'lum. Ta'lim jarayonida zarur bilim va ko'nikmalar, kasbiy munosabat, faoliyatning ayrim turlariga va uning tuzilishiga tayyorlik to'plami shakllanadi. Ta'lim ma'lum qobiliyatlarning rivojlanish darajasini belgilaydi va hatto mutaxassisning individualligi yoki shaxsiy xususiyatlarini to'g'rilaydi va shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”

2019 yil 13 maydagi 391-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi ijrosini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuritilayotgan ish hujjatlarini tartibga solish, xodimlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mas'uliyatini oshirish, tarbiyachi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo ta’limiy prinsip (qonuniyat)larni qanchalik to’g’ri amalga oshirishiga bog’liq. Ta‘lim qonuniyatlari bu - o’qitish jarayoniga qo’yiladigan talablar yig’indisidir.

Ta‘lim prinsip (tamoyil)lari deb, ta‘limning barcha bosqichlari va hamma predmetlarini o’qitish uchun asos bo’ladigan qonuniyatlar, qoidalarga aytiladi. Ta‘lim qonuniyatlari tarbiyalanuvchi va tarbiyachi orasidagi eng muhim ichki ahamiyatni aks ettiradi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevral kuni e’lon qilingan farmoni asosida 2017—2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Bu strategiya loyihasi o’ta dolzarb bo’lib, aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e’lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o‘tdi. Ijtimoiy sohalarning rivojlantirishida milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo’g’inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga hamda ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta’lim tashkilotlarini mintaqalashtirishga e`tabor qaratilgan.

Ma’lumki, qonuniyat - bu barqaror, zaruriy u yoki bu hodisalar va jarayonlar o’rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa hisoblanadi. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o’quv jarayonining xarakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari: usullari va vositalarini qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o’qitish jamiyat talablarini e’tiborga olmasa, u holda uni, albatta, qayta ko’rish, takomillashtirish kerak. Demak, ta’lim berish, tarbiyalash va

tarbiyalanuvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ifodalangan qonuniy ta’limiy aloqalarni va o’qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o’zaro bog’lanishda qo’llash ko’nikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta’sirli o’zlashtirilishini ta’minlaydi. O’qitishni aynan shunday natijaga qaratish uning onglilik, puxtalik, ta’sirchanlik qoidalarini xarakterlaydi.

Ta’limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog’langan bo’lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish kabilar asosida intensivlash o’z aksini topishi kerak.

Har bir tarbiyachi shuni anglab yetishi muhimki, o’quv jarayonini samarali bo’lishi - bu, ishda o’zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, ta’limiy qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni hal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o’zaro aloqada foydalanish demakdir.

O’qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuniyatlar birligini va ta’limiy qoidalarini e’tiborga olish zarur.

O’qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, bu o’qitish qoidalari deb ataladi. O’qitish qoidalarini bilish o’qitishning zarur usullarini yanada ishonchliroq tanlashga imkon beradi.

Maktabgacha ta’lim qoidalari - tarbiyachining faoliyatini va tarbiyalanuvchilar tomonidan ilmiy bilmlarning o’zlashtirilishi, tegishli ko’nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo’l – yo’riqlarini o’z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta’lim qoidalari har ikkala faoliyatni, ya’ni tarbiyachi va tarbiyalanuvchi tomonidan o’z oldiga qo’yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi.

Maktabgacha ta`lim tarbiyachining faoliyati va tarbiyalanuvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o`zlashtirilishi, tegishli ko`nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonuni va yo`l-yo`riqlarni o`z ichiga oladi.

Har bir inson jamiyatda o`z o`rnini bilishi, o`zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim, zero, bugungi kunning talabi ana shundan iborat. Maktabgacha ta’lim esa mazkur jarayonlarda bolalikdan ezgulik haqidagi tuyg`ularni, tabiat va insoniyatga bo`lgan munosabatni, jamiyat hayotiga mas’uliyatni, insoniyatga bo`lgan qarashlarni go`zallik va ulug`vorlik asosida yaratish imkoniyatini rivojlantirish bilan mazmunlidir.

I-BO`LIM. INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI FANIGA KIRISH

1.1. Innovatsion ta’lim texnologiyalari tushunchasi, uning ta’riflari, metodikadan farqi

Reja

1. Innovatsion ta’lim texnologiyalari faniga kirish
2. Innovatsion ta’lim texnologiyalari tushunchasi, uning ta’riflari, metodikadan farqi
3. Interfaol ta’lim haqida tushuncha

Kechagi bilim bilan bugungi va ertangi zamonni qura olmaymiz

Shavkat Mirziyoyev

Innovatsion ta’lim texnologiyalari faniga kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo‘lida barkamol avlodning o‘rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta’lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog‘liq. Shu bois ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni sifatini oshirish, innovatsion hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llay olishga o‘rgatish, shuningdek, ta’lim jarayoni ishtirokchilariga pedagogik mahorat sirlarini ochib berishdan iborat.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar va tengdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo‘yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya

qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda — “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risida Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta’lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim muassasalarida, shuningdek, muassasaga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta’lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerakO‘quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ulardan unumli natija ola bilish esa pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab etadi.

Barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lib kelganligi barchamizga ma’lum. Buyuk donishmand Abu Ali Ibn Sino o‘z pedagogik qarashlarida “Har bir kishini uning borlig‘i va qobiliyatiga ko‘ra o‘qitish kerak. Aks holda ta’lim-tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi”, degan g‘oyani ilgari suradi. Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy va boshqa yirik mutafakkirlar ta’lim-tarbiya haqidagi masalalarni hal qilishda asosiy e’tiborni (bola) shogirdning bajarishi talab qilinadigan shartlarga qaratganlar. Darhaqiqat, pedagogning eng muhim sifati – har doim biror narsani o‘ylab topishga intilish, bolalarni ham shunday faoliyatga undash hisoblanadi. “Bolalarni o‘ylashga o‘rgatish uchun ularda o‘ylab topish ko‘nikmasini shakllantirish kerak” (Dj.Rodari). Aynan o‘z-o‘zini rivojlantiradigan, doimiy takomillasha oladigan pedagoggina zamonaviy maktab ta’limi oldiga qo‘ygan vazifalarni bajara oladi.

Bunday pedagog bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi[1].

An’anaviy pedagogika (Ya.A.Komenskiy, I.Gerbart, A.V.Disterverg, I.G.Pestalossi) ta’lim jarayonini katta yoshlilar, pedagoglarni subyekt sifatida o‘z tajribasini bolaga ko‘chirish, deb ta’riflagan. Bunda bola-harakat yo‘nalgan obyekt deb qabul qilingan. Ta’lim tizimining asosiy maqsadi esa – bolani hayotga tayyorlash bo’lib, uni o‘qitish mazmuni, usullarini pedagog belgilaydi[2].

Jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida faol, maqsad sari intiluvchan, ijodkor shaxsga bo‘lgan ehtiyoji kuchaymoqda. Shuning uchun ham o‘quv-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy vazifa pedagog zimmasiga tushadi. Pedagog har bir bolaning o‘quv ehtiyojlarini qondirishi, ularning mayllari, qiziqishi va imkoniyatlarini aniq hisobga olgan holda ta’lim berishi kerak[3].

Hozirgi kun zamonaviy ta’limining rivojlanishi yangi yo’nalish - innovatsion faoliyatni taqozo etmoqda. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo’lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G’arbiy Yevropa va AQShda paydo bo’lgan. Dastlab innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slatenin, A.I.Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg’or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion rivojlanishlarni boshqarish, ta’limdagi o’zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti» va «faoliyati» uchun zarur bo’lgan shart -sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni

[1] Maslou A. Motivatsiya i lichnost. 3-ye izd./ SPb: Piter, 2009. B -120
[2] Подласий И.П. Педагогика: дарслик. Москва. Высшее образование. 2007. Б -326

[3] Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida modulli o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mexanizmlari. R.G.Safarova va boshq. Toshkent. “Tafakkur qanoti”, 2017, b-3

qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo’lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan.

“Innovatsion ta’lim texnologiyalari” tushunchasi keng qamrovli mazmunga ega. Usbu tushunchani izohlash uchun avvalambor **“innovatsiya”, “ta’lim”, “texnologiya**” tushunchalarining har biriga alohida to’xtalib o’tish zarur.

“Innovatsiya” (ing. innovation — kiritilgan yangilik, ixtiro) so’zi - ishlab chiqarish sohasida paydo bo’lgan. Dastavval bu tushuncha texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun sarflangan iqtisodiy mablag‘lar, ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishi kabi tushunchalar bilan izohlangan.

Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi ham mumkin. Bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

“Ta’lim” tushunchasi (arabcha “ilm olmoq” – o‘qish, o‘rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui) bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli xildagi o‘quv tashkilotlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham anglatadi. Chunki ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma’lumotga bo‘lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi

pedagogik g‘oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta’limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o‘zgarib yanada takomillashib borgan.

Ta’lim - mashg’ulot berish jarayonini, ya’ni pedagog (o‘qituvchi) faoliyatini, umuman, bolaning bilish, o‘rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya’ni bola faoliyatini bildiradi.

Ta’lim jarayoni - ta’lim beruvchi — pedagog va ta’lim oluvchilar faoliyatining yig‘indisidan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o‘sadi. Ta’lim avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislikni ta’minlaydi: kishilarning ijtimoiy, tarixiy tajribalari yosh avlodga ta’lim orqali o‘tadi.

Ta’lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba’zi nazariyalar ta’limni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga bog‘liq bo‘lmagan hodisa sifatida baholasalar, ba’zilari ta’limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a’zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari qaratilganligini ta’kidlaydi.

Ta’limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o‘zgarib borgani kabi, ta’limning xarakteri, yo‘nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o‘zgarib boradi. Ta’lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta’lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg‘ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir.

Ta’lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, jamiyatning yangi a’zosini tarbiyalashga yordam beradi.

Ta’lim - bolaning bilish qobiliyatini o‘stiruvchi asosiy omildir. Bolalar qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan tizimlar muayyan ta’limiy qoidalar tarzida namoyon bo‘ladi. Ta’limiy tamoyillarda ta’limning mazmuni va jarayonlariga qo‘yilgan talablar belgilanadi. Ta’limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum,

shuningdek, muayyan o‘quv tashkilotlarining xususiyatiga muvofiq tarixan o‘zgarib boradi.

Ta’lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shart-sharoit, fan va texnika, san’at va shu kabilarni hisobga olgan holda belgilanadi. Kasb-hunar texnikumlari, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlaridagi ta’limning mazmuniga umumiy ma’lumotdan tashqari muayyan kasb va mutaxassislik uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalar ham kiradi. Ta’lim mazmuni o‘quv reja va dasturlari, darslik va boshqalarda yoritiladi. Ta’limda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun turli metod, vosita, tashkiliy tizim va shakllar (ma’ruza, suhbat, tajribalar o‘tkazish, ko‘rgazmali qurollarni qo‘llash, kuzatish, mashq va h.k)dan foydalaniladi. O‘quv jarayonida texnik vositalar (film, televideniye, radio, kompyuter, proyektor boshqalar)ni keng qo‘llash ta’lim metodini ishlab chiqishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan hamda 2020-yil 24-sentyabrda kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining “**Ta’lim to‘g‘risida”gi** Qonuniga muvofiq hozirgi kunda mamlakatimizda ta’limni tashkil etishning quyidagi turlari, shakllari mavjud. Ushbu Qonunning 7-moddasida ta’limning:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim

kabi turlari keltirilgan.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning 15-moddasida esa mamlakatimizda ta’lim olishning quyidagi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta’lim;
- oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
- katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
- inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibidagi ta’lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash kabi shakllari ko’rsatilgan.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, kishilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta’lim tobora takomillashtirilib, diversifikatsiyalashib bormoqda.

Texnologiya (yunoncha *techne* —san’at, mohirlik, uquv) — sanoat, qurilish, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan fan. Yoki ilmiy-amaliyot asosida xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishning usullaridir.

Har bir sohaning o‘ziga xos texnologiyasi mavjud: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, ta’lim texnologiyasi va boshqalar.

Amalda texnologik jarayonlar qanchalik puxta ishlangan, tavsiya etilayotgan usullar chuqur tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan bo‘lsa, tayyorlanadigan mahsulot shunchalik sifatli bo‘ladi. Texnologiyaning fan sifatidagi roli va vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiya ham yangilanadi. Har qaysi sohada texnologiyani ishlab chiqish uchun texnologik hujjatlarni o’rganish, yangi texnologik jarayonlar, standartlashtirilgan

jihozlar va uskunalardan foydalanishning yagona tartibi bo‘lishi lozim. Shunday ekan, ta’lim texnologiyasi ham kundan kunga zamonaviylashib, o’zgarib, innovatsion tarzda takomillashib borishi zarur.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari tushunchasi, uning ta’riflari, metodikadan farqi

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasidir.

Ta'limdagi innovatsiyalar esa o’qitish va o’rgatish sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalarni ifoda etadi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida bilim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin.

Pedagogik innovatsiyada **"yangi"** tushunchasi markaziy o’rinni egallaydi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg’otadi. Xususiy yangilik, V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko’zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma’lum unsurlarning yig’indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I.Zagvyazinskiy “yangi” tushunchasiga ta’rif berib, pedagogikadagi “yangi” bu faqatgina g’oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo’lib, o’zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta’lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg’or boshlanmalarini o’zida aks

ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o’qitish va tarbiya berishda avval ma’lum bo’lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o’zgarib turishi mumkin bo’lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. **Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib**, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetensiyalardir. Mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.
2. **Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash**. Bunday usullar bo`lajak mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, o`quvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yo`naltirilgan bo`lishi kerak.
3. **Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi**. U o'qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash, ya'ni yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat’iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Bunda tanqidiy va kreativ fikrlash, turli vaziyatda o’z nuqtai nazarini bayon eta olish, ijodkorlik asosida quriladigan yangi amaliy jarayonlar nazarda tutiladi.

Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Ularni quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlariga ajratish mumkin:

1. **Mavzu materialini o'rganish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKTdan samarali foydalanish**.

Ushbu innovatsion texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog'liq. Bunday texnologiyalar ta'lim dasturlari, axborot jarayonlari va AKTni qo’llashga qaratilgan barcha fanlarni o'z ichiga oladi hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari professor-pedagoglar va talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini oshirishga yordam berish uchun o'quv jarayonini ham faol ravishda zamonaviylashtirish va axborotlashtirishni nazarda tutadi.

2. **Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar.** Ushbu texnologiyalar o'qitish va tarbiyalashda shaxsni ustuvor o'ringa qo'yishga qaratilgan. Butun ta'lim jarayoni shaxsning individualligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

3. **O'quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash**. Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o'quvchi, sinf, ta'lim tashkilotining rivojlanishini tadqiq qilish va ularni adekvat baholashga qaratilgan;

4. **Intellektual rivojlanish monitoringi**. Bu texnologiyalar grafik ma’lumotlardan foydalanishga, test tizimiga, yangi baholash usullariga asoslangan bo'lib, ular o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini va umuman, ta'lim sifatini kuzatish imkonini beradi;

5. **Ta'lim texnologiyalari**. O'quv jarayonini tarbiyadan ajratib bo'lmaydi. Shu sababli, shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda;

6. **Ta’limiy texnologiyalar**. Ular ta’lim tashkiloti rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audio-vizual

vositalar, multimediali, tabaqalashtirilgan o'qitish usullaridan foydalanish shular jumlasiga kiradi.

Interfaol ta’lim haqida tushuncha

Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta’lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e’tibor yanada kuchaytirildi. O’zbekistonda ham so’nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo’lib ta’lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta’lim jarayonida qanday o’z aksini topganligini quyidagilarda ko’rishimiz mumkin.

Avvalambor**, o’qitish tizimiga innovatsiya**ning kirib kelishini ta’lim mazmunida, o’qitish metodlarida, mashg’ulot shakli, o’qitish turlari, o’qitish vositalarida ko’rishimiz mumkin.

- **Ta’lim mazmuniga innovatsiya** an’anaviy, noan’anaviy va masofaviy o’qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.

- **O’qitish metodlariga innovatsiya** aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi orqali namoyon bo’lmoqda.

Aktiv (faol) metodni qo’llash talabalarni mashg’ulot jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv (nofaol) metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv (interfaol) metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o’qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.

Mashg’ulot shakliga innovatsiyani kirib kelishini **standart, nostandart** hamda **virtual** mashg’ulot shakllari misolida ko’rishimiz mumkin.

O’qitish turlaridagi innovatsiyani:

- muammoli ta’lim,
- evristik ta’lim,
- darajalangan ta’lim,
- integratsiyalangan ta’lim,
- interfaol ta’lim,

- informal ta’lim,
- rasmiy ta’lim,
- norasmiy ta’lim

turlari bilan izohlanadi.

O’qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini mashg’ulot jarayonida:

- multimedia,
- elektron doskalar va boshqa vositalarning aralashuvi bilan izohlanadi.

O’qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko’rishimiz mumkin:

1. Aktiv (faol) metod. Bu metodni mashg’ulot jarayonida faollashuviga, ma’lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-mulohaza yuritishga undaydi.

2. Passiv(nofaol) metod. Bu metod mashg’ulot jarayonida talabalarda o’rganilayotgan mavzu bo’yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo’lishiga olib keladi.

3. Interaktiv(interfaol) metod. Bu metodni maqsadi mashg’ulot jarayonida o’qituvchi va talabalarni birgalikdagi faol hatti-harakatlariga asoslanadi.

Mashg’ulot shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko’rishimiz mumkin:

a) **Standart mashg’ulot** – mashg’ulot ichidagi struktura o’zgarmaydi.

b) **Nostandart mashg’ulot** – mashg’ulot ichidagi struktura o’zgaradi.

v) **Virtual mashg’ulot** – ya’ni masofadan o’qitish.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo’lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o’rganish o’quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Innovatsiyalarni joriy etishda ba’zi muammolar ham uchraydi. Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar turli sabablarga ko'ra "sekinlashadi".

1. **Ijodkorlik to'sig'i.** Eski dasturlar bo'yicha bir xillikda ishlashga odatlangan pedagoglar hech narsani o'zgartirishni, o'rganishni va rivojlanishni xohlamaydilar. Ular ta’lim tizimidagi barcha yangiliklarga tanqidiy nigoh bilan qaraydilar.

2. **Muvofiqlik.** Moslashuvchanlik, rivojlanishni istamaslik, boshqalarning ko'ziga kulgili ko'rinishi tufayli pedagoglar g'ayrioddiy pedagogik qarorlar qabul qilishdan bosh tortadilar.

3. **Shaxsiy tashvishlar**. O'ziga ishonchsizlik, o'zini past baholash, o'z mulohazalarini ochiq aytishdan qo'rqish tufayli ko'plab pedagoglar ta'lim tashkilotidagi har qanday o'zgarishlarga ham beparvo bo’lishadi.

4. **Qat’iy fikrda qolish.** Katta yoshdagi pedagoglar o'z fikrlarini yagona, yakuniy, qayta ko'rib chiqilmaydigan deb bilishadi. Ular yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga intilmaydilar, zamonaviy ta'lim tashkilotlaridagi yangi tendensiyalarga salbiy munosabatda bo'lishadi.

Kasbga yo‘naltirish — tarbiyalanuvchining o‘z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida kamolotga yetishining pedagogik jarayoni bo’lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, balki psixologik, tibbiy, huquqiy muammo hamdir.

Odob-axloq — shaxsning o’ziga va dunyoga munosabatlariga olib boruvchi hatti-harakatlarining belgilangan, aniqlangan usuli bo’lib, sababiyat, tasavvurlar va qarashlarni o’z ichiga oladi, ya’ni shaxs shakllanishining manbai hisoblanadi.

Axloqiy tarbiyalanganlik — shaxsning asosiy fazilatlarining (mehnatsevarlik, to’g’risuzlik, jamoaviylik) yoki axloqlilikning asosiy belgilarining rivojlanishi darajasiga qarab aniqlanadi.

Shaxsning aqliy sifatlari - shaxsning aqliy jihatdan kamolotga yetishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlari orqali namoyon bo’ladi. Bunga olib

boruvchi sifatlar: bilag‘onlik, obyektivlik, faol fikrlovchanlik, mehribonlik hisoblanadi.

Innovatsion xulq-atvor moslashishni emas, balki o'z shaxsiy qarashlarning shakllanishini, o'zini o'zi rivojlantirishni nazarda tutadi. Pedagog innovatsion ta’lim jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash uchun mas’ul ekanligini tushunishi kerak. "Tayyor shablonlar", ko’r-ko’rona ergashish uning shaxsiy xususiyatlariga mos kelmaydi, u doimiy ravishda o'z intellektual darajasini oshirishi muhimdir. “Komplekslar” va psixologik to‘siqlardan xalos bo‘lgan pedagoggina innovatsion o‘zgarishlarning to‘laqonli ishtirokchisi bo‘la oladi.

Maktabga tayyorgarlik xususiyatlari xam shaxs faoliyatining eng muhimlaridan biridir. Chunki jismoniy qobiliyatsiz demokratik jamiyat ham va jamiyat haqida tushunchalarni ham tasavvur qilib bo’lmaydi. Maktabga tayyorgarlik xususiyatlarida shaxs jismoniy jihatdan kamolatga yetadi, jismoniy rivojlanish esa shaxsda psixik sifatlarni o’sishiga ta’sir ko’rsatadi. Bu ikkalasi bir-biri bilan organik ravishda bog’langan bo’lib, ularni ajratish mumkin emas. Demak, bundan ma’lumki kishilarni demokratik ruhda tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta’lim sohasidagi asosiy texnologiyalarni qanday guruhlariga ajratish mumkin?
2. Innovatsiyalarni joriy etish muammolarini ko’rsating.
3. Mashg’ulot shaklidagi innovatsiyani qanday shaklda ko’rishimiz mumkin?

1.2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida interfaol usullarni qo`llash

Reja

1. Maktabgacha ta’im tashkilotida interfaol usullarni qo`llash
2. Maktabgacha ta’im tashkilotida interfaol usullar“Guruhlarda ishlash”, “Rolli o`yinlar”,“Aqliy hujum”, “Klaster”, Juftlikda ishlash” ni amaliyotga tadbiq etish

3. Rivojlantiruvchi markazlarda “Refleksiya”, “Tanishuv”, “Muzyorar”, “Gelereyaga sayr”, “Enerjayzerlar” kabi interfaol usullardan foydalanish

Maktabgacha ta’im tashkilotida interfaol usullarni qo`llash

O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limi tizimida maktabgacha ta’lim eng asosiy tizim hisoblanadi. Ushbu soha uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini bo’lib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Respublikada ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish yuzasidan qabul qilingan qaror va farmoyishlari bugungi kunda maktabgacha ta’lim dasturlari va o‘quv-tarbiyaviy rejalariga qo‘yilgan davlat talablarini takomillashtirish, maktabgacha ta’limga qamrab olinayotgan bolalarni maktab ta’limiga to‘laqonli ravishda tayyorlab berish ishlarini o‘z ichiga oladi. Bu qarorlar ichida “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qaror dastur sifatida faoliyat boshladi. Bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish ko‘rsatkichini qo‘tarish, mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida dastur asosida keng ko‘lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta’lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;
- 2200 ta maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta’lim

muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, multimedia resurslari bilan ta’minlash.

Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishilishi kutilmoqda:

- yuqori sifatli maktabgacha ta’limni ta’minlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etish;
- bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo‘lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etish;
- 3−6 yoshdagi maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash orqali maktab ta’limiga tayyorlashni tashkil etish;
- maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini 50 ta yangi qurilish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta’mirlash orqali kengaytirish;
- qishloq joylardagi maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-onalar badal to‘lovini 30 foizgacha kamaytirish;
- bolalarning maktabgacha ta’limga qamrovini 1,5 barobarga oshirish.

Dasturning samarali amalga oshirilishi unda ko‘zda tutilgan ko‘rsatkichlar ijrosining borishini tizimli monitoring qilib borish orqali davlat organlarining doimiy nazoratida bo‘ladi. Qarorning amalga oshirilishi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida respublikaning uzluksiz ta’lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi rivojlanish yo‘lining uzviy va bosqichma-bosqichligini ta’minlaydi.

2020-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-sonli qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartlari”ga asosan, quyidagi vazifalar belgilandi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik vazamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida tatbiq etiladi:

- bolaning noyobligi;
- «Men» konsepsiyasi va shaxsiy ta’limini yaratishda bolaning faol roli;
- Bolaning huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi;
- bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;
- bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo‘lib, individual variativlik asosida yondashish.

Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan) iborat.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo‘yicha belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonini rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

«Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

- intellektual-anglash malakalari;
- elementar matematik malakalar;
- tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yoshli) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagilarni tashkil etadi:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi sohasida bolalarga mashg‘ulotlarni mujassamlashtirish, hayot bilan bog‘lab olib borish, bolalarda o‘z-o‘zini xavfli kasalliklardan,noxushliklardan himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ishlari olib boriladi.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanishda bolalarga asosan hikoyalar va ertaklar asosida bir-biriga nisbatan altruizm, g‘amxo‘rlik, yordam berish, mehr-oqibat, atrofidagilar va oila a’zolarga ijobiy munosabatning shakllanishi ko‘zda tutiladi.

Shuningdek, muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari nutq o‘stirish, tevarak – atrof bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanish, badiiy adabiyot mashg‘ulotlarida nutq, muloqot, kommunikatsiya, o‘qish va yozish malakalari rivojlantiriladi.

Bilish jarayonining rivojlanishi - maktabgacha ta’limda barcha faoliyat davomida amalga oshiriladi. Bunda bolaning intellektual imkoniyatlari rivojlantiriladi. Mashg‘ulotlar, mashg‘ulotlardan tashqari tadbirlar, sayohatlar davomida bolalarning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari qondirib boriladi. Bu ishlar asosan, matematik tasavvurlarni rivojlantirish, atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish malakalari rivojlantiriladi.

Ijodiy rivojlanish- bolalarda dunyoni badiiy his qilish va unga estetik munosabatda bo‘lish hislari shakllantiradi. Bu ishlar musiqiy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda amalga oshiriladi. Shuningdek, tasviriy faoliyat, musiqa va applikatsiya mashg‘ulotlarida bolalar ijodiy jihatdan rivojlantiriladi. Bu rivojlanish natijasida bolada hayotiy vaziyatlarni oqilona hal etish malakalari ham shakllanadi.

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan bunday zamonaviy talablar tarbiyachilarni ushbu ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu esa o’z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi, kognitiv, o'yinli ta’lim, izlanuvchanlik va o'zaro ta'sir elementlarini sintez qiladigan yangi texnologiyalardan foydalanish muhitining zarurligini taqozo etadi.

Bolani shunday muhit va shunday munosabatlar tizimi bilan o'rab olish kerakki, bu bolaning eng xilma-xil mustaqil faoliyatini rag'batlantirsin va unda kerakli vaqtda eng samarali shakllantira oladigan ko’nikmalarni, shu jumladan asosiy qobiliyatlarni shakllantirsin. Tabiiyki, bunday muhitni yaratish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv va ta'lim jarayoniga interfaol xarakterga

ega bo'lgan, bolaning mustaqil faoliyatini ta'minlaydigan o'yinli texnologiyalarini joriy etish kerak.

Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, bolalarning intellektual rivojlanishiga tayanadi. O'yin orqali o'rganish ushbu kontseptsiyaga to'liq mos keladi. Interfaol texnika harakat orqali o'rganishga asoslangan: inson o'z qo'llari bilan qilgan ishni yaxshiroq eslab qoladi va o'zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatini rivojlantirishning asosiy sharti ham shu hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyachining vazifasi - bu faoliyatni maxsus tashkil etish, uning ichida hamkorlik muhitini, o'zaro ishonchni - bolalar bir-biri bilan, bolalar va kattalar bilan o'zaro harakatda bo'lish muhitini yaratishdan iborat. Ushbu muammoni hal qilish uchun tarbiyachi interfaol texnologiyalardan foydalanishi zarur.

Zamonaviy bolalar bog'chasida interfaol texnologiyalar va o'qitish usullaridan foydalanish maktabgacha tarbiyachining kasbiy malakasini ko'rsatadi. Interaktiv treninglarni tashkil etish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Individual shakl, har bir bola tomonidan vazifani mustaqil hal qilishni o'z ichiga oladi;

Juftlashgan shakl, masalalarni juftlikda yechishda foydalaniladi, guruhli yondashuvda bolalar kichik guruhlarga bo'linadi;

Agar vazifa bir vaqtning o'zida barcha ishtirokchilar tomonidan bajarilsa, bu shakl jamoaviy yoki frontal deb ataladi;

Interfaol ta'limning eng qiyin shakli bolalar bilan **kichik guruhlarda ishlash** shaklidir. kichik guruhlarda ishlash shaklida ishtirokchilar guruhi umumiy vazifani oladilar, masalan, qandaydir vazifani birgalikda bajarish. Bu vazifalar asosan oy mavzusini qamrab olishi kerak. Qish mavzusida birgalikda rasm chizish, lego va kubiklardan Aeroport, avtoturargoh, kema porti, qurilish maydoni, bog'cha hovlisi, ertakdagi qasr loyihalarini birgalikda tayyorlash, turli konstruksiyalarini birgalikda bajarish, tangramlarni yig'ish va bolalar kundalik faoliyati doirasida bo'lishi mumkin. Guruh bo'lib ishlash muhitiga moslashgan

har bir bola bir birining fikriga qo’shilishi, ba’zida yon berishi, muloqot jarayonida jamoaviy tartib intizomga rioya qilishi, yangi tajribalarni o’rtoqlaridan o’zlashtirib olishi mumkin. Shuningdek, bolalar kichik guruhlarga bo'linish, loyihada o'z versiyasini taklif etish tashabbus ko’rsatish, umumiy loyihani tashkil etuvchi eng yaxshi g'oyalarni o’ylab topish ko’nikmalariga ega bo’ladilar.

Kichik guruhda ishlashning asosiy maqsadi va vazifalari:

- bolalarning tashabbuskorligini, mustaqilligini, kognitiv motivatsiyasini rivojlantirish;
- axborotni o'rganish va mustaqil ravishda o’zlashtirish qobiliyatini shakllantirish;
- bolalar bilan ishlashning integratsiyalashgan mazmunini tashkil etish;
- bolalar o'rtasidagi hamkorlikni yo’lga qo’yish;
- bolaning jamoaga faol moslashishi va aniq maqsad sari harakat qilishni ta’minlash; bola uchun o'z muvaffaqiyatini, intellektual mukammalligini his qiladigan qulay ta’limiy sharoitlarini yaratishdan iborat.

Rolli o'yinning o'ziga xos xususiyati - bu muloqotni jonli va hayajonli qiladigan harakatlarning mavjudligidir. O'yinlarning maqsadi bilimlarni chuqurlashtirish emas, balki ko'nikmalar va munosabatlarni rivojlantirish bo’lib hisoblanadi. Rolga kirish usullari orqali tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muammoli vaziyatlarda turli xil hatti-harakatlarni amalga oshirish va boshqalarni tushunishni rivojlantiradi. O'yin orqali ishtirokchilar o'zlarining haqiqiy hayotdagi harakatlarini yaxshiroq o’rganadilar, kerakli xulosaga keladilar. Bolalarda jtimoiy xulq-atvorning mazmunli tajribasini olish uchun sharoit yaratiladi. Interfaol o'yin nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning bir-biri va tarbiyachi bilan o'zaro munosabati, balki ijtimoiy yo'nalishdagi birgalikda tashkil etiladigan kognitiv faoliyat hamdir. Bunday o'yinlarda bolalar nafaqat yangi narsalarni o'rganadilar, balki o'zlarini va boshqalarni tushunishni ham o'rganadilar. Interaktiv o'yinlar uchun ko'plab variantlar mavjud, ularni o'ynash usuli ham turlicha. Ammo ular quyidagi ketma ketlikka asoslanishi muhim:

- Tarbiyachi tomonidan bir guruh bolalar uchun vazifalar va rollarni tanlash (tayyorgarlik bosqichi)
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni hal qilinishi kerak bo'lgan muammo bilan tanishtirish
- Bolalarga o'yin qoidalari haqida ma'lumot berish, o'yin davomida aniq ko'rsatmalar berib borish

O'yin davomida bolalar o'z maqsadiga erishish uchun bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Agar ba'zi bosqichlar qiyinchilik tug'dirsa, tarbiyachi bolalarning harakatlarini tuzatadi.

O'yin yakunida natijalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Tahlil e'tiborni hissiy jihatga qaratishdan iborat - maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ularini qayta ko'rib chiqish (ular nima yoqdi, nima qiyinchilik tug'dirdi, vaziyat qanday rivojlandi, ishtirokchilar qanday harakatlar qildi, natija qanday bo'ldi) asosida kamchiliklar birgalikga tuzatiladi.

O'yinli ta'lim juda jonli, hissiy jihatdan qulay psixologik muhitda, xayrixohlik, erkinlik, tenglik muhitida, o'tkazilishi zarur. O'yin texnologiyalari bolalarning erkin bo'lishiga yordam beradi, bolada o'ziga ishonch paydo bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar haqiqiy hayot sharoitlariga yaqin o'yin sharoitida harakat qilib, har qanday murakkablikdagi materialni osonroq o'rganadilar. Bolalar o'zlarini yangi vaziyatda sinab ko'rish orqali o'yindan zavq olishlari muhimdir.

Maktabgacha ta'im tashkilotida interfaol usullar"Guruhlarda ishlash", "Rolli o`yinlar","Aqliy hujum", "Klaster", Juftlikda ishlash" ni amaliyotga tadbiq etish

"Aqliy hujum"

Bu interfaol usul bolada ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan usullardan biri bo'lib, muammolarni muhokama qilish va ularni bartaraf etishda foydalidir. Dastlab muammo mavzusi bo'yicha individual fikr yuritish uchun vaqt beriladi (bu 5-10 daqiqagacha bo'lishi mumkin) va bir muncha vaqt o'tgach, muammo yechimi yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar yig'iladi. Masalan:

Bolalarga “Qish” mavzusida rasm chizish yoki guruhni bezatish uchun dekoratsiyalarni birgalikda tayyorlash vazifasi beriladi. Bu vazifa murakkabdek tuyulsa ham bolalar muammoni qay tarzda hal etish ustida fikrlashadilar. Barcha o’zining qish fasli to’g’risidagi fikrini bayon etadi. Ba’zilar qishda daraxtlarning ko’rinishi, qor parchalari, archa va ertak qahramonlari haqida gapirishsa, ba’zi bolalar archa bayramini tasvirlashni taklif qiladilar. Eng maqbul variant qabul qilinadi. Barcha bolalar qo’lidan kelgancha bergan takliflarini amalga oshirishda tashabbus ko’rsatadilar va faoliyatning qandaydir qismini bajaradilar.

«Tarmoqlar» metodi (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u bolalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog’lagan holda tarmoqlashga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval bolalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish yoki kengaytirish uchun ham xizmat qilishi bilan afzaldir. Shuningdek, o'tilgan mashg’ulot mavzusini mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda yangi mashg’ulot mavzusi bilan bog’lashga yordam beradi. Klaster-axborotlarni yoyish asosida ko'p variantli fikrlash, o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqealar) o'rtasida bog’lanish o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashga yordam beradi.

Klaster tuzish ketma-ketligi:

Guruh xattaxtasining markaziga mavzuga mos rasm qo’yiladi. Misol uchun olma rasmi. Bolalarga ushbu so'z yoki iboraga tegishli bo'lgan so'zlar yoki gaplar aytish talab qilinadi:

Olmaning rangi qizil. Ta’mi shirin. Sariq va yashil olma navlari ham bor. Olmalar daraxtda yetiladi. Bahorda gullaydi. Olmadan kompot, sharbat, murabbo, qoqilar tayyorlanadi.

Shu tarzda tushuncha yoki g’oyalar o'rtasidagi bog’lanish o'rnatiladi. Shu sababli klaster – har qanday mavzu ustida erkin va ochiq fikr yuritishga yordam beradigan usul sanaladi.

«Juftlikda ishlash»

Juftlikda ishlash usuli juda qulay hisoblanadi. Bunda bolalar bir-birlari bilan muloqot qilishni o'rganadilar, o'z xohishlariga ko'ra juftlashadilar va taklif qilingan vazifani bajaradilar. **Juftlikda ishlash** bolalarga hamkorlikda muzokaralar olib borish, izchil, birgalikdagi harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini yaxshilaydi.

Juftlikda ishlashning mohiyati dialogli ta'lim bo'lib, bu jarayon barcha bolalarning doimiy, faol o'zaro ta'siri sharoitida amalga oshiriladi, bunda bola va tarbiyachi teng huquqli ta'lim subyektlari bo'lib, ta'lim jarayonining bir ishtirokchisining boshqasidan, bir fikrning boshqasidan ustunligi istisno qilinadi, bolaga o'zaro muloqot imkonini beradi. **Masalan:**

Guruh bolalari juftlikda o'tiradilar. Ularga turli ta'limiy xarakterdagi tarqatma materiallar beriladi.





1.2.1-rasm. Juftlikda ishlash uchun namunaviy mashq

Dastlabki bosqichda tarbiyachi yo'naltiruvchi hisoblanadi, chunki bolalar o'z navbatida vazifani mustaqil bajara olmaydilar. Tarbiyachi ko'rsatmasi yordamida bolalar topshiriqni navbatma-navbat bajarishni o'rganadilar va shu orqali ularda javobni tinglash va bir-birlariga xalaqit bermaslik kabi fazilatlarni singdiriladi.

Rivojlantiruvchi markazlarda "Refleksiya", "Tanishuv", "Muzyorar", "Gelereyaga sayr", "Enerjayzerlar" kabi interfaol usullardan foydalanish

“Refleksiya”

Refleksiya (lot. “refleksio” – “ortga nazar solish”) – subyekt tomonidan o‘zining ichki psixologik harakati va holatini anglash jarayonidir. Refleksiyaning maqsadi – yodga olish, faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari: uning mazmunini, turlarini vositalarini, muammolarini, hal qilish yo‘llarini, olingan natijalarni aniqlash va anglashdan iborat. Shunga ko‘ra, refleksiya keyingi ish maqsadini aniqlash, o‘zi tanlagan yo‘lni tahlil qilish asosida qayta ko‘rib chiqishga imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, refleksiya bolaning tajribasi, o‘z-o‘zini anglashi hamda tafakkur vositasidir. Maktabgacha ta’limda har bir mashg’ulot bolaning refleksiv xulosasi bilan yakun topishi va navbatdagi mashg’ulot mavzusini tushunishda yordam berishi lozim. “Qaysi biri ortiqcha” turkumidagi mashqlarni bajarish orqali bolaning mavzu yuzasidan shakllangan refleksiv faoliyatini aniqlash mumkin.



1.2.2-rasm. Uchinchisi ortiqcha” mashqi namunasi

Mashqlarni to’g’ri va tez bajargan bola o’zining imkoniyatlarini biladi va “Men bu mashqni bajara olaman”, degan xulosa asosida o’zini o’zi baholaydi.

“Tanishuv”

Texnologiyaning maqsadi: bolalar jamoasini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish; ularning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: Mashg'ulot boshida tarbiyachi bolalarlarni kichik guruhlarga ajratadi. Har bir kichik guruhga yilning bir fasli

nomini qo’yish mumkin. Tarbiyachi guruhlarni joylariga o'tqazib, ularga quyidagi topshiriqni beradi:

O'z faslingizga ta’rif bering (musiqiy, badiiy - sahnali va hokazo ko'rinishda):

- yilning shu faslida xos jihatlar bilan tanishtiriladi;
- bu fasldagi kishilar faoliyati va bayramlar haqida so'zlab beriladi;
- shu faslga tegishli oylarda tug’ilgan bolalar esga olinadi;
- ularga ijobiy tilaklar bildiriladi.

Oxirida tarbiyachi quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

- bir-birimiz haqimizda nimalarni bilib oldik?
- kichik guruhda bir-birlarimiz bilan do’stlashdikmi?
- mashq davomida do’stimizning qanday sifatlarini ko'rdik?

“Muzyorar”

Ko‘pchilik bolalar notanish muhit (yangi bog’cha yoki yangi guruh, jamoa)ga tushib qolganlarida o‘zlarini jur’atsiz sezishadi. Ko‘pincha bir-birlarini tanishmaydi va bilishmaydi. Agar hech bo‘lmaganda bir kishi bilan tanish bo‘lsalar ham, ular faqatgina o’sha bilan muloqot qiladilar. Shuning uchun tarbiyachi bolalarning o‘ziga ishonch hissini beradigan do‘stona muhitni va ular o‘zlari o‘rganishlari kerak bo‘lgan narsa yoki hodisa orqali ularni jamoada birlashtira olishi kerak. Aynan shu usul orqali ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi «to‘siq» yo‘qotiladi. Masalan, bolalarga o'zlari haqida gapirib berish taklif qilinadi. Shu bilan yaxshi muloqot o'zaro hamkorlikka sharoit yaratiladi. Bolalar o’rtasida muzokaralar va muloqot muhiti yangi do’stona muhit yaratiladi.

“Galereyaga sayr”

«Galereya» usuli kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muhokama qilish imkonini beradi. Bunda guruhning har bir a’zosi barcha taklif etilgan masalalar muhokamasida ishtirok etishi va o’z fikrini taklif qilishi mumkin. Tarbiyachi har bir faoliyat markaziga qandaydir masalani yechish vazifasini beradi. Misol uchun mavzuiy rejada tayyorlov guruhlari uchun yanvar

oyida hafta mavzusi “Qishki o’yin-kulgular” berilgan. Ushbu mavzu yuzasidan turli markazlarda bolalarning qiziqarli faoliyati tashkil etilishi mumkin.

1-qadam. Tarbiyachi “Til va nutq” markazida qishki o’yin-kulgular aks etgan syujetli rasmni qo’yib, bolalarga hikoya tuzish vazifasini beradi. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida geometrik shakllardan foydalanib, qish manzarasini hosil qilish vazifasini qo’yadi. San’at markazida esa, “Qishki o’yin-kulgular” mavzusida birgalikda rasm chizish vazifasini beradi.

2-qadam. Har bir guruh o’z vazifasi ustida ishlaydi. Vazifalar ustida ishlash kichik guruhlarda amalga oshiriladi (odatda 10 minut).

3-qadam. Kichik guruhlar qo’shni guruhlar vazifasini oxirigacha yetkazishga o’tishi kerak, ya’ni faoliyat turlari boshqa guruh a’zolari tomonidan davom ettiriladi. Har bir kichik guruh o’z faoliyatini to’xtatib, doira bo’ylab siljiydi.

4-qadam. Qo’shni guruh vazifasini oxirigacha yetkazish. Har bir kichik guruh yangi faoliyatni o’z bilgani va xohlaganicha yakuniga yetkazadi. 5 daqiqa boshqa guruhda ishlagandan so’ng guruhlar doira bo’ylab keyingi kichik guruhga o’tib, boshqa faoliyat turiga o’tadilar.

5-qadam. O’z guruhiga qaytish. Faoliyat doirasi bo’yicha o’tishlar har bir kichik guruh o’zining dastlabki markaziga qaytish bilan tugallanadi. Guruhlar ilk g’oyalarning qanday yakun topganligini o’rganadilar.

6-qadam. Ish natijalari muhokamasi. Har bir guruh navbat bilan o’zlarining g’oyalarni tushuntiradilar. Masalan, maktabgacha tahlimda qo’llaniladigan: qishda havo harorati, tabiat manzarasi, jonivor va qushlar, mevalar, sabzavotlar, transport vositalari, bayramlar, ertak qahramonlari, suv xususiyatlari, tabiat hodisalari va hokazo. Bolalar faoliyatni davom ettirish asosida yangi g’oyalarni amalga oshirishlari va yangi faoliyat turini bir mashg’ulot jarayonida o’zlashtirishi mumkin.

“Enerjayzer”

Enerjayzerlar bolalar bilan olib boriladigan faollashtiruvchi va tetiklashtiruvchi mashqlardir. Bunday mashqlar bolalar fikrini jamlash, ularni faollashtirib qaytib mashg’ulot jarayoniga qiziqtirish uchun qo’llaniladi. Maxsus

kichik hajmdagi she’rlarni birgalikda aytish va turli gavda harakatlarini musiqa sadolari ostida bajarish asosida bolalar qaytib faoliyat turiga moshlashadilar.

Ayiq yurar lapanglab,	Hoy olma, olma, olma,
Quyon yuradi sakrab.	Meni ovora qilma.
Ayiqning uyi katta,	Biroz egil, bo‘y cho‘zay,
Quyonniki kichkina.	Olmalaringdan uzay.

Bolalarning gavda harakatlari takomillashish bilan birga ulardagi charchoq bartaraf etiladi.

Interfaol pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta’lim jarayoniga joriy etish maktabgacha yoshdagi bolalarning integrativ fazilatlarini shakllantirish, ularni zamonaviy ta’lim standartlari tomonidan belgilangan vazifalarga muvofiq atrofdagi olamni ongli ravishda qabul qilish usullari va vositalari, bolaning jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq, muloqot, o’qish va yozuv malakalari, bilish jarayonlari va nihoyat, ijodiy kompetensiyalarni o‘zlashtirishga qaratilmog’i lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Interaktiv treninglarni tashkil etish qanday shakllarda amalga oshiriladi?
2. Interfaol texnika qanday tarzda o'rganishga asoslangan?
3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonununing qaysi moddasi aynan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya”ga bag’ishlangan?

II-BO‘LIM. XORIJIY DAVLATLARNING ILG`OR PEDAGOGIK TAJRIBALARI

2.1. Rossiya va Qozog`istonning ilg`or innovatsion pedagogik tajribalarini o`rganish va tahlil qilish

Reja

1. **Rossiyaning ilg`or innovatsion pedagogik tajribalari. Maktabgacha ta‘lim**
2. **Qozog`istonning ta‘lim tizimi. Maktabgacha ta‘lim**

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o‘quv-metodik adabiyotlar, o‘quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha sohaga oid bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini bir qator davlatlar misolida ko‘rib chiqamiz.

Rossiyaning ilg`or innovatsion pedagogik tajribalari. Maktabgacha ta‘lim. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari: maktabgacha ta'limning mavjudligini ta'minlash va sifatini oshirish hisoblanadi. Ushbu muammolar "Rossiya Federatsiyasida ta'lim to'g'risida" Federal qonunining 89-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan ta'lim tizimini samarali boshqarish orqali hal qilinadi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida (1991) o'z aksini topgan. Qonun maktabgacha ta’lim tashkilotlarining huquqiy maqomi, ularning funksiya va majburiyatlarini belgilab, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turli dasturlar bo‘yicha ishlash huquqini ta’minladi.

Rossiya ta’limining tarkibini o‘quv dasturlari va turli pog‘onali davlat standartlari hamda yo‘nalishlari, shuningdek boshqaruvchi tashkilotlar – ta’lim tizimidan tashqari va ta’lim tizimiga bo‘ysunuvchi tashkilotlar tashkil etadi. Maktabgacha ta’lim Rossiya Federatsiyasi o‘qitish tizimining birinchi pog‘onasi hisoblanadi. Bugungi kun ta’lim standartlari «Bolalar huquqlari Xalqaro Konvensiya»sida ifodalanib, unda quyidagilar ta’kidlanadi:

– bolalar ta’lim olish maskanlariga qatnash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak;

– kattalar bolalarga o‘qish faoliyati uchun sharoit yaratib berishlari lozim;

– ta’lim o‘z ichiga kichik odamni jamiyat doirasida o‘z hayotini tushunib yetishga tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlarni qamrab olgan bo‘lishi

zarur;

– o‘quv jarayoni qatnashchilarining o‘zaro harakatlari bolani hurmat qilishni ifodalashga asoslangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi kelajakda Rossiya maktabgacha tarbiya modernizatsiyasini birinchi darajali masalalaridan biri deb belgilaydi.

Rossiyaning maktabgacha ta’lim tizimi «O‘quv jarayonni modernizatsiyasi Konsepsiyasi»ga asoslangan. Bu konsepsiyada ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlashga muhim ahamiyat berilgan. Bu hujjat „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonunga, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga, MTM to‘g‘risidagi Namunaviy nizomlarga va Ta’lim vazirligining boshqa qarorlariga asoslangan. Bu Konsepsiyada alohida tashkilotlarning foydali tajribasi asosida o‘qitish mazmunini yangilash kerakligi haqida so‘z yuritiladi. Nazariy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, maktabgacha ta’lim mazmunini to‘ldirishga stereotip yondashishlarni o‘zgartirish kerak, ta’lim berish jarayoni esa quyidagi tamoyillar ketma-ketligi asosida ko‘rilishi lozim:

– o‘qitishning rivojlantiruvchi xarakteri asosida o‘qitishni olib borish bolalarning yashirin va intellektual xislatlarini namoyon qiladi;

– tizimli ta’lim bolalarga hodisalar, o‘rganilayotgan obyektlar va hayotiy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi;

– bolaning rivojlanishi uning his-tuyg‘ulari va yoshiga mos bilim olishning ratsional shakllariga tayanadi;

– ko‘p madaniyatli tarbiyaning mazmunan kichkintoylarni madaniyat va o‘zining mahalliy hamda boshqa millat va elatlarning urf-odatlarining o‘ziga xosligiga yaqinlashtirish, boshqalar fikriga chidamliroq bo‘lish, o‘zining noroziligi, g‘azablanishi va xafaligini me’yorlangan holda ifodalashdan iborat;

– salomatligining sog‘lom turmush tarzi, gigiena qoidalariga amal qilish va sport bilan shug‘ullanish ehtiyojiga asoslanadi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy vazifalari, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash,

ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, hissiy jihatdan sog‘lom bo‘lishi haqida g‘amxo‘rlik qilish belgilab berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalari:

- bolalarning hayoti va salomatligini muhofaza qilish;
- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolalarni umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolaning to'liq rivojlanishini ta'minlash uchun oila bilan hamkorlik qilish.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv jarayonining ustuvor yo'nalishini tanlashda ko'p funksionallik, xilma-xillik, erkinlik, kontentni amalga oshirishda poliprogramma xosdir.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari tizimi modellashtirish qoidalariga muvofiq quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

- Bolalar bog'chasi (bolalar, o'smirlar) rivojlanishining bir yoki bir nechta sohalarini (intellektual, badiiy, estetik, jismoniy va b.) ustuvor ravishda amalga oshiradi.
- O'quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonlarning malakali tuzatilishini ustuvor amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi kompensatsion turdagi bolalar bog'chasi;
- Sanitariya-gigiena va sog'liqni saqlash tadbirlari va tartiblarini ustuvor amalga oshirish bilan bog'lash va reabilitatsiya qilish;
- Kombinatsiyalangan turdagi bolalar bog'chasi (turli xil kombinatsiyalarda umumiy rivojlanish, kompensatsion va rekreatsiya guruhlari bo'lishi mumkin;
- Bola taraqqiyot markazi - barcha bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini, tuzilishini va reabilitatsiyasini amalga oshiradigan bolalar bog'chasi.

Erta yoshdagi bolalar ta'limining mazmuni va dasturiy ta'minoti va uslubiy ta'minotining o'zgaruvchanligi haqida gapiradigan bo'lsak, bugungi

kunda Rossiyada maktabgacha yosh amaliyoti bolalarni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishning 48 dan ortiq kompleks va qisman dasturlari mavjud.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim sohasida davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish natijalari sifatida quyidagi miqdoriy ko'rsatkichlar amal qiladi:

- Rossiya Federatsiyasining 75 ta hududida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 100% maktabgacha ta'lim qamrovining mavjudligi;
- 2 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim 48,4% ga oshganligi;
- 94,9% bolalar maktabgacha ta'limning federal davlat standarti talablariga javob beradigan ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitilishi.

Shunga qaramay, bugungi kunda 1,5 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim mavjudligi muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Davlat-xususiy sheriklikning jamoatchilik ishtirokiga qaratilgan shakllari ham mavjud. Bolalar bog'chasi uchun elektron navbatda ro'yxatdan o'tish xizmatlari joriy etilgan. Bu bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish holatini yaxshilaydi.

Qozog`istonning ta‘lim tizimi. Maktabgacha ta‘lim. Shaxsning shakllanishida, jamiyatda o‘rnini topa olishida va uning rivojiga qo‘shadigan hissasida erta yoshdagi ta’limning ahamiyati katta. Ommaviy axborot vositalarida ko‘p takrorlanadigan “barkamol avlod” kabi ideal maqsadga erishish uchun aynan shu narsa zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim darajasi umumiy o‘rta ta’lim darajasidan ancha farq qiladi. Barkamol avlodni yetishtirish o‘rta maktabdan emas, maktabgacha bo‘lgan davrdan boshlanadi.

Qozog’iston Respublikasi hukumatining ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan siyosati ana shunday maqsadli yo‘nalishda davom etmoqda. Mamlakatda yangi loyihalar yo’lga qo’yilib, uning muvaffaqiyati davlat va jamiyatning tizimli yondashuvini talab qilmoqda. Mazkur loyihalarga mamlakatning keng jamoatchiligi jalb qilingan.

1994-yilda Qozog'iston taxminan 3,2 million o'quvchi tahsil oladigan 8575 boshlang'ich va o'rta maktabga (birdan o'n bir sinfgacha) va qariyb 222000 o'quvchiga ega bo'lgan 244 ta maxsus o'rta maktabga ega edi. 1992-yilda muvofiq yoshdagi bolalarning taxminan 51 foizi Qozog'istondagi 8500 ga yaqin maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olishgan.

Qozog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi bolalar bog'chaning maktabgacha ta'lim olish huquqini himoya qiladi. Bolalar odatda 5 yoshida bolalar bog'chasiga boradilar. 2004-yil hisobidan mamlakatda 83 ta davlat, 4 ta Ta'lim vazirligi tertakrufidaga va 13 ta xususiy bog'chalar mavjud bo'lib, shundan 63% ya'ni 135856 nafar bolalar (5-6 yoshli) bog'chalarda ta'lim olgan. Hammasi bolalar bog'chalarida qozoq va rus tillari o'rgatiladi.

Qozog'istonda ota-onalar, shu jumladan, yosh onalar, erta yoshdagi ta'lim va rivojlantirishning ahamiyatini keng miqyosda targ'ib etiladi. Ma'lumki, kichik yoshdan boshlab bolalar bilan ko'proq vaqt o'tkazish, o'qish, qo'shiq aytishni o'rgatish va ijodiy faoliyat bilan shug'ullantirish ular rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning bunday yondashuvi MTMlarda pedagoglarning faoliyati bilan birlashganda, bolalar rivojlanishida ancha samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Bu borada shahar va qishloq joylarda davlatning qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga ega. Mamlakatda ko'plab ayollar turmushga chiqqanidan so'ng uy-ro'zg'or ishlariga ko'p jalb qilinadi. Aksariyat hollarda yosh oilalar keksa ota-onasi bilan birga yashaydi. Uy-ro'zg'or ishlarini taqsimlashda, yosh onalarning bola tarbiyasi va rivojlanishi uchun vaqt ajratishida katta yoshlilarning roli katta. Qaynonalar nevaralarini erta yoshdan rivojlantirish va kelinlariga ushbu muhim maqsadni amalga oshirishda yordam berishadi. Shu bois bolalarni tarbiyalashda asosiy manba sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarigina emas, balki oila ham muhim omillardan sanaladi. Bu esa bolalarni erta yoshdan tarbiyalash faqat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida emas, balki yosh onalarning ijtimoiy hayotda faol bo'lishiga ko'proq imkon beradi. Natijada, oilaning farovon turmush tarzi va moliyaviy sharoitining yaxshilanishi ehtimoli ham oshadi.

Qozog'iston Respublikasi savodxonlik darajasi 97 foizni tashkil etadi, bu rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘rsatkichidan ham yuqori. Qozog'iston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi milliy darajada ta'lim uchun javobgar hisoblanadi. Vazirlik, shuningdek, markazlashtirilgan xususiy va mintaqaviy ta'limni, shuningdek, viloyatlardagi ta'lim organlarini ham nazorat qiladi. Zamonaviy Qozog'istonda ta'limning bir necha darajasi mavjud. U maktabgacha yoshdan boshlanadi, keyin o'rta, oliy va aspiranturaga o'tadi. An'anaviy tizimda guruhlar yoki sinflar alohida emas, aralashtiriladi. Ikkala jinsning talabalari bu yerda birga o'qishadi. Haqiqatan ham alohida mashg'ulotlarning alohida holatlari mavjud. Bu eksperimental mashg'ulotlar, qozoq-turk litseylarida, harbiy maktablarda guruhlar shaklida namoyon bo’ladi.

2010-yilda Budapeshtda Qozog‘istonning Boloniya deklaratsiyasiga qo‘shilishi haqida yakuniy qaror qabul qilingan. Qozog‘iston Yevropa ta’lim tizimining to‘laqonli a’zosi sifatida tan olingan Markaziy Osiyodagi ilk davlat hisoblanadi. Boloniya jarayoniga qo‘shilgandan so‘ng Qozog‘iston oliy ta’lim tizimida quyidagi katta o‘zgarishlar ro‘y berdi:

– Qozog‘iston universitetlari hozirda dunyodagi 650 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari tomonidan imzolangan Buyuk Xartiyaga qo‘shildi va bu mahalliy ta’limni Yevropa standartlariga yaqinlashtirdi.

– Boloniya deklaratsiyasi tamoyillari asosida bakalavr — magistr — doktorlik dissertatsiyasining uch bosqichli modeliga o‘tish amalga oshirildi.

– Oliy ta’lim tashkilotlarining ta’lim jarayoniga ilg‘or texnologiyalarga asoslangan ta’lim tizimi joriy etildi: barcha oliy ta’lim tashkilotlarida kreditlash texnologiyalari joriy etildi, 38 ta ikkita diplomli ta’lim, 42 ta masofaviy ta’lim yo‘lga qo‘yildi. Dublin o‘quv dasturi deskriptorlariga muvofiq, modulli ta’lim dasturlari, sillabuslar ishlab chiqilyapti, malakalar kvalifikatsiyasining milliy dasturi yaratildi.

– «ECTS» (Yevropa Kredit Transfer) tizimi joriy etildi, «ECTS» qoidalarini qabul qilish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar qabul qilindi (bu qo‘llanma 2015-

yilning 14-15 may kunlari Yevropa mamlakatlarining ta’lim vazirlari konferensiyasida tasdiqlangan).

– Xorijiy pedagoglar va maslahatchilarni taklif qilish davlat buyurtmasi doirasida va universitetlarning budjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan amalga oshirilyapti. 2009-yildan 2014-yilgacha bo‘lgan davrda 6927 nafar xorijiy olim va maslahatchi taklif qilindi.

Bugungi kunga kelib Qozog‘istonning 19 mingga yaqin fuqarosi dunyoning 35 mamlakatida ta’lim olishyapti va ta’lim, ilm-fan sohasidagi hamkorlik har yili kengayib bormoqda.

Chet elda talabalarni o‘qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

- Qozog‘iston Respublikasi “Bolashak” xalqaro stipendiyasi yordamida xalqaro ta’lim almashuvi;
- chet el hukumatlari va xalqaro tashkilotlarning stipendiyalari asosidagi ta’lim;

Hozirgi kunda Qozog‘istonning 50 dan ortiq universitetlari Buyuk Britaniya, Irlandiya, Ispaniya, Chexiya, Germaniya, AQSh va boshqa yetakchi davlatlar universitetlari bilan ikki diplomli daraja sistemasida ta’lim olib bormoqda.

Ta’lim sifatini ta’minlash borasida xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish uchun Qozog‘iston Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi tomonidan Akkreditatsiya agentliklari milliy reyestri tashkil etildi. Bu reyestr Qozog‘iston Ta’lim sifatini nazorati bo‘yicha mustaqil agentligi (IQAA) bilan birgalikda 8 ta xorij agentliklarini o‘z ichiga oladi va ular birgalikda qiyosiy mezon va metodologiyani ishlab chiqish uchun hamkorlik qiladilar. 2009-yildan 2015-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida IQAA 50 ta universitetni va 1100 dan ortiq dasturni institutsional akkreditatsiyadan o‘tkazdi, bunda dunyoning 25 mamlakatidan 153 xorijiy ekspert, 1100 nafar mahalliy ekspert, shu jumladan, 190 talaba va 200 dan ortiq ish beruvchilar jalb qilindi. Agentlik oliy ta’lim sifatini ta’minlash uchun akkreditatsiya standartlarini Yevropa oliy ta’lim sohasidagi mavjud standartlar va qo‘llanmalar bilan muvofiqlashtirish ustida ishlamoqda.

Qozog‘istonda Respublika Ta’lim va fan vazirligi qoshida Boloniya jarayoni va akademik mobillik markazi amaliyot olib boradi. Uning asosiy maqsadi oliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida Qozog‘iston Respublikasida mamlakat va Universitet darajalarida Boloniya jarayonining kelishilgan prinsiplarini to‘g‘ri va to‘liq amalga oshirishga ko‘maklashishdan iborat.

Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog‘onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilish imkoniyatini beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo‘ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo‘shliqlarni chegaralashga imkon beradi. Shu sabali ta‘limda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish ham maktabgacha ta‘lim tizimiga yangiliklarni qo‘llashda muhim sanaladi.

Nazorat uchun savollar

1. Rossiyaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida”gi nizomida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining qanday asosiy vazifalari keltirilgan?
2. Rossiya Federatsiyasi Hukumatining qarori bilan «Maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida namunaviy nizom» qachon qabul qilindi?
3. Qachon Budapeshtda Qozog‘istonning Boloniya deklaratsiyasiga qo‘shilishi haqida yakuniy qaror qabul qilingan?

2.2. Fransiya va Ispaniyaning maktabgacha ta’lim tizimini va ilg`or pedagogik tajribalarini kuzatish va tahlil qilish

Reja

1. Fransiya ta‘limi hamda maktabgacha ta‘lim tizimi.
2. Ispaniya ta‘limi hamda maktabgacha ta‘lim tizimi.

Fransiya ta‘limi hamda maktabgacha ta‘lim tizimi. Fransiya jahondagi

iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ichki tashqi siyosatidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet-el pedagogikasidagi ilg‘or texnologiyalarning mamlakat ta’lim tizimiga kirib kelishi, o‘quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo‘ldi. Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida bolalarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud. O‘qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o‘qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo‘lib hisoblanadi. O‘quv yili 5 chorakka bo‘linadi. Fransuz maktablari boshlang‘ich sinflarda o‘qish ertalab boshlanadi, tushdan keyin esa bolalar matematika va boshqa predmetlardan qo‘shimcha saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyot bazaviy fan, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya kabi fanlar esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Fransiya ta’limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- kichik guruh (2- 4 yosh),
- o‘rta guruh (4-5 yosh),
- katta guruh (5-6 yosh).

Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo‘lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya boshlang‘ich ta’lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang‘ich maktab bepul va majburiy.

Uning vazifasi o‘qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O‘quv mashg‘ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish 5 yil bo‘lib, uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Tayyorlov bosqichi - 1 yilga mo‘ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o‘qish va yozishga, kuylashga, o‘ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg‘ul bo‘lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa va mehnatga o‘rgatiladi.

Navbatdagi bosqich - elementar kurs bo‘lib bu bosqichda o‘qish 2 yil davom etadi. Bunda bolalarning tayyorlov siklida predmetlar bo‘yicha olingan bilimlari yanada takomillashtiriladi.

Boshlang‘ich maktabning 3 - bosqichi - chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda bolalarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi.

Fransuz maktablarining boshlang‘ich bosqichida «Fuqarolik ta’limi», «Nafosat ta’limi» ham o‘qitiladi. Nafosat ta’limiga musiqa, tasviriy san’at, sport kiritilgan. Bolalar bilan yakka tartibda ishlash, ularni rag‘batlantirish, shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ta’limda uzluksiz va vorislikni ta’minlab berish boshlang‘ich sinf bolalariga ko‘yilgan bosh talabdir. O‘quv dasturining mazmunini bevosita pedagogning o‘zi belgilaydi. Bir so‘z bilan aytganda, pedagog bolalar bilimiga to‘la mas’ul ekan uning uslub tanlashiga mustaqil harakat qilishiga ham to‘la erkinliklar beriladi. 1990-yildagi hukumat qaroriga muvofiq maktabgacha tarbiya va boshlang‘ich ta’limiga modullashtirish, bolalarning bilimiga u yoki bu fanga moyilligiga qarab differensiyalashtirish, ya’ni tabaqalashtirish, dars jadvalini ham shu

asosda tuzish huquqi berildi. Bunday dars jadvallari yillik, yarim yillik, choraklik asosida tuzilishi ham mumkin.

Bolalar 11 yoshda boshlang‘ich maktabni tugallab o‘rta maktabga o‘tadilar. O‘rta ta’lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi. O‘rta ta’lim ikki bosqichda bo‘lib, birinchi bosqichda fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, Fransiya geografiyasi, matematika, tibbiy fanlar o‘rgatiladi. 6-5-sinflar umumiy o‘rta ta’lim beradi; 4-3-sinflarda esa bolalarga qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi. Birinchi bosqich yakunlangach, bolalar kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha guvohnoma oladilar. Shundan keyin bolalar 15 yoshdan 18 yoshgacha ta’lim oladilar. O‘qish 3 yil davom etib 2-sinf kichik, 1-sinf o‘rta va yakunlovchi sinflarga bo‘linadi.

Bolalar umumiy ta’lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so‘ng bakalavr unvoni va diplom ishi uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo‘lganlargina oliy o‘quv yurtlariga kirish huquqini qo‘lga kiritadilar.

Mamlakatda milliy sirtqi ta’lim markazi faoliyat ko‘rsatmoqda, u 500 turdagi o‘rta, oliy professional ma’lumot berishni tavsiya eta oladi. Odatda ta’limning bu turi oilaviy sharoit, iqtisodiy sharoitlar tufayli maktabda o‘qishni davom ettirish imkoniyati bo‘lmagan kishilar uchun mo‘ljallangan. Sirtqi ta’lim katta yoshlilar uchun uzluksiz ta’limning muhim shoxobchasi bo‘lib qolgan. Ular o‘z ixtiyorlari bilan, o‘z mablag‘lariga yoki korxonalar mablag‘i hisobiga o‘qiydilar.

Ispaniya ta‘limi hamda maktabgacha ta‘lim tizimi. Ispaniyada maktab va ta'lim tizimi xarajatlarni ko'paytirish va ta'lim sohasidagi islohotlar orqali ancha yaxshilandi. Ko'pgina mamlakatlar bo'ylab 15 yoshli bolalarning ta'lim standartlari bo'yicha o'tkazilgan so'nggi PISA tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, Ispaniyaning o'qish, matematika va fan bo'yicha ko'rsatkichlari OECD o'rtacha ko'rsatkichidan bir oz yuqori. Shuningdek, mamlakat talabalarning maktab va universitetlarga daxldorlik tuyg'usi jihatidan yuqori

ball to'plab, barcha rivojlangan mamlakatlar orasida 1-o'rinni egalladi.

Ispaniyaning ta'lim tizimi to'rt bosqichga bo'lingan bo'lib, ulardan ikkitasi majburiydir:

- Bolalar bog'chasi va maktabgacha (*erta bolalik ta'limi*) - ixtiyoriy
- Asosiy (*ta'lim* or *boshlang'ich maktab*) - majburiy
- Majburiy o'rta ta'lim (*Educación secundaria majburiy*)
- O'rta o'rta ma'lumot (*bakalavriat*) – ixtiyoriy

Mamlakatning oliy ta’lim tizimi XIII asrda paydo bo’lgan. O’sha paytdagi dunyodagi eng yaxshi to’rt universitetdan biri bo’lgan Salamanka universiteti 1218-yilda qurilgan. Keyinchalik Barselona va Granadada nufuzli universitetlar paydo bo’ldi. Bugun Madrid, Sevilya va Valensiya universitetlari eng kuchlilar qatoriga qo’shildi. Ispaniyada qonun bo’yicha faqat universitetlarda oliy ta’limga ega bo’lish mumkin. Bugungi kunda mamlakatda 48 ta universitet mavjud bo’lib, ularning aksariyati davlatga tegishli bo’lib, atigi 7 ta universitet xususiy va qolganlari cherkov homiyligi tarkibida.

Universitet tizimidagi turli mutaxassisliklar va ta’lim darajalari uchun o’qitishning bir necha turlari mavjud: universitet maktablari, fakultetlar, oliy texnik maktablar va yuqori muhandislik maktablari. Universitet maktablari ta’limning birinchi bosqichiga (bakalavr darajasiga teng) ega bo’lgan kasb ta’limi olishni istagan talabalar uchun mos keladi. Birinchi bosqich uchun mashg’ulot muddati — 3 yil. Maktablar orasida iqtisodiy yo’nalishdagi maktablar ispan va ingliz tillari va tasviriy san’at ko’nikmalariga ega bo’lishadi. Oliy texnik maktablar Ispaniyada texnik fanlar bo’yicha to’liq o’qishni istagan abituriyentlar uchun mos keladi.

Ushbu mamlakatda ta’lim turli xil ijodiy tanlovlar bilan mashhur fakultativ kurslar: raqs, rasm, ashula, arxitektura va haykaltaroshlik kurslaridan iboratdir. Ispaniyada ta’limning yana bir afzalligi — bu mahalliy aholining do’stona munosabati va samimiyligining asosiy o’rinda ekanligidadir.

Ispaniyada maktab ta’limi

- Shtat maktablariga kirish odatda boshlang'ich va o'rta ta'lim uchun ajratiladi, shuning uchun bu sizning yashash joyingiz haqidagi qaroringizga ta'sir qilishi mumkin.
- Ispaniyaning ayrim hududlaridagi ba'zi davlat maktablari ispan tilida emas, balki ushbu mintaqaning rasmiy tilida dars beradi. Shunday qilib, Kataloniya, Galisiya, Valensiya yoki Bask mamlakatlarida predmetlar mos ravishda Kataloniya, Gallego, Valensiya yoki Bask tillarida o'qitilishi mumkin.

Bugungi kunda Ispaniyada maktabgacha ta'lim majburiy emas deb hisoblashadi. Ammo ko'pgina ota-onalar farzandlarini bolalar bog'chasiga berishni afzal ko'rishadi, chunki ular bog’chada har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lishiga ishonishadi.

Davlat va xususiy bog'chalar mavjud. Davlat bog'chalarining to’lov qiymati nisbatan arzon. Ammo xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qitish ko'pincha qimmat hisoblanadi. Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlaydigan pedagoglarning maoshi ham yuqori.

Ispan bog’chalarida ta’lim ikki bosqichda amalga oshiriladi: bolalar bog'chalari va maktabga tayyorlov bosqichi. Birinchi bosqichda uchta yoshgacha bo'lgan juda kichik bolalar o'qitiladi. Ikkinchi bosqichda oltinchi yilgacha uch yil va undan katta yoshli bolalar o'qiydilar.

1-bosqichda farzandlarning umumiy rivojlanishiga qaratilgan. Rossiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lgani kabi, tajribali pedagoglar bolalarning intellektual va jismoniy rivojlanishi ustida ishlashadi. Shuningdek, bolaning ijtimoiylashtirishga e'tibor beriladi.

Ispan bolalar bog'chasidagi mashg’ulotlar. Bolalar uchun mashg’ulotlar faqat o'yin shaklida amalga oshiriladi. Bunda bolalarni tez chalg'itadigan va charchog’ini chiqarish uchun musiqiy pauzalar va raqs to’garaklari tashkillashtiriladi. Xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy afzalliklaridan biri, guruhlarda bolalar soni kam - atigi 5 - 10 nafar bola borligidadir. Buning uchun tarbiyachi bolalar bilan yanada ehtiyotkorlik bilan

ishlash va har bir bolaga e'tibor berish majburiyatiga ega.

Yaqinda xususiy bolalar bog'chalari soni ko'paydi, bu mamlakat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ularning narxi oyiga 300 - 500 yevro. Ispaniyadagi bolalar bog'chalarida matematik qobiliyatni rivojlantirish va ma'naviy rivojlanishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etiladi. Shuning uchun, ota-onalar, bolalarning qobiliyatlari va iste'dodlari rivojlantiriladi. Davlat bolalar bog'chasida ro'yxatdan o'tish tizimi juda murakkab va aniq baholashga asoslanadi. Bola bolalar bog'chasiga qabul qilinishi uchun, ota-onalar dastlab hujjatlar to'plamini yuborishlari kerak: tibbiy sug'urta, bola tug'ilishi to'g'risidagi guvohnoma, tibbiy xarita, ota-onalarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar shular jumlasidandir. Taqdim etiladigan hujjatlar asosida maxsus komissiya bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qiladi. MTTga qabul qilinish oilaning yashash hududi, bolalar soni, ota-onalarning ish joyi asosida bo'lishi ham mumkin. Ispaniya ta'limi tizimida xorijiy tillarni o'rgatish ham alohida o'rin egallaydi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari davridan til o'rganishni boshlaydilar.

Nazorat uchun savollar

1. Fransiya maktabgacha ta'limga necha yoshdan qabul qilinadi?
2. Fransiyada maktabga tayyorlov guruhlariga qamrov necha foizni tashkil etadi?
3. Ispaniyaning ta'lim tizimi necha bosqichga bo'lingan ?

2.3. Italiya va Germaniyaning maktabgacha ta'lim tizimi va ilg`or pedagogik tajribalarini o`rganish

Reja

1. Italiya ta'limi. Maktabgacha ta'lim
2. Germaniya ta'limi. Maktabgacha ta'lim -tarbiya sohasidagi ilg`or pedagogik tajribalari

Italiya ta’limi. Maktabgacha ta’lim. Italiya-ta'lim darajasi yuqori bo‘lgan mamlakat sanaladi. XV asrda bu erda birinchi fanlar akademiyasi - «Linchei akademiyasi» tashkil etilgan. 12-asrda Evropadagi eng qadimgi Boloniya universiteti Italiyada tashkil etilgan. Bir oz vaqt o'tgach, Padua, Neapol, Rim, Pizada universitetlar ochilgan bo'lib, hozirgi kunda ularning soni 30 nafardan oshadi. Italiya ta'lim tizimi murakkab va bir necha yo'nalishlardan iborat. Boshlang'ich maktabda 5 yillik o'qish muddati mavjud. Keyin 3 yoshli quyi o'rta maktab bosqichi boshlanadi. Ushbu ikki bosqichda ta‘lim olish har bir fuqarodan qat‘iy talab qilinadi. To'liq o'rta ta'lim turli xil litsey va kasb-hunar maktablari tomonidan ta'minlanadi. Evropaning madaniy qadriyatlarining qariyb 60 foizi Italiyada to'plangan. Rasmiy tili – italyan tili bo‘lib hisoblanadi.

Italiyaning umumiy o'rta ta'lim tizimi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

- Besh yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim;
- Uch yillik ta'limning 1-bosqichi;
- Besh yil davom etadigan o'rta ta'limning ikkinchi bosqichi.

Boshqa mamlakatlardan kelgan talabalar to'g'ridan-to'g'ri xalqaro yoki xususiy maktablarda ta'lim olish huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

Italiyada o'qish 6 yoshdan boshlanadi. Ular dastlab boshlang'ich maktabda o'qishni boshlaydilar. Boshlang'ich maktabdagi barcha asosiy darslar o'qish, yozish, rasm chizish, matematika va boshqa saboqlar majburiy hisoblanadi. Fuqarolar dinni faqat o'zlarining xohishlariga ko'ra o'rganadilar. O'qish davrida boshqa mamlakatlardan kelgan talabalar italyan tilini o'rganishlari mumkin. Italiya maktab o'quv dasturi ko'pincha bitta chet tilini o'qitishni o'z ichiga oladi. O'quv haftasi besh kundan iborat (taxminan 30 soat). Har bir bosqich oxirida o’quvchilar sinovdan o'tkaziladi. Bunday holatda, biz o'rgangan raqamli “5”, “4”, “3” baholar o'rniga, baholash uchun («yaxshi», «a'lo» va hokazo) baholash tizimi qo'llaniladi. Ta'lim dasturi davlatga mutlaqo o'xshashdir. Bunday maktablarning bitiruvchilari ham sertifikat olish uchun davlat imtihonlaridan o'tishadi.

O’quvchilar 5 yillik o'qish muddatini tugatgandan so'ng (birinchi 2 bosqich) imtihonlarni og'zaki va yozma shaklda topshiradilar. Imtihonlar natijalariga ko'ra, o'quvchilar boshlang'ich maktablarning sertifikatlarini olishadi va keyin o'rta maktabda o'qishadi va bu o'quv o'n to'rt yil davom etadi. Ushbu bosqichda o’quvchilarga italyan tili, tarixi, geografiyasi, arifmetika va tabiiy fanlar, chet tili, san'at, musiqa o'qitiladi. Har o'quv yilining oxirida o’quvchilar «o'tgan yoki o'tmagan» deb baholanadigan imtihonlarni topshirishadi. O’quvchi o’rta maktabni tugatgandan so'ng, u arifmetikadan va chet tilidan yozma, boshqa fanlardan og'zaki imtihon topshiradi.

Sertifikatni olgan holda o’quvchilar oliy o'rta maktab tizimiga kiruvchi turli xil o'quv yurtlariga borishlari mumkin. Bu kasb-hunar o'quv yurtlari (texnik institutlar, Texnikumlar, san'at maktablari) va litseylar. Ular u yerda 14 yoshdan 19 yoshgacha o'qishadi.

Italiya universitetlariga kirishga tayyorgarlik

Tayyorgarlik jarayoni litseylarda olib boriladi va quyidagi turlarga bo'linadi:

- Klassik
- Texnik
- Tabiiy fanlar

Litseylarning o'quv tizimiga italyan adabiyoti, lotin tili, matematika, fizika, fan, falsafa va tarix kiradi. O'quvchilar imtihonlarni topshirishadi, shundan so'ng ularga kollejga borishga imkon beradigan tayyorlik sertifikatlari beriladi.

Boshqa fanlar, shu jumladan san'at ham kasbiy tayyorgarlik institutlari, badiiy san'at litsey va universitetlarida amalga oshiriladi. Har bir o'quv dasturi tugaganidan so'ng ta’lim tashkilotlari diplom berishni o'z zimmasiga oladi. Diplomlarning quyidagi turlari beriladi: klassik, ilmiy, lingvistik, texnik, boshqaruv, iqtisodiy va boshqalar. Ushbu diplomlarning har biri Italiya universitetlariga kirishga imkon beradi.

1. Universitet. Ushbu sektor kurslar, fanlar va sohalar, shuningdek, mavjud texnologiyalar darajalari va tipologiyalar soni bo'yicha yanada rivojlangan.

2. Universitetdan tashqari ikkita asosiy yo'nalish mavjud

- Italiya Ta'lim vazirligi yoki Italiya madaniyat kengashi tomonidan boshqariladigan san'at institutlarida (dizayn o'quv yurtlari, tasviriy san'at maktablari, konservatoriyalar) ta'lim;
- Davlat tomonidan o'tkazilgan kasbiy tadqiqotlar.

Germaniya ta’limi. Maktabgacha ta’lim. Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlardan (viloyatlar) iborat bo‘lib, har biri shakliga ko‘ra turlicha bo‘lgan ta’lim tizimiga ega. Ta’lim tashkilotlari asosan davlat tertakrufida bo‘lib, ular uchun ta’lim dasturiga tegishli bo‘lgan davlat ko‘rsatmalari mavjud. Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan, moliyalashtirish masalalarida chegaralangan.

Ta’limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Yerlar davlat umumta’lim, kasbiy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun pul barcha Federal yerlarda bolalarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o‘z hisobidan beradi;

- deyarli barcha bolalarga darslik va o‘quv qo‘llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beriladi;

- ma’lum toifadagi bolalar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko‘ra davlat moddiy yordam ko‘rsatadi.

Umuman olganda Germaniya ta’lim tizimi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Elementar ta’lim: maktab ta’limining 1-bosqichiga tegishli bo‘lib, maktabgacha tashkilotlar kiradi. Asosan bular bolalar bog‘chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo‘lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko‘ra ixtiyoriydir.

2. Ta’limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang‘ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O‘qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta’limning maqsadi – bolalarga ta’limning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta’limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tizimi Germaniya ta’lim tizimida muhim bosqich

hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim bolalar bog‘chasida (Kindergarten) amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog‘chasida (nem. Schulkindergarten) tahsil oladilar. Bu bog‘chalar alohida FE qoidasiga ko‘ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang‘ich ta’lim sektoriga bo‘ysinadi. Maktabgacha ta’lim majburiy emas, lekin ko‘pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog‘chalarni mablag‘ bilan ta’minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy tashkilotlar zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 80% bog‘chalarga qatnaydilar. Bolalar bog‘chasi olmonlar boshlab bergan va ko‘pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o‘rganilib, qabul qilingan tashkilotdir. U yuqorida ta’kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo‘llabquvvatlash tashkilotlari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog‘chasiga qatnash uchun xuquqiy me’yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog‘chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma’lum miqdorda to‘lov olinadi. Sekin asta differensiallashgan ta’lim tizimi, ya’ni har bir bolaga uning qobiliyati va o‘qishdagi turlicha yo‘nalishiga ko‘ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda. Germaniya qonunlarida maktabgacha ta’lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yasliga olib borish mumkin. Ko‘pchilik bu huquqdan foydalanadi. Ularda keksa avlod vakillari bo‘lmish buvi va buvalar nevaralar tug‘ilgandan so‘ng nafaqaga chiqib, ularga qarash majburiyatlari tushunchasi yo‘q. Shuning uchun ota-onalar bolalarini bolalar bog‘chalari va yasliga berishga majbur bo‘ladilar. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarining (MTM) rang-barang shakllari va turlari hayratlantiradi. Eng qiziqarli bolalar bog‘chalari turlari quyidagicha:

1. Waldkindergarten (nemischa Wald so‘zidan – o‘rmon, Kindergarten – bolalar bog‘chasi). Bunday bolalar bog‘chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko‘pincha bunday bog‘chalar o‘rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo‘ladilar, daraxtlar va boshqa o‘simliklarni o‘rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o‘rgatiladi.

2. Bauernhofkindergarten (nemischa Bauernhof so‘zidan – dehqon xovlisi, qo‘rg‘oni; Kindergarten – bolalar bog‘chasi). Bunday bog‘chalar dehqon xo‘jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo‘ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog‘larda sabzavot va mevalar o‘stirishda yordam beradilar.

3. Reggio-Kindergarten. Bunday bolalar bog‘ chalarini yaratish konsepsiyasi Italiyaning Rejio-Emilio shahrida paydo bo‘lgan va nomi ham shundan olingan. Bunday maktabgacha tarbiya tashkiloti bozor (yarmarka) maydonini eslatuvchi – o‘rtada katta bir xona (xoll) va undan shaharchaning turli «mavzelariga» – kichik xonalarga chiquvchi inshootni eslatadi. Bunday turdagi bog‘chalarda bolalar joylashgan muhit asosiy tarbiyachi deb ataladi. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig‘ilishib, kun rejasini maslahatlashadilar, so‘ngra xonalarga tarqalishadi. Bitta xona qurilish va turli konstruktorlar yig‘ish xonasiga aylantiriladi. Bu yerda bolalar kubiklar o‘ynashi, konstruktorlar yig‘ishi mumkin. Yana rasm chizish xonasi ham bor, odatda u yerda bo‘eqlar va devorlarga vatman qog‘ozlar osib qo‘yilgan. Bolalarga maxsus kiyim kiygazib ko‘yiladi va ular xohlagan yerlariga – devorlar, pol, bir-birlariga rasm chizishlari mumkin. Bog‘chada hunarmandchilik, musiqiy va boshqa xonalar ham bor. Bunday bog‘chalarda tarbiyachilar bolalarga faqat atrofdagi joyni o‘zlashtirishlarida ko‘maklashadilar.

4. Freinet-Kindergarten. Maktabgacha pedagogikaning bu yo‘nalishi o‘z nomini bolalar tarbiyasiga o‘ziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yo‘nalishning asosiy

tamoyili - bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Fraynet-bog‘chasida bolalar nima qilishlari, qanday o‘yin o‘ynashlari, nima bilan shug‘ul lanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini o‘zlari hal qiladilar. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yig‘ilishlarda bolalar MTM doirasida hulq-atvor qoidalarini o‘zlari belgilashadi. Bunday bog‘chalarda ijod qilish, syujet-rol o‘yinlari, eksperimentlar, tabiat qo‘yni yoki shaharning korxona va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi.

5. Integratsion bolalar bog‘chalari. Bunday turdagi MTMlarda sog‘lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosog‘lom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlik, bag‘rikenglik va hurmat qilishni o‘rganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda bo‘lmaydilar, o‘z tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda bo‘lishni o‘rganadilar. Shunday bog‘cha va maktablarning soni ko‘pligi Germaniyada nogironlarning yashashi, ta’lim olishi va o‘zini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

6. Internatsional bolalar bog‘chalari. Bunday MTMlar emigrantlar uchun yaratilgan bo‘lib, ko‘pincha ularni emigrantlarning o‘zlari farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bog‘chalari juda ko‘p. Bu tashkilotlarning konsepsiyasi bilingvallik1 tamoiyiliga asoslangan. Ya’ni, guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida so‘zlovchi tarbiyachi bilan birga nemis tilida so‘zlovchi tarbiyachi ham bo‘ladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, ham nemis tilini o‘rganadilar. Rus-nemis bog‘chalarida ko‘pincha Rossiya mualliflarining dasturlaridan foydalaniladi. Unda Rossiyada nishonlanadigan an’anaviy – Maslennitsa, 8-mart, Yangi yil kabi bayramlarga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar ham bor. Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bog‘chalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bog‘chalari ham mavjud. Agar o‘rta statistik nemis bolalar bog‘chasini olsak, uning faoliyati loyihalar tamoyili asosida tashkil etilganligi namoyon bo‘ladi. Masalan, «Kasb» loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar,

teatrlashtirilgan sahnalar qo‘yadilar, pechenye pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Bolalar stulchalarda o‘tirib tarbiyachini eshitadigan turdagi mashg‘ulot turlari yo‘q. Bolalarga ko‘p erkinlik beriladi. Ular istagan narsani qilishlari, kiyimlarini iflos qilishlari, butun maydonda sakrashlari va yugurishlari mumkin. Bolalar bilan ishlashga bunday yondashishning ko‘p ijobiy va salbiy tomonlarini topish mumkin. Lekin ota-onalar oldida konsepsiya, nazariya va g‘oyalardan iborat katta tanlash huquqi bor. Ular farzandlarini bola uchun eng qulay bog‘chaga berishlari mumkin.

Xulosa tariqasida aytish joizki xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta’lim tizimlarini o‘rganish, ularning ilg‘or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi.

Nazorat uchun savollar

1. Italiyada o'qish necha yoshdan boshlanadi?
2. Italiyada boshlang'ich maktabda qanday saboqlar majburiy hisoblanadi?
3. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning necha foizi bog‘chalarga qatnaydilar?

2.4. Koreya va Yaponiyaning ilg`or pedagogik tajribalarini o`rganish va tahlil qilish

Reja

1. Koreya ta‘lim tizimi. Maktabgacha ta‘lim
2. Yaponiya ta‘lim tizimi. Maktabgacha ta’lim

Koreya ta‘lim tizimi. Maktabgacha ta‘lim. Janubiy koreya ta’lim tizimi Janubiy Koreya Respublikasi ko‘plab tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo‘lgan asosiy vazifa - o‘z an’anaviy madaniyatini saqlash,

siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o‘z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an’anaviy qadriyatlari va orientirlari bilan bog‘lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta’lim tizimi UNISEF ekspertlari xulosasiga ko‘ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida “eng samaralisi” deb tan olingan.

Janubiy Koreyada bolalar bog‘chasi umumta’lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha tashkilotlarga beradilar. Bu tashkilotlarda mashg‘ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba’zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog‘chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog‘chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o‘tiladi. Koreys bog‘chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo‘lishi mumkin. Pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo‘qligi, davlat bog‘chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o‘zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o‘yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o‘zini tutish va shaxsiy gigiyena ko‘nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlar Koreya maktabgacha ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi. Alohida e'tibor qaratish lozim bo‘lgan yana bir jihat, davlat jamiyatning eng himoyalanmagan qatlamlari, kam ta'minlangan oilalar va nogiron bolalarga, birinchi navbatda g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi va bog‘chalarga qabul davomida ularga ustuvorlik prinsipini qo‘llaydi va shu sababli ham, Koreyada inklyuziv ta'lim prinsiplari tahsinga sazovordir. Koreyaning ta'lim tizimiga kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan va tertakrufida maktabgacha ta'lim muassalari bo‘lgan oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Sanmyong Universiteti, (Sangmyung University) hamda Chung-Ang Universiteti (Chung-Ang University) bilan kelishuvlar imzolandi,

shuningdek, Chonnam Milliy Universiteti (Chonnam National University) bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Kelishuvlar va Memorandum doirasida quyidagi sohalardagi hamkorlik nazarda tutilgan: talabalar, ilmiy-pedagogik va boshqaruv mutaxassislari o‘rtasida tajriba almashinuvlari, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishga qaratilgan choralar, jumladan eng yangi dasturlar va uslublarni joriy qilish, hamkorlikda tadqiqotlar, konferensiyalar, ko‘rgazma va seminarlarni amalga oshirish, maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha maxsus qo‘shma magistrlik va doktorlik dasturlarini tashkil etish, shuningdek, O‘zbekistonda eksperimental ravishda Koreya tizimiga asoslangan eksperimental bog‘chalarni tashkil etish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan. Maktabgacha ta'lim vazirligi delegatsiyasining Koreya Respublikasiga tashrifi davomida bolalarning erta rivojlanishi va maktabgacha ta'lim tizimi sohasiga ixtisoslashgan nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari bilan uchrashuvlar ham o‘tkazildi. Jumladan, 2017-yilning 23-noyabr kuni Koreya bolalar parvarishi va va maktabgacha ta'lim masalalarini o‘rganish Instituti (KICCE) bilan kelishuv imzolandi. Kelishuv doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi va KICCE hamkorligida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkaziladi, pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali tajriba almashinuviga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi, seminarlar va konferensiyalar tashkil etiladi. Shu bilan bir qatorda hamkorlik asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalarining ishlab chiqilishi, ta'lim dasturlari va standartlarining qayta ko‘rib chiqilishi, ta'lim statistikasini joriy qilish nazarda tutilgan. Seul bolalarni erta rivojlantirishga ko‘maklashish Instituti (Seoul Early Childhood Education Promotion Institute) bilan 2017-yilning 22-noyabr kuni o‘tkazilgan uchrashuv chog‘ida qo‘shma tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini beruvchi hamkorlikdagi ilmiy-amaliy tadqiqot tashkilotlarini tashkil etish, o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlash borasida kelgusida hamkorlik bitimlarini imzolash kelishib olindi.

Boshlang‘ich ta’lim. Koreyslar “chxodin xakkyo” deb ataydigan

boshlang‘ich maktabga 7 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lganlar qatnaydi. Bu yerda 6 yoshdan o‘qishi boshlanganlar ham topiladi. O‘qish muddati — 6 yil. Koreys tili, matematika, aniq fanlar, ijtimoiy fanlar, chet tillar, tasviriy san’at va musiqa o‘rganiladigan fanlarga kiradi. Odatda ushbu fanlarning barchasi bir nafar sinf rahbari tomonidan o‘qitiladi. Biroq ba’zi ixtisoslashtirilgan fanlarni boshqa pedagog o‘tishi mumkin. Ta’lim tizimining boshlang‘ich maktabdan o‘rta maktabga o‘tish bosqichi turli imtihonlar natijasi asosida emas, balki faqat bolaning yoshiga qarab belgilanadi. O‘qish muddati 6 yil, majburiy va bepul.

Ko‘pgina ota-onalar farzandini qo‘shimcha “xagvonam” deb nomlanadigan xususiy maktablarda o‘qitadi. Janubiy Koreyada davlatga qarashli boshlang‘ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Ularning o‘quv dasturlari davlat tashkilotlarinikiga ozmi-ko‘pmi mos keladi, ammo u ancha yuqori darajada amalga tatbiq etiladi: kam sonli bolalarga ko‘p pedagoglar dars beradi, qo‘shimcha fanlar o‘qitiladi va umuman, ta’limning yuqori standartlari joriy etiladi. Biroq ularda o‘qish narxi ancha yuqori. Koreys tilida ikkinchi bosqich maktabi “chunxakkyo” deb nomlanadi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda “o‘rta maktab” degan ma’noni anglatadi. Koreys ikkinchi bosqich maktabi 3 sinfdan iborat. Aksariyat bolalar unda o‘qishni 12 yoshda boshlab, 15 yoshda tugatadi.

Ikkinchi bosqich maktabi o‘z bolalariga boshlang‘ich maktabga qaraganda ancha yuqori talablar qo‘yadi. Deyarli har doim bolalar hayotining boshqa jihatlari kabi kiyim va soch turmagi qat’iy tartibga olinadi. Boshlang‘ich maktabda bo‘lgani kabi bolalar kunning asosiy qismini sinfdoshlari bilan bir sinfda o‘tkazadilar, ammo har bir fan o‘z pedagogsi tomonidan o‘qitiladi. Pedagoglar sinfdan sinfga yurib dars beradi. “Maxsus” fandan saboq beriladigan ba’zi xonalarga bola o‘zi boradi. Sinf rahbarlari (koreyscha “tamim sonsennim”) bolalar hayotida muhim rol o‘ynaydi va boshqa yurtlardagi hamkasblariga qaraganda katta obro‘ga ega. Ikkinchi bosqich maktabi bolalariga kuniga oltita dars o‘tiladi. Ularga odatda har kuni ertalab

darsdan oldin bo‘ladigan bitta maxsus vaqt bloki hamda har bir mutaxassislik uchun alohida yettinchi dars ham qo‘shiladi. Universitetdan farqli o‘laroq, bir maktabdagi o‘quv dasturi boshqasidan farq qilmaydi. O‘quv dasturining asosini quyidagilar tashkil etadi: matematika, koreys va ingliz tillari, shuningdek, bir qator aniq fanlar. Qo‘shimcha fanlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: san’at turlari, jismoniy madaniyat, tarix, xancha (xitoy iyeroglifikasi), etika, oila iqtisodiyotini yuritish, kompyuter savodxonligi. O‘qiladigan fanlar va ularning soni har yili o‘zgarib turadi. Baholar universitetga kirishga ta’sir qiladi Dars davomiyligi — 45 daqiqa. Birinchi dars boshlanishidan oldin bolalarga o‘z xohishiga ko‘ra mustaqil o‘qish, maxsus ta’lim kanali (Education Broadcast System, EBS) tomonidan efirga uzatiladigan dasturlarni tomosha qilish yoki shaxsiy yumushlar, shuningdek, sinf ishlarini bajarish uchun sarflashlari mumkin bo‘lgan 30 daqiqa beriladi. Bolalar dushanbadan jumagacha to‘liq kunlik darslarga, har oyning birinchi, uchinchi va beshinchi shanbasida yarim kunlik mashg‘ulotlarga qatnaydi. Shanba kuni bolalar biror to‘garakda qo‘shimcha mashg‘ulotlar bilan band bo‘ladi. Boshlang‘ich maktabda bo‘lganidek, bolalar o‘zlashtirish darajasidan qat’iy nazar, sinfdan sinfga o‘tadilar. Natijada bitta fanni bir sinfda o‘quv tayyorgarligi mutlaqo farqli bo‘lgan bolalar o‘rganishi mumkin. Texnik kasbda emas, balki ilmiy sohada ishlamoqchi bo‘lganlar uchun ta’limning so‘nggi yilida baholar juda muhim rol o‘ynay boshlaydi. Chunki ular bolaning muayyan universitetga kirish imkoniyatiga ta’sir qiladi. Ba’zi fanlar bo‘yicha imtihonlarning bir nechta standart shakli mavjud. Ilmiy fanlar pedagoglari tavsiya etilgan o‘quv qo‘llanmalariga amal qilishi shart. Odatda ikkinchi bosqich maktabi pedagoglari kurs dasturi va o‘qitish uslubi borasida universitet pedagoglariga nisbatan ko‘proq vakolatga ega.

Ikkinchi bosqich maktabining ko‘plab bolalari darsdan so‘ng qo‘shimcha kurslarga (“xagvon”) qatnaydi yoki xususiy repetitorlardan ta’lim oladi. Ingliz tili va matematikaga alohida e’tibor qaratiladi. Ba’zi “xagvon”lar faqat bitta fanga, boshqalari esa barcha asosiy fanlarga ixtisoslashgan. Shuning uchun

ham ko‘pincha bolaga yanada ko‘proq yuk tushadi. Bundan tashqari, ba’zi bolalar jang san’ati to‘garaklariga yoki musiqa maktablariga qatnaydi, uyga kechqurun qaytadi.

Koreys yuqori maktabi “kodinxakkyo” deb nomlanadi. Janubiy Koreyadagi bunday maktablarda 15 — 17 yoshli bolalar uch yil o‘qishadi. Maktablar bolaning manfaatlariga mos keladigan va uning karyerasiga mutanosib ixtisoslashgan bo‘limlarga bo‘linishi mumkin. Masalan, “ilmiy” o‘rta maktablar (Science high school), chet tillarni o‘qitish va san’at maktablari shular jumlasidan. Ularning barchasi kirish uchun murakkab imtihonlar topshirishni talab etadi. Yuqori maktablarni ham davlat maktablari va xususiylarga ajratish mumkin. Bunday maktablar hech qanday muta-xassislik o‘rgatmaydi, balki o‘z bolalarini universitetga kirishga tayyorlaydi. Asosiy fanlar koreys va ingliz tillari, matematika, shuningdek, turli ijtimoiy va tabiiy fanlarni o‘z ichiga oladi. Muayyan fanlar va ularni o‘qitish darajasi bunday o‘quv yurtlarining ixtisosligiga qarab bir-biridan farq qilishi mumkin. Yuqori maktab bolalari uchun “o‘z-o‘zini o‘qitish” intensiv mashg‘ulotlaridan uyga yarim tunda qaytish odatiy hol. Boshlang‘ich va ikkinchi bosqich maktablaridan farqli o‘laroq, yuqori maktabda o‘qish majburiy emas. Biroq, hisob-kitoblarga ko‘ra, 2005-yili yosh koreyslarning 97 foizi yuqori maktabni ham tugatgan

Yaponiya ta‘lim tizimi. Maktabgacha ta’lim. Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo‘llash siyosati eng muhim o‘rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinda turadi. Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g‘arb

texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo‘ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish kerakligini angladi.

Boshlang‘ich ta’lim “syogakko” deb nomlanadi. Uzluksiz ta’lim tizimi, maktablar quyidagicha bo‘lingan:

1. Boshlang‘ich maktab - 6 yil.
2. O‘rta maktab - 3 yil.
3. Yuqori maktab - 3 yil.

Boshlang‘ich maktab ta’limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang‘ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99% qatnaydi. 99% yapon boshlang‘ich maktablari davlat tertakrufida, 1% - xususiy. O‘quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San’at va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xo‘jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnoma akademik predmetlar hisoblanmaydi. Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy va bepul bo‘lib, mashg‘ulotlar aprel oyida boshlanadi. O‘quv yili 3ta chorak-trimestrga bo‘linadi. 1-chorak-6 apreldan20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta’til boshlanadi. 1-sentabrdan 2trimestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrdan 7-yanvargacha qishli ta’til bo‘ladi. Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi ta’til bo‘ladi. Shu paytda bolalar sinfdan sinfga ko‘chadi. Yaponiyada o‘qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o‘qitish dasturi o‘zgaruvchan, lekin Ta’lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang‘ich ta’limda bolalar 1945 kandji ieroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Boshlang‘ich ta’lim “syogakko” quyidagi vazifalarni hal qiladi:

-bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o‘z qadriyatlariga hurmat hissini o‘rgatish; -bolalarni xalqaro xamkorlik ruhida tarbiyalash;

-ona tilidan to‘g‘ri foydalanish; -iqtisodiy tarbiya berish;

-barkamol shaxsni tarbiyalash.

O‘quv maqsadlariga aniq o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturlarni tayyorlash orqali erishiladi. Boshlang‘ich maktabda yapon tili jamiyatshunoslik, tabiiyot, musiqa, rasm va hunar, uy ijodiyoti, etika kabi fanlar o‘qitiladi, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadilar. Shuningdek “maxsus faoliyat” fani ham o‘qitiladi, unga klub ishlari, majlislar, sport tadbirlari, sayohatlar, bayramlar va b. kiradi. Kam ta’minlangan oilalarning bolalari maktab nonushtalari, turli xizmat va sayohatlarga pul to‘lash uchun dotatsiya oladilar. Ota-onalar farzandlarini o‘z tumanlarida joylashgan maktabga borishini istamasalar, xususiy pullik ta’lim tashkilotiga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga juda qiyin tanlov orqali qabul qilinadi.

Yaponiyada maktabgacha ta’limga katta e’tibor beriladi, chunki psixologlarning ta’kidlashicha, 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o‘zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o‘rinda turadi. Ko‘pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir. Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg‘u beradi. Masalan, 1 yoshda – o‘ziga ishonch hissini uyg‘otish, 2 yoshda – amaliy san’at qo‘l mehnatini ko‘rsatish, 3 yoshda – burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o‘rgatish, 5 yoshda – liderlik xislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o‘rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O‘g‘ilga oilaning bo‘lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog‘chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar – “xan”larga bo‘ladi. Bu bolalarga bog‘chada “o‘z ish o‘rni” ajratiladi, ular o‘z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o‘rgatadilar. Bu guruhdagi har bir bola guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta’lim bosqichida ham qo‘llaniladi. O‘rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko‘nikish uchun har 5 oyda o‘zgartirib turiladi. Yaponiya

bog‘chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog‘chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko‘nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘la olishni o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, og‘zaki nutq, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishga ham katta e’tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o‘yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg‘otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 60% bolalar jalb etilgan. Bolalar bog‘chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bolalar bog‘chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo‘lmasin, bolalarni o‘ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Janubiy Koreyaga bolalar bog‘chasiga necha yoshdan qabul qilinadi?
2. Janubiy Koreyaga bog‘chalarida asosan qaysi mashg‘ulotlar o‘tiladi?
3. Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim qanday shaklda tashkil etiladi?

III-BO`LIM. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

3.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib tarbiyalash

Reja

1.Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib tarbiyalash usullari

2.Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib tarbiyalashda bolaning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib tarbiyalash usullari

Har qanday innovatsiya - bu mutlaqo yangi komponentni yaratish va keyinchalik amalga oshirishdan boshqa narsa emas, buning natijasida atrof-muhitda sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi. Texnologiya, o'z navbatida, muayyan biznes, hunarmandchilik yoki san'atda qo'llaniladigan turli xil texnikalar to'plamidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalar zamonaviy komponentlar va texnikalarni yaratishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishdir. Buning uchun bolalar bog'chalarining pedagogik jamoalari bolalarni tarbiyalash va intellektual rivojlantirishning boshqa ta'lim tashkilotlaridan farq qiladigan eng yangi modellarini ishlab chiqmoqda. Pedagoglar o'z kasbiy faoliyatida uslubiy vositalar, usullardan foydalanadilar va bu usullar qabul qilingan modelga to'liq mos keladi. Hozirgi kunda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion usullardan ko'proq foydalanilmoqda va ularni amalga oshirish natijasi o'n yildan ortiq vaqt davomida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunga O`zbekistonda bolalar bog‘chalarida yuzdan ortiq ta’lim texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Ular orasida quyidagi innovatsion texnologiyalar alohida e'tiborga molik:

- bolalar sog'ligini saqlash uchun qo’llaniladigan texnologiyalari;
- loyiha faoliyati bilan bog'liq texnologiyalar;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- har bir shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar (shaxsga yo'naltirilgan);
- o'yin texnologiyalari.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat mumkin, balki zarur. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarga bir nechta qat'iy talablar qo'yilganligini yodda tutish kerak. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Konseptuallik, ta'lim jarayoni ma'lum bir ilmiy konsepsiyaga asoslanishi kerak.

2. Muvofiqlik - bu texnologiyalar tizimga xos bo'lgan barcha xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, ular yaxlit, mantiqiy bo'lishi va ularning tarkibiy elementlari o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.
3. Nazorat qilish - tarbiyachilar oldiga muayyan maqsadlarni qo'yish, o'yinli ta'lim jarayonini rejalashtirish va bu jarayonda muayyan nuqtalarni tuzatish imkoniyati.
4. Qayta ishlab chiqarish - texnologiya samarali bo'lishi kerak.

Texnologiyani amalga oshirish to'g'risidagi qaror bir necha omillarga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimi quyidagilardir:

- maktabgacha tarbiya profili;
- bolalar bog'chasida bo'lgan vaqt;
- tarbiyachilar faoliyatida ustuvorlik qiladigan dastur;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida amal qiladigan qoidalar;
- tarbiyachilarning professionalligi;
- bolalarning umumiy salomatligi ko'rsatkichlari.

Loyiha faoliyati texnologiyalari

Bolalar bog'chalarida tarbiyachilar va bolalar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va turli loyihalar ustida ishlash, xususan, bolaning ongli ravishda bilim va tajribalarni egallashiga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion ta'lim texnologiyalari bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishiga, bolaning o'ziga va o'z kuchiga ishonishiga, mustaqil va mas'uliyatli bo'lishiga yordam beradi. Bolalar dunyoni o‘yinli ta’lim olish orqali o‘rganadilar, olgan bilimlarini amalda qo‘llashga harakat qiladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tarbiyachilar tomonidan tadqiqot faoliyati turlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyachilar keng tarqalgan usullarga murojaat qilishadi: muammoni

qo'yish, uni har tomonlama tahlil qilish, modellashtirish, kuzatish, tajriba o'tkazish, natijalarni aniqlash, yechimlarni topish va eng maqbulini tanlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi innovatsion muhit murabbiylarga har bir bolaga individual yondashuvga, uning xususiyatlarini, fe’l-atvorini hisobga olishga yordam beradi va mashg’ulotlarni hayajonli va g'ayrioddiy «sarguzasht»ga aylantiradi. Bunday faoliyat samarasi esa bolajonlarning bog'chaga zavq va mamnuniyat bilan tashrif buyurishlari va har kuni o'zlarining kichik bilim bazasini boyitishlariga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash

Zamonaviy bugungi dunyoning bobo-buvilarimiz va hatto ota-onalarimizning yoshlik davridan sezilarli darajada farq qilishini tan olmaslikning iloji yo'q. Hozirgi kunda kompyuter, planshet kabi ilg'or texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarni ajablantirmaydi. Axborot asri o'ziga xos o'yin qoidalarini belgilaydi, buni e’tirof etmay qoldirib bo'lmaydi. Masalan, bolani savodgaga, matematikaga o'rgatish, uning xotirasi va mantiqiy tafakkurini iloji boricha rivojlantirish uchun mo'ljallangan qiziqarli dasturlar tufayli maktabgacha yoshdagi bolani qiziqtirishi va unda bilim olishga muhabbat uyg'otishi mumkin. Animatsion kompyuterli ko’rgazma va illyustratsiyalar bolani diqqatini jalb etadi. Bolalar yangi ma'lumotlarni osongina eslab qolishadi va keyin ularni do’stlari va oilasida muhokama qilishadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalarining o'rni

Shaxsga yo'naltirilgan va o'yin texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolaning individualligini rivojlantirishga yordam beradi. Bu butun ta'lim jarayoni uchun o'ziga xos asosdir. Bunda asosiy e'tibor bolaning shaxsiyati va uning o'ziga xos xususiyatlariga qaratiladi. Individual qobiliyatiga qarab, tarbiyachi bolaning iste'dodini maksimal darajada oshirish va rivojlantirishga yordam beradigan ta’limiy o'yinlarni tanlaydi. Bu yerda avtoritarizmga, o‘z qarashlarini o‘rnatishga va bolaga qattiqqo’llik asosida

yondashishga o‘rin yo‘q. Guruhda odatda mehr, o'zaro hurmat va hamkorlik muhiti mavjud bo’lishi nazarda tutiladi.

Pedagogik texnologiyada prinsipial muhim jihat - bu bolaning tarbiya va ta'lim jarayonida tutgan o'rni, kattalarning bolaga munosabati hisoblanadi. Bolalar bilan muloqotda kattalar “***birgalik”***dagi pozitsiyaga amal qiladi. Uning maqsadi bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga hissa qo'shishdir.

Texnologiya - har qanday biznesda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan texnikalar to'plamidir *(izohli lug'at)*. Bugungi kunda yuzdan ortiq ta'lim texnologiyalari mavjud.

Ta'lim texnologiyasining tuzilishi uch qismdan iborat:

- **Kontseptual qism** - texnologiyaning ilmiy asosidir, ya'ni, uning poydevoriga qo'yilgan psixologik va pedagogik g'oyalar.
- **Tarkib qismi** - o'quv materialining umumiy, aniq maqsadlari va mazmuni.
- **Protsessual qism** - bu bolalarning ta'lim faoliyati shakllari va usullari, pedagog ishining usullari va shakllari, pedagogning materialni o'zlashtirish jarayonini boshqarishdagi faoliyati, o'quv jarayonini diagnostika qilish.

Shunday qilib, texnologiya yuqorida sanab o'tilgan barcha talablarga javob berishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida zamonaviy ta’lim texnologiyalari ochiq ta'lim makonining barcha subyektlarining o'zaro ta'siri *(bolalar, bog’cha xodimlari, ota-onalar)* asosida olib borilmoqda. Bunda turli ta’lim loyihalari muhim o’rin tutadi. **Ta'lim loyihalarining tasnifi** quyidagilarni qamrab oladi:

- ***O'yin*** - bolalar jamoaviy yoki juftlikda ishtirok etish *(barcha turdagi ko’ngilochar o'yinli faoliyat: harakatli, musiqali, stol bosma, syujetli-rolli va ta’limiy o'yinlar, dramatizatsiya)*;
- ***Ekskursiya*** - atrof-muhit va ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan loyihalar *(bog’cha hovlisidagi ko’chatlarni*

parvarishlash, bog’cha teplitsasida foydali mehnat, qushlar uchun donxo’rak yasash va uni daraxtga osish);

- ***Hikoya*** **-** bolalar o'z taassurotlari va his-tuyg'ularini og'zaki, tasviriy faoliyat *(rasm),* badiiy-musiqiy ravishda yetkazishni o'rganadilar.
- ***Konstruktiv*** **-** ma'lum foydali faoliyatga qaratilgan: qush inini konstruksiyalash, guruh xonasidagi mebellardagi nosozliklarni tuzatish, xonani mavsumga tayyorlash, xonani bezatish...

Loyiha turlari:

1. Dominantlik xususiyatiga ko’ra:

- tadqiqot, axborot, ijodiy, o'yin, sarguzasht, amaliyotga yo'naltirilgan.

2. Mazmuni xususiyatiga ko‘ra:

- bolani va uning oilasiga tegishli bo’lgan mazmunda, bola va tabiat, bola va inson tomonidan yaratilgan dunyo, bola, jamiyat va uning madaniy qadriyatlari.

3. Bolaning loyihadagi ishtirokining tabiati bo'yicha:

- mijoz, mutaxassis, ijrochi, g'oyaning kontseptsiyasidan to natijani olishgacha bo'lgan ishtirokchi.

4. Hamkorlik xususiyatiga ko‘ra:

- bir xil yosh guruhida amalga oshirilgan, boshqa yosh guruhi bilan hamkorlikda bo'lish, maktabgacha ta'lim tashkiloti ichida, oila bilan aloqada, madaniyat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari .

5. Ishtirokchilar soni bo‘yicha:

- individual, juftlashgan, guruh, frontal.

6. Davomiyligi:

- qisqa muddatli, o'rtacha davomiylikda, uzoq muddatli.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim jarayonida loyiha faoliyati bolalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, shuningdek, ota-onalar va boshqa oila a'zolari ishtirok etadigan hamkorlik xarakteriga ega. Ota-onalar loyiha ustida ishlash jarayonida bola va tarbiyachi uchun nafaqat ma'lumot, haqiqiy yordam va qo'llab-quvvatlash manbai bo'lishi lozim. Shuningdek, oila

ta’limiy jarayonining bevosita ishtirokchisi bo'lishi, o’zida pedagogik tajribani olishi va bolaning muvaffaqiyatidan xabardor bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot faoliyati texnologiyasi

Bolalar bog'chasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsadi - maktabgacha yoshdagi bolalarda samarali refleksiv faoliyat asosidagi tadqiqiy bilish va faol fikrlash qobiliyatini shakllantirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, bog’chada TRIZ *(ixtirochilik muammolarini hal qilish)* texnologiyasidan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, ijodiy loyiha ustida ishlashni tashkil qilishda bolalarga biror narsani tadqiq qilish yoki tajribalar o'tkazish orqali hal qilinishi mumkin bo'lgan muammoli vazifalar taklif etiladi.

Eksperimental tadqiqotlarni tashkil etish usullari

Tadbirlar:

- evristik suhbatlar, muammoli masalalarni shakllantirish va hal qilish, kuzatuv, modellashtirish, tajribalar, natijalarni aniqlash: kuzatishlar, tajribalar, mehnat faoliyati

***«Immersion»* tabiatning ranglari, tovushlari, hidlari va tasvirlari:**

- tabiiy: jonivorlar tovushlariga taqlid qilish, badiiy: rol ijrosi, ya’ni so‘zdan foydalanish

Ta’limiy o'yinlar: ta'limiy va ijodiy o'yin rivojlantiruvchi vaziyatlar;

Ijtimoiy foydali mehnat harakatlari:

1. Tajribalar:

- Borliqning holati va o'zgarishi, Havoning, suvning harakati, Tuproq va minerallarning xususiyatlari, O'simliklarning yashash sharoitlari.

2. Yig'ish *(tasniflash ishi)*

- O'simliklar turlari, Hayvonlarning turlari, Qurilish inshootlarining turlari, Transport turlari, Kasblar turlari.

3. Xaritada sayohat qilish

- Kardinal nuqtalar, Yer relyeflari, Tabiiy landshaftlar, Dunyoning qismlari, ularning tabiiy va madaniy belgilari.

4. Atrofda sayohat qiling *»Vaqt mashinasi»*

- Insoniyatning o'tmishi va buguni *(tarixiy davr)*, moddiy sivilizatsiya *(masalan: Misr – piramidalar, dinozavrlar)*.
- Tabiat (o’rmonlar, tog’lar, daryolar).

Jamiyatni axborotlashtirish maktabgacha ta’lim tarbiyachilari oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- zamon bilan hamnafas bo'lish, bolaning yangi texnologiyalar olamiga yetaklash, kompyuter dasturlarini tanlay olish, tarbiyachilarning kasbiy darajasi va ota-onalarning axborot bilan ishlash bo’yicha malakasini oshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining kompyuterli ta’lim dasturlariga qo'yiladigan talablar:

- Tadqiqot xarakteri, bolalar uchun o'rganishda qulaylik, Ko'nikmalarning keng doirasini rivojlantirish, Yosh xususiyatiga moslik, O'yinli ta’lim olish.

Kompyuterli ta’limning tasnifi:

- Tasavvur, fikrlash, xotirani rivojlantirish, Chet tillarini o’rganish, Eng oddiy grafik muharrirlar, Sayohat o'yinlari, savod o'rganish, matematika, Multimediali taqdimotlar

Kompyuterli ta’limning afzalliklari:

- kompyuter ekranida ma'lumotni o'yin shaklida taqdim etish bolalarda katta qiziqish uyg'otadi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tushunarli bo’lgan ma'lumot turini taqdim etadi;
- harakat, tovush, animatsiya uzoq vaqt davomida bolaning diqqat-e'tiborini tortadi;
- bolalarning kognitiv faolligini rag'batlantiradi;
- ta'limni individuallashtirish imkoniyatini beradi;
- kundalik hayotda ko'rish mumkin bo'lmagan virtual hayotiy vaziyatlarni namoyish qilish imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolar:

- Metodik tayyorgarlikning yetarli emasligi
- Mashg’ulotda AKTning ta’limiy roli va o‘rnini noto‘g‘ri belgilash
- AKTdan rejadan tashqari, tasodifiy foydalanish
- Namoyishning haddan tashqari ko’pligi.

Zamonaviy tarbiyachi faoliyatida AKT:

1. Mashg’ulot mazmunini yanada tushunarli bo’lishi uchun illyustrativ materiallarni tayyorlash *(skanerlash, internet, printer, taqdimot)*.
2. Bolalar uchun qo'shimcha kognitiv materialni tanlash, bayramlar va boshqa tadbirlar ssenariylari bilan tanishish.
3. Tajriba almashish, davriy va xorijiy nashrlar bilan tanishish, xorijdagi boshqa tarbiyachilarning ishlanmalari.
4. Guruh hujjatlarini, hisobotlarni ro'yxatdan o'tkazish. Kompyuter har safar hisobot va tahlillarni yozmaslikka imkon beradi, lekin diagrammani bir marta terish va keyin faqat kerakli o'zgartirishlarni kiritish kifoya.
5. Ota-onalar yig'ilishlari jarayonida bolalar ta’limiy faoliyati samaradorligini namoyish qilish uchun Power Point dasturida taqdimotlar yaratish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib tarbiyalashda bolaning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib tarbiyalashda bolaning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar bolaning shaxsiyatini maktabgacha ta'limning butun tizimning markaziga qo'yadi, oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida qulay sharoitlarni ta'minlaydi, bolaning rivojlanishi uchun nizolarsiz va xavfsiz sharoitlarni ta'minlaydi, mavjud tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi. Bunday texnologiyalar yangi ta'lim dasturlari mazmuni talablariga javob beradigan rivojlanayotgan muhitda amalga oshiriladi.

Rivojlanayotgan makonda bolalar bilan shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlar uchun sharoit yaratishga urinishlar qayd etilgan, bu esa bolaga o'z faoliyatini ko'rsatishga, o'zini to'liq namoyon etishga imkon beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar doirasida bolaning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishda quyidagi mustaqil yo'nalishlar ajratiladi:

1. **Gumanistik va shaxsiy texnologiyalar, ularning insonparvarlik mohiyati -** bolaning maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlariga moslashish davrida sog'lig'i zaif bolaga yordam berishga qaratilgan psixo-terapevtik yo'nalish.

   Bunda psixologik yengillik uchun xonalar - yumshoq mebellar, xonani bezatuvchi o'simliklar, individual o'yinlar uchun o'yinchoqlar, individual mashqlar uchun jihozlar mavjud bo'lgan muhit. Shuningdek, bolaning samarali faoliyati uchun musiqa asboblari, tabiat burchagining bo'lishi bolalarning o'zlari qiziqqan faoliyatni tanlashlariga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning xotirjam, tinch va mustaqil bo'lishi ana shunday sharoitning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.
2. **Hamkorlik texnologiyasi** maktabgacha ta'limni demokratlashtirish, pedagog va bola o'rtasidagi munosabatlarda tenglik, munosabatlar tizimida sheriklik tamoyillarini amalga oshiradi. ***»Kattalar - bola»*** ... Pedagog va bolalar rivojlanayotgan muhit uchun sharoit yaratadilar, qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayramlar uchun sovg'alar tayyorlaydilar. Turli xil ijodiy faoliyat*(o'yinlar, ish, konsertlar, bayramlar, o'yin-kulgilar)* ni birgalikda amalga oshiradilar.

Pedagogik texnologiyalar pedagogik munosabatlarni protsessual yo'nalishi, shaxsiy munosabatlar ustuvorligi, individual yondashuv, demokratik boshqaruv va mazmunning yorqin yo'nalishi bilan insoniylashtirish va demokratlashtirishga asoslangan. Maktabgacha ta'lim dasturlarida shunday yondashuvlar doim mavjud bo'lgan va kundan kunga yanada takomillashib bormoqda. ***»Uchinchi mingyillikning bolasi», "Qadam ba qadam" dasturi, »Bolaga yo'naltirilgan***

ta'lim» dasturi, «Bolajon» tayanch dasturi, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", «Ilk qadam» o'quv dasturi , "Ilm yo'li" variativ dasturi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartlari" .

Texnologik tarbiya va ta'lim jarayonining mohiyati berilgan boshlang'ich munosabatlar asosida quriladi. Bu esa ijtimoiy tartib *(ota-onalar, ta'lim, jamiyat)*ga oid ko'rsatmalarning maqsadi va mazmuni bilan bog'liq. Ushbu boshlang'ich munosabatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlarini baholashning zamonaviy yondashuvlarini konkretlashtirishi, shuningdek, individual va differentsial vazifalar uchun sharoit yaratishi kerak. Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshiriladi.

Muammoli o'rganishning to'rtta darajasi mavjud:

1. Muammoni tarbiyachining o'zi qo'yadi *(topshiriq)* va bu bolalar tomonidan faol tinglash va muhokama qilish orqali hal qilinadi (masalan, Tarbiyachi; faqatgina mana shu doira shakllaridan foydalanib qanday narsalar yasash mumkin? Bolalar: qorbobo, gul, uzum…).
2. Tarbiyachi muammo qo'yadi, bolalar mustaqil ravishda yoki uning rahbarligida yechim topadilar. Tarbiyachi bolani mustaqil ravishda yechimlarni izlashga *(qisman izlanish usuli)* yo'naltiradi. (Tarbiyachi: Yashil qalam yo'q, gul bargini bo'yashda nima qilamiz?, Bolalar: ko'k rangda bo'yaymiz. Tarbiyachi: moviy va sariq qalamda bargni ketma-ket bo'yasak, yashil rang hosil bo'ladi, qani sinab ko'ramizmi?)
3. Bola muammoni qo'yadi, tarbiyachi uni hal qilishga yordam beradi. Bolada muammoni mustaqil ravishda shakllantirish qobiliyati tarbiyalanadi. (Tangram, shashka, eng baland minorani qurish, teatrlashtirilgan faoliyatda bolalar o'zlarisezmagan holatda muammolar yaratadilar. Tarbiyachi ularga yordam tarzidagi ko'rsatmalar berib turadi)
4. Bola muammoni o'zi qo'yadi va uni o'zi hal qiladi. Tarbiyachi hatto muammoni ko'rsatmaydi: bola uni o'zi topib, uni hal qilish imkoniyatlari

va usullarini shakllantirishi va o'rganishi kerak. *(Tadqiqot usuli, bo'yoqlar hosil qilish, konstruktorlarni yig'ish)*

Natijada bolada muammoli vaziyatni mustaqil tahlil qilish, mustaqil ravishda to'g'ri javob topish qobiliyati tarbiyalanadi.

Bola portfoliosini yaratish texnologiyasi

Portfolio - bu bolaning turli xil faoliyatdagi shaxsiy yutuqlari, uning muvaffaqiyatlari, ijobiy his-tuyg'ulari, hayotining yoqimli daqiqalarini yana bir bor qayta tiklash imkoniyatlari bazasi bo'lib, bu bola rivojlanishining o'ziga xos samarali yo'lidir.

Portfolioning bir qator xususiyatlari mavjud:

- diagnostik *(ma'lum vaqt oralig'idagi o'zgarishlar va o'sishni qayd etadi),*
- mazmunli *(bajarilgan ishlarning to'liq spektrini ochib beradi),*
- reyting *(bolaning ko'nikma va qobiliyatlari doirasini ko'rsatadi)* va boshq.

Portfolio yaratish jarayoni pedagogik texnologiyaning bir turi hisoblanadi. Portfolio variantlari juda ko'p. Bo'limlarning mazmuni maktabgacha tarbiyachining imkoniyatlari va yutuqlariga muvofiq asta-sekin to'ldiriladi.

1-qism ***»Keling tanishamiz»*** ... Bo'limda bolaning fotosurati, uning familiyasi va ismi, guruh raqami ko'rsatiladi; Quyidagicha sarlavha kiritish mumkin. ***«Menga yoqadi...»*** , ***»Men yaxshi ko'raman ...»*** bolaning javoblari qayd etiladi.

2-qism ***»Men o'saman!»*** ... Bo'limga antropometrik ma'lumotlar kiritiladi *(bo'yi va vazni)*

3-qism ***»Bolamning portreti»*** ... Bo'limda ota-onalarning bolasi haqidagi yozma ma'lumotlari qo'yiladi.

4-bo'lim. ***«Men orzu qilaman ...»*** Bo'limda bolaning o'zi iboralarni davom ettirish taklifi bo'yicha fikrlari qayd etiladi: , ***»Men... bo'lishni xohlardim»*** , ***»Mening sevimli narsalarim...»*** ; Savollarga javoblar: ***»Katta bo'lganimda kim bo'laman?»*** , ***»Men nima haqida o'ylashni yaxshi ko'raman?»*** .

5-bo‘lim ***»Men qila oladigan narsa bu»*** ... Bo'limda bolaning ijod namunalari (*rasmlar, loy ishi, qirqib yopishtirish…)* joylashtiriladi.

6-bo‘lim ***»Mening yutuqlarim»*** ... Bo'limda sertifikatlar va diplomlar *(turli tashkilotlardan: bolalar bog'chasi, sport musobaqalari)* qayd etiladi .

7-bo‘lim ***»Menga maslahat bering ...»*** ... Bo'limda ota-onalarga tarbiyachi va bola bilan ishlaydigan boshqa mutaxassis(musiqa rahbari, psixolog, logoped)lar tomonidan tavsiyalar qo’yiladi.

8-bo‘lim — ***So‘rang, ota-onalar!*** ... Bo'limda ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislariga o'z savollarini berishadi.

Portfolioda bola haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan sarlavha sahifasi *(familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi)*, portfolioni yuritishning boshlanish sanasi va tugash sanasi, portfolio boshlangan paytdagi bolaning kaftining tasviri va portfolio oxirida yana bola kafti tasviri qayd etiladi.

Shunday qilib, portfolio *(bolaning shaxsiy yutuqlari papkasi)* har bir bolaga individual yondashish imkonini beradi va bolalar bog'chasini tugatganidan so'ng bolaga va uning oilasiga esdalik sovg'a sifatida beriladi.

O'yin texnologiyasi

O'yin texnologiyasi maktabgacha ta'lim jarayonining asosiy qismini qamrab oluvchi, umumiy mazmun, syujet, xarakter bilan birlashtirilgan yaxlit ta'lim sifatida e’tirof etiladi. U ketma-ketlikni o'z ichiga oladi:

- obyektlarning asosiy, xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, ularni taqqoslash, qobiliyatini shakllantiradigan o'yinlar va mashqlar;
- obyektlarni ma'lum mezonlar bo'yicha umumlashtirish uchun o'yinlar guruhlari;
- maktabgacha yoshdagi bolalar haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan hodisalarni farqlash qobiliyatini rivojlantiruvchi o'yin guruhlari,
- o'z-o'zini tekshirish, zukkolik va boshqalarni rivojlantiruvchi o'yin guruhlari.

O'yin shaklida o'rganish qiziqarli jarayon hisoblanadi. Bunday yondashuvni amalga oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi uchun ishlab chiqilgan

o'yinli ta'lim texnologiyalari bosqichma-bosqich tavsiflangan tizimini o'z ichiga olishi kerak. Shunda u kafolatlangan natijani beradi. O'yin texnologiyalari yordamida bolalarda aqliy faoliyat jarayonlari rivojlanadi. O'yin texnologiyalari bolalar bog'chasining tarbiya va ta'lim ishlarining barcha jihatlari va uning asosiy vazifalarini hal qilish bilan chambarchas bog'liq. Ba'zi zamonaviy ta'lim dasturlari xalq o'yinlaridan bolalarning hatti-harakatlarini pedagogik tuzatish vositasi sifatida foydalanishni taklif qiladi.

Simulyatsiya texnologiyasi

Ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyati ta'lim sohasidagi hayotiy muammolarni modellashtirish va ularni hal qilish yo'llarini izlashdir. O'yin ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ertak syujetlaridan foydalanish tavsiya etiladi, o'yinni tashkil qilish muddati uzoqroq muddatda davom etishi mumkin.

Texnologiya bosqichlari:

1-bosqich: ertakni badiiy idrok etishni tashkil etish asosida o'yin tajribasini mazmun bilan boyitish.

2-bosqich: yangi yoki tanish ertaklarning syujetlari asosida ko'p funksiyali o'yin materialidan foydalanishga asoslangan syujetni ishlab chiqish. Ko'p funksiyali materialda voqealar sodir bo'ladi.

3-bosqich: ko'p funksiyali o'yin materialini mustaqil yaratish va ertak qahramonlarining yangi sarguzashtlarini ixtiro qilish asosida syujetni ishlab chiqish.

Maktabgacha ta’limga texnologik yondashuv, ya'ni yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bolaning yutuqlarini kafolatlaydi va kelgusida uning maktabda muvaffaqiyatli o'qishini ta’minlaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Loyiha faoliyati texnologiyalari qanday shaklda amalga oshiriladi?
2. Muammoli o'rganishning necha darajasi mavjud?
3. Simulyatsiya texnologiyasi nima?
4. Portfolio nima?

3.2.Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy shaxsiy xislatlarini tarkib toptirishda ijodiy fikrlash qobiliytlarni shakllantirvchi innovatsion metodlarni o`rganish.

Reja

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy shaxsiy xislatlarini tarkib toptirishda ijodiy fikrlash qobiliytlarni shakllantirish.
2. O`z “Meni” va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to`g`risidagi tasavvurini boyituvchi innovatsion texnologiyalar
3. Murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo`llari. O`z “Meni” va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to`g`risidagi tasavvurini boyituvchi innovatsion texnoligiyalardan foydalanish,
4. O`z hissiyotlarini boshqaradigan va ularni vaziyatga moslaydigan o`yinlarni o`ylab topish, o`zgalarning hissiyotlarini farqlaydigan va ularga mos ravishda javob beradigan innovatsion texnologiyalardan foydalanish,
5. Kattalar va tengdoshlari bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qilishga o`rgatadiga innovatsion texnoligiyalardan foydalanish

Maktabgacha yoshi eng qizg'in ijtimoiy rivojlanish. Maktabgacha bolalik davrida bolaning nutqi va tafakkuri faol rivojlanmoqda. Bolaning shaxsiyatining rivojlanishi turli xil faoliyatlarda tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishda eng samarali hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiylashuv - bu bolaning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv - bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o'zlashtirishdir. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida yetakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish vazifalari egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xulq-atvori tajribasi kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo'shma tadbirlar va munosabatlarda mustahkamlanadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha oilalarda, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Hozirgi kunda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo’yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy nazariy, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda. Rasman bolalar bog'chasi maktabga tayyorlov maskani hisoblansada, aslida bolalar tug'ilishi bilanoq maktabga tayyorgarlik boshlaydi, desak mubolag’a bo’lmaydi. O'z oila a'zolari va do'stlari — atrofdagi odamlar bilan o’zaro munosabatlari orqali ular boshqalarga mas’ul bo’lish, tashqi dunyoga qiziqish va yangi qobiliyatlarni o'zlashtirish ishtiyoqini rivojlantirish singari muhim tayyorgarlik ko'nikmalarini o'rganadilar. Bundan tashqari, ular o'zlarining ota-onalari, tarbiyachilari va aka-ukalaridan farqli alohida faoliyat bilan shug'ullanadigan individual shaxslar ekanliklarini anglab boradilar. Bolalar bog'chasida rivojlanishga yo'naltirilgan dasturlardagi tizimli rejalashtirilgan o'yinlar yordamida til va nutq, aql, sensomotorika va ijtimoiy-emotsional qobiliyatlar mustahkamlanadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalar rivojlanishining turli jihatlarini har tomonlama o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktabning birinchi sinflari bilan taqqoslaganda bolalar bog'chasining maktabga tayyorgarlik guruhlarida o'qiyotganda ular o'zlarini xotirjam, psixologik jihatdan erkin va o’ziga bo’lgan ishonchni his qilishadi. Buning asosiy sababi shundaki, bolalar bog'chasining hayot ritmi, bolalarning kattalar bilan va bir-biri bilan muloqot uslubi maktabgacha yoshdagi bola psixikasining rivojlanish darajasiga ko'proq mos keladi. Beqarorlik, yangi sharoyit va munosabatlarga moslashishdagi qiyinchiliklar tufayli 6 yoshli bola to'g'ridan-to'g'ri hissiy aloqalar (emotsional munosabat)ga muhtoj bo'lib, rasmiylashtirilgan maktab sharoyitida bu ehtiyoj qondirilmaydi. Psixologlar va o'qituvchilar 6 yoshidan boshlab maktabda

o'qishning ko'plab ijobiy va salbiy tomonlarini keltirib o’tishadi. Ushbu yoshda maktabga borishga bo'lgan eng jiddiy e'tirozlarni D. B. Elkonin ilgari surgan. Uning yozishicha, bolalar rivojlanishining keyingi, yuqori bosqichiga o'tish ichki qarama-qarshiliklarni namoyon qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalikni bir yilga qisqartirish hozirgi degeneratsiya rivojlanish jarayonini buzishi va foyda keltirmasligi mumkin. D. B. Elkonin 6 yoshdan boshlab maktabda o'qishni tashkil etish o'rniga, bolalar bog'chalariga tayyorgarlik guruhlarini kengaytirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi, chunki bolalarni maktabga tayyorlash qulayroq, negaki bolalar bog'chasidagi bolalar yaxshiroq, ular yanada to'liq, xilma-xil hayot tarzini kechirishadi va yanada quvnoq va sog'lom ko'rinishga ega bo’lishadi. Yangi maktab hayotiga moslashishning dastlabki bosqichiga kelsak, shuni ta'kidlash joyizki, barcha maktabgacha yoshdagi bolalar moslashishga qiynaladilar. Ular nafaqat jismoniy, balki psixologik qiyinchiliklardir. Ba'zilarda sustkashlik, ko'z yoshlari paydo bo'ladi, uyqu va ishtaha buzilishi kuzatiladi, boshqalarida haddan tashqari qo'zg'alish kuchli bo’ladi. Bularning barchasiga maktabdagi ortiqcha yuklamalardan toliqish sabab bo’ladi. Shuningdek, charchoq hatti-harakatlarning buzilishiga, injiqliklarga olib keladi.

Men” konsepsiyasi – bir butun hosila va uning barcha tarkibiy qismlari mustaqil mantiqiga ega bo’lsa ham, o’zaro chambarchas bog’liqdir. Bu konsepsiya seziladigan va sezilmaydigan jihatlardan iborat va o’zi haqida taqdimotlari, ularning murakkabligi va xilma-xilligi, shaxs uchun ularninng subyektiv ahamiyati, shuningdek, ichki yaxlitli va izchillik, uyg’unlik, vaqtga bardoshliligi nuqtaiy nazardan ta’riflanadi.

Adabiyotlarda “Men” konsepsiyasini yagona tafsifi haligacha mavjud emas. Masalan, R.Berne “Men” konsepsiyasini ierarxiyaga asosalngan tuzilma ko’rinishida taqdim etadi. Uning cho’qqisi global “Men” konsepsiyasi shaxsning o’zi haqida tushunchalarini kiritadi. Bu tushunchalar har xil turlariga xos:

1. Real “Men” (“Men kimman”);

2. Ideal “Men”(“Meni kim bo’lishni istayman - intilaman).

3. Oynali “Men” (“Meni qanday baholashadi).

Bularning har bir turi bir qator jihatlarni o’z ichiga qamrab oladi- jismoniy “Men”, ijtimoiy “Men”, aqliy “Men”, emotsional “Men” bo’ladi, shaxsning rivojlanishi nufuzli manba sifatida xizmat qiladi, biroq ular orasidagi jiddiy ziddiyatlar shaxsning ichki mojarolar va negativ qayg’urishlar manbasiga aylanishi mumkin.

Shaxsning faoliyatiga ko’ra - organizm, ijtimoiy individ yoki shaxs darajasida namoyon bo’lishiga qarab, “Men” konsepsiyasining uchta bosqichi ajratiladi:

1) ”organizm-muhit” darajasi - jismoniy “Men” obraz, (tana sxemasi) organizmning jismoniy samaradorlikga bo’lgan ehtiyoji;

2) “ijtimoiy individ” darajasida – ijtimoy o’zlikni, jins, yosh, etnik fuqarolik, ijtimoiy rol bular shaxsning jamiytga a’zo bo’lishi ehtiyoji bilan bog’langan.

3) ”Shaxs” darajasida - “Men”ning farqlanuvchi obrazi, o’zi haqidagi fikrlarni aniqlash ehtiyojini ta’minlaydigan, boshqa shaxslar bilan solishtirganda o’zi haqida ta’riflovchi fikrlarini va o’zining noyoblik hissini beruvchi, o’zini ko’rsatishga bo’lgan ehtiyojni ta’minlovchi daraja.

“Men” konsepsiyasi yoki o`z-o`zini anglash tushunchasi**:**

- Kattalar yordamida o`z kamchiliklarini bartaraf qilish, jamoada o`zini tuta bilish;

- O`zini, o`z mavqeini va kamchiligini anglashga intilish, o`zlarini kattalarning baholashi bilan solishtirish, o`z familiyasini, ismini, yoshini, manzilini, oila a’zolarini bilish, boshqalarning hohishini hurmat qilish.

- O`zlari to`g‘risida tasavvurga ega bo`lish, o`zining shaxsiy ahloqiy sifatlarini baholay va anglay olish, qaysi shaharda yashaydi, o`zi to`g‘risida, boshqa bolalar to`g‘risidagi ma’lumot bilan almasha olish.

- O`zini hurmat qilish, o`z qadr-qimmatini bilish, o`zini tanqidiy baholash, o`z milliy an’analarini va madaniy qadriyatlarini bilish, ular bilan mag‘rurlana olish

(milliy kiyim, o`yinlar, urf-odatini hamda tarixini bilishga intiladi).
- Hissiy ifodalash.
- Kattalarga va tengdoshlariga nisbatan o`zaro hurmat bilan qarash.
- Saxiylik, yaxshilik va rahmdillik ko`rsatish, o`z kayfiyati va boshqalarning kayfiyatini tushunish.
- Kattalar va tengdoshlariga samimiy munosabat bildirish
- O`z hissiyotlarini so`z bilan ifodalay olish, o`zini va boshqalarning holatlarini taqqoslash va baholash.

Katta maktabgacha yoshdagi bolaning guruh umumiy manfaatlarni his etishi, boshqalarning huquqlari bilan hisoblashishi, umumiy yutuqlardan quvonishi, yordam ko'rsatishi, umum foydasi uchun mehnat qilishi, ijtimoiy mulkka o'yinchoqlar, kitoblar, qo'llanmalar, qo'g'irchoqlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishida o'z ifodasini topadi. Bolalarda jamoatchilikni tarbiyalash individuallikning rivojlanishini ko'zda tutadi: guruhda bolaning tashabbusi rag'batlantiriladi, qizquvchanlik, zehni o'tkirlik, individual qiziqishlar, did, mayllar qo'llab-quvvatlanadi. guruh o'yinlarni rag'batlantirish individual o'yinlarga yordam berish bilan qo'shib olib boriladi.

Barcha bolalarni, masalan, navbatchilik ishini bajarganda, syujetli o'yinda bosh rolni ijro etishga o'rgatish, majburiyatlarga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash g'oyat muhimdir. Ayni paytda bolalar oldiga ularni birgalikda harakat qilishga: ekinni o'stirishga, shikastlangan jonivor (*qush)ni* parvarish qilishga, kichkintoylar uchun o'yinchoq tayyorlashga, bayramga gul yetishtirishga, qo'g'irchoqlor kichkintoylar uchun ertak tomoshasini tayyorlashga va hokazolarga undaydigan maqsadlarni qo'yish kerak. Birlashish muhitini yaratishda birgalikdagi faoliyatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, masalan, daraxtni o'stirish orqali faoliyatning umumiy maqsadi qanday shakllanganligi namunasida ko'rsatish mumkin. Bu davrda bolalarda axloqiy fazilatlar tarkib topib boradi. Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida irodaviy sifatlar shakllana boradi, xarakter xislatlari barqarorlashadi, bolada mustaqillikka nisbatan intilish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Shuningdek, tayyorlov guruhidan bola maktabda o’qishga tayyorgarlik ko’ra boshlaydi. Bu davrda maktabgacha yoshidagi bolalar o’z ko’chalariga ishonch hosil bo’lsa, ular muctaqillik, faollikni rivojlantirishga ta’sir ko’rsatadi. Tayyorlov guruhi bolalarida kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida madaniy va uyushgan xulq-atvor ko’nikmalari va odatlarning shakllanishi davom etadi. Bolalar xulq-atvoriga ularning tengdoshlari bilan munosabatlari murakkablashadi. Tarbiyachi Maktabgacha ta’lim tashkilotisi qoidalarining ongli va majburiy, bolalarda o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish, tashqi ko’rinishi, harakatlari, predmetlarga munosabati, tejamkorlik, buyumlarini tartibga keltirish madaniyatini shakllantirishga, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatga xushmuomalalik madaniyatini tarbiyalashga alohida e’tibor berishadi.

Bola shaxsi o’zini-o’zi anglashning komponentlari, eng avvalo, oilada shakllanar ekan, ota-onalar o’z farzandlarining ijtimoiy munosabatlariga to’g’ri kirishishlariga yordam ko’rsatuvchilari uchun xizmat qiladigan asosli ma’lumotlarni ish natijalaridan olishlari;

Ota-onalar ishning natijalaridan ota-onaning farzandiga munosabatida bolalikning dastlabki davrlaridayoq o’ziga ishonchni, mustaqillikni, atrofdagilar bilan munosabatda faol va vazmin bo’lish, vaziyatni tahlil etish ko’nikmalarini shakllantirish jarayonida foydalanishlari;

MTT psixologlari ish ma’lumotlari va metodikalari asosida bola shaxsi o’zini-o’zi anglash konponentlarining shakllanish darajasini aniqlashlari hamda ularga individual yondashib tegishli ko’rsatmalar berishlari lozim.

Uyushgan xulq-atvorni boshqa fazilatlar, avvalo faollik va mustaqillik, ya’ni yangilik talablarni bajarishga tayyorgarlik, tashabbuskorlik, turli vaziyatlarda mustaqillikni namoyish etish ko’nikmasi bilan mustaqillikni namoyish etish ko’nikmasi bilan mustahkam bog’liq holda ko’rib chiqish zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkilotilarida turmushni to’g’ri tashkil qilish axloqiy tarbiyaviy jarayonning umumiy yo’nalishi xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashning asosiy va zaruriy shartidir. Bolalarni o’rab turgan ishonch

xayrixohlik muhiti, tarbiyachining vazminligi, tashqi va ichki madaniyati nihoyatda muhimdir. 3-5 yoshli bolalarda o‘z-o‘zini anglashda o‘ziga va boshqalarga nisbatan munosabatni baholash asosiy ko‘rsatgich hisoblanadi. Bolaning o‘zining kelajakdagi qiyofasi haqida ijobiy tasavvuri birinchi marotaba bolaning o‘ziga o‘zining kamchiliklariga nisbatan tanqidiy jihatidan munosabatda bo‘lishga va kattalar yordamida bu kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ijtimoiylashuv nima?
2. Bolada ijtimoiy hisiy rivojlanishda kattalar va tengdoshklar bilan muloqotning qaysi turi shakllanadi?
3. “Men” konsepsiyasi nima?

IV-BO`LIM. TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

4.1. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Reja

6. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari
7. Mashg`ulotlarda, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda, sayr va ekskursiyalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari Bugungi kunda ta’limiya sohasida yangi ilmiy yo`nalish - ta’limiy innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g`oyalarining paydo bo`lishi natijasida ta’limiy faoliyatda ham yangi yo`nalish «innovatsion ta’limiy faoliyati» tushunchasi paydo bo`ldi. «Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritchyanning quyidagi fikri diqqatga sazovor: «Ta’limiy tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, pedagogning innovatsion faoliyati. Ta’limiy faoliyatda

innovatsiyalar qancha ko`p bo`lsa, pedagog xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi».

Innovatsion faoliyat – pedagogning o`z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion ta’limiy faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo`lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topmaganligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo`naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o`rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o`tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy ta’limiy faoliyat o`rtasidagi uzilishdir. Pedagog innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo`llash hamda ommalashtirishda ishtirok etar ekan, u fandagi bilim, an'analardagi o`zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi ham kerak.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas boq`liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas.

Innovatsiya - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo`lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo`naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Bu g`oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo`lib, uning mohiyati borasida fanda hanuzgacha yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo`lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar, desak mubolag’a bo’lmaydi. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tuq`ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo`ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo`llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo`lgan kafolatli natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

2. Faoliyat yo`nalishiga qarab (ta’limiy jarayondagi, boshqaruvdagi)
3. Kiritilgan o`zgarishlarning tavsifiga ko`ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan)
4. O`zgarishlar ko`lamiga ko`ra (lokal, modulli, tizimli)
5. Kelib chiqish manbaiga ko`ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi-sarflangan mablaq` yoki kuchdan maksimal natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o`z-o`zidan paydo bo`ladigan yangiliklardan farqli o`laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o`zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo`la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o`rtasidagi asosiy farqlarni ko`rsatib o`tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko`lami asos bo`lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo`lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo`lmasa, o`z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o`zgartirishni vazifa qilib qo`ygan bo`lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo`lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo`lsa va uning natijasi o`sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o`zgarishiga olib kelsagina, uni innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko`lam va vaqt bo`yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo`ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to`la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo`nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o`zi ham yangilanadi.

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi yangi jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb - innovatsion o`zgarishlarga tayyorgarlik

ko`rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Ta'lim jarayonidagi innovatsion o`zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita pedagog faoliyatini yangilash va o`zgartirish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo`ldi.

Innovatsion faoliyat - ta’limiy jamoani harakatga keltiruvchi, olq`a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir.

«Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to`qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir»,-deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov.

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo`lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo`lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo`lishdir. Pedagog innovatsion faoliyatining markaziy masalasi ta’limiy jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo`lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Pedagog innovatsion faoliyati xususiyatlarini o`rganib chiqqan olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- ta’limiy tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o`zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo`llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;

- fikr almashish va metodik yordam ko`rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o`z sharoitiga moslashtirib borish.

Pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o`sib borishi natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o`z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o`rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko`rsatib o`tadi: «Innovatsion faoliyatning tuzilishi - ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatidir. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo`lishi mumkin».

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni ta’limiy jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

6. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
7. Mo`ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
8. O`zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
9. O`zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad - pedagogning yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o`z ustida ishlash ko`nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi ta’limiy texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, mashq`ulot va undan tashqari ishlarni o`tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

«Innovatsion faoliyat - pedagogning o`z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi va pedagog tomonidan u yoki bu ta’limiy vazifani hal qilishda qandaydir to`siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga

keladi». Innovatsion faoliyat yangi q`oyani izlashdan boshlanadi. Ta’limiy innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala echimiga yo`nalitirilganligi sababli pedagogdan yangicha yondashuvni talab qiladi.

Pedagog innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A. Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.

Pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to`siqlar mavjud. Bularning birinchisi pedagogning o`zi ko`nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya'ni pedagoglarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo`lsa, yana bir sabab yangi narsalar har doim odamlarda qo’rquv va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

Shunday ekan, innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo`lib, bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo`ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

Mashg`ulotlarda, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda, sayr va ekskursiyalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari

Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo`lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi– loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo`naltirilgan faoliyatdir.

Ko'p yillardan buyon davom etayotgan butun ta'lim tizimini qayta tashkil etish jarayoni maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etishga yuqori talablar qo'yadi, bu jarayonga yangi, yanada samarali psixologik-pedagogik yondashuvlarni izlashni kuchaytiradi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichidagi innovatsion jarayonlar, birinchi navbatda, bolaning potensial qobiliyatlarini ochishning boshlang'ich bosqichi sifatida maktabgacha ta'lim tizimiga ta'sir qiladi. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish, yangi sifat darajasiga

o‘tishni innovatsion texnologiyalarni rivojlantirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Maktabgacha ta’limda innovatsiyalar pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan, bolaning shaxsiga, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi usullar, shakllar, vositalar, texnologiyalarni belgilaydi.

Mashg`ulotlarda, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda, sayr va ekskursiyalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish - zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda bolaning shaxsiy rivojlanishidagi dinamik o'zgarishlar tufayli ijobiy natijaga erishishga qaratilgan ta’lim berish usullari, vositalari tizimidir. Pedagogik innovatsiyalar ushbu jarayonlarni tubdan o'zgartirishi, sifatli qilishi hamda mazmunan boyitishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar ta’limiy jarayonda o‘zining samaradorligini isbotlagan ilg‘or ijodiy texnologiyalar va ta’limning stereotipli elementlarini o‘zida mujassam etadi. B.T.Lixachyev pedagogik texnologiyaga quyidagi ta'rifni beradi: Pedagogik texnologiya - o'qitish shakllari, usullari, tarbiya vositalarining maxsus majmuasi va joylashuvini belgilovchi psixologik-pedagogik munosabatlar majmui; bu pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy qurolidir.

I.P. Volkov esa: Pedagogik texnologiya - rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish jarayonining tavsifi.

UNESCO: Pedagogik texnologiya - bu ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan texnik va inson resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda bilimlarni o'qitish va o'zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasini uch jihat bilan ifodalash mumkin. 1. Ilmiy: pedagogik texnologiyalar – pedagogika fanining o‘qitish maqsadi, mazmuni va usullarini o‘rganuvchi va rivojlantiruvchi hamda pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi qismi;

- Tavsiflovchi: jarayonning tavsifi (algoritmi), rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish uchun maqsadlar, mazmun, usullar va vositalar majmuasi;

3. Protsessual: texnologik (pedagogik) jarayonni amalga oshirish, barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy pedagogik vositalarning ishlashi.

Demak, pedagogik texnologiya o‘qitishning eng oqilona usullarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar, tamoyillar va qoidalar tizimi sifatida ham, real o‘quv jarayoni sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi.

Texnologiya usullardan takrorlanuvchanligi, natijalarning barqarorligi, ko'plab «agar»larning yo'qligi bilan ajralib turadi. Texnologiyalar va usullarning aralashishi ba'zida usullarning texnologiyalar tarkibiga, ba'zida esa, aksincha, ma'lum texnologiyalarning o'qitish usullari tarkibiga kirishiga olib keladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagilar kiradi:

- **kontseptual asos;**
- **o'quv mashg'ulotining mazmuni** (o'quv maqsadlari va o'quv materialining mazmuni);
- **texnologik qism** (o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv faoliyatining usullari va shakllari, pedagogning ish usullari va shakllari; diagnostika).

Konseptuallik ma'lum bir ilmiy konseptsiyaga, jumladan, ta'lim maqsadlariga erishish uchun falsafiy, psixologik, ta’limiy va ijtimoiy-pedagogik asosga tayanishni anglatadi.

Mustahkamlik tizimning barcha belgilarining mavjudligini o'z ichiga oladi, ya’ni jarayonning mantiqiyligi, uning barcha qismlarining munosabati, yaxlitligi.

Boshqarish imkoniyati diagnostik maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, ta’limiy jarayonini loyihalash, bosqichma-bosqich diagnostika, natijalarni tuzatish uchun turli xil vositalar va usullarni amalga oshirishga imkon beradi. Samaradorlik xarajatlarning optimalligini, ma'lum bir ta'lim standartiga erishish kafolatini ko'radi. Qayta ishlab chiqarish pedagogik texnologiyani bir xil turdagi boshqa ta'lim muassasalarida, boshqa fanlar tomonidan qo'llash (takrorlash, ko'paytirish) imkoniyatini nazarda tutadi.

G. N. Selevko tomonidan olib borilgan pedagogik texnologiyalar tahlili asosida maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan quyidagi texnologiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ta'limni rivojlantirish texnologiyalari,
- muammoli ta'lim texnologiyalari,
- o'yin texnologiyasi,
- kompyuter texnologiyalari,
- muqobil texnologiyalar.

Rivojlanish - oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskini yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi, murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklar o'rtasidagi kurashlardan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Bola shaxsi rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari, biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi. Tarbiya rivojlanishidagi muhim jarayon hisoblanadi. Tarbiyaning samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyat inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyat va yoshi u tomondan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyatning asosiy turi muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. Aynan shu sababdan maktabgacha ta’lim jarayonida bolalar bilan olib boriladigan har bir faoliyatga rivojlantiruvchi muhit xarakterini shakllantirish zarur.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolani to'Iaqonli tarbiyalash maqsadida mashg`ulotlarda, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda, sayr va ekskursiyalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda rivojlantiruvchi predmetli muhitni yaratish bosh vazifa qilib qo'yilgan. Bolani rivojlantiruvchi predmetli muhit - bu

bola faoliyati uning shaxsini to'Iaqonli rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar tizimidir. U bolalarning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan bazaviy tarkibiy qismlarni o'z ichiga qamrab oladi. **Uning tarkibiy qismlari**: tabiiy muhit va obyektlar, madaniy landshaftlar (ko'rinishlar), o'yin va jismoniy sog'lomlashtiruvchi qurilmalar, Predmetli o'yin muhiti, Bolalar kutubxonasi, Igroteka, Videoteka, Dizayn studiya va muzey, Musiqiy-teatral muhit, Mashg'ulotlarning predmetli-rivojlantiruvchi muhiti, Kompyuter o'yinlari majmuasidan iborat.

Rivojlantiruvchi muhitga quyidagi talablar kiradi:

- Uning rivojlantiruvchi xarakteri;
- Jihozlangan predmetli muhit;
- Yangi informatsion texnologiyalarni qo'llash. (intellektual va operatsional).

Mashg`ulotlarda, mashg`ulotlardan tashqari vaqtlarda, sayr va ekskursiyalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning xususiyati – ta’lim jarayonining o'zaro hurmatga yo'naltirilganligi, differensial va individuallik, demokratizatsiya, bolalar uchun bir xilda ta'lim berish imkoniyatini yaratish dinalizm va variativlikda ko’rinadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim amaliyotida ta'lim jarayonining ko'plab variantlari mavjud. Biroq ko'pgina texnologiyalar o'zlarining maqsadlari, mazmuni, qo'llaniladigan usullari va vositalari bo'yicha juda ko'p o'xshashliklarga ega va bu umumiy xususiyatlarga ko'ra bir nechta umumlashtirilgan guruhlarga bo'linadi.

Nazorat savollari

1. Innovatsiyaning maqsadi nimadan iborat?
2. Faoliyatni yangilash qanday bosqichlarida amalga oshiriladi?
3. Shaxs rivojlanishida qanday omillar muhim ahamiyat kasb etadi?
4. Rivojlantiruvchi muhitga qanday talablar kiradi?

4.2. Ta’limiy o`yinlarning turlari va o`tkazishning innovatsion texnologiyalari

Reja

1. Ta’limiy o`yinlar haqida ma’lumot. Ta’limiy o`yinlarning turlari va o`tkazishning innovatsion texnologiyalari
2. Ta’limiy o`yinlarning bolalar aqliy faoliyatini, ongini o`stirishga, ularning fikrlash tashabbuskorligini oshirishdagi ahamiyati

Ta’limiy o`yinlar haqida ma’lumot. Ta’limiy o`yinlarning turlari va o`tkazishning innovatsion texnologiyalari. O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin inson hayotida muhim o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud xususiyatlar ishga tushadi: harakat, nutq, idrok, fikrlash. Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, AS.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, - deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - U insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan». Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'yin - bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi. P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib o'yinning

ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarish davomida bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi; mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni ham tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir.

Ta’limiy o'yinlar - maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos holda ularga bilim berish metodidir. Ta’limiy o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o'yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun «Kasb egalari qanday ishlarni bilishadi?», «Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?», «Kim ko'proq narsalarning nomini ayta oladi?» va boshqa o'yinlarni ko'rsatish mumkin. Ta’limiy o'yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo‘llay olishga o'rganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Ta’limiy o'yinlar ta'lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli

faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar. Ta’limiy o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojiantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qaricha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag'ishlaydi. Ta’limiy o'yinning muhim tomoni - uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'oyadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya ta’limiy o'yinni boshlashga sababchi bo'ladi. Masalan, «Xaltachada nima bor?», yoki «Kim qanday ovoz chiqaradi» va boshqalar. Har bir ta’limiy o'yinda o'yin mazmuni, g'oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo'ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat yo‘nalishini yoki o'yinning borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini, o'zaro bir-biriga bo'lgan munosabatini boshqarib, kerakli tomonga yo'lantirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi o‘lchovdir. Ta’limiy o'yinda amal qilinadigan qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri-noto'g'riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi. Bolalarning biror bolaga nisbatan «U o'yin qoidasini buzib o'ynayapti» deyishlarining o'zi ularning o'yin qoidalariga qandaydir o'zgartirib bo'Imaydigan qonundek munosabatda bo'lishlarini ko'rsatadi. Bolalarning o'yin qoidalarini o'rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o'yin jarayonida o'zini-o'zi, o'zaro bir-birini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi. Ta’limiy vazifalarni bajarish bolalardan ma'lum darajada zo'r berishni, ya'ni ularning aqliy faoliyatiga talabni kuchaytiradi. Bolalar fahm-farosatlari, topag'onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar. Bularning hammasi bolalarning o'z kuchiga ishonchini oshiradi. Qalbini xursandchilik hissi bilan to'ldiradi, ular bundan ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. Ta’limiy o'yinning natijasini muhokama qiladigan tarbiyachi quyidagilarga e’tibor berishi lozim: qo'yilgan maqsadga erishildimi, belgilangan harakat bajarildimi, shu ko'zlangan nuqtayi nazardan ma'lum natijalarga erishildimi yoki yo'qmi. O'yin harakatlari xilma-xil ishlarda: narsalarning joyini almashtirish, yig'ishtirish, ularning rangiga, katta-kichikligiga, shakliga qarab bir-biridan ajratish, tanqidiy harakatlar va hokazolarda namoyon bo'ladi. Katta bolalarning o'yin harakatlari esa

murakkabroqdir: bu o'yin harakatlari bir guruh bolalar harakati bilan boshqa guruh bolalari harakati o'rtasida o'zaro bog'lanish bo'lishini, harakatlarning izchillik va navbati bilan amalga oshirilishini talab etadi. Har bir ta’limiy o'yinning muayyan natijasi bo'ladi, natija esa o'yinning finali hisoblanadi. Masalan: topishmoqlarni topish, berilgan o'yin topshiriqlarini bajarish, zukkolikni namoyon qilish kabilar o'yin natijasi bo'lib, ularni bolalar erishilgan muvaffaqiyat deb tushunadilar. O'yin mazmuni, g'oyasi, harakatlari va qoidalari o'zaro birbiri bilan bog'langan bo'lib, hatto ulardan birortasi bo'lmasa ham o'yinni o'tkazib bo'lmaydi. Ta’limiy o'yinning o'yin faoliyati sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlari o'yin tarzida bo'ladi. Tarbiyachi o'yin qatnashchisi yoki uning tashkilotchisi bo'Iadi. Bolalar ko'pincha o'yin mazmuni bilan belgilanadigan va o'yin harakatlari talab etadigan biron-bir rolni bajaradilar.

Ta’limiy o`yinlarning bolalar aqliy faoliyatini, ongini o`stirishga, ularning fikrlash tashabbuskorligini oshirishdagi ahamiyati. O'yin harakatlari kuzatishdan, buyumni har tomonlama ko'rib chiqish, uni tasvirlash va boshqa buyumlar bilan taqqoslashdan iborat. Ko'pincha ta’limiy o'yinlar bolalarning bilimiga biron-bir yangilik kiritmaydi, ammo ularni o'z bilimlarini yangi sharoitda ishlata bilishga o'rgatadi yoki ular kichkintoylardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini namoyon qilishga talab etadi. Masalan, «Ajoyib xaltacha” o'yinida bolalarga o'zlariga tanish bo'lgan o'yinchoqni tasvirlab berish vazifasi yuklatiladi, buning uchun esa bola o'yinchoqni boshdan - oyoq yaxshilab ko'zdan kechirishi va uning o'ziga xos begilarini eslab qolishi kerak bo'Iadi.

Ta’limiy o'yinning mazmuni va turlari. Ta’limiy o'yinning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatilishi to'g'risida bilimlar berish;

b) mehnatning har xil turi va uning kishilar hayotidagi roli to'g'risidagi bilimlar;

c) tabiat voqealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari to'g'risidagi bilimlar;

d) elementar matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Ta’limiy o'yinlar ularning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turli bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhlar ajratib berilgan.

Ta’limiy o`yinlarning turlari:

a) buyum va o`yinchoqlar bilan o`ynaladigan;

b) stol-bosma;

c) og‘zaki-so`z o`yinlari.

Buyum va o`yinchoqlar bilan o`ynaladigan ta‘limiy o‘yinlar. Ko'pchilik bolalar o'yinlari xilma-xil o'yinchoqlardan foydalanish bilan bog'liq. O'yinchoq bola hayotining yo'ldoshi, uning quvonchi manbayidir. U nafaqat o'yin quroli, balki bolalar o'yinida sherik, o'rtoq, kattalar qo'lida esa tarbiyaning muhim qurollaridan biridir. O'yinchoq o'yin yaratishda ishtirok etadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga katta ta'sir o'tkazadi. U bolaga shunchalik yaqinki, bola o'z o'yinchoqlarini sevadi, ularga bog'lanib qoladi, shu tufayli u o'zini atrofdagi hayotning to'laqonli a’zosl deb hisoblaydi. To'g'ri tanlangan o'yinchoqlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir sistemasi ishlab chiqilgan. Ular bilan amalga oshiriladigan o'yinlar bolaning sensor qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Stol-bosma o’yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash) o’stirish imkonini beruvchi o’yin usulidir. Bu o’yin turiga lotto, juft rasmlar, domino, tangram, labirint va boshqalar kiradi. Bunday o‘yinlar an'anaviy tarzdagi o'yin turlaridan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Og’zaki so‘z o‘yinlari katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladi. Ular bolaning o‘zgalar nutqini, kichik hajmdagi audio va video

matnlarni tinglab tushuna olish, turli mavzudagi savollarga zudlik bilan javob topa olish, o‘z fikrini tez, to‘g‘ri va aniq ifoda eta olishga o‘rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘yin turlarida didaktik maqsad va o‘yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dasturda har bir yosh guruhning o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ta’limiy o'yinning tutgan o'rni va vazifasi, mazmuni, o'tkazish uslublari belgilab berilgan. Masalan, 3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan ta’limiy o'yinlardan asosiy maqsad - bolalarni ranglarni bir-biridan farqlash va nomini aytishga o'rgatish, har xil o'lchamlar (katta, kichik}, shakllarni (sharcha, kubcha], bilishga, ko'rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda motorikani o'stirishga yordam beradi. Masalan, «Juft shakllar” «Katta va kichik”, «Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz», “Qo'g'irchoqni cho'miltiramiz», «Bu nimaning ovozi?», «Quttichada nima bor?” va shunga o'xshash o'yinlar. Bundan tashqari, shu guruhda bolalarni musiqa tovushlarini farq qilishga o'rgatish uchun musiqaviy ta’limiy o'yinlar ham o'tkaziladi.

Kichik guruhda ta’limiy o'yinlar quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi: bolalarda ta’limiy o'yinchoqlar bilan yakkama-yakka o'ynash ko'nikmasini rivojiantirish, jamoa o'yinlari tashkil etish; narsalarni faqat bir rangga qarab ajrata olish, katta-kichikligiga qarab farqlash; xalqachalarni va kubchalarni muntazam shaklda terib, ulardan minorachalar yasash; tanish buyumlar tasvirlangan ikki, to'rt burchakli, olti burchakli kesma rasmlardan «Idish tovoqlar», «O'yinchoqlar» kabilarning tasvirini yig'ish; narsalarni farqlash va nomini to'g'ri aytishga o'rgatish va hokazo.

Musiqiy - ta’limiy o'yinlarda esa musiqa ovozlarining ba'zi bir xususiyatlarini farqlashga o'rgatish, qadam va yurish ritmi («Kim kelyapti?», «Sichqonlar yugurishyapti», „Yomgi‘r“, „Do‘l“) ovoz va cholg'u asboblari tembrlarini (“Musiqiy asbobni top”, «Ovozidan bilib ol») ajrata bilishga o'rgatish vazifalari ham hal etiladi.

O'rta guruhda ta’limiy o'yinlar orqali bolalar eshitish, ko'rish, sezish a'zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materialning xossalarini bilib olish, narsalarni tashqi ko'rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlarga ajratishni o'rgatish vazifalari amalga oshiriladi. Yana ta’limiy o'yin davomida bolalar o'rtaga qo'yilgan masalani hal etishda sabr-matonatli bo'lishga, qiziquvchanlikka, diqqat-e’tiborlilikka odatlantirib boriladi. Musiqaviy-ta’limiy o'yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab, baland-pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qila olishga o'rgatib boriladi.

Katta guruhda ta’limiy o'yinlar quyidagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo'yiladi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, ularni taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, xususiyatini seza bilish, narsalarning joylashishidagi o'zgarishlarni aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarni tarbiyalash; biron hayvon, o'simlik, transportni tasvirlab berilganda ularning nomini topa bilish malakasini o'stirish, bolalarning umumiy tasavvurini, buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlarga bo'lish qobiliyatini rivojlantirish, so'z faolligini oshirish va to'ldirish; qismlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar)yasash malakasini o'stirish vazifalari hal etiladi. Musiqaviy ta’limiy o'yinlar orqali tovushlarni bir-biridan farq qilishni o'rgatish, ritmik usulni ajrata olish, ashulalar va cholg'u asboblari ovozining tembrini farq qilish («Kim kuylayapti?” «Shiqildoqli childirma»), ovozning dinamikasini ajrata olish («tez, sekin kuylaymiz”) uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhida ta’limiy o'yinlar alohida o'rin tutadi va bu guruhda ta’limiy o'yinlar orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda ta’limiy o'yinlarga qiziqish uyg'otish, har bir narsani bilishga havas, kuzatuvchanlik, diqqat-e’tibor, ziyraklik, aqliy vazifalarni mustaqil hal qilish malakasini tarbiyalash. Ularga narsalarni turkumlarga bo'lishda yordamlashuvchi o'yinlarni, domino, mozaykaning har xil turlarini, shashka, jumboqli o'yinlar, og'zaki o'yinlar, ranglarni va xususiyatlarni bir-biridan

farqlashni o'rgatadigan o'yinlar o'tkaziladi. Musiqaviy-ta’limiy o'yinlar orqali esa bolalarni tovushlarga diqqat bilan quloq solishga («Takrorla”, «Nog‘orani galma-gal chalish” va h.k) ritmik shaklda takrorlash, dinamik farqlarni bir-biridan ajratishga o'rgatiladi. O'yinni tarbiyachi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otgan holda tugatishi kerak, ya'ni bolalar shu o'yinni yana davom ettirishni xohlab qolsinlar. Tarbiyachi shunday deydi: «Kelgusi gal bundan ham yaxshiroq o'ynaymiz», yoki «Yangi o'yin bundan ham qiziqroq bo'ladi». Tarbiyachi o'yinning yangi variantlarini ishlab chiqadi. Ta’limiy o'yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, hovlida, dalada va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yinning ta'sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi. Shunday qilib, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish vositasi bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Nazorat savollari

3. Ta’limiy o`yinlarning didaktik ahamiyati nimada?
4. Ta’limiy o`yinlarning qanday turlari mavjud?
5. Musiqaviy ta’limiy o'yinlar orqali qanday sifatlar shakllanadi?
6. Stol-bosma o’yinlari qanday o‘yinlar turiga kiradi?

4.3. Atrof - olam bilan tanishtirish jarayonida qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar

Reja

1. Bolalarni o’zlari yashayotgan ko’cha, mahalla, tuman va viloyat, O`zbekiston poytaxti, O`zbekistonning qadimiy shaharlari, davlatimiz ramzlari bilan tanishtirish
2. Bolalarning kattalar mehnati hamda sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini boyitish, bilimlarini kengaytirish

Bolalarni o’zlari yashayotgan ko’cha, mahalla, tuman va viloyat, O`zbekiston poytaxti, O`zbekistonning qadimiy shaharlari, davlatimiz ramzlari bilan tanishtirish. Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-

avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy ma’naviyatini takomillashtirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish orqali ular tomonidan har tomonlama bilimlarni egallashi, psixik jarayonlarning rivojlanishi, qobiliyatlarini o‘sishi, dunyoqarashini shakllanishi, axloqiy sifatlar, ijobiy xulq-atvor odatlarini o‘zlashtirilishiga erishiladi. Bolani o‘rab turgan atrof-olam haqidagi tushunchalar: ona Vatanga muxabbat, ularni tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san’ati haqidagi bilimlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ilk qadam” o‘quv dasturida turli yosh guruh bolalarini atrof-olam haqidagi tushunchalarini shakllantirishda «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi 6-7 yoshli bola kompetensiyalari bo‘yicha quyidagi bilimlarni egallashi ko‘zda tutiladi:

- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

Vatan, mahalla to‘g‘risidagi bilimlarni mustahkamlash borasida “O‘zbekiston – mening Vatanim” mavzuida bir oy davomida “Mening shahrim”, Mening mahallam, “Men va mening oilam”, “Men va mening do‘stlarim”, “O‘zbekistonning boyliklari”, “Transport bilan tanishuv”, “Yer usti transporti”, “Havo, suv va yer usti transporti”, “Bizning yaxshi ishlarimiz”, “Barcha kasblar muhim”, “Vatan himoyachilari kuni”, “Bizning

inoq mamlakatimiz”, “Bizning mamlakatimiz – do‘stlik va tinchlik mamlakati”, “Qo‘shni mamlakatlar” haqidagi tushunchalarini mustahkamlash; O‘zbek xalq og‘zaki ijodi mavzulari asosida bola qalbida o‘z millatiga muhabbat, milliy g‘urur hissini tarbiyalashda bolalarni tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirishni davom ettirish; ulug‘ allomalar: Alisher Navoiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, musavvir Kamoliddin Behzod haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash yuzasidan turli mashg’ulotlar va ma’naviy tadbirlar amalga oshiriladi.

Bolaning umumxalq bayramlari bilan tanishtirishda ularning psixologik xususiyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali natijaga erishishda mavzularni to‘g‘ri tanlay olish maqsadga muvofiqdir. 1-sentyabr - Mustaqillik kuni, 1 oktyabr - O‘qituvchilar va murabbiylar kuni, 8 dekabr - O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, 1 yanvar - Yangi yil bayrami, 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami, 21 mart - Navro‘z bayrami, 9 may - Xotira va qadrlash kuni haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish va boyitish; bolalar bilan birgalikda 1 iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish bayramlarini nishonlash; shakl va mazmun jihatdan xilma-xil bo‘lgan bayramlar, sayllarni muntazam ravishda tashkil qilib turish. Masalan, “Mehrjon”, “Qovun” sayli, qushlar, gullar bayramlari va boshqalar. Mashhur sarkardalar: Bolaning ulug‘ sarkardalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi bilimlarini kengaytirish; O‘zbekiston harbiy qo‘shinlari va ularning vazifasi, 14 - yanvar -Vatan himoyachilari kuni ekanligi haqida tasavvurlarini kengaytirish vazifalari amalga oshiriladi.

“Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti”, «Samarqand – qadimiy shahar», «Vatanimiz ramzlari», «Maktabga sayohat», «Bozorlar va ularning turlari», buyuk siymolar, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san’ati: «Kim bo‘lsam ekan?», «Kashtachilik», «Zardo‘zlik», «Shifokor», «Oshpaz» kasblari va boshqa mavzulardagi suhbatlar bolalarga tevarak-atrofga bo‘lgan

munosabatlarni mushohada qilib, tushungalarini bayon etish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurning qay darajada rivojlanganligini namoyon etadi.

Tevarak atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga ya'ni analizatorlariga ijobiy ta'sir etadi. Sezgi bolalarda turli xususiyatlarni bilib olishga yordam beradi. Masalan, issiq-sovuq, g'adir-budur va hokazo. Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Suhbatlar, maxsus tayyorlanadigan muloqotlar esa dastur asosida muayyan mavzular bo'yicha uyushtiriladi. Masalan, maxsus tayyorlangan suhbatlar quyidagicha tuziladi: dastlab mavzu belgilanadi, uning maqsadi, vositalari aniqlanadi, savollar tuziladi. Bu suhbatlarning har birida **nega? nima uchun? nimadan? qanday qilib?** kabi izlanuvchi va muammoli xarakterdagi savollar bilan boyitilishi zarur. Shu bilan birga, savollar, umumlashtiruvchi xarakter kasb etishi ham mumkin. Bunda muloqot mashg'uloti suhbat, muqaddima, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va anglashga o'rgatish jarayonida muloqot qancha ko'p bo'lsa, ularning bog'lanishli nutqi shunchalik samarali rivojlana boradi. Tevarak-atrofdagi rangin dunyo ular tasavvuri va dunyoqarashini shakllantirishga, so'z zahirasini boyitishga, nutqini o'stirishga rag'bat uyg'otadi. Ayniqsa, fasllar bilan bog'liq mashg'ulotlar bolalarning qiziqishiga yanada mos tushadi. Masalan, bog'cha hovlisida qor yog'ishini kuzatish jarayonida quyidagi savollar asosida suhbat uyushtirish mumkin:

- Qor uchquni nimaga o'xshaydi?
- Qor uchqunlari nima uchun har xil bo'ladi?
- Qor odam qachon erib ketadi?
- U nima uchun erib ketadi? …

Savol-javob jarayonida tarbiyachi bolalarni kundalik hayot bilan tanishtira boradi, tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish vositasida bilimini boyitadi, nutqini rivojlantiradi. Savol-javob orqali bolalar qor uchqunlarining har xil shaklda bo'lishi, uning turli tezlikda yog'ishi sabablarini bilib oladilar, havo harorati

bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tushunib yetadilar, qish mavsumidagi qiziqarli mehnat jarayoni bilan tanishadilar; qor qurash, supurish, qor bosgan joylarda qushlarga don tashlash uchun donxo‘raklar tayyorlash kabi ishlarni zavq-shavq bilan, hamkorlikda bajaradilar va tarbiyachi, tengdoshlari bilan faol muloqotda bo‘ladilar. So‘zlashuv jarayonida ishlatiladigan «qor uchqunlari», «kapalak qor», «qor qurash», «muz yo‘lak», «donxo‘rak», «qor odam», «muztepa» kabi so‘z va so‘z birikmalari dialogik nutqni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar nutqini rivojlantirish uchun mavzu rejasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

1. Tevarak – atrof va ona Vatan. O‘zbekiston haqidagi tasavvurlarini boyitish
2. O‘zbekistonning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Toshkent, ko‘hna Urganch, Shahrisabz, Xiva, Qo‘qon va Buyuk ipak yo‘li.
3. Konstitutsiya saboqlari.
4. Davlatimiz ramzlari: gerb, bayroq va madhiyasi.
5. O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tili ekanligi.
6. O‘zbekistonning poytaxti - Toshkent shahri.
7. Toshkent metropoliteni.
8. Toshkent teartlari.
9. Mening shahrim, mahallam.
10. Oilamiz shajarasi.
11. Bizning oila
12. Ona tilim –jonu dilim.
13. Til bilgan – el biladi.
14. Jonajon o‘lka tabiati.
15. Hamdo‘stlik mamlakatlari.
16. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi
17. “Xayr bog‘cham” bayramlarini nishonlash; shakl va mazmun jihatdan xilma-xil bo‘lgan bayramlar, sayllarni muntazam ravishda tashkil qilib

turish. Masalan, “Mehrjon”, qovun sayli, qushlar, gullar bayramlari va boshqalar.

18. O‘zbek xalqining hunarmandchilik san’ati.
19. Xalq me’morchilik san’ati.
20. Xalq qo‘shiqlari, laparlari, alla, ertak, maqol va topishmoqlar, tez aytishlar.

Bolalarning kattalar mehnati hamda sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini boyitish, bilimlarini kengaytirish. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko‘nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyot qilishga o‘rgatishga jiddiy e’tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, mehnatga nisbatan mas’uliyatni his etib yondashishini tarbiyalaydi. Bolalarni kattalar mehnatiga nisbatan mas’uliyatni tarbiyalash uchun o‘zlari mehnat malakalarini egallab olgan bo‘lishlari va o‘z mehnatlarining ahamiyatini tushunishlari lozim. Kattalar mehnatini kuzatish bolalarda kuzatuvchanlikni o‘stirishning usullaridan biridir. Kattalar mehnatini kuzatish jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashqari ta’limiy vazifalar ham hal qilinadi. Bolalarda o‘z yoshidan kichik bo‘lgan bolalarga o‘yinchoqlarini yig‘ishtirish va tuzatishda, yer maydonchasini tozalashda, qum saqlanadigan joyni tartibga keltirishda yordam qilish istagi va ko‘nikmasini tarbiyalash; kasb-hunarga oid turli o‘yinlar (“Chevar”, “Hamshira”, “Sotuvchi-xaridor”) o‘ynashga o‘rgatish kabi.

Transport va aloqa vositalari haqida quyidagilarni bilishi lozim: bolaning yo‘l harakati qoidalari haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash;

transport vositalari, pochta aloqa xizmati, pochtaning vazifasi va ahamiyati haqida ma’lumot berish; telefon aloqasi va telegrafchilar, ularning mehnati, telefon xizmatining hayotimizda tutgan o‘rni haqida tushuncha berish. Bu kabi bilimlarni bolalarga singdirishda “Pochta-pochta”, “Kimga nima kerak?”, “Telefon-telefon”, “Kompyuter” kabi mavzularda suhbat va o‘yinlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, bolalar tomonidan buyumlarning bir necha xil belgilari va ulardan foydalanish haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash; matodan qilingan buyumlar, ularning turlari va foydalanish usullari; temir va yog‘ochdan ishlangan buyumlar va ulardan to‘g‘ri foydalanish haqidagi tasavvurlarini yangi mavzular bilan boyitish; buyumlarning yasalishi va ishlatilishi haqida suhbatlar tashkil etish lozim.

Dasturda shuningdek, bola o‘z tanasining qismlarini va gigiyenani o‘rganishi: ularni sog‘lom turmush tarziga odatlantirish; ularga odamning ichki a’zolari (yurak, jigar, oshqozon o‘pka) va ularning joylashuvi, vazifalari haqida (inson o‘pka orqali nafas oladi, havo qanchalik toza bo‘lsa, o‘pka shunchalik yaxshi ishlaydi. Yurak inson hayoti uchun eng kerakli a’zolardan hisoblanadi. U ishlayotganini bildirib doim “duk-duk” urib turadi. Jigar qonni tozalaydi. Biz iste’mol qilayotgan ovqat oshqozonga tushadi va hazm bo‘ladi) ma’lumot berish; bu a’zolar tananing qayerida joylashganini ko‘rsatish va nomini aytishga o‘rgatish; bolaning sog‘lom hayot kechirish (ozodalikka va kun tartibiga rioya qilish, jismoniy mashqlar bajarib, tanani chiniqtirish va sog‘lom ovqatlanish) haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash; odam va hayvon o‘rtasidagi bir necha farqlanuvchi va umumiy jihatlar haqidagi tushunchalarni aniqlash va kengaytirish; mashg‘ulotlarda odamning tuzilishi aks ettirilgan turli rasm va badiiy ertaklardan foydalanishi lozimligi qayd etilgan. Bu kabi ish turlarini tashkil etishda tarbiyachi va bolalar kattalar mehnatini nazorat qiladilar hamda unga baho berishga o‘rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

- ko‘rgazmali,

- amaliy,
- og‘zaki metodlar.

Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ko‘rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o‘yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og‘zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy ertaklarni o‘qish, suhbat) metodlaridan va xilma-xil ish shakllaridan: mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, kundalik turmushdagi kattalar mehnatini, bayramlarni kuzatish, ta’limiy o‘yinlardan foydalaniladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida atrof-olam bilan tanishtirish orqali bolalarda mehnatsevarlik ko‘nikmalarini shakllantirishda turli shakl, usul va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ko‘rgazmali metod orqali rasmlar, kasblar bilan tanishtiriladi. Og‘zaki metodlarga tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning o‘zaro suhbatlari kiradi. Amaliy metodda bolalar o‘zlashtirilgan bilimlarini turli o‘yinlar orqali mustahkamlaydilar. Bu usullar orqali mashg‘ulotlarni rang-barang hamda qiziqarli tashkil etiladi. Shuningdek, mehnat bilan tanishtirish orqali bolalarda mehnatsevarlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning uzluksiz, izchil, maqsadga muvofiq tashkil etilishi ham tarbiyalanuvchilarning mashg‘ulotlar jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi.

Xalq amaliy san’ati bilan tanishtirishning mazmuni quyidagicha:

- Bolani o‘zbek xalq amaliy san’ati, milliy hunarmandchiligidan: zargarlik, zardo‘zlik, misgarlik, ganchkorlik kabilar bilan tanishtirish;
- xalq ustalari tomonidan tayyorlangan buyumlardagi, kashtachilarning tikkan so‘zanalari, zargarlarning nozik did bilan yasagan taqinchoqlardagi go‘zallikni, ranglar jilosini his qilishga undash.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida atrof-olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida bolalar bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagi shartlarga ko‘ra amalga oshiriladi:

- mashg‘ulotlarni tashkil etishda maqsadni aniq belgilash (aniq maqsad asosida mashg‘ulotlarning tashkil etilishi o‘z navbatida vazifalarning to‘g‘ri belgilanishi, mashg‘ulot jarayonining umumiy holatini oldindan bashoratlay olish natijalarning taxminiy bo‘lsa-da, belgilab olinishi uchun sharoit yaratadi);

- mashg‘ulotlarni puxta reja yoki loyiha asosida tashkil etish (ushbu holat aniq maqsad negizida xususiy maqsadlarni aniqlash, mashg‘ulot jarayonining umumiy davri hamda bosqichlarida amalga oshirilishi talab etiluvchi vazifalarning mavjud vaziyatga muvofiqligini nazorat qilib borish, mashg‘ulot jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish, har bir bosqichning yagona tizim mazmuniga muvofiq kelishiga erishish borasida imkoniyat yaratadi);

- mashg‘ulotlar rejasini ishlab chiqishda tarbiyalanuvchilarning xohish-istaklari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish (nazarda tutilayotgan holat maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini mashg‘ulotlarga jalb etish, ularning mashg‘ulotlar jarayonida faollik ko‘rsatishlariga erishishni kafolatlaydi);

- mashg‘ulotlar jarayonida har bir tarbiyalanuvchiga nisbatan ularning psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olish asosida individual yondashish (qayd etilgan holat tarbiyalanuvchilarning mashg‘ulotlar jarayonida ruhan va jismonan toliqib qolishlarining oldini oladi, har bir tarbiyalanuvchiga uning ichki imkoniyatlariga mos keluvchi topshiriqlarning berilishini ta’minlaydi);

- mashg‘ulot jarayonida ushbu jarayonning asosiy subyektlari bo‘lgan tarbiyalanuvchi shaxsining hurmat qilinishi, har qanday ko‘rinishdagi faolliklarini rag‘batlantirilib borilishiga erishish. Zero, maktabgacha tarbiya yoshi bolalarining psixologik xususiyatiga ko‘ra ular o‘zlarining eng oddiy hatti-harakatlariga nisbatan ham atrofdagilar e’tibor berishlarini, qo‘llab-quvvatlashlarini istaydilar. Atrofdagilar tomonidan bolalarning juda oddiy darajada bo‘lsa-da, dinamik xususiyatga ega hatti-harakatlarining «Juda soz»,

«Barakalla», «Buni uddalay olasan deb kutgandim, yanglishmagan ekanman», «Berilgan topshiriqni sifatli qilib bajarishingga ishonaman», «Juda sifatli bajarilibdi» kabi olqishlar yordamida rag‘batlantirilib borishi ularning mashg‘ulotlarga bo‘lgan yondashuvlarini keskin darajada ijobiy ahamiyat kasb etishiga olib keladi. Bolada tarbiyachi tomonidan berilayotgan topshiriqni o‘z vaqtida, sifatli bajarilishiga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni qaror toptiradi, shuningdek, talab etilayotgan qoidalarga qat’iy amal qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

- Mashg‘ulotlar jarayonining oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishiga erishish samarali natijalarga olib keladi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar atrof-olamda bolalar faoliyatini va ularning o‘zini tuta bilishini, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo‘naltiradi. Atrof-olamga bo‘lgan munosabatni shakllantirishda bolalar idrokiga yetarli darajada yetib boruvchi atrof-olam qonunlari bo‘yicha bilim alohida o‘rin egallaydi. Atrof-olamga bo‘lgan munosabatni rivojlantirish (mashg‘ulot, ekskursiya, sayr kabi hayotiy vaziyat) bolaning ma’naviy-ijobiy, ruhiy kechinmalariga asoslangan pedogogik jarayonni tashkil qilish bilan bog‘liq. Bolalarga atrof-olam bilan muloqotda bo‘lganda o‘zi, tengdoshlari va kattalar qilgan ishlarni baholashni o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa bola qalbida xalq ijodiyotiga, amaliy san’at ertaklariga nisbatan qiziqish hissini tarkib toptirish maqsadga muvofiq.

Nazorat savollari

1. Bolalar o‘zbek xalq amaliy san’ati turlaridan qaysilari bilan tanishtiriladi?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish metodlari qaysilar?
3. 6-7 yoshdagi bolalar qaysi buyuk allomalarining hayoti va ijodi bilan tanishtiriladi?

4.4. Buyuk siymolar va tarixiy merosimizni o`rgatish hamda kishilar mehnati va kasb-kori bilan tanishtirishda innovatsion texnologiyalarni qo`llash

Reja

1. Buyuk siymolar va tarixiy merosimizni o`rgatish hamda kishilar mehnati va kasb-kori bilan tanishtirishda innovatsion texnologiyalarni qo`llash
2. Kasb hunarga o`rgatuvchi o’yinlarni o‘tkazish va ishlanmalari tayyorlash usullari

Eramizdan oldingi minginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusidagi juda ko'p afsonalar, rivoyatlar aytilgan bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto”da keltirilgan. «Avesto”da insonning barkamol bo‘lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi birligi va ezguligiga katta e'tibor qaratiladi. «Avesto»da mamlakatni obod qilib ta'minlashda asosan:

- Shahar va qishloqlarni obod qilish;
- Bog'larni ko'paytirish;
- Chorva va yaylovlarga e'tibor berish;
- Kishilarni madaniy turmush tarziga undash g'oyalari asosiy o'rin egallaydi. Shuningdek, yer, suv, zamin, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga e'tibor berish lozimligi ta'kidlanadi. Zardushtiylik ta'limotida inson shaxsining takomili, tabiatni muhofaza qilish, o'z ehtiyojlarini qondirish me'yorlarini tarbiyalash masalalari keltiriladi. G'arb bilan Sharqni, Uzoq Sharq mamlakatlari bilan O'rta yer dengizini bog'lovchi buyuk savdo yo'li - «Buyuk Ipak yo'li” ham bizning sarzaminimizda rivojlanib, madaniy boyliklarni almashuvi asosida taraqqiyotni yuzaga keltirdi. Sharq uyg'onish davrida qishloq xo’jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi ro’y berdi. Natijada Yaqin va O'rta Sharq davlatlari bilan savdo ishlari olib borildi. Ko'plab sug'oriladigan yerlar ochildi, sug'orish inshootlari

yaratildi. Paxta, zig'ir, kanop yetishtirish yo’lga qo’yildi. Movarounnahrda, asosan, Xorazm, Farg'ona, Samarqand va Buxoroda to'qimachilik mahsulotlari ayniqsa, Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoda mashhur bo'ldi. Bu davrlarda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotida o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Sharq mutafakkir va olimlardan Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Z.M.Bobur kabi qomusiy olimu sarkardalarning inson va uning kamoloti, ta'lim-tarbiya, iqtisodiyot va tabiat masalalari haqida ertaklar yaratdilar.

Al-Xorazmiy ilmiy bilim, ta'lim metodlari insonni aqliy kamolotga yetaklash kabi falsafiy qarashlari bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim belgilari va omillarini o'z ilmiy ertaklarida yoritib berdi.

Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida fikr yuritib, har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ldi. Og'ir mehnat egalari sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmandlar mehnatini keltirdi. Beruniy «Minerologiya» ertakida nafaqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida, balki hunarmandchilikka oid qarashlar, mamlakat iqtisodiyotini kengaytirish masalalarini ilgari surdi.

Ibn Sino materiyanining eng sodda bo'Iaklarga bo'linmaydigan shakli to'rt unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat, ularning o'simlik, hayvonot olamiga ta'siri bebaho boyliklarni asrab-avaylash kerakligi to'g'risida o'zining “Aqsom ul-ulum ul-aqliya» (aqliy bilimlar tasnifi) ertakida ma’lumotlar keltirdi.

Amir Temur mamlakatning iqtisodiy ahvolini ko'tarishgda savdoning ahamiyatini tushunib, bozorlar, rastalar, turli-tuman ustaxonalar qurdirib, xalq hunarmandchilik san'atini taraqqiy ettirdi. Shuningdek, xalq farovonligi, mamlakat obodonchiligi yo'lida suv omborlari, to'g'onlar qurishga, yangi yerlarni o'zlashtirishga e'tibor berdi. Amir Temurning soliqlar haqida qoidasi muhim ahamiyatga egadir.

Ma'naviyatimizning buyuk siymosi Alisher Navoiy shahar va mamlakat obodonchiligiga katta hissa qo'shib, shifoxonalar, madrasa qurdirib, ularni kerakli jihozlar, mudarrislar, tabiblar va boshqa xodimlar bilan ta’minlab, ularni oylik maosh, ozuqa, kiyim-bosh bilan ta'minladi. Binolar qurilishi, dehqonchilik ishlarini yo'lga qo'yish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shdi. Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o'nlab ilmiy risolalar bitilishga bevosita rahbarlik qilganligi shu asrda davlatchilikni boshqarishda bosh vazifa bu iqtisodiyotni rivojlantirish muhim masalalardan biri ekanligini ta'kidladi. Talabalar uchun «Ixlosiya» madrasasi, darveshlar uchun «Xalosiya» xonaqoni, bemorlar uchun «Shifoiya» shifoxonasi, masjidi Jome’ yoniga Qorixona (Dor ul-hufroz) qurilib, ular uchun nafaqa ajratib, ularni kitoblar va zaruriy ashyolar bilan doimiy ravishda ta'minlab borgan. Alloma tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari ham farovonligini, turmush darajasini o'stirish bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotini ko'tarishga olib keldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur mamlakat taqdiriga befarq bo'lmay, o'z ertaklari va hayot faoliyatlari bilan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shgan.

Bunday ma’lumotlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida atrof-olam bilan tanishtirish mashg’ulotlarida bolalarga berib borilishi va ularda buyuk siymolarning hayot yo’liga havas va faxr tuyg’ularini uyg’onishiga sabab bo’ladi.

Kasb hunarga o`rgatuvchi o’yinlarni o‘tkazish va ishlanmalari tayyorlash usullari

Mamlakatimizda yangidan qad rostlagan zamonaviy qiyofani aks ettiruvchi oliy ta'lim muassasalari, maskanlari (maktab, litsey-kollej, maktabgacha ta'lim muassasalari); shifoxonalar, sanatoriya, dam olish maskanlari; Madaniy va ma'rifiy inshootlar; Turli xildagi banklar; Mashinasozlikka mo'ljallangan korxona va zavodlar; Yo'l, ko'priklar, mamlakat temir yo'li; O’zbekiston havo yo'llari haqida bolalarga ma’lumotlar

berib borish ularni o’tmish va hozirgi kundagi taraqqiyot haqida turli axborot bilan qurollantirishga olib keladi.



4.4.1-rasm

Dehqonlar mehnati bilan tanishtirishda qo’llaniladigan ko’rgazma vositasi

Inson va uning ehtiyojlari haqida bolalarga tushuncha berishda, inson uchun zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojlar (kiyim- kechak, oziq-ovqat va hokazo), tejamkorlik haqida (suvni, vaqtni tejash), maktabgacha ta'lim muassasalaridagi va uydagi jihozlardan (o'yinchoq, kitob va hokazo) tejamkorlik bilan foydalanish, vaqt haqida ilk tushuncha berish orqali vaqtni tejash haqida tushunchalar beriladi. Bu tushunchalarni berish orqali tevarak-atrofdagi buyum va xom-ashyolar, ularning xilma-xil sifatlariga, uy-ro'zg'or buyumlari (ko'rpa-to'shak, ko'rpacha, yostiq, choyshab, idish-tovoqlar) ularni bir-biridan farqlash va umumlashtirish, ustki kiyimlar turlari haqida tasavvurlarini aniqlash va kengaytiriladi.

Jonli va jonsiz tabiat, yer kurrasi, suv, havo, yer to'g'risida tasavvurlari shakllantiriladi. Vaqtni chamalash va bolalarning vaqtni ifodalovchi tushunchalarni nutqda to'g'ri qo'Ilashga o'rgatish asosida vaqt haqida

tasavvurlari mustahkamlanadi. Shuningdek, sutka qismlari (kechasi, kunduzi, ertalab, kechqurun, bugun, kecha, ertaga) tushunchalarini farqlash va to'g'ri qo'llay olishga, harakat tarzini ifodalashga (tez, sekin) o'rgatiladi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida **«Non va suv biz uchun aziz», «Uy-ro'zg'or buyumlari», «Oshxona buyumlari”** kabi mavzularda suhbatlar o'tkaziladi. Shuningdek, inson va iqtisod haqida tushuncha berishda mehnat inson hayotidagi asosiy faoliyat ekanligi, kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash, o'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi, duradgor mehnati, dehqon mehnati haqida ma'lumotlar beriladi.



4.4.2-rasm. Non mahsulotlari bilan tanishtirishga doir ta’limiy o’yin (Qaysi biri ortiqcha?)

Bolalarni o'z tarbiyachisi, enaga, oshpaz, haydovchi, bog'bon mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissi shakllantiriladi. Mehnat qurollariga nisbatan ehtiyot bo'lib, tejamkorona munosabatda bo'lish tarbiyalanadi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida quyidagi: **«Duradgor mehnatini kuzatish», «Dehqonlar mehnati haqida», «Haydovchi mehnati haqida», «Bog'bon», «Oshpaz», «Quruvchi”** mehnati haqida suhbatlar o'tkaziladi. Bolalar xo'jalik mehnat qurollari bilan yaqindan tanishtiriladi. Shuningdek, bolalarga bozor, uning turlari, sotuvchi, xaridor,

bozorda oldi-sotdi ishlarini amalga oshiruychi vosita - pul to'g'risida tushuncha beriladi. Milliy pul, uning turlari, vazifalari haqida bolalarga ma’lumotlar beriladi.



4.4.3-rasm

Uy-ro'zg'or va oshxona jihozlari ta’limiy o’yin namunasi (Qaysi biri ortiqcha?)

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida**: «Do'kon”** ta'limiy o'yini, oziq-ovqat do'koniga sayr o'tkaziladi. Katta guruhda quyidagi: -Inson va uning hayotiy ehtiyojlari; - Inson va iqtisodiyot; - Pul, narx, mahsulotlar sotib olish va ayirboshlash; - Ishlab chiqarish, Hunarmandlar mehnat faoliyati bilan tanishtirish asosida ularga atrof-olam to’g’risidagi bilimlar beriladi, bolalarga milliy ongni shakllantirish, mustaqil fikr yurita olish, tabiiy va moddiy ne’matlardan to'g'ri foydalana olish haqida tushuncha beriladi.

Insonlarning tabiiy ehtiyojlari (ichimlik suvi, yerga o'simlik va hayvonotlar dunyosi) va imkoniyatlari, moddiy ma'naviyat ehtiyoji va uni qondirish usullari, vaqtni tejash, undan unumli foydalana olish, suvning inson hayoti uchun zarurligi, yer yuzidagi eng bebaho boylik, uni asrash bizning burchimiz ekanligi, Quyosh, Oy va sayyoralar harakatlari haqida tushuncha beriladi. Insonlarning transport va aloqa vositalariga bo'lgan ehtiyoji haqida tushuncha berishda «Aloqa vositalari», «Havo» transporti haqida suhbatlar o'tkazilib, yengil transport turlari harakati kuzatiladi va AKT yordamida

yaqindan tanishtiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi shifokori yoki hamshirasi mehnati bilan tanishtirilib, bolalar sog'lig'i uchun barcha sharoitlar mavjudligi, basseyn va sog'lomlashtiruvchi jihozlarning bolalar uchun, ularning sog'lom o'sishlari uchun yaratilganligi tushuntiriladi. Buning uchun quyidagi **«Shaxsiy gigiyena», "Vitaminlar", Salomatlik-tuman boylik», «Sog' tanda - sog'lom aql"** mavzularida suhbatlar o'tkaziladi.

Shuningdek, kasblarning muhimligi, xizmatlarning turlari, ishlab chiqaruvchilar: tadbirkor, ishbilarmon, biznesmen kabi tovar egalari haqida, "pul» - nima, milliy valyutamiz haqida to'liq ma'lumot beriladi. Bozor haqidagi tushunchalarni kengaytirib borish, bozordagi oldi-sotdi, tovar ayirboshlash naqd pul, narx, «tannarx», «foyda», «zarar», ishlab chiqarish shakllari to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida: **"Pul nima?», "Pulni saqlash", «Oziq-ovqat do'koniga sayr»** ta'limiy o'yinlari tashkil etiladi.



4.4.4-rasm

Duradgor mehnatini kuzatish uchun rasmli ko'rgazma namunasi

Ishlab chiqarish, mehnat faoliyati insonlarning asosiy faoliyati ekanligi, mehnat turlari, ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, bog'bon, pillakor, chorvachilar mehnati bilan yaqindan tanishtirish, mebel, avtomobil, televizor,

chinni, nonvoyxonalar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari, mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining mamlakat aholisi uchun ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida duradgor, chorvador, bog'bon, tikuvchilar mehnati va xo'jalik mehnat qurollari (ketmon, belkurak, chelak, tesha) bilan yaqindan tanishtiriladi.

Maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalarga iqtisodiy bilimlar berish mazmun jihatdan bir muncha kengaytirilib, bunda «mulk", oila byudjeti, "bank», «import», «eksport» kabi tushunchalar beriladi. Ishlab chiqarish va uning turlari, ishlab chiqarish va mehnat jarayoni: yer, ishchi kuchi, ishlab chiqarish texnologiyasi moddiy xom-ashyo omillari, tadbirkorlik manbalari, mahsulot va buyumlar, turli mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi (inson hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan mahsulot va tovarlar); qurilish mollari va jihozlari, imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari, ishlab chiqarish va ta'limot, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni uy-ro'zg'orga kerakli mahsulotlar, texnika asboblari, mashinalar, matolar, ip, ipak tolalari, o'quv qurollari va kitoblar, dehqonlar, chorvadorlar, bog'bonlar, paxtakorlar, xalq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan qurilish ashyolari, o'yinchoqlarni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishtiriladi. Buning uchun atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida quyidagi mavzularda: **"Ishlash uchun kimga nima kerak?», «Bog'bon-bog'bon», "Nimaning o'rni o'zgardi» o'yinlar, «Tejamkorlik yaxshi odat", «Pul nima?" «Bozor turlari", «O'yinchoqlar va ularning yaratilishi", «Bank nima", «Do'kon turlari», «Nima qayerda ishlab chiqariladi?», «Ishlab chiqarish va uning turlari" mavzularida suhbatlar o'tkaziladi. «Oila daromadi», «Oila farovonligi", «Oila ehtiyojlari»** kabi iboralar mohiyati tushuntiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-olam haqidagi bilimlarini shakllantirishda oila ham muhim rol o'ynaydi.

Oilada tadbirkorlik faoliyati «Milliy hunarmandchilik do'konlari», «Badiiy dekorativ ashyolar» qurilish detallari, uy va qishloq xo'jalik asboblari,

bolalar o'yinchoqlari, milliy xarakterdagi oziq-ovqat tovarlari (qandolatchilik, konditer mahsulotlari, turli xildagi yormalar, pishiriqlar va hokazo) ishlab chiqarish sohalari keng tarqalgan. Oila a'zolarining iqtisodiy ongi, iqtisodiy ko'nikma, malakalarining o'sib borishi maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashi, tasavvurlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada bolalarni amaliy ishlarni hal etishga jalb qilish, ularga vaqti-vaqti bilan turli topshiriqlar berish, o'yinchoq va kitoblarni yig'ishtirish, o'z o'rnini solish va yig'ishtirish, o'simlik va uy hayvonlarini parvarish qilish, suv, gaz, elektr energiyasi, pul, kiyim-kechak va boshqa jihozlardan oqilona foydalanish atrof-olam bilan tanishtirish asosida o'rgatib boriladi va bolalarni bunday bilimlar bilan qurollantirish, ularning kelajagini ta'minlashdagi vosita hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni moddiy resurslar bilan tanishtirganda tabiiy resurslar - yer, suv, yer osti va usti boyliklari bularning barchasi tabiat ne'matlari ekanligi, ulardan oqilona foydalanish, suvning inson hayoti uchun zaruriy jihatlari, ichimlik suvi uni isrof qilmaslik, o'lkamizdagi barcha boyliklarni asrab-avaylash kerakligi, tevarak-olam bilan tanishtirish mashg’ulotidan tashqari tabiat, matematika, nutq o'stirish va boshqa pedagogik jarayonlarda o'rgatib boriladi. Inson mehnati bilan yaratilgan bino inshootlar, mashina va mexanizmlar va barcha mahsulotlar bu moddiy mahsulotlar ekanligi tushuntiriladi. Bu yoshdagi bolalarni mehnat resurslari ular kim tomonidan tashkil etilganligi, kimlarning mehnat qilib mahsulot ishlab chiqarishi, dala, fermer xo'jaligidagi kattalarning ishbilarmonlik bilan boshqara olish qobiliyatlari bilan tanishtiriladi**.**

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagilar ustuvor hisoblanadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatni har tomonlama rivojlantirish tamoyillari va qonuniyatlari bilan tanishtirish orqali ularni atrof-olam haqidagi bilimlar bilan qurollantirish;

2. Atrof-olam haqidagi tushunchalar mazmunini anglash, o'z kundalik faoliyatida ongli ravishda qo'llay olish malakalarini shakllantirish;

3. Bolalarda ilmiy tafakkur elementlarini shakllantira borib ularda turli

muammolarni tahlil qilish, farqlay olish, isbotlay olish va umumlashtirish ko'nikmalarini tarkib toptirish;

4. O'qitishning zamonaviy metodlari, tashkiliy shakllaridan foydalanish.

Atrof-olam bilan anishtirish mashg'ulotlarida bolalarga jamiyat hayotida bo'layotgan jarayonlarga befarq bo'lmaslik, ona vatani ravnaqiga munosib hissa qo'shish, tabiat ne'matlarini avaylab ishlatish ko'nikmalari aynan atrof-olam bilan tanishtirish davomida amalga oshirilishi zarur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishning maqsad va vazifalarini yoriting.
2. Kasb hunarga o`rgatuvchi "Do`kon", "Dehqon bobo", "Pochta", "Chevar", "Hamshira" o'yinlari ishlanmasini tuzing.
3. Atrof-olam bilan tanishtirish bo'yicha "Haydovchi", "O`qituvchi", "Bozor-bozor", "Oshpaz", "Bogbon", "Kim chaqqon" mavzusida o'yin namunalari tayyorlang va izohlab bering.

4.5. Nutq, muloqotga o`rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O`yin orqali bola tafakkurini va nutqini o`stirish hamda so`zlashishga o`rgatish

Reja

1. Nutq, muloqotga o`rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish
2. O`yin orqali bola tafakkurini va nutqini o`stirish hamda so`zlashishga o`rgatuvchi o`yinli texnologiyalardan foydalanish
3. Bola nutqini boyitish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar: Qo'g'irchoqni kiyintiramiz", "Nimadan nima bo`ladi?", "Nima bo'ladi, agar ...", Kimda qanday buyum", "Tez javob ber" oyinlarini o`tkazish va ishlanmalar tayyorlash

Nutq, muloqotga o`rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o‘rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatishdir. Nutq o‘stirish uslubiyoti pedagogik fan bolib, Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o‘rganadi.

Nutq o‘stirish uslubiyoti vazifasi o‘z ichiga bir qancha maxsus xususiy vazifalarni ham qamrab olgan:

1. Bolalarlarni tevarak-atrof bilan tanishtirish davomida ularning nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish. Lug‘at ustida ishlash bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni tevarak-atrofdagi buyumlar, hodisalar, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati va hokazolar to‘g‘risidagi matnlar bilan tanishtirish jarayonida ularning nutqi rivojlantiriladi.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish. Lug‘at tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so‘zlarning o‘zgarishi va ularning o‘zaro bog‘lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni qo‘llashni) belgilaydi. Bola atrofdagilardan grammatik tomondan shakllangan nutqni eshitadi. Eshitganining ma’nosiga tushunish bilan birga, tilning grammatik tomonini egallaydi, modelini bilib oladi. Bola ona tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o‘zlashtirsa, u aqliy jihatdan shunchalik tez rivojlanadi. Agarda bolalarda nutqning grammatik tomoni noto‘g‘ri shakllansa, aqliy rivojlanishi kechikadi.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Bola, eng avvalo, tilning tovush tomonini egallashi kerak, ya’ni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishi lozim. Nutqning tovush tomoni ustida ishlash o‘zbek tilining fonetikasi va orfoepiyasiga asoslanadi. Bola kattalarga taqlid qilib, so‘zlarda urg‘uni to‘g‘ri ishlatishga o‘rganib oladi, ona tilining intonatsion tomonini o‘zlashtiradi hamda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga odatlanadi. Ayniqsa,

atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo‘layotganda samimiy ohangda burro va aniq gapirishga o‘rgatiladi. Har bir bolada nutqning bunday sifatlarini tarbiyalash, kelgusi hayotida, ya’ni bolaning yuqori sinflarida, o‘quv yurtlarida ta’lim olishda, mustaqil mehnat faoliyatida jamoa, jamiyat o‘rtasida o‘z fikrlarini to‘liq va tushunarli qilib bayon etishda muhim ahamiyatga egadir. Agarda tarbiyachibola nutqidagi, tovush talaffuzidagi nuqsonlar, ohang va tempga, diksiyasiga (aniq, burro gapirish), nutqining mazmundorligi va ifodaliligiga e’tibor bermasa, bunday nuqsonlar bilan bola murakkab bilimlarni o‘zlashtira olmaydi va bu uning kelajakdagi mustaqil hayotida ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi, ya’ni nutqida nuqsoni bo‘lgan bolaning nutqi boshqalarga tushunarsiz bo‘ladi, o‘z fikrini ifodalashda qiynaladi, uyaladi, natijada gapirmaslikka harakat qilib, indamas, jizzaki bo‘lib qoladi. Bularning hammasi uning ruhiy rivojlanishiga ham ta’sir etadi.

4. So‘zlashuv nutqini (dialogik) shakllantirish. Bolalarga bilim va tarbiya berishda so‘zlashuv nutqiga (dialogik) o‘rgatish katta ahamiyatga egadir. Kichik yoshdagi bolalar bilan so‘zlashish ularning kundalik faoliyatlari va turli voqea - hodisalarni kuzatish natijasida hosil bo‘lgan tushunchalarni aniqlash va uni bir tizimga solishda eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi. Bolada so‘zlashuv nutqini shakllantirish - bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so‘zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so‘rashdir (savollar berish). Bola so‘zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug‘at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog‘liqdir. Bolani so‘zlashuv nutqiga o‘rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog‘liqdir.

5. Hikoya qilishga (monologik nutqqa) o‘rgatish. Monologik nutq boladan o‘z fikrini tushunarli va izchil bayon qilishni talab etadi, bunday nutq turini esa bola 6 - 7 yoshda egallay boshlaydi. Chunki bu yoshda mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi, bolada katta so‘z boyligi to‘planadi, tilning grammatik qurilishini egallab oladi.



4.5.1-rasm. Hikoya qilishga (monologik nutqqa) o‘rgatishda rasmli ketma-ketlikdan foydalanish tartibi

Nutqning monologik shakli bolalarga ko‘rgan narsalari haqida batafsil va izchil so‘zlab berishga, o‘z fikrlarini to‘g‘ri tuzilgan jumlalar orqali bayon qilishga imkon beradi. Bog‘langan nutq (monologik nutq) bolada boshqalarning hikoyasini tinglashga va uni tushunishga, qisqa, o‘zlariga tanish bo‘magan voqeani qayta hikoya qilib berishga, ertakda ishtirok etuvchi qahramonlarning gaplarini ifodali aytib bera olish malakasining shakllanishiga yordam beradi. Bolalar rasmda tasvirlangan narsalar, o‘z hayotiga doir voqealar haqida oddiy hikoyalar tuzishga, ko‘rgazmali

qurolsiz, mustaqil tarzda hikoya to‘qishga o‘rgatiladi. Bolalarni hikoya qilishga o‘rgatish ularning aqliy rivojlanishiga yordam beradi, fikr yuritish doirasi kengayadi, diqqat, tafakkur kabi psixologik jarayonlar rivojlanadi, nutqi ifodali boyib boradi, bolada o‘zini tutish va jamoa oldida so‘zlay olish malakasi hosil bo‘ladi.

6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Bolalar badiiy adabiyoti keng tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini kengaytiradi, emotsional taassurotlarini boyitadi. Kichik hajmdagi she’rlarni intonatsiyalarga rioya qilib yodlab olish va ta’sirchan qilib aytib berish va h.k. Bola hikoya, she’r, ertak tinglayotganida quvonadi, huzurlanadi. Bu emotsional ta’sirlanish ularda badiiy adabiyotni estetik idrok etish, ya’ni uni san’at ertaki sifatida his etish qobiliyatining paydo bo‘lishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy ertak bilan tanishtirar ekan, har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbatni tarbiyalashi kerak.

7. Bolalarni savodli o‘qishga tayyorlash. Bolada to‘g‘ri og‘zaki nutqni rivojlantirish boshqalarni tinglay olish, ular nutqining mazmunini tushunish, zarur bo‘lganda o‘rtog‘ining javobini to‘ldirish yoki to‘g‘rilashda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Nutq asosida bolalar uchun tahlil predmeti boyib boradi, bu esa bolalardan zo‘r aqliy kuchni talab etadi.

O`yin orqali bola tafakkurini va nutqini o`stirish hamda so`zlashishga o`rgatuvchi o`yinli texnologiyalardan foydalanish

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to‘g‘ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to‘g‘ri nutq muxiti va ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Nutq tug‘ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan bir qatorda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o‘rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo‘lini, bu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o‘ynovchi sharoitni bilish lozim. Nutq

kamchiliklarini bartaraf etishda to‘g‘ri va aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini yana bir karra bilish zarur hisoblanadi. Mualliflar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko‘rsatadilar, ularni har xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar.

Bola tug‘ilran daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig’idan iborat bo’ladi. To’g’ri, bu ovoz odam nutqidan uzoq. Lekin, ana shu qichqiriq va yig’i nutq apparatining 3 bo’limini (nafas olish, ovoz hosil bo‘lish, artikulyatsion) rivojlanishda katta rol o’ynaydi. Ikki hafta o’tgach, bola gapirayotgan odamning ovoziga e’tibor bera boshlaydi. Unga gapirayotganda quloq soladi, yig’lashdan to’xtaydi. Bu davrda lug’at boyligining o’sishi davom etadi.

Bolaning 4-6 yoshida uning lug’at boyligi o’sib borishi bilan birgalikda nutqning grammatik tomoni ham rivojlanib boradi. Bola hayotining 4-yiliga kelib, ular o’z nutqlarida sodda va murakkab gaplarni qo’llay boshlaydilar. 5 yoshga kelib esa qo’shma gaplardan erkin foydalana oladilar. 5 yoshli bolalar qo’shimcha savollarsiz hikoya va ertaklarni aytib berish qobiliyatiga ega bo’ladilar. Bu davrda fonematik idrok sezilarli darajada rivojlanadi. Bola avval unli va undoshlarni, so’ng sonor, shovqinli tovushlarni ajrata boshlaydi.

4 yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan bo‘lishi lozim. Bu vaqtga kelib, tovushlarni to‘g‘ri talaffuzning shakllanishi tugallanadi va bola har tomonlama to‘g‘ri aniq gapira oladi. 7 yoshdan 17 yoshgacha bo’lgan davrning o’ziga xos tomoni shundaki, bolalar nutqining rivojlanishi oldingi davrlarga nisbatan ongli ravishda ro’y beradi. Nutq faoliyatini amalga oshirish bolalarning yosh toifasiga qarab farqlanadi:

Yosh guruhi	Nutq faoliyatining xususiyati
kichik guruh (3-4 y)	Bu bosqichda bolalarda sog'lom nutq madaniyatini shakllantirish, kattalar va tengdoshlar bilan ularning ovozini ko'tarmasdan muloqot qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan passiv lug'atni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari o‘z fikr va his-tuyg‘ularini xotirjam ohangda ifoda eta oladilar. Jamoaviy o'yin faoliyati davomida maktabgacha yoshdagi bolalar artikulyar apparatlarni o'rgatishadi, ularning so'z boyligi faol ko'lamini kengaytiradilar. Bolalar o'zlari uchun yangi iboralarni, jumladan, keksa yoshlilar, tarbiyachilar va oila a’zolariga murojaat qilish shakllarini o'rganadilar.
o'rta guruh (4-5 y)	Bolalikning ushbu bosqichining muhim vazifasi - bu bolalarning tinglash, fikrini izchillikda bayon qilish, o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishdir. O'quv jarayonida bolalarda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari shakllanadi, qo’l mayda motorli ko'nikmalar rivojlanadi.
Katta guruh (5-6 y)	Nutq kompetensiyalarini rivojlantirish dialogik va monologik nutqi jarayonida amalga oshiriladi. Bu jarayonda bag‘rikenglik, o‘zgalarga xayrixoh munosabat, yuksak axloqiy fazilatlar shakllanadi. Nutq faoliyati milliy, fuqarolik va gender o'ziga xoslik kontekstida amalga oshiriladi.
tayyorlov guruhi (6-7 y)	Bolalar maktabga qadam qo‘yish arafasida berilgan mavzu bo‘yicha mantiqiy izchillikdagi gaplar tuzishni, badiiy va folklor ertaklarini, o‘zlari bilgan so‘zlar va atamalarni, antonim va sinonimlarni anglash orqali so‘z boyligini kengaytira oladilar.

4.5.1-jadval. Nutq faoliyatini amalga oshirishda bolalarning yosh toifasi

Bu davrda bolalar tovushlar analizi, nutqning grammatik qonuniyatlarini egallaydilar. Bu davrda nutqning yangi turi yozma nutq yetakchi rol o’ynaydi. Grammatik konstruksiyalar ham murakkablashib boradi, **chunki, agar, qachonki** kabi bog‘lovchilarni ishlata boshlaydilar. Bu bolaning tafakkur jarayonlari murakkablashib borayotganligini va bu nutqda o’z ifodasini topayotganligini ko’rsatadi. Bola nutqining rivojlanish jarayoni o‘z vaqtida to‘g‘ri kechishi uchun maxsus sharoitlar zarurdir. Buning uchun: bola ruhiy va jismoniy jihatidan sog’lom bo‘lishi, normal aqliy qobiliyatga ega bo‘lishi, normal eshitish va ko’rishi, yetarli darajada ruhiy faollikka ega bo‘lishi, gaplashish ehtiyojiga ega bo‘lishi, to‘g‘ri nutq muhitiga ega bo‘lishi lozim. Bolada nutqning normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o’zlashtirib olishga, atrof- olam haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, nutq, uning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.



4.5.2-rasm. “Rasmga qarab nomla” mashqi

Bola nutqini boyitish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar: Qo’g’irchoqni kiyintiramiz”, “Nimadan nima bo`ladi?”, “Nima bo'ladi, agar ...”, Kimda qanday buyum”, “Tez javob ber” oyinlarini o`tkazish va ishlanmalar tayyorlash

Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan bog‘liqligini inkor etib bo’lmaydi. Pedagogik texnologiyani joriy qilishni innovatsiya jarayoni deb qarash mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyaning bolalar jamoasida muvaffaqiyatli joriy qilinishi va yaxshi samara berishi bir qator omillarga bog‘liq.

“Nimadan nima bo`ladi?” 0‘yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'Iiqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.



4.5.3-rasm. “Nimadan nima bo`ladi?” ta’limiy o’yinidan namuna

O'yin bolaning ichki ijtimoiy dunyosi va buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida quyidagivazifalarini bajaradi:

- maftunkorlik;

- kommunikativlik;

- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;

- tashxis;

- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;

- ijtimoiylashuv.

O'yin texnologiyalari (ayniqsa, bog'cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlar(bolaning nutq, idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojiantirish)ni amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o'yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo'ladi.

“Qo’g’irchoqni kiyintiramiz” o’yini. Ushbu o’yin jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, sensor faoliyati, boshqacha qilib aytganda, bolaning ruhiy kamolotining ko’p jihatlari nutq bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi.



4.5.4-rasm. “Qo’g’irchoqni kiyintiramiz” ta’limiy so’z o’yini

Chunki, bola muloqotga kirishishi, ya’ni tengdoshlari va kattalar bilan bo’ladigan muloqot jarayonida juda ko’plab ma’lumotlarga ega bo’ladi va o’zining ruhiyatini keyingi rivojlanish bosqichiga ko’tarib boradi. Shuning uchun, bola hayotining dastlabki birinchi oyidan tarbiya faqat uni parvarish

qilish bilan chegaralanmasligi kerak. Bolaning ilk yosh davridan eshitish qobiliyatini tarbiyalash, shuningdek, bolaning emotsional sohasi - jilmayish, kulish, va ovoz tonini uyg’otish lozim.

Zamonaviy talablar asosida mashg‘ulot ishlanmasini yaratish

Mashg‘ulot ishlanmasi (konspekt)ning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

O‘rta guruh. Nutq o‘stirish mashg‘uloti.

Mavzu: “Aqlli qarg‘a” ertakini qayta hikoya qilish.

Maqsad:

Ta’limiy: Bolalarni ertakni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, voqealarni ketma-ket bog‘langan holda, grammatik jihatdan to‘g‘ri jumlalar tuzib bayon qilishga o‘rgatish.

Tarbiyaviy: Bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, Vatanni, tabiatni, undagi barcha jonivorlarni sevishga, uni ardoqlashga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: Bolalarga ertakni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi personajlarning gaplarini uziga xos xususiyatlarini tushunib, ifodali tarzda hikoya kilayotgan urtoklarining nutqini diqqat bilan eshitishni, ertak matni noto’g’ri aytilgan joylarni payqashga o‘rgatishni davom ettirish. Bolalarda ifodali nutqni tarbiyalash. **“Q”** tovushini to‘g‘ri talaffuz etish.

Kutilayotgan natijalar: bolalar qayta hikoya qilishga o‘rganadilar, ertak matnini noto‘gri aytilgan joylarini paqkashga o‘rgana boradilar, grammatik jihatdan to‘g‘ri so‘zlashishga intiladilar.

Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo’naltirilgan, ishtirok etishga mo’ljallangan interfaol usullar:

- **“Aqliy hujum” metodi**
- **Hikoyaning qisqacha bayoni**
- **Savol- javoblar tashkil etish**
- **Ta’limiy o‘yinlar**

Kerakli jiuozlar: Ertak mazmuni aks ettirilgan rasmlar.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi: «Aqliy hujum» metodi asosida mashg‘ulotni savol va javoblar bilan boshlaydi. O’lkamizda kuz boshlandi. Siz gala-gala bo’lib uchib kelayotgan qushlarni ko’ryapsizmi?

Tarbiyalanuvchilar: Bular qarg‘alar.

Tarbiyachi: Xa bu qarg‘alar. Ular dala va bog‘larda yashaydilar.

Tarbiyachi: Qarg‘alar foydali qushmi?

Tarbiyalanuvchilar: Ha qarg‘alar foydali qush.

Tarbiyachi: Qarg‘alar qanday qag‘illashadi? Qarg‘alarni kuzatganmisiz, ular tumshug‘ida inlariga nimalarni tashiydilar?

Bugun men sizga aqlli qarg‘a haqidagi ertakni o’qib beraman. Diqqat bilan eshitsangiz, nima uchun uni aqlli qarg‘a deb nomlanganini bilib olasiz. Tarbiyachi hikoyani ifodali qilib o’qib beradi va hikoya asosida savollar beradi?

- **Hikoya nima haqida ekan? (qarg‘a). Qarg‘a suvsirab uchib yurganda nimaga o‘zi tushdi? (ko’zachadagi suvga). Suvni icha oldimi? Nima qildi?**

Savol-javoblardan so’ng tarbiyachi ertakni yana bir bor aytib beradi va bolalardan ertakni takrorlashlarini so’raydi. Bolalarning hikoyalarini baholashda ertak mazmunini gapirishiga, shoshilmay bir tekisda ravon bayon eta bilishlariga e’tibor beradi.

Tetiklashtiruvchi mashq: “Qarg‘alar” o‘yini**.**

Tarbiyachi bolalarni uch guruhga bo’ladi.

Birinchi guruh archalar.

Ikkinchi guruh qarg’alar,

uchinchi guruh itlar bo‘lishadi.

Birinchi guruh bolalari archalarni tasvirlab qo’llarini pastga tushirgan holda doira bo’lib turadilar va “Yashil archa tagida qarg’alar qag‘illashmoqda” deydilar. Ikkinchi guruh qarg’alar doira ichiga sakrab-sakrab kirishadi va “Qar-qar- qar...” deb qag‘illashadi. Tarbiyachi: mana itlar kelishdi va qarg’alar uchib ketishdi”-deb aytishi bilan uchinchi guruh itlar doiraga “RRRR”deb irillab

yugurib kelishadi va qarg’alarning ketidan quvishadi. Ushlangan qarg’alar itlar bo‘lishadi. O‘yin to ikkita - uchta chaqqon qarg’a qolguncha davom etadi.

Bolalarni savod o‘rganishga tayyorlash bo‘yicha amaliy mashq.

Tarbiyachi bolalarga quyidagi tez aytish ayttiradi.

Sa’va sahar sayraydi, salqin bog‘da yayraydi.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

Ertak nima haqida ekan? (qarg’a). Qarg‘a suvsirab uchib yurganda nimaga ko’zi tushdi? (ko’zachadagi suvga). Suvni icha oldimi? Nima qildi? Qarg‘alar qanday qag‘illashadi?

Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash o'ziga xos xarakterga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektdan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat.

Nazorat uchun savollar

1. Nutq uslubiyoti fani nimani o‘rganadi? Uning maqsadi nima?
2. Nutq o’stirish uslubiyoti qanday savollarga javob beradi?
3. “Nima bo'ladi, agar ...”, Kimda qanday buyum”, “ Tez javob ber” oyin ishlanmalarni tuzing

4.6. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini, grammatik qurilishini rivojlantishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Reja

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini, grammatik qurilishini rivojlantishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

2. Nutq, muloqotga o`rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

3. Nutqning tovush madaniyatini rivojlantirish, nutqning grammatik qurilishini shakllantirish, hikoya qilishga o`rgatishga oid o`yinlar

(“Turli ovozlar bilan”, “Kim mo`-o`-o deydi?) (“Topchi nima yetishmaydi”, “Topchi men qayerda bo`ldim”, “Men boshlayman sen oxiriga yetkaz” “Siz nima qilishni hohlaysiz”),(“Buvimning ertaklari”),

4. Yangi texnologiyalar asosida she’r yod olishga, badiiy ertaklarni sahnalashtirishga o’rgatish
5. Psixogramma va sotsiogramma o`yinlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini, grammatik qurilishini rivojlantishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Inson o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlarini tushunish uchun ona tilidan foydalanadi. Nutqni egallash bolaga bevosita va bilvosita (hikoya, badiiy ertak, tarbiyachining tushuntirishi…) yo‘l bilan borliq haqida bilimlar hosil qilishga imkon beradi. Maktabgacha ta’lim muassasasida lug‘at boyligini oshirish, so‘zning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish vazifalari hal etiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish lozim:

1) tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo, nutqni eshitish shakllanadi, keyinroq taqlid asosida talaffuzni egallaydi);

2) aniq talaffuzni hosil qilish (so‘z va so‘z birikmalarini dona-dona va aniq talaffuz qilish);

3) so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish ustida ishlash;

4) nutqni orfoepik jihatdan to‘g‘riligi ustida ishlash;

5) nutq sur’atini rivojlantirish;

6) nutqning ifodaliligini shakllantirish;

7) nutqiy aloqa ko‘nikmalarini shakllantirish;

8) eshitish ko‘nikmalarini shakllantirish;

9) to’g’ri nafas olishni shakllantirish;

10) o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish ko‘nikmasini shakllantirish.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush madaniyati alohida o‘rin tutadi. Nutqning tovush madaniyati o‘z mohiyatiga ko‘ra nutq madaniyatining tarkibiy qismidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

1) bolalarning fonematik eshitishi, mazkur sur’at va ohangni idrok eta olish qobiliyatini hikoya, badiiy ertak, tarbiyachining tushuntirishi asosida asta-sekin rivojlantirib borish;

2) taqlidiy harakatlar asosida artikulatsion apparatni rivojlantirish;

3) iboralar vositasida erkin gapira olish qobiliyatini shakllantirish;

4) muomala sharoitiga bog‘liq ravishda ovoz balandligi yoki pastligini boshqara olishni tarbiyalash;

5) ona tilidagi barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish;

6) har bir tovush, shuningdek, so‘z va iboralarni aniq va ravon talaffuz qilish;

7) so‘zlarni adabiy til qoidalariga muvofiq talaffuz qilishga o‘rgatib borish;

8) syujetli rolli faoliyat asosida nutqning maromli sur’atini shakllantirish;

9) nutqning ohangdor va ifodali bo‘lishiga erishish.

Nutq, muloqotga o`rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda muhimdir. Bolalarning talaffuziga, nutq madaniyatiga e’tibor qilish, me’yorda so‘zlab, muomala qilishga o‘rgatish turli hikoya, badiiy ertak, ertaklar asosida shakllantirilaishi zarur. Chunki bolalikda tarkib topgan muomala madaniyati inson umrining oxirigacha mukammallashib boradi. Obrazli nutqni rivojlantirish keng ma’noda nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nutq madaniyati deganda, adabiy til normalariga rioya qilish, o‘z fikrlarini, hissiyotlarini, tasavvurlarini aytilayotgan gapning yo‘nalishi va maqsadiga muvofiq holda mazmunli, grammatik to‘g‘ri, aniq va ifodalab bera

olish tushuniladi. Bolada ertak, hikoya, badiiy ertak asosida nutq til boyligiga nisbatan qiziqish, turli xil ifoda vositalaridan foydalanish ko‘nikmasi rivojlantirilgan taqdirda obrazli, bevosita va jonli bo‘ladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar tengdoshlar bilan muloqot asosiy o‘rin egallaydigan muloqot sohasidagi chuqur o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Bola katta yoshdagi odamdan ko‘ra o‘z tengdoshini afzal ko‘ra boshlaydi. Birga o‘ynayotgan o‘rtog‘iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo‘lgan nutqdagiga nisbatan mazmunliroq bo‘lib boradi. Sherik bilan dialog muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy harakatlar tusiga ega bo‘ladi. Bola endi do’stining e’tiborini o‘ziga jalb qilishni biladi, uning o‘zi o‘rtoqlarining ishlari va fikrlari bilan qiziqa boshlaydi.

Bola tilining grammatik tizimini o‘z vaqtida shakllantirish – uni to‘laqonli nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Tilning grammatik tizimini bola predmetli harakatlarni o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda bilishni rivojlantirish asosida egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish morfologiya (so‘zlarni sonlar, kelishiklarga qarab o‘zgartirish), so‘z hosil qilish (maxsus vositalar yordamida bir so‘z negizida boshqa so‘zni hosil qilish), sintaksis (oddiy va qo‘shma gaplarni tuzish) ustidagi ishlarni o‘z ichiga oladi. Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o‘zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim.

Bolalarda grammatik tizimni – sintaksis, morfologiya, so‘z hosil qilishni shakllantirish o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun tarbiyachi turli vositalarni qo‘llashi darkor. Morfologiya va so‘z hosil qilishni o‘zlashtirish uchun rag‘batlantiruvchi til o‘yinlari: **Qayerda?, Qachon?, Nima?, Qanday?;** sintaksisni rivojlantirish uchun esa keng fikr bildirish, motivatsiyani yaratish: **Qanday qilsak bo’ladi?, Bittami yoki ko’pmi?, Yordam ber** kabi o’yinli-muloqot mashqlari orqali erishish muhim.

Ma’lumki, bolalar o‘z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o‘z navbatida pedagogdan ham bosqichli rahbarlik xususiyatini talab qiladi.

Bola hayotining beshinchi yilida bolada gap va so‘z hosil qilish va so‘z ijodkorligi shakllantirilsa, oltinchi yilda – gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirishga (so‘z o‘zgartirishda); yettinchi yilda – hosila so‘zlar (qo’l+qop, asal+ari, sakkiz+oyoq) o‘rtasidagi munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka alohida e’tibor berishi lozim.

Didaktik o‘yinlar va so’z-mashqlar bolalarning tilga oid ko’nikmalarini, ularning grammatik faolligini rag‘batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so‘z birikmasini o‘ylab ko‘rish, so‘ngra gapda so‘zlarni bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lash qobiliyatini o‘rgatishi zarur. Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni yozma nutq vaziyatida, ya’ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshlilar esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi. Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda so’zlardan to‘g‘ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllanishidir. Buning uchun bolalarga gapda so‘zlarni biriktirishning turli usullarini, so‘zlar o‘rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog‘liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o‘rgatish zarur. Shunday qilib, nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida muloqotchanlik ko‘nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash imkoniyati ta’minlanadi.

Nutqning tovush madaniyatini rivojlantirish, nutqning grammatik qurilishini shakllantirish, hikoya qilishga o`rgatishga oid o`yinlar sifatida **“Kimning ovozi?”, “Kim mo`-o`-o deydi?”, “Qushmi yoki hayvon?”** kabi taqlidiy va eshitishga doir o’yinlar juda yaxshi samara beradi.

Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy muhitida ro‘y berishi lozim. Pedagog rahbarligi esa umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich, o’yinli-ta’limiy va rivojlantiruvchi muhitning muhim sohasi sifatida tengdoshlar va atrofdagilar bilan muloqotning dialogik shakllarini o‘zlashtirish asosida rivojlantirishga erishishni ta’minlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liqdir. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-muhit bilan tanishtirish, balki uni umumiy ruhiy rivojlantirish uchun ham zarur. Oilada bola nutqini o‘stirishdan maqsad og‘zaki nutqni adabiy til me’yorlariga muvofiq holda egallashi, faol nutqqa kirishishini ta’minlashdan iborat. Farzand nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ota-ona o‘zi oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ygani ma’qul:

– farzandida so‘zlashish odobini tarbiyalash;

– lug‘at boyligini shakllantirish, boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;

– nutqni grammatik jihatdan shakllantirish va rivojlantirish;

– ravon nutqni takomillashtirish;

– badiiy ertaklar bilan tanishtirish;

– savod o‘rganishga tayyorlash.

Emotsional - erkin muloqot kichik yoshda yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Kichkintoy 2–2,5 oyligidan boshlab hatti-harakatlari bilan kattalardan o‘zi bilan muloqotga kirishishni «talab qila» boshlaydi. Muloqotning birinchi shakli – hissiy-erkin bo‘lib, go‘dakning atrofidagilarga nisbatan qiziqishi uning his-tuyg‘ularga boy munosabati orqali tavsiflanadi. Muloqotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yilligiga xosdir. Muloqotning yanada rivojlangan ikkinchi shakli – ya’ni hissiy vositali (vaziyatli-amaliy) shakli bola hayotining ikkinchi yarim yilligida ro‘y beradi. Bu muloqot predmetlar orqali vositali muloqotga aylantiriladi. Ushbu yoshda bolaning

qiziqishlari atrof-muhitga yo‘naltiriladi. Unda yangi taassurotlarga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Bu yoshda nutqni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– bolada kattalarga nisbatan emotsional bog‘liqlik va ishonch hissini tarbiyalash;

– uning o‘ziga nisbatan atrofidagilarning ijobiy diqqat-e’tibor talab qilishini qondirish;

– kichkintoyning qiziqishlarini rivojlantirishga ko‘maklashish.

Masalan: **«Qo‘ling qani? Qo‘lingni ko‘rsat! Kim keldi? Akang keldimi? “.** Ushbu davrda bola kattalar ko‘magida narsa-buyumlardan foydalanish usullarini o‘rganadi (qoshiq bilan ovqatlanish, piyoladan choy ichish, qalamda rasm chizish, stulchaga o‘tirish va boshqalar). Narsa-buyumlardan foydalanish ehtiyoji nutqiy muloqotni talab etadi.

Ilk yoshda bola oldida turgan asosiy vazifa narsalardan foydalanish usullarini o‘zlashtirish asosida nutqni egallashdan iborat bo‘ladi. Hayotining ikkinchi yiliga kelib bola narsa-buyumlarning xususiyatlarini (hajmi, shakli, rangi) va masofaviy munosabatlari (yaqin, uzoq), butun narsani qismlarga ajratish va qismlardan butun narsani yig‘ishni (piramida, mashina kabi o‘yinchoqlarni qismlarga ajratadi va qayta yig‘adi) o‘zi uchun kashf qiladi. Biroq, ularni amalda qo‘llashning jamoatchilik tomonidan ishlab chiqilgan usullarini (qoshiq bilan ovqat yeyiladi, sochiqqa qo‘l va yuz artiladi; qalam bilan rasm chiziladi va h.k.) o‘zicha mustaqil kashf qila olmaydi. Narsalarning vazifasi va ularni amalda qo‘llash usullarini bolaga kattalar o‘rgatishi zarur.

Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj, narsa-buyumlardan foydalanish boladan faol nutqqa ega bo‘lishni talab etadi. Katta yoshdagilar bola bilan olib boriladigan o’yinli jarayonda **“Topchi nima yetishmaydi”, “Topchi men qayerda bo`ldim”, “Men boshlayman sen oxiriga yetkaz”, “Siz nima qilishni xohlaysiz”** turkumidagi savol va muammoli vaziyatlarni yaratishi, bu vazifalarni hal etishda bola bilan og’zaki muloqotni ta’minlashi lozim.

“Men boshlayman sen oxiriga yetkaz” o‘yinining borishi: Bolalar doira shaklida turadilar. Tarbiyachi koptokni qo‘liga olib, o‘yinni boshlab beradi. Bolalar tarbiyachi boshlagan so‘zni davom ettirishlari kerak: mu-shuk, ech-ki, qo‘l-qop, som-sa va hokazo. O‘yin shu tarzda davom etadi.

To‘g‘ri ta’lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola og‘zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi; dialogda tashabbus ko‘rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e’tiborini o‘ziga jalb qilish, unga so‘z, harakat va so‘zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi; fikrlarini to‘liq va noto‘liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi; – tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to‘qib chiqarishga qiziqa boshlaydilar; – fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarini, tashbehlar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo‘llaydi; – nutqqa tanqidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to‘g‘ri so‘zlashga intiladi, shu tufayli so‘z to‘qish barham topadi, agrammatizmlar soni kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etadi. Bolalardagi ko‘plab nutqiy muloqot va ko‘nikmalar mashg‘ulotlardan tashqarida shakllanadi.

O‘yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug‘at, mashg‘ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O‘yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug‘atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Qurilishga oid o‘yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo‘lgan so‘zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi. Matnli, harakatchan musiqiy o‘yinlar, sahnalashtirish o‘yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to‘g‘ri sur’at, nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko‘pgina o‘yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo‘llay boshlaydilar. Didaktik o‘yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug‘at mustahkamlanadi, aniq-lashtiriladi va

faollashtiriladi. Didaktik o‘yinlar nutqiy mahorat va ko‘nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so‘zni o‘zgartirish, hikoya to‘qish va h.q.) qo‘llaniladi.

Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya’ni agarda pedagog, ayniqsa, kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo‘llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug‘atdan foydalanishni o‘rgatsa bolalarning lug‘ati boyiydi. Agarda pedagog o‘z nutqida tashbeh, qiyoslash, sinonimlar, xalq og‘zaki ijodi (maqollar, matallar, sanoq she’rlar)dan keng va mohirona foydalansa, uning nutqi bosiq va ifodali bo‘ladi.

Katta yoshli kishi ta’sirida bolada muloqotning yangi – vaziyatdan tashqarishaxsli shakli vujudga keladi, unda bola «odamlar olami»ga qarab ish tutadi. Bola odamni jamiyatning vakili deb biladi, ijtimoiy olamdagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘zlashtiradi. Muloqotning ushbu shakli vujudga kelishi va rivojlanishi ko‘p jihatdan bolalar kattalarning o‘zaro munosabatlari, jamiyatda o‘zining tutish qoidalari bilan qiziqadigan o‘yinlarning rivojlanishi bilan uzviy darajada bog‘liqdir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar faqat kattalarning xayrixoh diqqat-e’tiborlariga va ular bilan hamkorlik qilishga emas, balki kattalarning ularni hurmat qilishlariga, o‘zaro bir-birini tushunish va hamdard bo‘lishilariga intiladi. Besh yosh chegarasida bolaning tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, o‘zini boshqalar bilan taqqoslash, taqlid qilishga ehtiyoji keskin ortadi. Faoliyatning o‘ziga va tengdosh sheriklariga bo‘lgan qiziqishdan kelib chiqqan holda, biron-bir ishda (o‘yinda, mahsuldor faoliyatda) ishtirok etishga intilish ancha barqaror bo‘lib qoladi. Tengdoshlar bilan muloqotda, o‘yinda va faoliyatning boshqa turlarida axborot almashish, funksiyani rejalashtirish, ajratish va muvofiqlashtirish, ya’ni birgalikda faoliyat yurituvchi bolalarning umumlashuviga ko‘maklashuvchi harakatlarning barchasi amalga

oshiriladi. Yosh ulg‘aygani sayin muloqot mustaqil ahamiyat kasb etib boradi, bu hol bolaning tengdoshlariga hamdardlik bildirishi, ularni tushunishi, emotsional yaqinligida namoyon bo‘ladi.

Hikoya qilishga o`rgatishda “Ertakchi bolajon’, “Buvimning ertaklari” kabi usullar bolaning og’zaki nutqini rivojlanishiga samarali ta’sir ko’rsatadi. Hikoya qilishni o‘rgatish metodikasi qayta hikoya qilib berish va hikoya to‘qish metodi hisoblanadi. Bolalar monologik matnlarni qayta hikoya qilib beradilar, real va xayoliy voqealar haqida hikoya qiladilar, hikoyalar to‘qiydilar. Monologik nutqqa o’rgatish pedagogdan quyidagilarni talab etadi:

- bolalarni tinglashni o‘rganish;
- hikoya qilish va qayta hikoya qilish, shuningdek, hikoya to‘qishda bolalarga yordamlashish
- Qayta hikoya qilish – eshitilgan badiiy ertakni ravon, ifodali aytib berishga o’rgatish

Hikoya qilish nisbatan oson nutqiy faoliyatdir, chunki bola tayyor mazmunni qayta aytib beradi, bunda u muallifning tayyor nutqiy shakllaridan (lug‘at, so‘z oborotlari, tuzilish), uni o‘qiyotgan tarbiyachining nutq ifodaliligi usullaridan foydalanadi. Ammo bu mexanik ravishdagi takrorlash emas, balki matnni tushungan holda erkin va emotsional aytib berishdir. Chunki yetti yoshga kelib bola shaxsga oid xususiyatlarini ajrata boshlaydi («qiziqarli o‘yinlar o‘ylab topadi», «Yaxshi yuguradi», “Eshitgan ertagini do’stlariga so’zlab beradi” «Juda yaxshi, kulgili» va h.k.). Yetti yoshli bolalarda, agarda ular maktabgacha ta’lim muassasasida bir guruhda bir necha yil birga tarbiyalangan bo‘lsalar, ancha uyushgan bolalar jamiyati paydo bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarga qaraganda muloqot doirasi ancha kengayadi. O‘yin guruhlarining barqarorligi ortadi, ulardagi bolalarning o‘rtacha soni ikki-uch kishiga yetadi, ba’zan, ayniqsa, o‘g‘il bolalarda 8–9 kishidan iborat o‘yin guruhlari vujudga keladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarning yuqori darajasi va ulardan o‘rinli foydalanish kuzatiladi. Ular tomonidan takliflar, iltimoslarni asoslash uchun keltiriladigan dalillar, baholar o‘z

mazmuniga ko‘ra yanada takomillashib boradi. Bolalar hayotining yettinchi yilida tengdoshlari bilan do‘stona munosabatlarga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bolalar o‘z tengdoshlariga nisbatan beradigan baholar umumlashtirilgan xususiyatga ega bo‘ladi va bu maktabgacha katta yoshdagi bolalarning MTMdagi guruh hayotiga aloqadorligi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi («Hamma bilan do‘st», «Agar bolalar urushib qolishsa, yarashtiradi», «Agarda bironta bolani xafa qilishsa, uning yonini oladi»).

Yangi texnologiyalar asosida she’r yod olishga, badiiy ertaklarni sahnalashtirishga o’rgatish

Maktabgacha ta’lim muassasalarining katta guruhlarida bolalarni she’r yod olishga, badiiy ertaklarni sahnalashtirishga o’rgatish, ularda adabiy til me’yorlari asosida nutq qay darajada shakllanganligi aniqlanib, maxsus topshiriqlar ro‘yxati ishlab chiqiladi, har bir bola bilan yakka tartibda ishlar olib boriladi.

«Zumrad va Qimmat», «Bo‘g‘irsoq», «Ikki echki», «Ur, to‘qmoq», «Echki bolalari», «Toshbaqa bilan chayon» kabi ertak va hikoyalardan, “Bahor”, “Kichkina qushcha”, “Vatan” she’rlaridan birini tanlab yoddan aytib berish taklif etiladi. Bola ertak yoki she’r matnini eslay olmasa, unga shu ertak yoki she’rlarga ishlangan rasmlar havola qilinadi.

Bolalar nutqi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilinadi:

- mustaqil bayon qilish (kattalarning yordamisiz).

– matn mazmunining to‘liqligi;

– matnni bayon qilishda izchillik;

– ifoda vositalaridan foydalanish ko‘nikmasi;

– nutqning ravonligi.

Tevarak-atrofdagi narsa-predmetlarga oid matnni qayta hikoya qilib berish yoki she’r matnini yoddan aytib berishda bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi mumkin:

– bolalar mustaqil hikoya qila olmaydi;

– taqlid qilib so‘zlaydi;

– ba’zi muhim joylarni tushirib qoldiradi;

–nutqda uzilish bo‘ladi;

– nutqda ifodalilik yetishmaydi:

– bir xil tezlikda, bir xil tovushda aytadi;

– o‘zicha ba’zi so‘zlarni qo‘shib, ma’nosiz bayon qiladi;

– hikoya qilish yoki aytib berish jarayonida matn ma’nosini o‘zgartirib yuboradi;

– mantiqiy izchillikka rioya qilmaydi. Bolalarga «Mehmonda», «Uycha», «Maktabga yo‘l» mavzulari va ularga ishlangan rasmlar tavsiya etiladi. Hikoya qilish jarayonida yo‘l qo‘ygan xatolari va yutuqlari aniqlanadi.

Sahnalashtirish o‘yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o‘yin turi bo‘lib, unda badiiy ertak va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo‘lib ijro etiladi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom va o‘z hattiharakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma’naviy xislatlarni shakllantiradi. Sahnalashtirishda bolalar o‘yin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo‘lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni o‘zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug‘at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi. Sahnalashtirish uchun badiiy ertak, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko‘radilar. Masalan, «Sholg‘om», «Zumrad va Qimmat», «Bo‘g‘irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo‘g‘irchoq, soya, soya teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar. Badiiy ertakni eslab qolishlari uchun uni qayta qo‘yib berish, sahnada ko‘rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Sahnalashtirish o‘yinlari qiziqarli o‘tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to‘g‘ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o‘yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning hatti-harakatlari, qobiliyatlari, intilishlarini hisobga olib boradilar. O‘yinda faol

ishtirok etgan bolalarni alohida rag‘batlantirilib, kelgusida qaysi ertaklarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan nutqning ikki shaklini – dialogik va monologik shakllarini ko‘rib chiqish lozim. Dialog ikki yoki bir necha so‘zlovchining biron-bir vaziyat bilan bog‘liq mavzudagi fikrlarining almashinuvi bilan tavsiflanadi. Til vositalari imo-ishoralar, mimika bilan kuchaytiriladi. Tarbiyachi shunday vaziyatni yaratishi kerakki, unda bolalar turli xil til vositalaridan foydalangan holda dialog tuzish– so‘rash, javob berish, tushuntirish, iltimos qilish va boshqa zaruratga duch kelsinlar.

Psixogramma – kasbning psixolgik portreti bo’lib, u aniq kasbda dolzarb bo’lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo’ladi. Bunday o’yinlarga bolarga kasblar haqida ma’lumot berish vazifasi qo’yiladi.



4.6.1-rasm. “Kimga tegishli?” o’yin mashqi namunasi

Ushbu maqsadda bolaning oiladagi, maktabgacha ta’lim muassasasidagi hayoti, uning do‘stlari va kattalar bilan munosabatlari, uning qiziqishlari va taassurotlari bilan bog‘liq turli xil mavzularda suhbat o‘tkazishdan foydalanish lozim. Axloq normalari va qoidalarini o‘zlashtirib olish natijasida bolada shakllanadigan etnik o‘lchovlar uning universal insoniy qadriyatlarga munosabatini aks ettiradi, bola uni faqat o‘z shaxsiga nisbatan qo‘llash bilan cheklanib qolmaydi.

Sotsiogramma ijtimoiy mezonlarga javob berishda guruh a’zolarning bir-biriga munosabatining grafik tasviridir. Guruh munosabatlarini yanada aniqroq ifodalash va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu faoliyatda «fikrlash», «o‘ylab topish», «ijod qilish» muhim sanaladi. Bunda dastlab tarbiyachi hikoyani boshlab berishi, so‘ng bolalar davom ettirishi mumkin. Ana shu davom ettirish, tugallash jarayonida bola o‘ylaydi, ijod qiladi. O‘ylash, hikoya mazmunini «to‘qish»da bolalar voqea bo‘lgan joy, vaqti, mazmuni, qahramonlarning hatti-harakatlariga alohida e’tibor beradilar. Ayniqsa, mazmun bilan birga bolalarning nutq shakliga e’tibor beriladi. Bu usulda ko‘rgazmalilik, kuzatish muhim rol o‘ynaydi. Bolalar o‘zlari va tengdoshlarining narsalarini taqqoslaydilar, o‘xshash va farqli tomonlarini bilib oladilar. Bu jarayonda hikoyani «to‘qish» oddiydan murakkabga qarab boradi. «Kim tez va chiroyli uy chiza oladi?» o‘yini bolalarning fikrlash doirasi nihoyatda kengligini ko‘rsatadi. Mashg‘ulotning maqsadi bolalarni bir qavatli va ko‘p qavatli uylar rasmini chizish, qurilish vositalari, quruvchilar haqida ijodiy tasavvur etishga, o‘ylashga, fikr qilishga yo‘llash, quruvchilar mehnati bilan tanishtirish asosida nutqini rivojlantirishdan iboratdir.

Bola maktabga tayyorlov yoshiga yetgan sayin mustaqil bo‘lib boradi. Uning ijtimoiy tajribasi boyiydi, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlari murakkablashadi.

Nazorat savollari

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning qanday shaklini o’rgatish lozim?

2. Til qanday vositalar bilan kuchaytiriladi?
3. Agrammatizm nima?
4. Sotsiogramma nima?

4.7. Turli yosh guruhlarda bolalarning nutqni rivojlantirishda TRIZ (IMEN) usullaridan foydalanish

Reja

1. TRIZ (IMEN) usullari haqida tushuncha
2. Ta’limda TRIZ (IMEN) usullarining qo`llanilishi
3. Turli yosh guruhlarda bolalarning nutqni rivojlantirishda TRIZ (IMEN) usullaridan foydalanish

TRIZ (IMEN) usullari haqida tushuncha TRIZ (**Теория решения изобретательских задач**), ya‘ni ixtirochilik muammosini hal qilish nazariyasi bo‘lib, unga ixtirochi olim T.S.Altshuller asos solgan. Bunda pedagog bolani faol ijodiy fikrlaydigan shaxs pozitsiyasiga qo'yadigan noan'anaviy ish shakllaridan foydalanadi. Maktabgacha yoshga moslashtirilgan TRIZ texnologiyasi bolani ***«Hamma narsada ijodkorlik!»*** shiori ostida tarbiyalash va o'qitish imkonini beradi. Chunki maktabgacha yoshdagi davr o'ziga xos bo‘lib, bu davrda bolaning qanday shakllanishi uning kelgusi hayotida ta‘sir ko‘rsatadi, shuning uchun har bir bolaning ijodiy salohiyatini ochib berish uchun bu davrni o'tkazib yubormaslik kerak.

Ushbu texnologiyani bolalar bog'chasida qo'llashdan maqsad, bir tomondan, moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektizm kabi fikrlash fazilatlarini rivojlantirish; ikkinchi tomondan, qidiruv faoliyati, yangilikka intilish; nutq va ijodiy tasavvurni kengaytirishdan iborat.

TRIZning maqsadi - izlanish, tadqiqot va ixtirochilik faoliyatini amalga oshirish. Rivojlangan tafakkur qarama-qarshilik, uning shakllanishi va yechimi haqidagi tasavvurni nazarda tutadi. Qarama-qarshilikni hal qilish natijasi

ixtirodir. Ijodkorlik zamonaviy tez o'zgaruvchan dunyoda insoniyatning va shaxsning faol moslashuvi bilan bog‘liqdir.

TRIZ texnologiyasidan foydalanishning asosiy vazifasi - maktabgacha yoshdagi bolaga ijodiy kashfiyotlar quvonchini singdirish va ularda qandaydir vazifalarni uddalay olishiga ishonch hislarini shakllantirishdan iborat.

Bolalar bilan ishlashda asosiy mezon materialni taqdim etishda va murakkab ko'rinadigan vaziyatni shakllantirishda aniqlik va soddalikning mavjudligidir. Bolalarga eng oddiy misollar yordamida asosiy qoidalarni tushunmasdan ularni TRIZ amaliyotiga jalb etmaslik kerak. - bolada Triz yechimlarini duch keladigan muammolarga qo'llashni o'rganadigan muhit-ertaklar, o'yinli vaziyatlari, kundalik vaziyatlardir. Bunday vaziyatlarda turli muammolarga duch kelish asosida bola ko'plab resurslardan foydalangan holda ideal natijaga intilishga harakat qiladi.

TRIZ qat'iy ilmiy nazariya hisoblanmaydi. TRIZ - fan va texnika taraqqiyoti qonuniyatlarini ixtiro qilish va o'rganishning umumlashtirilgan tajribasidir. O'zining rivojlanishi natijasida TRIZ texnik sohada ixtirochilik muammolarini hal qilishdan chetlashdi va bugungi kunda u texnik bo'lmagan sohalarda ham qo'llaniladi. *(biznes, san'at, adabiyot, pedagogika, siyosat va boshqalar)...* Ta’lim sohasida faoliyat olib borivchilarning barchasining muammosi – yuksak ijodiy salohiyatga ega bo‘lgan yangi avlod vakillarini yetishtirishdir. Agar ilgari ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli shaxs bo'lish uchun yaxshi ijrochi bo'lish, ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish yetarli bo’lgan bo'lsa, endigi kunda muammolarni mustaqil ravishda ko’ra oladigan va ularni ijobiy hal qila oladigan ijodkor shaxsni yetishtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Ta’limda TRIZ (IMEN) usullarining qo`llanilishi Zamonaviy jamiyat yosh avlod ta'lim tizimiga, jumladan, uning birinchi bosqichi - maktabgacha ta'limga yangi talablarni qo'ymoqda. Ammo muammo iqtidorli daholarni izlashda emas, balki ijodiy qobiliyatlarni maqsadli shakllantirish, dunyoga nostandart qarashni, yangicha fikrlashni rivojlantirishdadir. Bu ijodkorlik, ixtiro qilish, bolaning shaxsiyatini shakllantiradigan, uning mustaqilligi va kognitiv

qiziqishini rivojlantiradigan eng yaxshi, eng yangi narsalarni yaratish qobiliyatini shakllantirish asosida namoyon bo’ladi.

Maktabgacha yosh davri o'ziga xosdir, chunki bola bu davrda qanday shakllangan bo'lsa, uning hayotida shunday rivojlanish o’z ta’sirini namoyon qiladi. Shuning uchun har bir bolaning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun ushbu davrni e’tiborsizlik bilan o'tkazib yubormaslik kerak. Chunki bolalarning intellektual imkoniyatlari juda keng va serqirradir. Uni yuzaga chiqarish muammosini oddiy bir xil qolip asosida an'anaviy ish shakllari yordamida to'liq hal qilish mumkin emas.

TRIZ dastlab muxandislar va texniklarga qaratilgan ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasini amalga oshirishga imkon bergan, so'nggi o'n yilliklarda bu nazariya o'qituvchilar va amaliyotchilar orasida katta qiziqish uyg'otdi.



4.7.1-rasm.

Bola tasavvurini rivojlantiruvchi TRIZ mashqidan namuna

TRIZ - pedagogika tizimi 1980-yillarning boshidan boshlab maktabgacha ta’lim tizimida rivojlana boshladi. Uning asosiy maqsadi - zamon talabiga javoban, muammolarni hal etishga qodir, innovatsion fikrlovchi shaxsni tayyorlash.

TRIZ pedagogikaning diqqat markazida moslashuvchan tizimli boy tasavvurga ega bo’lgan ijodkor shaxs turadi. Bolalar bog'chasida TRIZ texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, bir tomondan, moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektik kabi fikrlash fazilatlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan, faol izlanuvchanlik, yangilikka intilish, nutq va ijodiy tasavvurni rivojlantirishdir. TRIZ barcha yosh guruhlari uchun qo'llaniladi. Bu bola ongida dunyoning yagona, uyg'un, ilmiy asoslangan modelini shakllantirish imkonini beradi. Bunda muvaffaqiyatli vaziyatlar yaratiladi, qaror natijalari almashiladi, bir bolaning qarori boshqasining fikrini faollashtiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi, uning rivojlanishini rag'batlantiradi. TRIZ bolalarni o'z individualligini ko'rsatish imkoniyatini beradi, bir qolipda fikrlashga yo’l bermaydi. TRIZ boshqalarning muvaffaqiyatidan quvonish, ularga yordam berish istagi, qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini topish kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi. TRIZ ortiqcha zo’riqmasdan, siqilmasdan bilim olishga imkon beradi.



4.7.1-rasm. Tarbiyachi va bolalar tomonidan tayyorlangan TRIZ amaliyoti asosidagi ijodiy ish

Turli yosh guruhlarda bolalarning nutqni rivojlantirishda TRIZ (IMEN) usullaridan foydalanish Har bir guruhda ilm-fan va tabiat, san’at, qurish-yasash va matematika markazlaridagi mashg'ulotlarda TRIZ texnologiyalaridan foydalanish bolalar nutqini rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Bolalar bilan ishlashning asosiy vositasi pedagogik izlanishdir. Tarbiyachi bolalarga tayyor bilim va haqiqatni ochib bermasligi, aksincha avval bolalarni masalaga qiziqtirib, keyin uning yechimlarini qanday topishga yo’naltirishi kerak.

Har bir TRIZ mashg’ulotida bir necha bosqichda ish olib boriladi. Har bir bosqichining o'ziga xos maqsadi bor.

1. Birinchi bosqichda bola oddiy hayotda bizni o'rab turgan muammo va qarama-qarshiliklarni aniqlash va farqlashni o'rganadi. Masalan: Daraxt va o'tning umumiyligi nima? Qog'oz va daraxt po’stlog'ining umumiyligi qanday?
2. Ikkinchi bosqich esa, bolani aniq vazifalarni hal qilishda tasavvur va ixtirochilik ko'rsatishga o'rgatadi. Misol uchun, doimo o'ynashni xohlayotgan o'yinchoqni o'ylang, shunda hech qachon zerikmaysiz.
3. Uchinchi bosqichda bolalarga fantastik topshiriqlar va o'zlarining hikoyalarini tuzish imkoniyati beriladi. Bunday holda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ metodlaridan foydalanish kerak.
4. To'rtinchi bosqich bolalarning noan'anaviy muammoni hal qilish uchun yangi bilimlarni qo'llash imkonini beradi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun «TRIZ» o'yinlaridan faol foydalanadi. Ixtirochilik muammolarni hal qilish nazariyasiga daxldor odatiy o'yinlarning ayrim misollarini ko'rib chiqsak:

“MASHA RASTERYASHA” O’YINI

Biror qiz bolaga tarbiyachi tomonidan qandaydir buyum (qaychi) rasmi ko’rsatiladi. Masha rolidagi qiz bola bolalarga murojaat qilib, “men bir narsamni yo’qotib qo’ydim, endi qirqib yopishtirishni qanday tayyorlayman?” deb murojaat qiladi. Bolalar Masha nimani yo’qotganini aytishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ dasturi jamoaviy o'yinlar va jarayonlar tizimi asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonlar bolalarni turli qarama-qarshiliklarni, obyektlarning, hodisalarning xususiyatlarini aniqlashga va turli muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Muammolarni hal qilish esa ijodiy fikrlashning kaliti hisoblanadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida TRIZni qo'llash natijasida bolalarda uyatchanlik yengib o'tiladi, fikrlash, ijodkorlik, tasavvur va mantiq rivojlanadi. TRIZ bolalarga nutq, tashabbus hamda individuallikni ko'rsatish imkoniyatini beradi. TRIZ texnologiyasi bolalarning yoshidan qat'iy nazar, bolalarni ijodkorlik usullari va vositalari bilan ta'minlaydi.

Nazorat savollari

3. TRIZ texnologiyasidan foydalanishning asosiy vazifasi nimadan iborat?

4. TRIZning maqsadi nimadan iborat?

5. TRIZ-pedagogika tizimi maktabgacha ta’lim tizimida qachon rivojlana boshladi?

4.8. Ilk matematik tushunchalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Reja

1. Ilk matematik tushunchalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
2. Bolalarning ilk matematik tushunchalari: son-sanoq, miqdor tushunchalarni o`rgatish, arifmetik masalarni tuzish va yechishga o`rgatish, raqamlar bilan tanishtirish hamda butun va qism bilan tanishtirish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar.
3. Ilk matematik tushunchalarini shakllantirishda TRIZ-IMEN usullaridan foydalanish. “Nima o’zgardi?”, “Nechta bir xil rangli doira?”, “Matematik estafeta”, “U yerda qancha qoldi’,“Maydalang”, “Uchinchisi ortiqcha**”,**“Domino”, “Uddaburon sanoqchiga–bayroqcha”, “Bozor-bozor”,

Kim to`g`ri masala tuzadi va yechadi?” o`yin qoidalari

Ilk matematik tushunchalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Avvallari bu tizim jamiyatning turli sohalarida mehnat qilayotgan ota-onalarning ijtimoiy faoliyati uchun shart-sharoit yaratishgagina xizmat qilgan bo‘lsa, endilikda maktabgacha ta’lim muassasalarining ish mazmuniga qo‘yilgan talablar ham o‘zgartirildi. Asosiy vazifalardan biri kichkintoylarni maktab bosqichida o‘qishga tayyorlashdir.Yosh avlodni o‘z xalqi, jamiyati va yurtiga fidoiylik ruhida kelajak taqdiri uchun mas’ullikni his eta oladigan, boy milliy madaniy merosimiz va qadriyatimizga hurmat va asrab avaylash ruhida tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan kechiktirib bo‘lmas vazifa ekan, bu barcha ta’lim-tarbiya ishi bilan shug‘ullanuvchi xodimlardan katta mas’uliyatli ishlarni bajarishni talab etadi. So‘ngi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgartirishlar amalga oshirildi.

Maktab oldiga yangi maqsadlarning qo‘yilishi maktabgacha ta’lim muassasalarida matematik ta’lim berish mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib keldi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida matematik ta’lim berish usulining mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Matematika o‘qitishda ko‘zda tutilgan maqsadlarni asoslash. (Nima uchun matematika o‘qitiladi, o‘rgatiladi?).

2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o‘rgatish?). Ya’ni, bolalarga bilimlar qanday berilganda, bu bilimlar hozirgi zamon talablariga mos keladigan bo‘ladi.

3. Matematik bilim berish usullarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o‘qitish kerak?), ya’ni bolalar hozirgi kunda zarur bo‘lgan bilimlarni, malakalarni, ko‘nikmalarni va aqliy faoliyati, qobiliyatlarini egallab oladigan bo‘lishlari uchun o‘quv ishlari metodikasi qanday bo‘lishi kerak?

Matematik bilimlarni egallash jarayonida bolalar shaxsining rivojlanishi va shakllanishini amalga oshirish uchun qanday o‘qitish kerak?

4. Matematik bilim berish vositalarini darsliklar, didaktik materiallar, ko‘rsatma-qo‘llanmalar, pedagogik texnologiyalar va texnik vositalarni ishlab chiqish (nima yordamida o‘qitish).

5. Ta’limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta’limning mashg‘ulotdan tashqari shakllarini qanday o‘tkazish?) Mashg‘ulot ishlarini qanday tashkiliy metodlarda o‘tkazish kerak? Mashg‘ulot jarayonidagi ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni qanday qilib yanada samaraliroq hal qilish kerak?).

Bolalarga bilim berish maqsadlari, metodlari, vositalari va shakllari metodik tizimning asosiy komponentlaridir.

Mashg‘ulotlar o‘quv yili boshidan boshlab haftasiga 1 martadan (1 yilda 36 marta) o‘tkaziladi. Sentabr oyida bir mashg‘ulotning davomiyligi 10 minutdan oshmasligi kerak. Oktabr oyidan boshlab mashg‘ulot davomiyligi sekin-asta 15 minutga yetkaziladi. O‘rta guruhda mashg‘ulotlar sentabr; oyidan boshlab, haftasiga 1 marta o‘tkaziladi. Mashg‘ulot 20 daqiqa davom etadi. Yil davomida 36 ta mashg‘ulot o‘tkaziladi. Bolalar harakatli-ko‘rsatmali shaklda berilgan o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtiradi. 5 yoshga qadam qo‘ygan bolalarni o‘qitishda didaktik o‘yinlardan keng foydalanish kerak. Topshiriqlarning bajarilish jarayonida tarbiyachi bolalarni o‘z harakatlarini (nima qilganlarini va qanday qilganlarini, natijada nima hosil bo‘lganini) tushuntirib berishga undaydi. 6 yoshli bolalarda o‘z xulq-atvorini boshqarish qobiliyati paydo bo‘ladi; erkin xotira, diqqat rivojlanadi. Shu yoshda topshiriqni bajarishga, o‘z ishiga ijobiy baho olishga intiladilar. Ular o‘quv topshiriqlariga katta qiziqish bilan qaraydilar. Bolalar katta guruhda birinchi o‘nlik sonlarini yaxshi o‘zlashtirishlari kerak. Har xil buyumlar to‘plamini sanash, ularning qatorda kelish tartiblarini aniqlash jarayonida sonlar mohiyatini o‘zlashtirish amalga oshiriladi. Bolalar bilan bajariladigan hamma ishlar ular oldingi bosqichlarda olgan bilimlar va ularni hisobga olish asosida tashkil

qilinadi. O‘rganishni o‘tilganlarni takrorlashdan boshlash kerak. Har qaysi yangi bilim oldin o‘zlashtirilgan bilimlar tizimiga kiritilishi zarur. Mashqlar miqdori yetarli bo‘lgandagina bolalarda puxta malaka va ko‘nikmalar shakllanishi mumkin. Bolalarni buyumlar, o‘yinchoqlar, geometrik figuralar, kartochkalar va rasmlardagi tasvirlarni sanash (qayta sanash, qo‘shib sanash, ajratib sanash)ga, obyektlar miqdorlarini sezish bilan aniqlashga mashq qildirish kerak. Mazkur guruhda haftada 1 tadan mashg‘ulot o‘tkaziladi. Maktabga tayyorlov guruhi bola 7 yoshga qadar son, buyumlarning shakli va kattaligi haqida nisbatan ko‘proq bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishi, fazoda (2 va 3 o‘lchovli) va vaqt bo‘yicha mo‘ljal ola bilishi kerak. Tarbiyachi bolalarda matematik bilimlarga ustivor (turg‘un) qiziqish, ulardan foydalanish malakasi va ularni mustaqil egallashga intilishni tarbiyalashga harakat qilishi kerak. Shu yoshda bolalarda mustaqil fikrlashni, fazoviy tasavvurni rivojlantirish, ayniqsa, muhim. Maktabgacha tayyorlov guruhi uchun elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishda bolalarning oldingi bosqichlarda olgan bilimlarini sistemalashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi. Elementar matematika mashg‘ulotlari oldida bir qator maqsadlar qo‘yilgan. Bular: ta’limiy, tarbiyaviy va amaliy maqsadlardir.

Ta’limiy maqsadlar quyidagilardan: bolalarga real olamdagi yuz beradigan eng sodda xodisalardagi miqdoriy nisbatlarni tushunishga va olamdagi fazoviy shakllarni, ularning joylashishlarini, natural son, geometrik shakl, miqdor va boshqa tushunchalar mavhum, ammo ular real borliqdagi narsa va buyumlarga xos bo‘lgan bog‘lanish va munosabatlarni aks ettiradigan hajmdagi bilimlar berishdan iborat. Bu bilimlar fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishga, mantiqiy fikrlay bilishga yordam berishi kerak. Shuningdek, matematika mashg‘ulotlari bolalarda o‘z ona tilida xatosiz so‘zlashga, o‘z fikrini aniq va ravon qilib bayon eta bilishga, o‘z nutqida matematik terminlarni to‘g‘ri qo‘llashga yordam berishi kerak. Matematik nutqda aniqlikka rioya qilish va har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlata bilish ayniqsa

muhimdir. Bu bolalarni maktabda asosiy fanlardan bilim olishga o‘rgatishda ham zarur.

Tarbiyaviy maqsadlar: Matematikaga doir bajariladigan ishlar bolalarni boshqa oladigan bilimlariga qaraganda ko‘proq sabotlikka, tirishqoqlikka, puxtalikka, aniqlikka o‘z fikr va xulosalarini nazorat qila olishga, ayniqsa kuzatish, tajriba va fahmlash asosida aytiladigan fikrlarining ravon bo‘lishiga e’tibor berishga odatlantirish kerak. Bu bilan bolalarda matematik bilimlarga bo‘lgan qiziqish, matematik masalalarni sabr toqat va tirishqoqlik bilan yechish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Shuningdek, induktiv va deduktiv tafakkurning boshlang‘ich ko‘nikmalarini aqliy operatsiyalarni, ya’ni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslashni, abstraktlashtirish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga, idroklilik va ziyraklikni, fazoviy tasavvurlarni va tafakkurni o‘stirishga matematika ta’limi katta ahamiyat kasb etadi.

Matematik bilim berishdan kuzatilgan **amaliy maqsadlar** bolalarning nazariyani amaliyotga bog‘lay olishidan, ya’ni olingan bilimlarni hayotiy masalalarni hal qilishga qo‘llashda foydalanadilar. Bolalar bog‘chadao‘rgangan to‘plam va son, kattalik (miqdor)larning bir-biriga nisbati, eng oddiy geometrik shakllar haqidagi boshlang‘ich tasavvurga ega bo‘ladilar, joy va vaqtni bilishni o‘rganadilar va olgan bilimlarini o‘zlarining kundalik mehnat va o‘yin faoliyatida, maishiy hayotda uchraydigan matematikaga doir savol va masalalarni hal qilishga tatbiq eta bilish malakalarini hosil qilish kerak. Bu ishlar nafaqat maktabgacha ta’lim muassasalarida, balki, oilada, tevarak-atrof bilan muloqot qilishda ham amalga oshadi. Bunday vaqtda bolaga aynan matematik mazmundagi savollar berish va u savollarga javoblar olish, noto‘g‘ri berilgan javoblarni izohlash va aslida to‘g‘risi qayday bo‘lishini isbotlab berish maqsadga muvofiq. Shunda matematik bilimlar asosidagi amaliy maqsadlar to‘laligicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan “Ilk qadam” dasturi

asosida bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etishi;
- o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topishi va undan foydalanishi;
- predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunib, ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qilishi;
- raqamlar, hisob-kitobni bilishi va ularni hayotda qo‘llay olishi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutishi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshira olishi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatishi hamda tadqiq qilishi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon eta olishi kerak.

Bolalarning matematik tushunchalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, ularning idrokini, ya’ni sensor tuyg‘ularini o‘stirish bilan bevosita bog‘liqdir. Umumlashtirish va abstraktlashtirish qobiliyati real predmetlarning xususiyatlarini aniqlash va shu xususiyatlarga qarab mazkur predmetlarni bir-biriga taqqoslash va guruhlarga ajratish asosida o‘sib boradi. Shuning uchun bola maktabga borgunga kadar unda matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun bolalar bog‘chasidagi barcha o‘quv-tarbiya ishlari bilan uzviy ravishda bog‘lab maxsus ish olib boriladi.

Matematik bilimlar bolalarga ma’lum izchillikda berilishi, bunda yangi bilim kamroq miqdorda, ya’ni bolalar o‘zlashtirib oladigan darajada bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham bir vazifa bir qancha mayda qismlarga bo‘linib, ular birin ketin o‘rganib boriladi. Tarbiyachi har bir yosh guruhining dasturi qanday tuzilganini bilishi lozim. Bu unga o‘z guruhidagi bolalarning matematikaga doir bilim darajalarini aniqlash uchungina emas, balki maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda boshlang‘ich matematik tasavvurlarni

o‘stirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar tizimida har bir mashg‘ulotning qanday muhim rol o‘ynashi va o‘rin egallashini ko‘z oldiga keltirish uchun ham imkon beradi.

Bolalarning ilk matematik tushunchalari: son-sanoq, miqdor tushunchalarni o`rgatish, arifmetik masalarni tuzish va yechishga o`rgatish, raqamlar bilan tanishtirish hamda butun va qism bilan tanishtirish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar. Matematik tasavvurlarni shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishning asosiy shakli – mashg‘ulotdir. Dastur vazifalarining ko‘pchilik qismi mashg‘ulotlarda hal qilinadi. Bolalarda ma’lum izchillikda tasavvurlar shakllantiriladi, zarur malaka va ko‘nikmalar hosil qilinadi. Atrofdagi hamma narsani miqdor jihatidan kuzatishlarni uyushtirishga, bolalarning o‘z faoliyatlarining xilma-xil turlarida matematik mazmundagi bilim va ko‘nikmalaridan qanday foydalanishlariga katta ahamiyat beriladi. Mashg‘ulotlarda va kundalik hayotda didaktik o‘yinlardan hamda o‘yin-mashqlardan keng foydalaniladi. Mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda o‘yinlar tashkil qilib, bolalarning matematik tasavvurlari mustahkamlanadi, chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi. Bir qancha hollarda, masalan, joyni bilish ko‘nikmasini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarda o‘yinlar asosiy o‘quv vazifasini o‘taydi. Mashg‘ulotlarda bolalarning aktiv faoliyati birinchi navbatda yangi material ustida ishlashni hamda ilgari o‘tilgan materialni takrorlashni birga to‘g‘ri qo‘shib olib borish bilan ish turlarini va uni tashkil etish usullarini almashtirib turish bilan ya’ni, mashg‘ulot tuzilmasi bilan taqsimlanadi.

Mashg‘ulotlar dastur vazifalarining hajmi, mazmuni, uyg‘unlikda olib borilishi, tegishli bilim va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishi darajasi, bolalarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Maktabga borish davriga kelib bolalar to‘plam va son, shakl va kattalik haqida o‘zaro bog‘langan bilimlarni nisbatan ko‘prok egallagan, fazoda va vaqtni mo‘ljallay olishni o‘rgangan bo‘lishlari zarur. Tajribada, birinchi sinf bolalarida uchraydigan qiyinchilik, odatda mavhum bilimlarni egallab olish, aniq predmetlar, ularning

obrazlari bilan amal qilishdan, sonlar va boshqa mavhum tushunchalar bilan bajariladigan amallarga o‘tish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday o‘tish bolaning rivojlangan aqliy faoliyatini talab etadi. Bolalar turli matematik bog‘lanishli munosabatlarni aniqlash usullarini, masalan, to‘plam elementlari o‘rtasidagi moslikni aniqlash usullarini egallaydilar (to‘plamdagi elementlarni birma-bir amalda solishtiradilar, kattalik nisbatlarini aniqlash uchun ularni ustma-ust, yonma-yon qilib ko‘rish usullaridan foydalanadilar).Ular miqdor nisbatlarini aniqlashda eng aniq usul predmetlarni sanash va kattaliklarni o‘lchash ekanligini tushuna boshlaydilar. Sanash va o’lchash malakalari ularda tobora mustahkam va ongli bo‘lib boradi.

Har qaysi yosh guruhi dasturi ushbu bo‘limlardan iborat:

- Miqdor va sanoq.
- Kattalik.
- Geometrik figuralar.
- Fazoda mo‘ljal olish.
- Vaqt bo‘yicha mo‘ljal olish.

O‘quv yilining oxirida katta guruh bolalari quyidagilarni bilishlari kerak:

- narsalarni 10 tagacha sanay olish;
- sanoq va tartib sonlardan to‘g‘ri foydalanish;
- 10 tagacha bo‘lgan sonlarni yonma-yon turganlarini (ko‘rgazma asosida) taqqoslay olish;
- teng bo‘lmagan 2 guruh narsalar sonini ikki usul bilan tenglashtira olish (1 ta narsa qo‘shish yoki ayirish usuli bilan);
- 0 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlarni nomi va farqini bilish;
- turli miqdordagi 10 tagacha bo‘lgan narsalarni eni, bo‘yi, balandligi, qalinligi, o‘lchami va ular orasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda ortib borishi yoki kamayib borishi tartibida joylashtirib taqqoslash;
- narsalar shaklini doiraviy, uchrubchak, to‘g‘ri to‘rtburchakli, kvadrat, to‘rtburchakli, oval ko‘rinishdagilarini farqlash;

- qog‘oz varag‘ida yo‘nalishlarini farqlash;
- narsalarning o‘ziga yoki boshqa narsalarga nisbatan joylashish vaziyati, yo‘nalishini so‘z bilan ifodalash;
- hafta kunlari ketma-ketligi, sutka qismlari nomlari kabilar.

Bu tushunchalar mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda ham olib boriladi.

Masalan, **miqdor va sanoq** tushunchalari bilan bolalar turli hayotiy vaziyatlarda duch keladilar. Ular nechta?, qancha?, nechanchi? kabi savollarga javob topadilar. Bu ishlar oilada, tevarak – atrofda, ochiq havodagi o‘yin faoliyati davomida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tayyorlov guruhi bolalari egallashlari kerak bo‘lgan malakalar quyida o‘z aksini topadi:

Narsalarni 10 tagacha sanay olish - bu malakalar bolalarda asosan, o‘yinlar davomida shakllanadi. Ular **10 ichida** necha?, nechta?, qancha?, nechanchi? kabi savollarga javob berish orqali narsalarni 10 tagacha sanay olish malakalarini o‘zlashtiradilar. Chunki 4-5 yoshga kelib bolalar sonning miqdoriy tarkibini biladi, matematik tushunchalardan foydalanadi (ko‘p, kam, jami, shuncha), «ko‘proq», «kamroq», «teng». Ular ketma-ketlikda sanaydi, ko‘pliklarni taqqoslay oladi. Masalan, tayyorlov guruhidagi mashg‘ulotlarning birinchi qismida 5 sonining o‘zidan kichik ikki sondan iborat tarkibi bilan tanishtirish, ikkinchi qismida doira va oval chiza olish malakasi qaraladi, 3 va 4 sonlarining ikkita kichik sondan iborat tarkibi o‘rganilishi, bilimlar mustahkamlanishi mumkin. Uchinchi qismda «Nima o‘zgardi?» o‘yinida buyumlar to‘plamini sanash (masalan, samolyotlar zvenolari nechtaligini, har qaysi zvenoda nechtadan samolyot borligini, hamma samolyotlar nechtaligini aniqlash)ga doir mashqlar bajarilishi mumkin. Mashg‘ulotning tuzilishi dastur bo‘limlarining hajmi, mazmuni, ko‘rgazmaliligi, tegishli bilim va ko‘nikmalarniig o‘zlashtirilish saviyasi va boshqa omillarga bog‘liq.

Sanoq va tartib sonlardan to‘g‘ri foydalanish ham shu savollarga to‘g‘ri javoblar topish, didaktik va qurish – yasash o‘yinlari davomida sanoq va tartib sonlarni qo‘llash orqali rivojlantiriladi. Bolalar (o‘rta, katta va maktabga

tayyorlash guruhlarida), buyumlarni va geometrik figuralarni har xil alomatlari bo‘yicha guruhlarga ajratishni, o‘yinchoqlar, figuralar, jadvallar to‘plamiga tayyorlov guruhlarida «qancha» so‘zi bilan savollar o‘ylab topishni mashq qiladilar. Shuningdek, «Qo‘shnilaringni top», «Men qaysi sonni o‘tkazib yubordim?», «Kim ko‘p bilsa, u uzoq sanaydi» kabi o‘yinlar o‘tkaziladi. Yangi materialni tushuntirishda tarbiyachining yoki doskaga chiqarilgan bolaning harakatlari hamma bolalarga ko‘rinib turishi muhim.

10 tagacha bo‘lgan sonlarni yonma-yon turganlarini (ko‘rgazma asosida) taqqoslay olish – bunga raqamlar kassasi, sonlar qatori, sanoq cho‘plarini ishlatish orqali erishiladi.

Teng bo‘lmagan 2 guruh narsalar sonini ikki usul bilan tenglashtira olish (1ta narsa ko‘shish yoki ayirish usuli bilan) – to‘plamlarni solishtirish, masalan, ikkita tarelkada qaysida ko‘p olma, qaysida kamroq olmalar bor?, Guruhda qiz bolalar ko‘pmi, o‘g‘il bolalarmi?, Ular nechtadan?... Mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishda ko‘rsatma-qo‘llanmalarni to‘g‘ri tanlashning ahamiyati katta. Hamma mashg‘ulotlarda kundalik turmushda ishlatiladigan buyumlar, o‘yinchoqlar, tabiiy materiallardan keng foydalaniladi. Hamma bolalar o‘yinchoqlar bilan o‘ynashlari uchun o‘yinchoqlar ko‘p miqdorda tanlanadi.

0 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlarni nomi va farqini bilish – bu tushunchalar asosan, ko‘rgazmalar va o‘yin mashg‘ulotlar, bog‘chada olib boriladigan kundalik tartib davomida, bolalarning navbatchiligi davomida (Bugun nechta bola bor? Har bir bolaga bittadan idish?, Necha kishiga qoshiq bor, necha kishiga yo‘q? savollari orqali) amalga oshiriladi. Shuningdek, kichik yoshdagi bolalarda bu ko‘nikmalar bolaga predmetlarning hajmi, og‘irligi va uzunligini ta’riflab borish, bolaga sayr davrida elementar matematik savollari (biz qancha zinapoyani bosib o‘tdik?, senda nechta o‘yinchoq bor?) (menga bitta piyola olib kel, ikkita pechenye ber) kabi matematik bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha faoliyatga jalb qilish orqali rivojlantiriladi.



4.8.1-rasm. 0 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlarni nomi va farqini bilish va ular ustida amallar bajarishga oid oyin

Turli miqdordagi 10 tagacha bo‘lgan narsalarni eni, bo‘yi, balandligi, qalinligi, o‘lchami va ular orasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda ortib borishi yoki kamayib borishi tartibida joylashtirib taqqoslash– 4-5 yoshda bolalar bo‘shliqda yo‘nalish olishni biladi (oldinda, orqada, tepada, pastda, yaqin, uzoq), butun va uning qismlari tushunchasini tushunadi. Bu ko‘nikmalar stol bosma o‘yinlari, qurish-yasashga mo‘ljallangan o‘yinchoqlar, didaktik materiallar, tarbiyachi o‘z nutqida matematik tushunchalar (narsalarni eni, bo‘yi, balandligi, qalinligi, o‘lchami va ular orasidagi munosabatlarni)ni qo‘llashi davomida shakllanib boradi.

Kattalik tushunchasi asosan, taqqoslash asosida amalga oshadi. Kattalik, shuningdek, o‘zgaruvchanlik bilan ham xarakterlanadi. V.V.Davidov bunday deydi: “o‘lchamlar obyektlarning shunday holatiki, u ma’lum chegaragacha o‘zgara borib, alohida obyektni o‘zgartirsa ham, ammo uning tur va boshlang‘ich sifatini o‘zgartirmaydi”[5].

Rus matematik metodisti D.Galanin “kattalik” tushunchasining ma’nosini bunday izohlaydi: “kattalik” deb, buyum va harakatlarning shunday xususiyatiga

aytiladiki, bu xususiyat bo‘yicha buyumlarni bir-biri bilan taqqoslaymiz. Bu xususiyat har xil buyumlarda har xil bo‘ladi.[6]

Bolalar narsa va buyumlarni bir-biriga nisbatan munosabatini aniqlaydilar. Ular bir jismning ikkinchisiga nisbatan o‘lchamlari, katta yoki kichikligini analiz qiladilar. Tarbiyachi va ota-onalar tomonidan olib boriladigan savol-javoblar, suhbatlar davomida bu tushunchalar mustahkamlanadi.

Geometrik shakllar bolalar uchun doim qiziqarli tuyuladi. Bolalar bilan olib boriladigan turli didaktik o‘yinlarning aksariyati geometrik figuralar bilan bog‘liq. Ular geometrik figuralar ishtirok etgan o‘yinlarni jon-dili bilan qiziqib o‘ynaydilar. Ularni tasvirlash, bo‘yash, bir necha figuralarni birlashtirib, yaxlit tasvirlar hosil qilishni xush ko‘radilar. Shuning uchun ham bolalarga bunday shakllarni tanishtirish qiyin bo‘lmaydi.

Fazoda mo‘ljal olish malakalari bolalarda mashg‘ulotlardan tashqari ochiq havoda olib boriladigan harakatli o‘yinlar, turli ko‘rsatmalar, tasavvurni boyitish uchun olib boriladigan didaktik materiallar natijasida rivojlantiriladi.

Vaqt bo‘yicha mo‘ljal olish malakalari turli mashg‘ulotlarning tashkiliy qismida, kunning turli qismlarida tashkil etiladigan ishlar davomida o‘rgatib boriladi. Asosan, bolalarga ertalab, kechqurun, kun, tun, kecha, bugun, ertaga kabi tushunchalar orqali savollar beriladi. Bolalarning bu savollarga bergan javoblari tarbiyachi tomonidan to‘g‘rilab boriladi.

Narsalar shaklini doiraviy, uchrubchak, to‘g‘ri to‘rtburchakli, kvadrat, to‘rtburchakli, oval ko‘rinishdagilarini farqlash - Bunda bolalarning ilgari egallagan geometrik shakllar to‘g‘risidagi bilimlari, tasavvurlari yangi murakkabroq ma’lumotlar asosida boyitiladi va mustahkamlanadi. Chunki 4-5 yoshli bolalar geometrik shakllarga o‘xshash predmetlarni topadilar, geometrik figura va shakllarni nomini biladilar, miqdoriy aloqalarini belgilaydilar, tayyorlov guruhlarida bu bilimlar boyitiladi.

Qog‘oz varag‘ida yo‘nalishlarini farqlash – Bu vazifalar nafaqat matematik tasavvurlarni rivojlantirish mashg‘ulotlarida, balki boshqa turdagi mashg‘ulotlarda ham amalga oshiriladi. Bolalar daftar kataklarida raqamlarni

qay holatda yozishni, yozishni qaysi tomondan boshlash qoidalarini o‘rganishlari lozim. Shuningdek, ular raqamlarni yozishda avval ularning elementlarini yozishni o‘rganadilar.

Narsalarning o‘ziga yoki boshqa narsalarga nisbatan joylashish vaziyati, yo‘nalishini so‘z bilan ifodalash - Bunda bolalar buyumlarning uzunliklari, kengliklari, balandliklarini taqqoslashga o‘rgatiladi; geometrik figuralar: doira, kvadrat bilan tanishtiriladi; fazoviy yo‘nalishlar bilan tanishtiriladi: «o‘zidan» oldinga, orqaga (orqasidan), o‘ngga (o‘ngdan), chapga (chapdan) so‘zlarini to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatiladi.

Hafta kunlari ketma-ketligi, sutka qismlari nomlari kabilar. Bu tushunchalar har kunlik mashg‘ulotlarning tashkiliy qismlarida, kunning ikkinchi yarmida, kun tartibining barcha qismlarida o‘rgatib boriladi. Shu bilan birga mashg‘ulotlarni mustahkamlash davomida ham doimiy tarzda takrorlanadi.

Ilk matematik tushunchalarini shakllantirishda TRIZ-IMEN usullaridan foydalanish. “Nima o’zgardi?”, “Nechta bir xil rangli doira?”, “Matematik estafeta”, “U yerda qancha qoldi’, “Maydalang”, “Uchinchisi ortiqcha”, “Domino”, “Uddaburon sanoqchiga–bayroqcha”, “Bozor-bozor”, Kim to`g`ri masala tuzadi va yechadi?” o`yin qoidalari



4.8.2--rasm. “Nima o’zgardi?“ mashqi



4.8.3-rasm. Qo’shnisini top o’yin-mashqi



4.8.4-rasm. Nechta bir xil rangli doira

Tarbiyachi mashg‘ulotga tayyorlanar ekan, dastur mazmunini sinchiklab o‘rganadi. Matematik bilimlar bolalarga qat’iy aniqlangan sistema va izchillikda beriladi, bunda yangi materiallar har bir vazifa bir qator kichik topshiriqlarga bo‘linadi. Bu kichik topshiriqlar ketma-ket o‘rganiladi.



4.8.5-rasm. “Uddaburon sanoqchiga–bayroqcha“ mashqi

Tayyorlov guruhlarida elementar matematika mashg‘ulotida mantiqiy tafakkur ham o‘stiriladi. Tayyorlov guruhlarida elementar matematika

mashg‘ulotida mantiqiy tafakkurni o‘stirish uchun dastur mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- masala yechish, narsalarni 3 belgisiga ko‘ra turkumga ajratish, son qatori bilan ishlash, ikki xonali sonlarni bilish, masala tuzish, grafik diktant yozish, hafta kunlarini bilish malakasi**.**

Masalan, tayyorlov guruhi bolalarini buyumlarni bo‘laklarga bo‘lish bilan tanishtirish bunday ketma-ketlikda amalga oshiriladi: bolalar birinchi mashg‘ulotda buyumlarni ikkita teng qismga bo‘lishni mashq qiladilar va yarim nima ekanini o‘zlashtiradilar; ikkinchi mashg‘ulotda bolalarning teng ikkiga bo‘linadigan buyumlar haqidagi tushunchalari kengaytiriladi va shunga mos lug‘ati faollashtiriladi, tarbiyachi uchinchi mashg‘ulotda bolalarga buyumlarni teng to‘rt qismga bo‘lish usullarini o‘rgatadi, shuningdek, butunning qismga munosabatini ko‘rsatadi, keyinroq bolalarga geometrik figuralarni ikki va to‘rt qismga bo‘lishning har xil usullarini ko‘rsatadi, bolalar butun bilan qism orasidagi munosabatlarni o‘rnatishadi.

Maktabgacha tayyorlov guruhi uchun elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishda bolalarning oldingi bosqichlarda olgan bilimlarini sistemalashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur guruhda matematika mashg‘ulotlari haftada 2 tadan (bir yilda 72 ta) o‘tkaziladi. Matematikadan har qanday mashg‘ulotni loyihalashda bolalar tarbiyachining yonida ishlashlari bilan bir qatorda o‘z o‘rinlarida tarqatma materiallar bilan mustaqil ishlashlari ham nazarda tutilishi zarur.

Nazorat savollari

1. Elementar matematika mashg‘ulotlari oldida qanday maqsadlar qo‘yilgan?
2. Maktabgacha tayyorlov guruhi uchun elementar matematik tasavvurlarn rivojlantirish mashg’ulotlari yilda necha soat tashkil etiladi?
4. “Bozor-bozor”, Kim to`g`ri masala tuzadi va yechadi?” o`yin-mashqlarining ishlanmasini tayyorlang

4.9. Buyumlarning shakli, hajmi, katta-kichikligini farqlashga o`rgatish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar

Reja

1. Buyumlarning shakli, hajmi, katta-kichikligini farqlashga, tevarak atrofida egallagan o`rni, joyi hamda vaqtni bilishga o`rgatish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar
2. Buyumlarning shakli “Doirani aylantiring”, “Geometrik domino”, “Shakllarni to’rtta cho’ntakka joylang”, “Ziyrak bo’ling”, “Berilgan shaklni kim tezroq tuza oladi?”, “Qanday shakl hosil bo’ladi?’, “Shaklni toping, “Qaysi shakl yetishmaydi?” o`yin ishlanmalarini tayyorlash va o`tkazish
3. Shartli o`lchov birliklari bilan tanishtirish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar
4. Tevarak atrofda mo`ljal olishga o`rgatish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar
5. Vaqtni chamalashga o`rgatish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar

Buyumlarning shakli, hajmi, katta-kichikligini farqlashga, tevarak atrofida egallagan o`rni, joyi hamda vaqtni bilishga o`rgatish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlar kun davomida o‘tkazilib boriladi. Kunning birinchi qismiga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar ancha yaxshiroq samara beradi. Mashg‘ulot jarayonida bolalarda mustakil fikrlash ko‘nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so‘zini tinglash, o‘rtoqlari bilan gaplashmaslik har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish, aytilgan fikrlarni takrorlash tarbiyachi tomonidan o‘rgatib boriladi. Har bir yosh guruhlarda necha marta mashg‘ulot o‘tkazish bolalar bog‘chasi ta’lim-tarbiya dasturida belgilab boriladi.



4.9.1-rasm.

Buyumlarning shakli, hajmi, katta-kichikligini farqlashga, tevarak atrofida egallagan o`rni, joyini bilishga o`rgatishga oid didaktik material

Maktabgacha ta’lim muassasada mashg‘ulotlar bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga egaligi sababli bu mashg‘ulotlarda bolalar o‘quv faoliyati ko‘nikmalarini hosil qiladilar, intizomli bo‘lib, yanada uyushadilar. Ularda barqaror diqqat, irodaviy zo‘r berish qobiliyati rivojlanadi. Tizimli o‘qish natijasida bilishga qiziqish paydo bo‘ladi. Ular bir-birlariga faol ta’sir etadilar, tashabbus ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladilar. Bolalar oldiga ko‘pchilikdan kuch-g‘ayrat talab qiladigan vazifalar qo’yilganda birgalikdagi kechinmalar paydo bo’ladi, muammoli vaziyatlarni birga hal etish, jamoaga hurmat tuyg‘usi vujudga keladi.



4.9.2-rasm.

“Ziyrak bo’ling” o'yin – mashqi uchun didaktik material

Mashg‘ulotlardagi o‘qitish jarayonida bolalarda maktabga va o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, xulq-atvor ko‘nikmalari, ma’suliyat hissi, ishchanlik, o‘zini tuta bilish, mas’uliyat bilan ishlash odati hosil qilinadi. Bolalarga kerakli bilim va malakalarni mashg‘ulot jarayonida, yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod usullaridan foydalanilsa, bolani yosh, ruxiy fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini rivojlantirish namunaviy ishlanmasi (tayyorlov guruhi uchun)

Mashg‘ulot mavzusi	Pedagogik vazifalar	Ish mazmuni	Markazda ishlash
Intellektual o‘yinlar hamda mashqlar	Bolalarni bir-galikda o‘ynash malakalarini mus-tahkamlash, jamoa tuyg‘usini rivojlantirish	Yangi mavzu materialini muayyan usullar bilan turli vaziyatlarda bosqichma-bosqich o‘rgatish	Qurish-yasash va matematika markazida o‘ynash
Sanoq va miqdor	Bolalarni ko‘rgazmali qurollar va multimedia vositalari yordamida, shuningdek, ognli va ravon sanash, miqdoriy o‘lchash hamda misollarni yechishda ritmik tezlik o‘zgarishini yuzaga chiqarishga o‘rgatish	Matematik tafakkur va amaliy faoliyatning uyg‘unligiga ko‘maklashish	Ilm fan va tabiat markazida suv, qum va boshqa jismlarni o‘lchov vositalari yordamida o‘lchash
Kattalik	Kattalik tushunchasining tushunarli bo‘lishiga erishish, xotira va diqqatni jamlash malakasini rivojlantirish	Bolalarning matematik o‘yinlarda improvizatsiya qilishga intilishlarini rag‘batlantirish	Qurish-yasash va matematika markazida lego va kubiklar bilan eng baland bino o‘yinini o‘ynash
Geometrik shakllar	Geometrik shakl-larning belgilarini, xususiyatlarini tushungan holda nutqda ifodali aks ettirishni o‘rgatish	Shakllarni so-lishtirishning barcha (ko‘rgaz-mali, og‘zaki, amaliy) usullarni takrorlash, geometrik shakllar bilan o‘ynaladigan o‘yinlarni o‘z vaqtida boshlash va tugallash	Qurish-yasash va matematika markazida oddiy va mu-rakkab tangrammalar bilan jamoaviy o‘ynash
Fazoda mo‘ljal olish	Bolalarda fazoda mo‘ljal olish malakalarini shakl-lantirish	Bolalarda oldin o‘rgatilgan o‘ziga va atrofdagi buyumlarga	Qurish-yasash va matematika markazida

		nisbatan mo‘ljal olish malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlash	o‘ynash
Vaqtga nisbatan mo‘ljal olish	Bolalarda vaqtga nisbatan mo‘ljal olish malakalarini shakllantirish	Kundalik tartib asosida vaqtga nisbatan mo‘ljal olish malaka-larini shakllantirish	Sahnalashtirish va dramma markazida ish-lash

Maktabgacha ta’limda mashg‘ulotlarning quyidagi turlari olib boriladi:

Bolalarni bilimlarini sinovchi mashg‘ulotlar – ushbu mashg‘ulotlarni o‘tkazishdan maqsad, tarbiyachi bolaning dasturda belgilangan bilim va malakalarini egallash darajasini bilib oladi va keyingi ishlari davomida shularni inobatga oladi. Asosan bunday mashg‘ulotlar faol usulda og‘zaki savol-javoblar, ko‘rgazmali usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Mujassam mashg‘ulotlar – bu mashg‘ulot bolalar bog‘chasi tajribasida keng tarqalgan bo‘lib, bunday mashg‘ulotlarda bolalarga kompleks ravishda yangi bilim beriladi. Mujassam mashg‘ulotlarni tashkil etishda mazmunan bog‘langan holda bilimlar beriladi. Masalan: matematika mashg‘ulotlarni mujassamlashtirishda musika, tasviriy faoliyat, tabiat bilan tanishtirish, sensor rivojlantirish mashg‘ulotlaridan foydalanish mumkin.

Tarbiyachilar mashg‘ulot o‘tkazishda mashg‘ulotni loyixalashtiradilar. Mashg‘ulotga tayyorlanish mazmuni quyidagilar bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1. Mashg‘ulotni rejalashtirish.
2. Kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash.
3. Bolalarni mashg‘ulotga tayyorlash.

Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida matematik tasavvurlarni rivojlantirishda mustaqil faoliyatni talab qiladigan mashg‘ulotlar, ayniqsa, o‘yin bilan bog‘liq mashg‘ulotlar yaxshi samara beradi.



4.9.3-rasm.

“Berilgan shaklni kim tezroq tuza oladi?” o’yin-mashqi

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda mashg‘ulotlardan tashqari tarbiyachi o‘rgatishning har xil usullaridan, jumladan, amaliy, ko‘rsatmali, og‘zaki, o‘yin usullaridan foydalanadi. Usulni tanlashda bir qator omillar mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalalari, bolalarning yosh va individual xususiyatlari, zarur didaktik vositalarning mavjudligi va boshqalar hisobga olinadi. Tarbiyachining metod va usullarning asosli tanlanishiga, ulardan ratsional foydalanishga doimo e’tibor berib turishi quyidagi natijalarni ta’minlaydi:

- elementar matematik tasavvurlarning muvaffaqiyatli shakllanishi va ularning nutqda aks ettirilishi;
- tenglik va tengsizlik munosabatlarini (buyumni soni, o‘lchami, shakli bo‘yicha) idrok qilish va ajratish, natijaviy munosabatlar (o‘lchami yoki soni bo‘yicha orttirish yoki, kamaytirish)ni, analiz qilinayotgan obyektlarning miqdori, shakli, kattaligini umumiy belgi sifatida ajratish, aloqa va bog‘lanishlarini aniqlash malakasi;

- bolalar o‘zlashtirgan amaliy ish usullari (masalan, qarshi qo‘yish, sanash, o‘lchash bilan taqqoslash)ni yangi sharoitlarda qo‘llashga yo‘naltirish va mazkur vaziyatda ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xossalar, bog‘lanishlarni aniqlash, topishning amaliy usullarini mustaqil izlashga yo‘naltirish.

Masalan, «Geometrik figuralar», «Kattalik», «Miqdor va sanoq» bo‘limlariga oid masalalarni bir vaqtda hal qilish imkonini beradi. Bu xil mashqlar mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi. Didaktik o‘yinlardan eng ko‘p foydalaniladi. Bola bilish mazmunini o‘yin shakliga kirgan o‘rgatuvchi masalani (o‘yin mazmunida), o‘yin harakatlari va qoidalari oldindan nazarda tutilmagan holda o‘zlashtiradi. Didaktik o‘yinlarning hamma turi (buyumli, stolda o‘ynaladigan bosma va og‘zaki turlari) elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning samarali vosita va usullaridir. Buyumli va so‘z o‘yinlari matematika mashg‘ulotlarida va ulardan tashqarida o‘tkaziladi, stolda o‘ynaladigan - bosma o‘yinlar odatda mashg‘ulotdan bo‘sh vaqtlarda o‘tkaziladi.

6 yoshli bolalarda o‘z xulq-atvorini boshqarish qobiliyati paydo bo‘ladi. Ularda erkin xotira, diqqat rivojlanadi. Shu yoshda ular topshiriqni bajarishga, o‘z ishiga ijobiy baho olishga intiladilar. Bolalar o‘quv topshiriqlariga katta qiziqish bilan qaraydilar. Katta guruh bolalari birinchi o‘nlik sonlarini yaxshi o‘zlashtirishlari kerak. Har xil buyumlar to‘plamini sanash, patternlarni o‘rganish, ularning qatorda kelish tartiblarini aniqlash jarayonida sonlar mohiyatini o‘zlashtirish amalga oshiriladi. Bolalar bilan bajariladigan hamma ishlar ular oldingi bosqichlarda olgan bilimlar va ularni hisobga olish asosida tashkil qilinadi.



4.9.4-rasm.

“Ziyrak bo’ling” didaktik o’yin-mashqi

O‘rganishni o‘tilganlarni takrorlashdan boshlash kerak. Har qaysi yangi bilim oldin o‘zlashtirilgan bilimlar tizimiga kiritilishi zarur. Mashqlar miqdori yetarli bo‘lgandagina bolalarda puxta malaka va ko‘nikmalar shakllanishi mumkin. Bolalarni buyumlar, o‘yinchoqlar, geometrik figuralar, kartochkalar va rasmlardagi tasvirlarni sanash (qayta sanash, qo‘shib sanash, teskari sanash, ajratib sanash)ga, obyektlar miqdorlarini sezish bilan aniqlashga mashq qildirish kerak. Maktabga tayyorlov guruhida bola 7 yoshga qadar son, buyumlarning shakli va kattaligi haqida nisbatan ko‘proq bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishi, fazoda va vaqt bo‘yicha mo‘ljal ola bilishi kerak. Tarbiyachi bolalarda matematik bilimlarga turg‘un qiziqish, ulardan foydalanish

malakasi va ularni mustaqil egallashga intilishni tarbiyalashga harakat qilishi kerak. Shu yoshda bolalarda mustaqil fikrlash va fazoviy tasavvurni rivojlantirish, ayniqsa, muhim. Bu vazifalar barcha mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi.

Illyustrasiya vositalariga axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ko‘rgazma plakatlar, guruhlarda tashkil etilgan turli faoliyat markazlari kiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud. Jumladan, tarbiyalanuvchilariga raqam va harflarni o‘rgatishda, elementar matematik tushunchalar bilan tanishtirishda, ijobiy va salbiy ekologik ta’sirlarni bayon qilishda, ta’limiy va rivojlantiruvchi kompyuterli o‘yinlarni amalga oshirishda foydalaniladi. Bu vositalardan foydalanishda bolalar e’tibori namoyish etilayotgan mavzuga qaratiladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan kompyuterlar, prezentatsiya-slaydlar, televizor, elektron doskalar yordamida namoyish etiladigan materiallar asosida bolalarga matematik bilimlar berishda asosiy mavzu sifatida geometrik shakllar, sanoq, vaqt va fazoviy tushunchalar, mo‘ljal olish, miqdor va matematik munosabat, o‘lcham kabi mavzular tanlanadi. Mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishda ko‘rsatma-qo‘llanmalarni to‘g‘ri tanlashning ahamiyati katta. Matematik tasavvurlarni shakllantirishda ham, bolalarni dastlabki umumlashtirishlarga keltirish (qo‘shni sonlar orasidagi bog‘lanishlar va munosabatlar, «teng», «ortiq», «kam», «butun», «qism») borasida ham ko‘rsatmalilik asos bo‘lib xizmat qiladi. Hamma mashg‘ulotlarda kundalik turmushda ishlatiladigan buyumlar, o‘yinchoqlar, tabiiy materiallardan keng foydalaniladi. Hamma bolalar o‘yinchoqlar bilan o‘ynashlari uchun o‘yinchoqlar ko‘p miqdorda tanlanadi. Matematik bilimlar abstraksiyalash yo‘li bilan o‘zlashtirilishi sababli turli-tuman buyumlardan foydalaniladi. O‘rgatishning ma’lum bosqichida jadvallar, sxemalar (olmani ikkita va to‘rtta teng qismga bo‘lish sxemasi) ko‘rsatmali material bo‘lishi kerak. Ko‘rsatmalilikning xarakteri yoshdan yoshga o‘tish bilangina emas, balki joyga

hamda bilimlarni o‘zlashtirishning har xil bosqichlarida konkret bilan abstrakt orasidagn munosabatlarga bog‘liq holda ham o‘zgarib turadi. Chunonchi o‘rgatishning ma’lum bosqichida buyumlar to‘plamini sanash **«Sonli jadvallar», «Sonli zinachalar»** va boshqa mashqlar bilan almashtiriladi. Ko‘rsatma-qo‘llanmalarni tanlash va ular kombinatsiyasi mashg‘ulotlar jarayonidagi bilim va ko‘nikmalarni egallashga bog‘liq. Bolalar bilimlarini umumlashtiish, har xil bog‘lanishlarni, munosabatlarni ko‘rsatish kerak bo‘ladigan hollarda ko‘rsatmalilikning bir necha turini kombinatsiyalash kerak. Masalan, qo‘shni sonlar orasidagi bog‘lanish va munosabatlarni, yoki sonlarning birliklardan iborat miqdoriy tarkiblarini o‘rganishda har xil o‘yinchoqlardan, geometrik figuralar jadvallari, tangrammalar va hokazolardan foydalaniladi. Matematika mashg‘ulotlarida, odatda, ko‘p turdagi buyumlar to‘plamidan, ko‘rgazmalardan foydalaniladi. Shu sababli bularni joylashtirish tartibini o‘ylab ko‘rish juda muhim. Kichik guruhda bolalarga material xususiy qutida (konvert) berilsa, katta va tayyorlov guruhi bolalariga tarqatma sanoq materialini stolga bitta patnisda (bitta qutida) berish mumkin. Ko‘p turdagi buyumlardan foydalanganda ularni shunday joylashtirish kerakki, mashg‘ulotni boshlash uchun kerak bo‘ladigan material eng ustida tursin. Bilim, malaka, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga har xil usullardan foydalanish va ularni birga qo‘shib ishlatish bilan erishiladi. Usullarni tanlash u yoki bu dastur masalasi mazmuni, shuningdek bolalarning tegishli bilim va ko‘nikmalari darajalari, nihoyat, har qaysi yosh xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda **amaliy metod** yetakchi metod hisoblanadi. Uning mohiyati bolalarning buyumlar yoki ularning o‘rnini bosuvchilar (tasvirlar, grafik rasmlar, modellar, mulyajlar...) bilan ishlashning jiddiy aniqlangan usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatlarini tashkil qilishdan iborat. Ko‘rsatmali va og‘zaki metodlar elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy va o‘yin metodlari bilan birga qo‘llanadi. Bu ularning mohiyatini hech ham kamaytirmaydi. Maktabgacha ta’limda ko‘rsatmali, og‘zaki va amaliy metodlarga taalluqli va

bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda qo‘llaniladigan usullardan keng foydalaniladi. Bolalarning olgan bilimlari kundalik hayotda, o‘yinda, mehnatda, turmushda, shuningdek, boshqa mashg‘ulotlarda doimiy ravishda mustahkamlanishi juda muhim.

Matematik tasavvurlarni rivojlantirishda o‘yinlarning ham ahamiyati beqiyos. Bilimlarni mustahkamlashda didaktik o‘yinlar, jumladan, stol bosma o‘yinlari, sanamalar asosida boshlanadigan xalq o‘yinlari, piramidachalar va boshqa o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar muhim rol o‘ynaydi. Hamma yoshdagi guruhlarda bajariladigan mashqlar, o‘yin elementlari syurpriz moment ko‘rinishida, o‘xshash harakatlar, ertak qahramoni va boshqalardan iborat bo‘ladi. Tayyorlov guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterini oladi. Bu yoshda fazoda mo‘ljal olish mashqlarini ta’minlovchi o‘yinlarga katta ahamiyat beriladi.

Geometrik shakllarni bilish, kattalik belgilarini ajrata olish va ular orasida o‘lchov munosabatlarini o‘rnata olish malakasi, buyumlar orasida fazoviy munosabatlar o‘rnata olishdan tashqari bolalar doimiy ravishda rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasash, konstruksiyalash va boshqa mashg‘ulotlarda foydalanishlari lozim. Bolalarning bilimlari borgan sari mustahkamroq va ta’sirchanroq bo‘lib boradi, yangi sharoitlarga o‘tkaziladi, bolalar ularni mustaqil qo‘llashga o‘rganadilar. Bolalarni sanashning, o‘lchay olishning muhim ekaniga ishonch hosil qilishlarida ularga yordam berish zarur. Kattalar o‘zlarining matematik bilimlaridan qanday foydalanishlari (masofani o‘lchashlarini, o‘lchovni qanday olishlari buyumlarni sanashlarini va h. k.) ni kuzatish tashkil qilinadi. Tarbiyachi bolalarga nima uchun hayotda o‘lchay olish, sanash va hokazolar kerakligini tushuntiradi.

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda matematik bilimlarga va ularni egallashga qiziqish uyg‘otish zarur. Bolalar (o‘rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida) buyumlarni va geometrik figuralarni har xil alomatlari bo‘yicha guruhlarga ajratishni, o‘yinchoqlar, figuralar, jadvallar to‘plamiga «qancha» so‘zi bilan savollar o‘ylab topishni mashq qiladilar.



4.9.5-rasm. “Doirani aylantiring” didaktik o’yin-mashqi

Shuningdek, **«Qo‘shnilarini top», «Qaysi son tushib qolgan?», «Kim uzoq sanaydi»** kabi o‘yinlar o‘tkaziladi. Yangi materialni tushuntirishda tarbiyachining yoki chaqirilgan bolaning harakatlari hamma bolalarga ko‘rinib turishi muhim. Bilimlarni mustahkamlash uchun tarbiyachi har xil xarakterdagi, ya’ni amaliy, o‘yin, musobaqa elementlari bilan bog‘liq mashqlardan, interfaol usullardan foydalanadi. Shuni esda tutish muhimki, didaktik materialni va usulni almashtirish bilim va ko‘nikmalarni alohida zo‘riqishlarsiz o‘zlashtirishni ta’minlovchi vositadir. O‘yinga haddan tashqari berilib ketmaslik kerak, chunki o‘yin asosiy narsadan matematik ishdan chalg‘itishi mumkin, natijada bolalar mashg‘ulot rejasida nazarda tutilgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olmaydilar.

Tarbiyachi mashg‘ulotga tayyorlanar ekan, dastur mazmunini sinchiklab o‘rganadi. Matematik bilimlar bolalarga qat’iy aniqlangan izchillikda beriladi, bunda yangi materiallar har bir vazifa bir qator kichik topshiriqlarga bo‘linadi. Bu kichik topshiriqlar ketma-ket o‘rganiladi. **Masalan,** tayyorlov guruhi bolalarini buyumlarni bo‘laklarga bo‘lish bilan tanishtirish bunday ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- bolalar birinchi mashg‘ulotda buyumlarni ikkita teng qismga bo‘lishni mashq qiladilar va yarim nima ekanini o‘zlashtiradilar;
- ikkinchi mashg‘ulotda bolalarning teng ikkiga bo‘linadigan buyumlar haqidagi tushunchalari kengaytiriladi va shunga mos lug‘ati faollashtiriladi;
- tarbiyachi uchinchi mashg‘ulotda bolalarga buyumlarni teng to‘rt qismga bo‘lish usullarini tanishtiradi, shuningdek, butunning qismga munosabatini ko‘rsatadi;
- keyinroq bolalarga geometrik figuralarni ikki va to‘rt qismga bo‘lishning har xil usullarini ko‘rsatadi, bolalar butun bilan qism orasidagi munosabatlarni o‘rnatishadi.

Shunday qilib, dasturning har bir bo‘limi ketma-ket o‘tkaziladigan bir necha (uch-olti) mashg‘ulotda amalga oshiriladi. Bolalarning bilimlari mashg‘ulotdan mashg‘ulotga kengayadi, aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi. Yangi materialni o‘rganish jarayonida o‘tgan materialni takrorlash bolalarning bilimlarini chuqurlashtiribgina qolmay, balki ular e’tiborini yangi materialga qaratishga, uning puxta o‘zlashtirilishiga imkon beradi. Odatda yangi mavzuni uch-besh mashg‘ulot davomida, oldin uniig birinchi qismida, keyinroq ikkinchi qismida o‘rganiladi. Mavzuni ikki hafta, ba’zan uch hafta o‘tganidan keyin takrorlash kerak. Eski materialga qaytish davri borgan sari dasturning har bir o‘rganilgan bo‘limi o‘quv yili oxiriga qadar tarbiyachining fikr doirasida bo‘lib turishi kerak. Shu munosabat bilan bir mashg‘ulotning o‘zida dasturning bir bo‘limiga yoki har xil bo‘limning, ya’ni «Miqdor va sanoq», «Kattalik», «Geometrik shakllar», “Fazo” va “Vaqt” bo‘limlariga oid masalalar o‘rganilishi va takrorlanishi mumkin. O‘rgatishning hamma bo‘limlari bo‘yicha dasturni bolalar izchil o‘rganishini va ularda elementar matematik bilimlar tizimini shakllantirishni ham ta’minlash mumkin. O‘qitish tajribasida, mashg‘ulotlarning birinchi qismida 8-10 daqiqa davomida yangi material o‘rgatiladi, ikkinchi qismida (9-12 daqiqa davomida) oldingi mashg‘ulotlarda olingan bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi, oxirida esa bolalarga ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar 3-4 daqiqa takrorlantiriladi. Yangi materialni o‘zlashtirish bolalardan

ko‘proq zo‘riqishni talab qiladi. Shu sababli mashg‘ulot oxirida tanish materialni kiritish bir oz bo‘shashish imkonini beradi. Masalan, tayyorlov guruhidagi mashg‘ulotlarning birinchi qismida 10 sonining o‘zidan kichik ikki sondan iborat tarkibi bilan tanishtirish, ikkinchi qismida doira va oval chiza olish malakasi qaraladi, 4 va 8 sonlarining ikkita kichik sondan iborat tarkibi o‘rganilishi, bilimlar mustahkamlanishi mumkin. Uchinchi qismda «Nima o‘zgardi?» o‘yinida buyumlar to‘plamini sanash (masalan, mashinalarning qatori nechtaligini, har qaysi qatorda nechtadan mashina borligini, hamma mashinalar nechtaligini aniqlash)ga doir mashqlar bajarilishi mumkin. Mashg‘ulotning tuzilishi dastur bo‘limlarining hajmi, mazmuni, ko‘rgazmaliligi, tegishli bilim va ko‘nikmalarniig o‘zlashtirilish saviyasi va boshqa omillarga bog‘liq.

Bolalarni bilimlarni egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko‘nikmalarni egallab olishlari, ularning maktabda muvaffakiyatli o‘qishlari uchun bo‘lajak intellektual faoliyatga tayyorlanishda manba bo‘lib xizmat kiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari kuyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

2. Bilimga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq. Bilishga doir psixik jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

4. Aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ya’ni eng oddiy faoliyat usullari predmetlarni tekshirish ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib kursatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya

yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko‘nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo‘lib, bolaning bilimlarini chuqur egallab olishga yordam beradi. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga foydalanishga o‘rgatish.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo’lishi kerak. Maktabgacha ta’lim muassasaning ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va individualma-individual xolda ishlash shakllarini moxirlik bilan qo‘shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Bolalar maktab ta’limiga tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillar xakida gapirar ekanmiz, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishda ota-onalar bilan hamkorlik o‘ta muhim sanaladi. Bu ishlar maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlari va tarbiyachi-pedagoglar bilan birgalikda olib borilsa, bundan keyin maktabgacha ta’lim sohasini yanada takomillashtirish yo’llarini izlab topilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlashda maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlarining pedagog olimlar, bu soxada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchi va metodistlar bilan doimiy muloqotining o‘rni juda kattadir.

Tayyorlov guruhlarida elementar matematika mashg‘ulotida mantiqiy tafakkur ham o‘stiriladi. Tayyorlov guruhlarida elementar matematika mashg‘ulotida mantiqiy tafakkurni o‘stirish uchun dastur mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘quv yili davomida quyidagi olingan bilimlarni mustahkamlash:

- masala yechish malakasi;
- narsalarni 3 belgisiga ko‘ra turkumga ajratish malakasi;
- son qatori bilan ishlash malakasi;
- ikki xonali sonlarni bilish;
- masala tuzish malakasi;

- grafik diktant yozish malakasi;
- hafta kunlarini bilish malakasi**.**

2. Bolalarni diqqati, xotirasi, mantiqiy tafakkuri, ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish.

Quyida bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi ba'zi usullar berilgan.

1-mashq. Hazil topshiriqlar.

A) Bir qirg'oqda jo'ja, ikkinchi qirqoqda o'rdakcha, o'rtada bor orolcha. Kim orolchaga birinchi bo'lib yetib boradi?

B) Stolda ikkita olma, yettita nok bor. Stolda xammasi bo'lib nechta sabzavot bor?

V) Hovlida xo'roz va tovuq aylanib yuribdi. Xo'roz oyog'i ikkita, tovuqniki to'rtta. Xammasi bo'lib nechta oyoq bor?

G) Stolda ikkita yarimtalik, to'rtta choraktalik olmalar bor. Ularni kesgunimizcha nechta olma bo'lgan.

D) Xonaning to'rt burchagida to'rtta mushuk turibdi. Ularning ro'parasida uchtadan mushuklar turibdi. Xonadagi jami mushuklar sonini ayting.

2-o'yin-mashg'ulot. Xonaga Zumrad kiradi. U juda xafa, qo'lida xat bor.

Tarbiyachi xatni o'qidi:

- Qadrli Zumrad, senga biz Qimmatxon va uning onasi xat yozyapmiz. Bizning boshimizga tashvish tushib qoldi. Yovuz sehrgar bizni qorong'u zindonga tashladi. Kim sehrgarning topshiriqlarini bajara olsa, kalitini topishi va bizni qutqarishi mumkin. Agar bajara olishmasa, bog'chadagi bolalardan yordam so'rashsin. Bolalar topshiriqlarni bajaradilar va bizga yordam beradilar. Chunki bu bolalar juda zukko bolalar».

Tarbiyachi 1-topshiriqni bayon qiladi.

1-topshiriq. Hafta kunlari nomini bilish.

Vazifalar: A) Bir qizchaning akasi dushanba kuni safarga ketdi. Ertaga va indinga kelmasligini, keyingi kun esa qaytishini aytdi. Aka qaysi kuni keladi? (masalani tarqatma kartochkalar bilan yechish).

Tarbiyachi bolalarga tushuntiradi. 1 2 3 4 5 6 7 . Bolajonlar hafta kunlari nechta ekan?

Bolalar: Hafta kunlari yettita. Ular dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba va yakshanba kunlari. Qizchaning akasi payshanba kuni qaytib keladi. Chunki, dushanba kunidan keyin, seshanba, keyin chorshanba, va undan keyin payshanba kuni keladi.

- Raxmat sizga bolajonlar. Siz birinchi topshiriqni uddaladingiz. Endigi navbat ikkinchi topshiriqqa.

2-topshiriq. Doskaga sonlar qatoriga raqamlar qo‘yilgan.

A) Tarbiyachi bolalarga sonni aytadi, bolalar ulardan oldin va keyin keladigan sonlarni aytishini taklif qiladi. Aytilgan sondan kattasi va kichigini aytish so‘raladi. Masalan**, 2 va uning o‘ng va chap tomondagi qo‘shnisini toping**. Endi **6, 8, 4, 3** sonlarining qo‘shnilarini toping va ayting.

B) Jadval bilan ishlash. 5 sonini shakllar ichidagi sonlar bilan taqqoslash.

5 < ☐ **5 >** ☐ ☐



4.9.6-rasm. Jadval bilan ishlash

C) Kartochkalar bilan ishlash. < , > belgilarini to‘g‘ri joylashtir.

8 ☐ 7; 6 ☐ 7 9; ☐ 8; 4 ☐ 7; 9 ☐ ☐

3 -topshiriq. Grafik diktant.

Tarbiyachi tomonidan geometrik figuralar ketma-ketlikda aytib turiladi. Bolalar qog‘ozda shu figuralarni tasvirlashlari kerak.

4-topshiriq. Ikki xonali sonlarni aytib ber.

Tarbiyachi bolalarga 5 ta ikki xonali sonlarni aytishni taklif qiladi. Bolalardan qaysi biri 5 ta ikki xonali sonlarning nomini xatosiz ayta olsa, topshiriq bajarilgan hisoblanadi.

5-topshiriq. Endi bolalar shakllarni joylashuvini chamalab, tahlil qilamiz va qaysi belgilari o‘zgarganini aytamiz.

Shakllarning ba’zi belgilari bilan bir-biridan farqini ayting.

- bitta belgisi bo‘yicha;
- ikkita belgisi bo‘yicha;
- uchta belgisi bo‘yicha o‘zgarsin.



4.9.7-rasm. Shakllarning umumiy belgilari va bir-biridan farqini topish usuli

6-topshiriq. Shakllarni shunday joylashtirginki, xar qaysi qator va ustunda ikkita bir xil shakl bo‘lmasin.



4.9.8-rasm. “Har bir qatorda shakllar soni bittadan oshmasin” mashqi

7-topshiriq. Kalit yashiringan joy misollarda belgilangan. Har bir misolni yechish orqali biz kalit yashiringan joy nomini bilib olamiz. Kalit javonning qaerida yashiringan ekan, topaylikchi. Misolning javobi qanday harf bilan boshlansa, o‘sha harflar bizga kalit yashiringan joy nomini bildiradi.

10 – 7 = 3 misolning javobi – **3** **3** soni **U** harfi bilan boshlanadi.

5 + 3 = 8 misolning javobi - **8** **8** soni **S** harfi bilan boshlanadi.

6 – 2 = 4 misolning javobi - **4** **4** soni **T** harfi bilan boshlanadi.

Misollarda **UST** so‘zi yashiringan ekan. Qani ko‘ramiz haqiqatdan ham kalit javon ustidami?

Barakalla bolajonlar, kalitni birgalashib topdik. Ko‘rdingizmi bilimli bolalar barcha muammolarni tezda hal qiladilar. Sizlar aqlli va dono bolalarsiz.

Mashg‘ulotning yakuni. Kalitni Zumradoyga berishadi. Zumradoy bolalarga minnatdorchilik bildirib, shu kalit yordamida Qimmatxon va uning onasini qutqarishini aytib chiqib ketadi.

Shartli o`lchov birliklari bilan tanishtirish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar

Bilimlarni mustahkamlashda didaktik o‘yinlar, jumladan, stol bosma o‘yinlari, sanamalar asosida boshlanadigan xalq o‘yinlari, piramidachalar va boshqa o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar muhim rol o‘ynaydi. Hamma

yoshdagi guruhlarda bajariladigan mashqlar, o‘yin elementlari syurpriz moment ko‘rinishida, o‘xshash harakatlar, ertak qahramoni va boshqalardan iborat bo‘ladi. Tayyorlov guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterini oladi. Bu yoshda fazoda mo‘ljal olish mashqlarini ta’minlovchi o‘yinlarga katta ahamiyat beriladi. Geometrik shakllarni bilish, kattalik belgilarini ajrata olish va ular orasida o‘lchov munosabatlarini o‘rnata olish malakasi, buyumlar orasida fazoviy munosabatlar o‘rnata olishdan tashqari bolalar doimiy ravishda rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasash, konstruksiyalash va boshqa mashg‘ulotlarda foydalanishlari lozim. Bolalarning bilimlari borgan sari mustahkamroq va ta’sirchanroq bo‘lib boradi, yangi sharoitlarga o‘tkaziladi, bolalar ularni mustaqil qo‘llashga o‘rganadilar. Bolalarni sanashning, o‘lchay olishning muhim ekaniga ishonch hosil qilishlarida ularga yordam berish zarur. Kattalar o‘zlarining matematik bilimlaridan qanday foydalanishlari (masofani o‘lchashlarini, o‘lchovni qanday olishlari buyumlarni sanashlarini va h. k.) ni kuzatish tashkil qilinadi. Tarbiyachi bolalarga nima uchun hayotda o‘lchay olish, sanash va hokazolar kerakligini tushuntiradi. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda matematik bilimlarga va ularni egallashga qiziqish uyg‘otish zarur. Bolalar (o‘rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida) buyumlarni va geometrik figuralarni har xil alomatlari bo‘yicha guruhlarga ajratishni, o‘yinchoqlar, figuralar, jadvallar to‘plamiga «qancha» so‘zi bilan savollar o‘ylab topishni mashq qiladilar. «Ilk qadam» o‘quv dasturida ta’lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Shu bilan birga rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagilar ko‘rsatiladi:

- ta’lim muassasasining ko‘rgazmali - rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an’analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo‘lishi lozim;
- muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Tevarak atrofda mo`ljal olishga o`rgatish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar

Olti yoshli bolalar «o‘ziga» nisbatan to‘la ishonch bilan mo‘ljal oladilar. Ammo hali ularning ko‘pchiligi buyumlarning, boshqa odamlarning o‘ng va chap tomonlarini farq qilishda qiynaladilar. Ularni, masalan, o‘zi tomoniga yuzi bilan aylangan o‘rtog‘ining o‘ng qo‘li uning chap qo‘li qarshisida bo‘lish holi ajablantiradi. Nega bunday bo‘ladi? Oldingi ish natijasida bolada quyidagi bilim va malakalarning puxta stereotipi (andozasi) yig‘ilib qoladi: o‘ngda (o‘ngroqda, o‘ngga), o‘ng qo‘l turgan tomonda bo‘ladi. Bu fazo «o‘zidan» mo‘ljal olishda mutlaqo to‘g‘ri. Ammo endi vaziyat o‘zgardi. «Bolaga boshqa odamdan yoki boshqa buyumlardan mo‘ljal olish taklif qilinadi.

Demak, munosabat nuqtasi subyektning o‘zidan tashqarida belgilanadi. Bu yerda oldingi tajriba fazoviy vaziyatlarning yangi variantlari bilan ziddiyatlikka kirishgandek bo‘ladi. Haqiqatda esa, masalan, bola o‘zi bilan juft bo‘lib, turgan bola o‘zidan o‘ng tomonda turganini yaxshi biladi. Ammo teskari fazoviy munosabatlarni («Agar Aziz mendan chap tomonda turgan bo‘lsa, u holda men undan o‘ng tomonda turgan bo‘laman») tushunish tayyorlov guruh bolalari uchun ham unchalik oson emas. Bu yerda «boshqa odamga nisbatan» mo‘ljal olish vaziyati mavjud. Buni to‘g‘ri tahlil qilish uchun bola eng oldin o‘rtog‘ining o‘ng va chap qo‘li (tomoni)ni aniqlashi kerak. Katta guruhda bolalar bu malaqani egallab olishgan, endi esa shu malaka puxta va ustivor ko‘nikma bo‘lishi kerak.



4.9.9-rasm. Tevarak atrofda mo`ljal olishga o`rgatish bo`yicha o‘yin-mashqi

Vaqtni chamalashga o`rgatish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar

Vaqt bo‘yicha mo‘ljal olish malakalari turli mashg‘ulotlarning tashkiliy qismida, kunning turli qismlarida tashkil etiladigan ishlar davomida o‘rgatib boriladi. Asosan, bolalarga ertalab, kechqurun, kun, tun, kecha, bugun, ertaga kabi tushunchalar orqali savollar beriladi. Bolalarning bu savollarga bergan javoblari tarbiyachi tomonidan to‘g‘rilab boriladi. “Kun tartibini nomlang” o‘yini sutka qismlarini nomlash bo‘yicha matematik qobiliyatining shakllanganlik darajasini aniqlash mumkin.

Albatta ta’limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning

ta’lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

Nazorat savollari

1. Illyustrasiya vositalariga nimalar kiradi?
2. Mujassam mashg‘ulotlar nima?
3. Matematika mashg‘ulotlari kunning qaysi qismida tashkil etiladi?

4.10. Bolaning ijodiy rivojlanish sohalari bo`yicha innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Reja

1. Rasm chizish, qirqib yopishtirish, loy yoki plastilindan narsalar yasash, qurish yasash mashg`ulotlarida qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar haqida ma’lumot.
2. Rasm chizishda innovatsion texnologiyalarni qo’llash usullari.
3. Loy yoki plastilindan narsalar yasash mashg`ulotini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish va o`tkazish.
4. Qirqib yopishtirish mashg`ulotini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish va o`tkazish.
5. Qurish yasash mashg`ulotlarida qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar.

Rasm chizish, qirqib yopishtirish, loy yoki plastilindan narsalar yasash, qurish yasash mashg`ulotlarida qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining birlamchi yo‘nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Bu yo‘nalishning

samarasi estetik yo‘nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, qirqib yopishtirish va boshq.) kompleks tarzda qo‘llanilgandagina aniq bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tiladigan «Tasviriy faoliyat» mashg‘ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o‘z xususiyatiga ko‘ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg‘ulotlarining barcha turlari bolalarda go‘zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

«Tasviriy faoliyat» mashg‘ulotlari jarayonida:

1. Badiiy didni tarbiyalash;

2. Amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;

3. Fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;

4. Qo‘lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;

5. Kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo‘lishi uchun imkon yaratish kabi ta’limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi. Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan Tasviriy faoliyat integrativ mazmun kasb etuvchi eng katta bo‘lim hisoblanadi va faoliyatning boshqa turlari bilan mantiqiy va didaktik bog‘liklikda amalga oshiriladi. Bu omil tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari mazmuni va metodikasini faoliyatning boshqa turlariga hamohang tarzda takomillashtirib borish lozimligini anglatadi.

Rasm chizishda innovatsion texnologiyalarni qo’llash usullari. Rasm chizish bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishda asosiy o‘rin egallaydi va uchta turni o‘z ichiga oladi:

- alohida predmetlarni chizish.
- syujetli rasm chizish.

- dekorativ rasm chizish. Tasviriy faoliyatga o‘rgatishning asosiy vazifasi-tevarak-atrofdagi borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish. Ularda kuzatuvchanlikni rivojlantirish, estetik go‘zallik hissini tarbiyalash hamda tasvirlab berish usullarini o‘rgatish tushuniladi. Bu bilan birga tasviriy faoliyatning asosiy vazifasi-ma’lum bir yosh uchun mos tasviriy materiallari bilan turli xil predmetlarning turli timsollarini yaratish kabi ijodiy bolalarda shakllantirish amalga oshiriladi.



4.10.1-rasm. Klyaksografiya. Bo’yoqlarni purkash yo’li bilan rasm chizish

Maktabgacha ta’lim muassasasida har bir o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda bolalarni mustaqil ishlashga, qo‘l muskullarini rivojlantirishga o‘rgatib borish zarur. Tarbiyachi har bir o‘tkaziladigan mashg‘ulotiga ijodiy yondashgan holda va o‘z mahoratini ishga solgan holda yangilik yarata olishlari lozim. Bolalar ilk yosh guruhidan boshlab, tayyorlov guruhigacha ish jarayonlari oddiydan murakkabga qarab boradi. Buning uchun o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda ayniqsa tasviriy faoliyat, rasm, qirqib yopishtirish, loy ishlarini yaratishda amaliy ish fanining ahamiyati kattadir.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida qurish-yasash mashg‘ulotini tashkil etish. Qurish-yasash lotin tilidan olingan bo‘lib, turli predmetlarni, qism va elementlarni ma’lum bir holatga keltirish, ma’nosini bildiradi. Qurish-yasash faoliyati-amaliy faoliyat bo‘lib, oldindan belgilangan, biror maqsadga qaratilgan real voqealikdir**.**

Qurish-yasash materiallarining turlari. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga qurish-yasash faoliyatini o‘rgatishda qurilish materiali, turli konstruktorlar, qog‘ozdan, tabiat, tashlandiq materiallaridan foydalaniladi. Materialni turi- qurish yasash turini aniqlab beradi.

1. **Qurilish materiallari**. Qurilish materiali-mayda va yirikgeometrik figuralardan (kub, silindr, prizma va hokazo) iborat. Mashg‘ulotlarda qurilish materiallaridan turli xil to‘plamlardan foydalaniladi: M.P.Agapovning 2, 3, 4, 5, 6, 7-sonli mazmunli to‘plamlari. Kichik qurilish materiallari: «Kosmodrom», «Temir yo‘l vokzali» va boshqalar.
2. **Konstruktorlar.** Maktabgacha ta’lim muassasasalarda konstruktorlardan (taxtali, plastmassa, metall va keramika) foydalanadilar. Bu to‘plamlar orqali turli konstruksiyalar yasash mumkin. Tarbiyachi rahbarligida bolalar oddiy birlashtirish usulidan suratlar bo‘yicha turli xil harakatli konstruksiyalar yasaydilar. Asosiy diqqat bolalarni ma’lum qismlarini birlashtirish malakalarini shakllantirishga qaratiladi. Bunda bolalarni qo‘llarini muskullari ishtirok etadi, qo‘l muskullari hali yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Tarbiyachi rahbarligi ostida bolalar yangi birlashtirish yo‘llarini va turli xil harakterdagi konstruksiyalarni rasmga, chizmaga qarab yaratishga o‘rganadilar. Bu ishlarni bolalarga taklif etishdan oldin, tarbiyachining o‘zi bu konstruktorlar, ularga berilgan metodik ko‘rsatmalar bilan yaxshilab tanishib, o‘rganib chiqishi zarur. Bolalarga qurilish materiallari va konstruktorlar to‘plami hammasi birdaniga berilmaydi, balki asta-sekin, ketma-ket bolalarning o‘zlashtirishlariga qarab beriladi. Lego, mozaika, “Tangram”, “Tuxum”bular stol o‘yinlari hisoblanib, bolalarni konstruktorlik, dizaynerlik, yaratuvchanlik xislatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

3. **Qog‘ozdan qurish-yasash. Origami**. Bu qog‘ozni buklash yo‘li bilan narsa yasash ma’nosini bildiradi.

Kirigami. Bu qog‘ozni yirtish yoki simmetrik qirqish yo‘li bilan yasash yo‘li bilan narsa yasash ma’nosini bildiradi.

Kusudama. Bu qog‘ozni buklash yo‘li bilan gul yasash ma’nosini bildiradi.

Sukudama. Bu kusudama modullaridan qo‘g‘irchoq yasash ma’nosini bildiradi

Loy yoki plastilindan narsalar yasash mashg`ulotini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish va o`tkazish.

Plastilin, loy ishi, chinni hamir tasviriy san’atning haykaltaroshlik va amaliy san’atning muhim turlaridan bo‘lgan kulolchilik, sopoldo‘zlik halq hunarmandchiligi san’atlari bilan mustahkam bog‘liqdir. Modellashtirish-badiiy ijodiyotning eng aniq shaklidir. Bola yaratgan narsanini nafaqat ko‘radi, qo‘liga oladi, paypaslaydi, kerak bo‘lsa o‘zgratiradi. Modellashtirishning asosiy asbobi qaychi, qalam, mo‘yqalam emas balki qo‘ldir, to‘g‘rirog‘i ikki qo‘lidir, shu sababli mahorat darajasi o‘z qo‘llarning egalik darajasiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, modellashtirish texnikasi oddiy, sodda va o‘zini rivojlantirish uchun eng qulay vosita deb hisoblash mumkin. Modellashtirish, ya’ni loy ishi mashg‘ulotlari, bola rivojlanishida kompleks ta’sir etadi:

1. Shakl, hajm, plastik, rangni idrok etish hissiyotini, sensor sezuvchanligini rivojlantiradi;

2. Mayda qo‘l motorikasini, fazoviy taffakurni va tasavvurni rivojlantiradi;

3. ikkala qo‘l ishini sinxronlashtiradi;

4. ishni rejalashtirish, amalga oshirish, natijani bashoratlash va unga erishish, kerak bo‘lsa o‘zgartirish kiritish ishlarida ko‘nikma, malakalari shakllanadi;

Loy ishida qo‘llaniladigan usullar

1. Yumaloqlik – bir bo‘lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi. 2. Shar yasash, so‘ngra o‘zunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.

3. Yassilash – sharikdan yassi non yasaladi, qo‘lning holati doimo o‘zgarib turadi.

4. Cho‘zish – sharning bir qismi cho‘ziladi.

5. Surish (yamash) buyumning ayrim qismlarini o‘zaro biriktirish. Loy bilan ishlash mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda ish joyini bekamu-ko‘st jihozlanganligi muhim ahamiyatga.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida qirqib yopishtirish mashg‘ulotini tashkil etish. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida predmet, buyum va turli narsalarni qirqib yopishtirish texnologiyasida tasvirlash maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlantirishga xizmat qiladigan ko‘p qirrali mashg‘ulot turlaridan biri bo‘lib, ular shakl va ranglarni ajrata olishga o‘rgatadi, bolalarning badiiy-estetik hissiyotlarini va qo‘l mayda motorikasini rivojlantiradi. Qirqib yopishtirish mashg‘ulotlari bolalarda tozalik, diqqatni jamlash kabi sifatlarni ham tarkib toptiradi. Qirqib yopishtirishning individual va jamoa shakllari turli mazmunda bo‘lishi mumkin.

Qirqib yopishtirish turlar bo‘yicha uch xilga bo‘linadi:

- predmetli qirqib yopishtirish;
- syujetli - mavzuli qirqib yopishtirish;
- dekorativ qirqib yopishtirish.

Qirqib yopishtirishni bajarish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

- shakllarni qirqish;
- shakllarni fonga yopishtirish. Qirqib yopishtirish badiiy bezash vositasi sifatida o‘ziga xos dekorativ joziba yaratadi. Qirqib yopishtirishni o‘qitishda quyidagi masalalar yechiladi:

1. Geometrik shakllar va o‘simliklar qismlaridan badiiy bezak tuzish;
2. Karton yoki matoga aniq bir ritmda joylashtirish;
3. Syujetni tasvirlash;

4. Predmet tasvirini alohida bo‘laklardan yaratish;

5. Qirqib yopishtirish uchun detallarni har xil materiallardan, turli texnika orqali tasvirlashni o‘zlashtirish;

6. Qirqishning turli uslublari, yirtish ularni asosga joylashtirish texnikasi bilan yopishtirish, tikish va h.k.

7. Rangni sezishni shakllantirish, asosiy rang va tuslarni bilish, rang birikmalarini tuzish mahoratini o‘zlashtirish;

8. Shakl, nisbat, kompozitsiya hissini shakllantirish;

9. Geometrik shakllarni ajratish, ularni nomini bilish;

10. Asosiy va qo‘shimcha ranglar bilan tanishtirish;

11. Hajm va sonlarni bilish;

12. Kompozitsion mahorat malakalarini shakllantirish;

13. Syujetli qirqib yopishtirishda predmet (buyum yoki narsa)larni joylashtirish. **Qirqishning asosiy uslublarini o‘zlashtirish malakasi quyidagicha**:

- Qog‘ozni ko‘zda chamalab yoki bukilgan joyi bo‘yicha qirqish;
- Shakllarni, burchaklarni qirqish orkali dumalok shakllarni yaratish;
- Siluet va alohida bo‘laklardan qirqish;
- Simmetrik bo‘lmagan shakllarni qirqish;
- Kontur bo‘yicha qirqish;
- Shaklni qog‘oz bo‘lakchalarini yirtish orqali yaratish;
- Yopishtirishning asosiy uslublarini o‘zlashtirish (yelim, mo‘yqalam, lattalardan foydalanish);
- Shakllarni ketma-ketlikda yopishtirish malakasi.

Qirqib yopishtirish mashg‘ulotlarini to‘laqonli o‘tkazish uchun material va jihozlarni oldindan tayyorlab qo‘yish muhimdir. Qirqib yopishtirishga o‘rgatishda turli shakllarni qirqa olish malakalarini egallash, ularni ma’lum tartibda joylashtirish, obraz va syujetga mos ravshda yopishtirishni taxmin qiladi. Har bir yosh guruhlarda appilikatsiya mashg‘ulotlari qo‘llaniladigan ta’limiy usullari o‘ziga hos xususiyatga egadir. Maktabgacha ta’lim

muassasasida o‘tkaziladigan qirqib yopishtirish mashg‘ulotlari bolalarning sezish qobiliyatlarining rivojlanishiga, ta’sir etib, ularni estetik jihatdan tarbiyalashni va ijodiy faolligini shakllantirishga, shuningdek, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularda harakterning irodaviy xususiyatlarini vujudga kelishiga ta’sir etadi. Qirqib yopishtirish mashg‘uloti jarayonida bola rang va uning hosila ranglar bilan tanishadi mashq qiladi, shaklni va predmetni to‘zilishini bilishga o‘rganadilar. Ritm va simmetriya haqida tushunchalari kengayib borib, qog‘oz varag‘ida mo‘ljallay olishga o‘rganadilar. Bolalar qirqib yopishtirish faoliyatida rang va uning uyg‘unlashuvi bilan juda ko‘p marta mashq qiladilar, shuning uchun ular ko‘plab rang va uning uyg‘unlashuvini tezda esda saqlab qoladilar va bir-biridan ajrata oladilar. Qirqib yopishtirish mashg‘ulotlarida bolalar ko‘pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo‘ladilar, natijada ular tevarak atrofdagi predmetlarda geometrik shakllarni abstrakt ko‘rinishini ko‘ra olishga o‘rganadilar. Murakkab tyzilgan shakllarni yaxshiroq tushunishiga, ularni to‘g‘ri tahlil va sintez qilishga o‘rganadilar. Bolalar geometrik shakllar bilan tanishishlari jarayonida hali o‘zlariga tanish bo‘lmagan shakllarning nomini to‘g‘ri aniqlashga o‘rganadilar. Masalan, bolalar shaklning burchaklarini sanab, uning 3 ta yoki 4 taligini natijada uchburchak va to‘rtburchak, keyinchalik ularni o‘zlari mustaqil ko‘pburchak kabi shakllarining nomini bilib boradilar. Qirqib yopishtirish mashg‘ulotlari bolalarda kattalik va fazoni mo‘ljallash bo‘yicha olgan tasavvurlari va qog‘oz betini to‘g‘ri mo‘ljallay olish kabi o‘quvlari rivojlanadi. Bolalar shaklni yopishtirishni yelimsiz aloqa qilishlari natijasida bu shaklini mantiqiy va ritmik holida joylashtirishga o‘rganishlari, asosan o‘rtasida o‘ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tamonda, atrofida kabi so‘zlar bilan tanishib oladilar. Bolalarni qog‘oz betida nuqta mo‘ljal olishga o‘rgatish-bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlarini asosiy shartlaridan biridir. Qirqib yopishtirish ishini bajarishda ishlatiladigan kerakli asbob uskunalar. Asboblar ishlatilishiga mos bo‘lishi bilan birga estetik va gigienik talabga javob berishi kerak.

Zamonaviy jamiyat sharoitida nafaqat intellektual, balki, birinchi navbatda, ijodiy shaxsni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi. Bugungi kunda madaniyat bilan tanishish bola atrofidagi dunyoni kashf eta boshlagan yoshlikdan boshlanishi kerakligiga hech kim shubha qilmaydi. Bunda asosiy vazifa bolaning hissiy-kognitiv sohasini, uning ijodiy faoliyatini rivojlantirishdan iborat bo'lgan badiiy va estetik ta'lim dasturlari muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda ular nafaqat maktab amaliyotiga, balki bolalarning maktabgacha ta'lim sohasiga ham faol joriy etilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish milliy miqyosdagi dolzarb vazifadir, chunki jamiyatimizning texnik va ma'naviy tomonining ertangi darajasi bugungi maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy o'zini o'zi anglash usullarini qanday o'zlashtirishiga bog'liq. Mana shu jarayonda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga e'tiborni qaratish davr talabi sifatida dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi. Chunki barkamol avlod tarbiyasi har qaysi davlatning eng asosiy ustuvor vazifasi hisoblanadi. Darhaqiqat, bugungi avlod istiqbolda yangi O’zbekistonning taraqqiyotini ta’minlashi uchun ham jismoniy va ma’naviy sog’lom, intellektual salohiyatli bo’lishi talab etiladi. Bu talab maktabgacha ta’lim va tarbiya tashkilotlarida voyaga yetayotgan yosh avlodning ta’limi va tarbiyasiga bo’lgan e'tiborni oshirishni taqozo etadi. Shu maqsadda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‟minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratish bo’yicha muhim ishlar amalga oshirildi. 2020-yil 22-dekabrda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‟lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g’risida”gi VMQ 802-sonli

Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari belgilab berildi.

Zamonaviy dunyoda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektining eng muhim qismi ekanliigini tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi.

Ijodkorlik - bu har xil turdagi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlari. Ijodkorlik ko'plab fazilatlarning birlashuvidir.

Psixologlar ijodkorlikning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat deb hisoblashadi:

1. Muammoni boshqalar ko'rmaydigan joyda ko'rish qobiliyati.
2. Aqliy operatsiyalarni yig’ish, bir necha tushunchalarni bitta bilan almashtirish va axborot nuqtai nazaridan tobora ko'proq sig'imga ega bo'lgan belgilarni qo'llash qobiliyati.
3. Bir masalani yechishda olingan ko‘nikmalarni boshqa masalani yechishda qo‘llash qobiliyati.
4. Voqelikni qismlarga ajratmasdan, yaxlit holda idrok etish qobiliyati.
5. Uzoq tushunchalarni osongina bog'lash qobiliyati.
6. Xotiraning kerakli vaqtda kerakli ma'lumotni berish qobiliyati.
7. G'oyalarni yaratish qulayligi.
8. Yangi nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyati, ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
9. Faoliyatingizning «mahsulotingizni» yaxshilash qobiliyati.
10. Turli xil fikrlarni ifodalash qobiliyati.
11. Asl g'oyani yaxshilash uchun tafsilotlarni takomillashtirish qobiliyati.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash, agar u aniq maqsadga erishishga qaratilgan bir qator aniq pedagogik vazifalar hal qilinadigan maqsadli jarayon bo'lsa, samarali bo'ladi. Ijodkorlik fikrlash va ijodiy tasavvurni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi ijodiy fikrlashni

rivojlantirish yo'nalishlaridan biri assotsiativlik, dialektika va tizimlilikni shakllantirishdir. Bu fazilatlarning rivojlanishi fikrlashni moslashuvchan, o'ziga xos va samarali qiladi.

Assotsiativlik - bu narsa va hodisalardagi bog'lanish va o'xshashlikni ko'rish qobiliyati. Ko'p sonli assotsiativ havolalar kerakli ma'lumotlarni xotiradan tezda olish imkonini beradi. Uni maktabgacha yoshdagi bolalar rolli o'yinda juda oson egallashadi.

Dialektiklik - har qanday tizimdagi qarama-qarshiliklarni ko'ra bilish, bu ziddiyatlarni bartaraf etish, muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Dialektiklik iste'dodni rivojlantirish uchun zaruriy sifatdir.

Mustahkamlik - obyekt yoki hodisani yaxlit tizim sifatida ko'rish, har qanday obyektni, har qanday muammoni har tomonlama, turli xil bog'lanishlarda idrok etish qobiliyati; hodisalar va rivojlanish qonuniyatlaridagi o‘zaro bog‘lanishlar birligini ko‘ra bilish qobiliyati.

Maktabgacha yoshda bolaning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish, uning tafakkurini shakllantirish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Bolaning tajribasini bosqichma-bosqich boyitish, bu tajribani haqiqatning turli sohalari haqidagi yangi bilimlar bilan to'ldirish.

Bu maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv faolligini keltirib chiqaradi. Bolalarga atrofdagi voqelikning qanchalik ko'p tomonlari ochib berilsa, ularda barqaror kognitiv qiziqishlarning paydo bo'lishi va birlashishi uchun imkoniyatlar shunchalik keng bo'ladi.

2. Bir xil voqelik doirasidagi kognitiv qiziqishlarning bosqichma-bosqich kengayishi va chuqurlashishi.

Bolaning kognitiv manfaatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ota-onalar farzandining nimaga qiziqishini bilishlari kerak va shundan keyingina uning manfaatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, barqaror manfaatlarning paydo bo'lishi uchun bolani haqiqatning yangi sohasi bilan tanishtirish etarli emas. U yangi narsaga ijobiy hissiy munosabatda bo'lishi kerak. Bunga maktabgacha tarbiyachining kattalar bilan

birgalikdagi faoliyatiga qo'shilishi yordam beradi. Bunday vaziyatlarda bolada paydo bo'ladigan kattalar dunyosiga tegishlilik hissi uning faoliyati uchun ijobiy muhit yaratadi va bu faoliyatga qiziqishning paydo bo'lishiga yordam beradi. Ammo bolaning o'z ijodiy faoliyati haqida unutmasligimiz kerak. Shundagina uning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish va yangi bilimlarni o'zlashtirishda kerakli natijaga erishish mumkin. Unga faol fikr yuritishga undaydigan savollarni berish kerak. Uyda ota-onalar farzandlarini ular bilan faol mashg'ulotlarga jalb qilishlari kerak. 5-6 yoshli bolalarning ijodiy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi muammoli. Bu bolaning doimiy ravishda yangi narsalarga ochiqligini ta'minlaydi, nomuvofiqliklar va qarama-qarshiliklarni izlashda, yangi savol va muammolarni o'zi shakllantirishda ifodalanadi. Hatto muvaffaqiyatsizlik ham kognitiv muammoni keltirib chiqaradi, tadqiqot faoliyatini keltirib chiqaradi va ijodiy rivojlanishning yangi bosqichiga imkoniyat yaratadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining birlamchi yo‘nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Bu yo‘nalishning samarasi estetik yo‘nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, qirqib yopishtirish va boshq.) kompleks tarzda qo‘llanilgandagina aniq bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tiladigan «Tasviriy faoliyat» mashg‘ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o‘z xususiyatiga ko‘ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg‘ulotlarining barcha turlari bolalarda go‘zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. «Tasviriy faoliyat» mashg‘ulotlari jarayonida:

1. Badiiy didni tarbiyalash;
2. Amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;
3. Fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;
4. Qo‘lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;

5. Kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo‘lishi uchun imkon yaratish kabi ta’limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning ikkinchi yo'nalishi - ijodiy tasavvurni rivojlantirish.

Tasavvur - bu tasvir shaklida yangi narsalarni yaratish - tasvirlash. Bu ijodiy faoliyatning asosidir. Bizni o'rab turgan va inson qo'li bilan yaratilgan hamma narsa, tabiatdan farqli o'laroq, butun madaniyat olami - bularning barchasi ijodiy tasavvur mahsuli.

Ijodkorlik - bu yangi, birinchi yaratilgan, original mahsulotlarni beradigan faoliyat.

30-yillarda L.S. Vigodskiy bolaning tasavvuri ma'lum tajribani o'zlashtirishi bilan asta-sekin rivojlanib borishini isbotladi. Shu sababli, ijodiy faoliyat uchun etarlicha mustahkam poydevor yaratish uchun bolaning tajribasini kengaytirish kerak. Bola qanchalik ko'p ko'rgan, eshitgan, o'rgangan va o'rgangan bo'lsa, uning tasavvuri shunchalik boy bo'ladi. Tajriba to'plash bilan tasavvur boshlanadi. San'at bilan tanishish tufayli bolalarda tasavvurning tasvirlari yanada to'liq va yorqinroq bo'ladi.

Qobiliyatlarni shakllantirish haqida gapirganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qaysi yoshda rivojlantirish kerakligi masalasiga to'xtalib o'tish kerak. Ijodiy qobiliyatlarni juda erta yoshdan boshlab rivojlantirish kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotilarining zamonaviy tendensiyalaridan biri-ta’lim mazmunini integrasiyalash asosida maktab ta’limiga tayyorlash, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida ijodkorlikka o’rgatishda turli faoliyat turlari (badiiy adabiyot, nutq o’stirish, tabiat bilan tanishtirish va hokazo) bilan uyg‘unlashtirish bolalarning emotsional hissiyotiga ta’sirini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Turli yosh guruhlarida o‘zaro bog‘liq o‘xshash mavzularni kiritilishi ularning individual imkoniyatlariga muvofiq uyg‘un rivojlanish va butun maktabgacha yosh davrining turli guruhlarida bolalarni rivojlantirishda ta’lim

maqsadlari birlashtirish va uzluksizligini ta’minlash orqali sifatli natijaga erishilishiga olib keladi.

Ta’lim faoliyati mazmunini mavzuli-kompleks ravishda tashkil etish, rejalashtirishda quyidagi rivojlanish sohalari integratsiyalashtiriladi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalariga tayyorgarlik;
- bilish jarayonini rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Turli yosh guruhlarida o‘zaro bog’lik o‘xshash mavzularni kiritilishi ularning individual imkoniyatlariga muvofiq uyg‘un rivojlanishi va butun maktabgacha yosh davrining turli guruhlarida bolalarni rivojlantirishda o‘quv maqsadlari birligini va uzluksizligini ta’minlash orqali ta’limiy maqsadga erishilishiga olib keladi.

Shunday qilib, maktabgacha yosh ijodkorlikni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Kattalarning ijodiy salohiyati ko'p jihatdan bu imkoniyatlardan bolalik davrida qanday foydalanilganiga bog'liq bo'ladi. Bolalarning ijodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bola uchun rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratishdir.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish muammosi eng dolzarb hisoblanadi, chunki bolaning hayotidagi ijodiy qobiliyatlar uning shaxs sifatida rivojlanishida juda muhim rol o'ynaydi. Bolaning rivojlanishi uning atrofidagilardan katta e'tibor talab qiladi.

Ushbu ishni tayyorlash jarayonida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, «ijodiy qobiliyatlar» deganda biz uning ijodiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxs sifatining individual xususiyatlarini tushunishimiz mumkin. Yuqorida aytilganlarning barchasidan kelib chiqadiki, bolalar bog'chalarida mavjud sharoitlarda bolalarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ishlarni amalga oshirish kerak,

ayniqsa maktabgacha yosh bu jarayonning rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari, ularning samarali rivojlanishi faqat maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining ham, oilaning ham birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan yanada samaraliroq rivojlanishi tabiiy.

Nazorat savollari

1. Assotsiativlik nima?
2. Dialektiklik tushunchasini izohlang
3. Tasavvur qanday jarayon?
4. Ijodiy rivojlanish sohasining kichik sohalari nechta?

V-BO`LIM. KOMPYUTERDA INNOVATSION DIDAKTIK O`YINLAR VA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH



5.1. Kompyuterda innovatsion didaktik o`yinlar va didaktik materiallar yaratish texnologiyasi

Reja

1. Kompyuterda innovatsion o`yinlar yaratish texnologiyasi. Kompyuterda innovatsion didaktik o`yinlar tashkil qilish.
2. Mashg`ulotlar uchun didaktik materiallar yaratish texnologiyalari. Kompyuterda matematika, tasviriy faoliyat, tabiat bilan tanishtirish, ingliz tili mashg`uloti uchun, nutq o`stirish, atrof olam bilan tanishtirish mashg`ulotlari uchun didaktik o`yinlar yaratish texnologiyasi.
3. “Aqlli” gadjetlar haqida tushuncha

Kompyuterda innovatsion o`yinlar yaratish texnologiyasi. Kompyuterda innovatsion didaktik o`yinlar tashkil qilish. Hozirgi davrda hayotimizda ko‘p ishlatiladigan so‘zlardan biri “axborot” dir. Bu so‘z teleko‘rsatuvlarda ham, radio eshitirishlarda ham, gazeta va jurnal sahifalarida ham, muassasa va tashkilotlarda ham tez-tez eshitilib turadi. “Axborot”

atamasi lotincha “Information” so‘zidan olingan bo‘lib, xabar, ma’lumot ko‘rsatgichlarni majmuasini bildiradi. Axborot-aniq va amalda ishlatiladigan xabardir. Professor A.A.Abduqodirovning ta’kidlashicha: “Axborotning o‘zini, biror obyekt, atrof muhitning malum bo‘lagi yoki malum jarayoni haqidagi aniqsizlik darajasini kamaytiradigan belgilar, parametrlar, tafsilotlar, yo‘riqlarning majmuasi deyish mumkin”. Jamiyatni axborotlashtirishda-axborot zahiralari muhim rol o‘ynaydi. Axborot zahiralari - alohida axborot tizimlari (kutubxona, arxiv, fond, ma’lumot banklari, kompyuter xotirasi va boshqa axborot tizimlari)dagi hujjatlar to‘plamidir. Axborot zahiralarning bir nechta xususiyatlari mavjud:

1. Bitmas – tugallanmasligi (tabiiy zahira – neft, ma’lum bir muddatdan keyin tugab qoladi, axborot zahiralari esa yildan-yilga ortib boradi).

2. Axborot zahiralaridan foydalanish imkoniyati saqlanadi va ko‘payib boradi.

3. Axborot zahiralari boshqa zahira (mehnat, malaka, texnika, energiya, xom ashyo) lar bilan birlashgan holda harakatlanuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Bilimni axborot zahirasiga aylantirib, ularning kodlanish, qayta jamlanish va uzatish imkoniyatiga qaram bo‘ladi.

Ma’lumotlar, matn, grafika, bilimlar, real dunyo obyektlari, jadval, video, tasvir, nutq va tovush kabi ko‘rinishlarda ifodalanadi. Axborotni qayta ishlash dastlab qog‘ozda, so‘ngra mexanik, elektr mashinalarda bajarilib kelindi. Hozirgi davrda esa, kompyuterlarda amalga oshirilmoqda. Axborotni qayta ishlash texnologik jarayon bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda uning quyidagi ta’rifi berilgan. Axborot texnologiyasi - obyekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti)ning holati haqidagi yangi sifat axborotlarini olish uchun ma’lumotlar, boshlang‘ich axborotni to‘plash, qayta ishlash hamda uzatish vosita va uslublaridan foydalanuvchi jarayondir.

Axborot texnologiyasining texnologik jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

a) ma’lum bir turdagi axborotlar jamlanadi;

b) qayta ishlanadi, ya’ni guruhlanadi, turlarga ajratiladi, agregatlashtiriladi va hisoblanadi

c) tayyor axborot mahsuloti olinadi va is’temolchilarga uzatiladi. Axborotni uzatish. Insonlar axborotning xabar shaklidan qadim zamonlardan boshlab foydalanib kelganlar. Masalan, insonlar qabila bo‘lib yashagan davrlarida, biron qabilaga tashqi xavf-xatar tug‘dirilganda, uning bir a’zosi tepalik ustida olov yoqqan va uning tutuni orqali boshqa jamoaga xabar qilgan va qo‘shni qabila odamlari yordamga yetib kelganlar. Odamlar yozish va o‘qishni o‘rganganlaridan so‘ng, bunday xabar (axborot)larni bir shahardan ikkinchi shaharga chopar orqali yoki xat tashishga o‘rgatilgan kabutardan berib yuborganlar. Keyinchalik, sekinastalik bilan pochta xizmati shakllanib borgan.

O‘tgan asrning oxirlarida multimedia texnologiyasining yaratilishi va uni axborot texnologiyalariga tatbiq etilishi, zamonaviy multimedia texnologiyasini yaratilishiga olib keldi. Quyida axborot texnologiyasiga asoslangan multimedia texnologiyasini yaratilish bosqichlarini qaraymiz. Shuni ta’kidlash kerakki, multimedia axborot texnologiyalari fanining bir shaxobchasi bo‘lib, uning tez rivojlanayotgan sohasiga kiradi. MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun, tarbiyachilar multimedia to‘g‘risida ma’lum bir darajada elementar bilimlarga ega bo‘lishlari kerak. Ilmiy va o‘quv adabiyotlarda, maqolalarda multimedia to‘g‘risida turli xil qarashlar, fikrlar va tushunchalar berilgan bo‘lib, MTT tarbiyachi-pedagoglari ularning qaysi biridan foydalanishni bilmasdan qiynalmoqdalar. Shuning uchun, quyida multimedia asoslarini (multimedia atamasi, ta’riflari, mazmuni, shakllanishi, vositalari va multimedia texnologiyasi bo‘yicha ba’zi-bir ma’lumotlarni) sodda va elementar shaklda bayon qilamiz. Tarbiyachilarga multimedia to‘g‘risidagi ma’lumotlar tushunarli bo‘lishi uchun analogiya uslubidan foydalanib, ba’zi bir taqqoslashlarni ham keltiramiz.

1. Multimedia atamasi (multum+medium) kabi ikkita so‘z yig‘indisidan (yoki ingl. multi+media) lardan tashkil topgan bo‘lib, multi- ko‘p, media-muhit

ma’nosini anglatadi. Ushbu atama ilmiy va o‘quv adabiyotlarda “Ko‘p vositalilik”, “Multimedia muhiti”, “Ko‘p qatlamli muhit”, “Multimedia - bittadan ko‘p bo‘lgan mediadir”, “Mahsulot tashuvchi vosita”, “Ma’lumot tashuvchi vosita” kabi talqin qilinib kelinmoqda, hatto ayrim adabiyotlarda “Hozirgacha multimediani aniq ta’rifi mavjud emasligi” ham e’tirof etilgan. Bizning fikrimizcha, MTT tarbiyachilariga mo‘ljallangan adabiyotlar va mashg‘ulotlarda foydalanish uchun atamaning tarjimasiga yaqin bo‘lgan quyidagi ta’rif “ko‘p elementli (tarkibli) muhit” atamasi mos keladi.

2. «Multimedia» atamasining ta’riflari. Quyida multimedia atamasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta ta’rifini keltiramiz: “Multimedia-deganda turli shakldagi ma’lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi”, “Multimedia – bir vaqtning o‘zida turli ko‘rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko‘zda tutgan foydalanuvchi interfeysining konsepsiyasi”, “Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an’anaviy va original turlari asosida o‘quv materiallarini bolalarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir”, “Multimedia – gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir”, “multimedia – bu maxsus texnologiya bo‘lib, dasturiy va texnik moddiy ta’minot asosida kompyuterda bir vaqtning o‘zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda (hattoki videofilm holatida) ifodalash imkoniyatidir”, “Multimedia – tasvirli ma’lumotlar bilan ishlashga qodir bo‘lgan vosita hisoblanadi”, “Odatda multimedia deganda turli shakldagi ma’lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi”, “Multimedia – kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir”. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, MTT tarbiyachilari o‘zlarining ish faoliyatlarida multimedia tushunchasining qaysi bir ta’rifidan foydalanishga qiynaladilar.

Ma’lumki, multimediali axborotlar tizimiga matn, jadvallar, grafika, nutq, sxema, musiqa va boshqalar kiradi. Ushbu axborotlarni ham foydalanuvchilarga yuqoridagi tartibda ikki usulda uzatish mumkin.

1. Har bir axborotni, masalan, matnni ma’lum bir masofadagi foydalanuvchiga yoki shu joyning o‘zidagi foydalanuvchiga bitta “paketga” bir o‘zini joylab uzatish mumkin .

2. Axborotning bir nechta turlarini – matn, grafika, sxema, tasvir, musiqa va boshqalarni kompyuter xotirasida saqlab, ishlov berib va barchasini bitta “paketga” mujassamlashtirilib ma’lum bir masofadagi foydalanuvchiga yoki shu joyning o‘zidagi foydalanuvchiga uzatish mumkin .

Shunday qilib, multimedianing mazmunidan kelib chiqqan holda multimedia tushunchasining MTT tarbiyachilariga tushunarli bo‘lgan quyidagi ta’rifini keltirish mumkin: «Multimedia - bir nechta axborot turlarini kompyuterda ishlov berish natijasida hosil qilingan va bitta “paketga” mujassamlashtirilgan axborot jamlamasidir».

Multimedianing animatsiya samarasi. Multimedianing tashkil etuvchilaridan (element) biri – axborotlarga animatsiya samarasini berishdir. Bu multiplikatsion filmlarda rassomning chizgan qator chizmalari va rasmlarini tez (bir daqiqada 24 kadr tezlikda) namoyish ettirilishi asosida sodir bo‘ladi. Hozirgi kunda esa, multifikatsion filmlar kompyuterda 3D.Flash dasturi asosida yaratilmoqda. Multimediada esa, maxsus dasturlar (Power Point, Macromedia Flash va hokazolar) orqali amalga oshiriladi.

1986-yilda Amida kompyuterida birinchi marta maxsus rolikda tovush (musiqa) bilan birgalikdagi animatsiya samarasi namoyish qilinib, multimedianing shakllanishi nihoyasiga yetkazildi va bu yig‘ilishda to‘laqonli multimedia texnologiyasi yaratilgani e’tirof etildi. Shunday qilib, 1986-yil rasmiy ravishda multimediani yaratilgan (“tug‘ilgan”) yili hisoblanadi. Multimedia vositalariga multimedia mahsulotini yaratishda foydalanadigan uskunalar (yoki jihozlar), dasturlar va amalda foydalanishga mo‘ljallangan materiallar kiradi. MTT tarbiyachilari multimedia vositalari oson tasavvur etishlari uchun, uskunaviy, dasturiy va amaliy vositalar kabi uch turga bo‘lib tushuntirish qulayroq bo‘ladi:

1. Uskunaviy vositalari qatoriga audio plata, video plata, kompakt disk (CD ROM, DVD, DVD ROM tashqi uskuna)lar, videoqamrash platalari, video kiritish va chiqarish, tovush kiritish va chiqarish qurilmalari va boshqalar kiradi.

2. Dasturiy vositalariga Power Point, Macromedia Flash, Adobe Premiere, Media Player, CD Player va boshqa dasturlarini kiritish mumkin. Shuningdek, mahsulot tayyorlashda Corel Draw, Paint Brush grafik muharrirlardan ham foydalaniladi.

3. Amaliy vositalariga turli xil jadvallar, ma'lumotnomalar, elektron darsliklar, taqdimotlar, slaydlar, kompyuter o'yinlari va boshqalar kiradi. Bulardan ta'lim jarayonida, moliya-iqtisod tizimida, ilmiy-tadqiqot ishlarida va boshqalarda foydalaniladi.

Dastlab ma'lum bir sohadagi texnologik jarayon mazmunini ko'rib chiqaylik. Texnologik jarayon deganda, biron xom ashyo, material yoki axborotni ma'lum bir asbob-uskuna, vosita, qurilmalardan foydalanib, ularga ishlov berish, xossalarini o'zgartirish va qayta ishlash natijasida yangi sifatli mahsulot olish jarayoni tushuniladi. Shunday qilib, multimediali texnologik jarayon natijasida yakka tartibdagi axborotlar – nutq, matn, tasvir, grafika, musiqa va animatsiya samaralari kompyuterda ishlov berilishi natijasida bitta "paket" (disk)da joylashtiriladi.

Multimediali axborot texnologiyasi – qisqacha multimedia texnologiyasi deb yuritiladi. Hozirgi davrda multimedia texnologiyasidan ko'p sohalarda, jumladan, moliya, iqtisodiyot, fan, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy sohalar, maishiy sohalar, tashviqot, kompyuter o'yinlari foydalanilmoqda. Shuningdek, firmalarda taqdimot va mahsulotlarni tashviqot qilishda foydalaniladi. Ayniqsa, banklarning operatsion zallarida, ko'rgazma va yarmarka zallarida, avtosalon, sayohat byurosi, aeroport va temir yo'l vokzallarining zallarida tashviqot axborotlari keng ko'lamda ma'lumot beradi. Shuningdek, ishlab chiqarishda, muassasalarda, xizmat ko'rsatish shahobchalarida, arxivlashtirishda, muzeylarda keng qo'llaniladi.

Multimediali kompyuter texnologiyasidan ta’lim sohasida yangi pedagogik texnologiya sifatida foydalanish mumkin. Ushbu texnologiya quyidagi afzalliklarga ega: dars va mashg‘ulotlarning samaradorligi va beriladigan materiallarni hajmi oshiradi, o‘rganilgan materiallar tarbiyalanuvchilarning xotiralarida uzoq vaqt saqlanadi.

Hozirgi davrda, multimedia texnologiyasidan barcha ta’lim tizimida oliy o‘quv yurtlari, professional ta’lim, umumiy o‘rta-ta’lim maktablarida foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga, uzluksiz ta’lim tizimining birinchi turi bo‘lgan MTTlarda ham multimedia texnologiyasidan foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud. Jumladan, MTT tarbiyalanuvchilariga harflarni o‘rgatishda elementar matematik tushunchalar bilan tanishtirishda, ijobiy va salbiy ekologik ta’sirlarni bayon qilishda, ta’limiy va rivojlantiruvchi kompyuterli o‘yinlarni amalga oshirishda foydalaniladi.

Mashg`ulotlar uchun didaktik materiallar yaratish texnologiyalari. Kompyuterda matematika, tasviriy faoliyat, tabiat bilan tanishtirish, ingliz tili mashg`uloti uchun, nutq o`stirish, atrof olam bilan tanishtirish mashg`ulotlari uchun didaktik o`yinlar yaratish texnologiyasi. Masofali ta’lim o‘qitishing zamonaviy shakllaridan biri sifatida ta’lim tizimining barcha sohalarida o‘z o‘rnini topmoqda. Bunda Internet tarmog‘idagi o‘quv materiallaridan keng foydalanilmoqda. Internetdan olinadigan materiallarning aksariyati multimediali taqdimot shaklida yaratilgan. Masalan, MTTlar uchun “TRIZ” texnologiyalari asosida “Kimning uyi qaerda?”, “Uy yasash”, taqdimotlari, savodxonlik, matematik tasavvurlarni shakllantirish, til o’rganish yuzasidan va turli xil kompyuter o‘yinlari shular jumlasidandir. Shunday qilib, MTT tarbiyachilari multimedia to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganlarida, undan MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga foydalanishlari oson kechadi.

MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish va ulardan bolalarga ta’lim-tarbiya berishda foydalanish masalalari ham shu kunning dolzarb masasalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli quyida pedagogik texnologiya tushunchasining

ta’riflari va MTTlarda tatbiq etish uchun ishlab chiqilgan “multimedia texnologiyasining” asoslari bo‘yicha ma’lumot beriladi. Texnologiya so‘zi yunoncha (techne) san’at, mahorat ma’nolarini anglatadi. Bu esa, jarayonlar demakdir.

Hozirgi davrda texnologiyalarning soni ko‘payib bormoqda va turli sohalarda qo‘llanib kelinmoqda. Masalan, ishlab chiqarish texnologiyasi, axborot texnologiyasi, ovqat tayyorlash texnologiyasi va boshqalar shular jumlasidandir. “Pedagogik texnologiya” atamasi inglizcha “an eductional technology ” so‘zidan olingan bo‘lib, uning tarjimasi “ta’lim texnologiyasi” degan ma’noni bildiradi.

Ushbu tizimni, o‘quv maqsadi, kutilayotgan natijalar, ta’lim oluvchi, ta’lim shakli, ta’lim vositalari, nazorat va baholashlar tashkil etadi. Yuqoridagilarga binoan, MTTlarning ta’lim jarayoniga tatbiq etish uchun multimedia texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Multimedia texnologiyasining asosiy mazmuni - kompyuterli ta’limdir. Mashg‘uloti esa, kompyuterli mashg‘ulotdir. Demak, multimedia texnologiyasi kompyuterdan foydalanib, mashg‘ulot o‘tkazishga mo‘ljallangan.

Umuman olganda, MTTlarda qachondir to‘la kompyuter ta’limiga o‘tiladi. Shuning uchun, bu muammoni hozirdanoq asta-sekinlik bilan hal etib bormoq zarur. Hozirgi kunda Respublikamizda televizori bo‘lmagan bironta oila bo‘lmagani kabi, yaqin kelajakda barcha oilalar o‘z kompyuterlariga ega bo‘ladilar. Ushbu fikr ham Respublika kelajagi bo‘lgan bolalarni yoshligidanoq kompyuter bilan tanishtirish va ularda ushbu yo‘nalishdagi zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish zaruratini taqozo qilmoqda. MTTlar uzluksiz ta’lim tizimining birinchi pog‘onasi bo‘lgani uchun yuqoridagi tizim MTTlarning ta’lim jarayonlariga tegishlidir.

O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim konsepsiyasida MTTlar uchun mo‘ljallangan pedagogik texnologiya quyidagi mazmunda yoritilgan, ya’ni: . “Pedagogik texnologiya deganda ta’limiy maqsadlarni

samarali amalga oshirishga imkon beruvchi ta’lim va tarbiya jarayonining nazariy asoslangan vosita va usullari majmuini amalga oshirish tushuniladi” .

Maktabgacha ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta’limiy maqsadlar bir xil berilib, bosqichma-bosqich o‘zgarishlar va erishilgan natijalarni yakuniy baholash imkoniyatining saqlanishiga mos holda ilmiy loyihalashni mo‘ljallaydi. Ushbu muammolarning yechimini topish va amalga oshirish maqsadida MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish va sinovdan o‘tkazish uchun ishlab chiqilgan multimedia texnologiyasining asoslari to‘g‘risida ma’lumot beramiz.

Multimedia texnologiyasini MTTlarning ta’lim jarayonida tatbiq etish va unga pedagogik ishlov berish asosida, ta’lim berishning barcha talablariga mos keladigan ta’lim jarayonini to‘la-to‘kis amalga oshiradigan multimediali texnologiya sifatida shakllantirish mumkin. Ma’lumki, pedagogik texnologiyaning o‘ziga mos va xos element bo‘ladi. Agar shu elementlar tarbiyalanuvchilarga to‘la shakllantirilgan bo‘lsa, pedagogik texnologiya ham to‘kis shakllangan hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning – “ta’lim–tarbiya jarayonini ilg‘or vositalar, uslublar, texnik vositalar, usullarga tayanib takomillashtirish tizimi” mazmunidagi ta’rifidan kelib chiqib, multimedia texnologiyaning komponentlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Nazariy va amaliy asoslari.
2. Pedagogik–psixologik jihatlari.
3. Texnik va didaktik vositalari.
4. Ta’lim-tarbiya berish uslubiyoti.
5. Tarbiyalanuvchilarning olgan bilimlarini baholash mezoni.
6. Ta’lim manbalari.

Multimedia texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari - informatika va zamonaviy axborotlar texnologiyasi asoslariga borib taqaladi. Multimedia – dastlab vosita sifatida axborotlarni birato‘la tovush, video, grafika, matn, tasvir, animatsiya berilgan holda uzatish va saqlash usuli (muhiti) sifatida shakllandi. Shakllanish, asosiy texnik ta’minoti bo‘lgan kompyuter va uning axborotni,

matnni kiritish va chiqarish qurilmalari, skanerlar, video va audio platalari, videoqamrash platalari orqali amalga oshiriladi. Dasturiy ta’minotda esa multimedia vositasi mazmunini ifodalash algoritmini tuzish va dasturlash muhim rol o‘ynaydi. Amaliy ta’minotda multimediali darsliklar, kompakt disklar, taqdimotlar, slaydlar, shuningdek, kompyuterda mavjud dasturlar (Macromedia Flash, Power Point, Paint, Corel Draw) va telekommunikatsiya vositalaridan keng foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalari tezkorlik bilan rivojlanib zamonaviy multimedia texnologiyalariga aylandi. Shu boisdan, u o‘nlab yo‘nalishlar va sohalarga tatbiq etilib kelinmoqda. Ta’lim jarayoniga esa 1990-yillardan boshlab kirib keldi. Multimedia texnologiyasining bir nechta ta’riflari mavjud bo‘lib, shulardan birini keltiramiz. «Multimedia texnologiyasi-informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (obyektlarning fazodagi harakati) samaralari asosida o‘quv materiallarini bolalarga yetkazib berishning mujassamlashgan ko‘rinishidagi texnologiyasidir”. Bu yerda shuni ta’kidlash kerakki, multimedia axborot(material) shakllantirilishi uchun kamida uning uchta elementi (matn, tasvir va animatsiya) qatnashishi shart. Masalan, radioeshittirishda beriladigan axborotni yoki teleko‘rsatuvlarda ko‘rsatiladigan ovozsiz tasvirlarning o‘zi multimedia bo‘la olmaydi. Hozirgi kunlarda, MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga masofali ta’lim ashyolaridan, jumladan, internet tizimidan foydalanish ham joriy etilmoqda.

Internetdan foydalanishda tarbiyachi internet tarmog‘idan MTT tarbiyalanuvchilariga mos materiallarni qidirib topib, undan u yoki bu yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarda foydalanadi.

MTTlarda multimedia texnologiyasining ta’lim sohasidagi asosiy va yetakchi tashkiliy shakli – kompyuterli mashg‘ulotdir. Ushbu texnologiya bo‘yicha mashg‘ulotlar 30 daqiqa davomida, kompyuterlardan foydalanib olib borilgani uchun, o‘rtada 15 daqiqadan so‘ng 5-10 daqiqali o‘rganiladigan materialga tegishli o‘yin mashg‘uloti yoki suhbat, savoljavob o‘tkaziladi.

Shundan keyin, yana mashg‘ulotning 15 daqiqasi davom ettiriladi. MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga kompyuterlardan foydalanishning afzallik tomonlaridan biri shundan iboratki, bolalar kompyuterda ishlashni to‘la o‘rganib olganlaridan keyin, undan 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda materiallarni o‘rganishlari mumkin. Kompyuterning “bag‘ri keng” va “toqatli, sabrlidir”. Bola xato qilgan taqdirda ham, xatoni o‘zi tuzatgunga qadar, hech kim unga tanbeh bermaydi. Multimedia texnologiyasida ta’lim va tarbiyani mashg‘ulot shaklidan tashqari, o‘yin shaklida (kompyuterli o‘yinlar), ekskursiya, sayohat, amaliy mashg‘ulot shaklida (ekologik ta’lim), masofali muloqot shaklida olib borish mumkin.

Bolalar uchun “qo‘llanma” yoki “darslik” sifatida – kompyuter xotirasiga yuklangan ma’lumotlar, tarbiyachi uchun esa, multimedia texnologiyasiga oid pedagogik, ilmiy-uslubiy adabiyotlar, uslubiy qo‘llanmalar va uslubiy tavsiyalar ta’lim manbalari hisoblanadi. Texnik vositalari (didaktik asoslari). Shaxsiy kompyuterlarlar multimedia texnologiyasining asosiy vositasi hisoblanadi. Undan, MTTlardagi ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishda esa, qo‘shimcha vositalar kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta’lim-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo‘lib, ular animatsiya bilan berilgan bo‘ladi. Ta’lim tizimida uzoq vaqtlardan buyon foydalanib kelinayotgan an’anaviy ko‘rgazmali materiallar – statik xarakterga ega.

Multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTTlar sharoitida tarbiyachilarning o‘zlari tomonidan tayyorlay oladigan: dasturli va rolli(ijroli) multimedia vositalaridan (DVD-disk) foydalanish ham mumkin.

DVD video diski – multimedia vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega. Diskdan foydalanib o‘rganiladigan materialni bosqichlar bo‘yicha to‘la ko‘rish mumkin, ba’zi hollarda alohida elementlari ko‘riladi, zarur bo‘lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo‘ladi

Multimedia texnologiyasining texnik vositalari ta’limning didaktik talablariga to‘la mos keladi. Multimedia texnologiyasining ta’lim-tarbiya berish uslubiyotini bayon qilishdan oldin, uning quyidagi ikki jihatiga e’tibor berish kerak:

1. Agar u yoki bu multimedia vositasi tarbiyalanuvchilarga bayon etib borilmasdan namoyish etilsa, u oddiy multfilm bo‘lib qoladi.

2. Agar tarbiyachi multimedia vositasini namoyish etish davomida, uni tahlil etib (tushuntirib, bayon etib) borsa, ta’lim jarayonini aks ettirib multimedia texnologiyasiga aylanadi.

Ta’limning an’anaviy uslublarida ta’lim beruvchi (tarbiyachi) ta’lim jarayonining markazida bo‘lib, ta’lim oluvchi (tarbiyalanuvchi) passiv eshituvchi va ishtirokchi bo‘lib qoladi. Multimedia texnologiyasidan foydalaniladigan jarayonda esa, ta’lim jarayonining markazida kompyuter xotirasiga yuklangan va o‘rganish uchun mo‘ljallangan ta’lim materiallari turadi. Kezi kelganda shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida ta’kidlanganidek, kompyuter xotirasiga yuklangan material o‘ziga xos “ta’lim qo‘llanmasi” yoki “darsligi“ rolini o‘ynaydi.

Ikkinchi o‘rinda, kompyuterdagi ta’lim materiallarini ko‘rib va tovushni eshitib turgan ta’lim oluvchi (tarbiyalanuvchi)lar turadilar. Bu holda asosiy muloqot kompyuter-tarbiyalanuvchi o‘rtasida amalga oshirilib, tarbiyalanuvchi axborotni kompyuter ekranidan qabul qilib oladi. Ammo MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga multimedia texnologiyasi tatbiq etilgan taqdirda ham garchi ma’lumot monitor ekranidagi materialdan olinsa-da, tarbiyachi-pedagogning faoliyati birinchi o‘rinda qolaveradi, chunki an’anaviy usul bilan ta’lim berishda “bo‘r-doska”dan yoki boshqa turli xil ko‘rgazmali vositalardan foydalanilsa, multimedia texnologiyasida esa, kompyuter ekranidagi materiallardan foydalaniladi.

Ta’lim beruvchi (tarbiyachi)ning vazifasi – kompyuter ekranida bolalar kuzatayotgan materiallarni sharhlab berish, ularning diqqatlarini jalb etish, guruh tarbiyalanuvchilariga takrorlab o‘rgatish bo‘lib, kompyuter-

tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o‘rtalarida birgalikda olib borilayotgan faoliyatni bildiradi. Sxemadagi punktir chizig‘i ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi o‘rtasidagi savol-javobni anglatadi.

“Aqlli” gadjetlar haqida tushuncha

Multimediali axborot texnologiyasini ta’lim jarayoniga tatbiq etish asosida, MTTlar uchun multimedia texnologiyasini shakllantirish amalga oshiriladi. Demak, multimedia texnologiyasida ta’lim jarayoni kompyuterga o‘rganiladigan materialni yuklanishi, namoyish etish, kuzatiladigan va o‘rganiladigan material bo‘yicha tarbiyachi-tarbiyalanuvchi o‘rtalarida muloqot va materialni o‘rganilgan darajasini aniqlash asosida kechadi. Bu yerda shuni ta’kidlash kerakki, multimedia texnologiyasida ma’lumot garchi kompyuterdan olinsa-da, natija tarbiyachining mahorati va qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim jarayoniga multimedia va aqlli gadjetlar (planshet, telefon, noutbuk)dan foydalanishning yana bir turi gologrammalar asosida turli tasvirlarni hosil qilishdir.

Gologramma illyuziyasi uzoq vaqt oldin paydo bo'lgan. Ushbu uslub 19-asrdan beri teatrlar, bog'lar, muzeylar va kontsertlarda qo'llanilgan. Effekt bu hodisani namoyish qilish orqali tarqatgan olim D.H. Pepperdir. Bu 1862-yilda boshlangan edi va bugungi kunda gologramma san'ati mukammallikka erishdi.



5.1.1-rasm. Gologramma illyuziyasi

Dunyo bu hodisa bilan 16-asrda, neapolitanlik olim Giambattista della Porta illyuziya kamerasini ishlab chiqqanida tanisha boshladi. U shuningdek, illyuziyalarni ko'paytirish haqida birinchi eslatma bo'lgan «Tabiiy sehr» ertakini yozgan.

Multimedia texnologiyasida tarbiyalanuvchilarga elementar bilim berish quyidagilar asosida olib boriladi:

1.Monitor ekranida ko‘rsatiladigan multimediali tasvirlar va ko‘rgazmalar orqali.

2. Bolalarning hayotda, turmushda, uyda, tevarak-atrofda mavjud predmetlar va obyektlardan foydalanish orqali.

3.Tarbiyalanuvchilarga elementar matematik tasavvurlar berishda, u yoki bu materialni o‘rgatishda analogiya(taqqoslash) usulidan ham foydalanishni tavsiya etiladi.

Maktabgacha ta’lim didaktikasi – umumiy didaktikaning bir sohasi bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi va o‘qitish nazariyasi hisoblanadi, uning maqsadini belgilaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabga tayyorlashni ta’minlovchi ta’limning mazmuni, uslublari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish ham, bilish nazariyasiga asoslanadi, jumladan, uning «jonli mushohadadan abstrakt fikrlashga va undan amaliyotga» degan qonunini MTTlarning kompyuterli ta’lim jarayoniga ham qo‘llash mumkin. Jonli mushohada MTT tarbiyalanuvchilariga ko‘rsatiladigan didaktik materiallar, raqamlar, harflar, rasmlar, chizmalar kabi vositalarni kiritish mumkin. Bularni ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yosh bolalarga turlicha psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yuqorida ta’kidlanganidek, qog‘ozda yozilgan yoki kartondan kesib tayyorlangan “A” harfini tarbiyalanuvchilarga (statik holatda) ko‘rsatilsa, ularga ma’lum bir psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Agar, monitor ekranda animatsiyadan foydalanilgan, multimedia texnologiyasi asosida “A” harfini ko‘rsatilsa (dinamik holat), tarbiyalanuvchilarga boshqacha psixologik ta’sir etiladi.

Shuningdek, bolalarga qog‘ozda chizilgan archa rasmini ko‘rsatilsa (statik holat), u holda ularga oddiy psixologik ta’sir etiladi, monitor ekranida animatsiya bilan berilgan (jilolanib turgan) multimediali rasmni ko‘rsatilsa, bolalarga umuman boshqacha psixologik ta’sir (samara) etadi.

MTTlarda esa, yuqoridagi fikrdan o‘laroq, bilish asoslaridan biri bo‘lgan “jonli kuzatish” yosh bolalarning fikrlashlarini rivojlantirishga olib keladi. Masalan, multimediali slaydlarda predmetlar turli ranglarda beriladi – biri oq, biri qizil, biri yashil. Yosh bolalar monitor ekranida ularni ko‘rishlari bilanoq – ranglar to‘g‘risida fikr yurita boshlaydilar.

Z.I.Kalmakovning fikricha, “bolada matematik tushunchalarni shakllantirishning eng ishonchli ko‘rsatgichi – uning ta’limiyligi, ta’limiylikning asosi, uning asosiy tashkil etuvchisi – ta’limiylikning boshqa parametrlarini yuqori darajada aniqlab beradigan fikriy faoliyatning umumlashtirilishidir”. L.S.Vigotskiy va Z.I.Kalmakovning fikrlari an’anaviy usulda ta’lim berishdagi umumiy o‘quv jarayoniga tegishlidir.

Abstrakt fikrlashni eng qulay usulini topish multimedia texnologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. “Jonli kuzatish”, “abstrakt fikrlash”dan keyingi bosqich “amaliyotga tatbiq etish” dan iborat. Kompyuterli ta’limni amaliyotga tatbiq etish, MTT tarbiyalanuvchilari tomonidan o‘rganiladigan materiallarni kompyuterda bajartirilishi va ularni texnikaga amaliyotga tatbiqlari asosida amalga oshiriladi. Quyida, multimedia texnologiyasi (kompyuterli ta’lim) ta’limtarbiya jarayoniga tatbiq etishning pedagogik–psixologik jihatlari va tamoyillarini qarab o‘tamiz.

Multimedia texnologiyasini MTTlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilayotganligiga uncha katta vaqt o‘tmaganligi sababli, hozirgi kunda uning pedagogik-psixologik jihatlari, tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika nuqtai nazaridan, mutimedia texnologiyasining MTTlardagi ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbig‘i – ularga kompyuterlar asosida yangicha

texnologik yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun, multimedia texnologiyasini o‘ziga xos belgilari, xususiyatlari va tamoyillari mavjud:

Asosiy belgilari - texnik vositalardan foydalanish, tarbiyalanuvchilarning bilimlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, ta’lim samaradorligini oshirish, monitor ekraniga qarab va ekrandagi materiallardan foydalanib bilim olishdan iborat. Multimedia texnologiyasidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o‘zida bolalarning kompyuter savodxonliklarini shakllanishiga ham olib keladi. Masalan, dialogli ta’lim texnologiyasida kompyuter - texnik vosita sifatida qaraladi, multimediali kompyuter texnologiyasida esa, u ko‘rgazmali vositadan tashqari “Ta’lim manbai” sifatida mujassamlanadi, ya’ni o‘rganiladigan material oldindan kompyuter xotirasiga kiritilgan bo‘ladi. Ushbu material tarbiyachining an’anaviy uslub bilan mashg‘ulot o‘tkazish bo‘yicha tuzgan ishlanmasiga o‘xshaydi. MTT tarbiyalanuvchilari kompyuter monitori ekranida namoyish etiladigan materiallaridan o‘rgana borsalar va yetarlicha ko‘nikma hosil qilsalar, kelajakda muassasalarida kompyuter ekranidan ma’lumotlarni qabul qilib olishga qiynalmaydilar. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida mantiqiy tafakkurlari rivojlanadi, bilim olishga havaslari va ishtiyoqlari ortadi, dunyoqarashlari oshadi.

Bolalarning yoshlarini va fikrlash darajalarini hisobga olish, bolalarning ta’lim materialini xotiralarida saqlash imkoniyatlarini hisobga olish, kompyuter bilan ishlaganda ko‘z toliqishini oldini olish, bolalarning xotiralarini rivojlantirish, diqqatlarini barqarorlashtirish, ta’lim materiallariga qiziqishlarini orttirish, his-hayajonli hissiyot uyg‘otish, kompyuterda ishlash qobiliyatlarini o‘stirishlar psixologik jihatlarni tashkil etadi. Monitor ekranida tasvirni ko‘rganda va o‘qiyotganda bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va obyekt obrazi bir vaqtda qabul qilib olinadi. Animatsiyali ma’lumotlarning insonga ta’sirchanligi katta bo‘lib, undan MTT ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalarning diqqatlarini ko‘proq jalb qilish xususiyatiga ega.

Multimedianing bir vaqtning o‘zida ham ko‘rish, ham eshitish orqali bilim olishning samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon sinovdan o‘tgan. Masalan, xalqimizda bu to‘g‘rida “yuz marta eshitgandan ko‘ra, bir marta ko‘rmoq yaxshi ” degan maqoli bor. Psixologlar ham bir vaqtning o‘zida ham ko‘rish, ham eshitish orqali bilim berishda o‘zlashtirish yuqori bo‘lishini ta’kidlab kelmoqdalar. Bu borada S.S.G‘ulomov va boshqalar quyidagilarni ta’kidlaydilar: “Agar bolalar berilayotgan materiallarni ko‘rish (video) asosida qabul qilsa axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab borish 75 % ga ortadi ”.

Psixologlarning ta’kidlashlaricha, bolalar asbob-uskunalarga, texnik qurilmalar va transport vositalarining modellariga, o‘yinchoqlarga juda qiziquvchan bo‘ladilar. Shular qatorida, ularda ishlash ham bolalarning o‘rganilayotgan materialga nisbatan qiziqishlarini orttirib, bilim olishga ishtiyoqlarini kuchaytiradi, ko‘nikma hosil qiladi va fikrlash doirasi oshadi.

Virtual reallik — bu sun’iy hosil qilinadigan axborot muhiti bo‘lib, u atrof- muhitning odatiy usuldagi tasavvurini — turli texnik vositalar asosida hosil qilinadigan axborotlar bilan almashtirishga qaratiladi. Ta’limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish — boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo‘lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin.



5.1.2-rasm. Virtual borliq namoyishi

Kompyuterning tasavvur qilinadigan xotirasi — virtual xotira sifatida qabul qilinib, u fizik jihatdan hech bir alohida olingan xotira tashuvchisiga muvofiq kelmaydi, ya’ni, virtual xotira kompyuter elementlarining o‘zaro funksional ta’sirlashuvi natijasi sifatida yuzaga keladi. Shunday qilib, virtual xotirani yuzaga keltiruvchi dasturiy vositalar yordamida inson juda ulkan hajmdagi axborotlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta’limda kinolavhalar hamda turli illyustratsiyalarga asoslangan virtual reallik elementlari ilgaridan qo‘llanilib kelingan. Kompyuter texnikasi harakat va tovush bilan bog‘liq axborotlarni yagona majmuaga biriktira olganligi, bilim oluvchilarga kuzatilayotgan jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatish (muloqot qilish) imkoniyatlarini yaratishi bilan virtual reallikka asoslangan ta’lim resurslarini yaratishda sifat burilishini yasadi. Asosiy tamoyili, kafolatlangan yakuniy natija, ta’limning mahsuldorligi, to‘g‘ri va teskari aloqaning mavjudligi, ta’lim maqsadining aniq shakllanishidan iborat. Shuningdek, pedagogik tajriba natijalari multimedia vositalaridan MTT ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning didaktik tamoyillari qatoriga: “kompyuter monitori ko‘rsatuvi kabi bajar” yoki “kompyuter monitoriga qarab bajar” bo‘lib, umumiy tamoyillariga dasturlashtirish, ilmiylik, moslik, jadallik, ta’lim maqsadlarining

o‘zaro bog‘liqligi, ko‘rgazmalilik, tizimiylik, materialni tushunarli bo‘lishi, faollik va mustaqillik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi omillari, vosita(kompyuter)ning ixchamligi va umumiyligi (barcha turdagi texnik vositalarni o‘rnini bosa olishi) kirishini ko‘rsatdi. Bulardan tashqari, multimedia texnologiyasida izchillik va ketma-ketlik tamoyillari ham amalga oshadi. Yuqorida ta’kidlangan asosiy “kompyuterga qarab bajar“ tamoyili kompyuter xotirasiga kiritilgan o‘quv materiallarini monitor ekraniga chiqarish va namoyish etish asosida amalga oshiriladi. Tarbiyachi o‘quv materialini tushunarli bo‘lish tamoyiliga alohida e’tibor berish kerak. Jumladan, tanlangan o‘quv materiallar murakkab bo‘lmasdan tarbiyalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning faollligini oshirishda, o‘rganiladigan o‘quv materiallarni hajmini ko‘paytirishda, ta’lim jarayonini oldindan loyihalashda, natijani kafolatlashda, ta’lim shaklini qulaylashtirishda, shuningdek ta’lim mazmunida, tuzilishida, uslublarida va shakllarida namoyon bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilarda olingan bilimlarini uzoq vaqt xotiralarida saqlash imkoniyati yaratiladi. Bolalarning qiziqishlarini va kompyuterga nisbatan ishtiyoqlarini orttiradigan o‘ziga xos uslub multimedia texnologiyasidan foydalanish hisoblanadi. Multimedia vositalari tarbiyalanuvchini psixikasini rivojlantirish va fikrlash qobiliyatini shakllantirishda katta ta’sir etadi. Yaqingacha bosma nashr (kitoblar, risolalar va sh.k.) lar axborotning asosiy an’anaviy manbai bo‘lib keldi. Ulardan foydalanib (ularni o‘qib) bolalarda fikrlash shakllantirildi, multimedia texnologiyasidan foydalanishda esa, matn bilan tanishish mobaynida, u bilan bir qatorda (video obraz) va animatsiya xususiyatlarini oshirib, bolaning fikrlash salohiyatlari ortib boradi. Kompyuterli ta’limning o‘ziga xos xususiyatlardan biri kompyuterni bolalar organizmiga salbiy ta’sir etishidir. Shuning uchun, tarbiyalanuvchilar undan uzluksiz 15 daqiqadan ortiq foydalanmasliklari lozim.

Yuqorida multimedia texnologiyasining pedagogik va psixologik jihatlari qisqacha yoritildi. Ularni to‘la va har tomonlama keng ishlab chiqish pedagog, psixolog, uslubchi olimlar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Nazorat savollari

1. Virtual reallik nima?
2. Ta’limning an’anaviy uslubi qanday ko’rinishda bo’ladi?
3. Axborotning qanday turlarini mavjud?

5.2. “Aqlli” gadjetlar asosida o`yinlar tashkil etish va o`tkazish, didaktik materiallar yaratish

Reja

1. Aqlli” gadjetlar asosiqida o`yinlar tashkil etish va o`tkazish.
2. “Didaktik materiallar asosida innovatsion texnologiyalar bo`yicha tajriba o`tkazish
3. Kompyuterda “Farqini top”, “Yil faslini top” “To`g`risini tanla”, “Alifbodan tanla” dadaktik o`yinlarini, “Archa yonsin chiroqlaring”, “Labirint” o`yinlarini yaratish. Kompyuterda innovatsion didaktik o`yinlar taqdimotini tayyorlash

Aqlli” gadjetlar asosiqida o`yinlar tashkil etish va o`tkazish. Axborot oqimining tez o'sishi, yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ularning imkoniyatlari - bularning barchasi yosh avlodning intellektual rivojlanishiga o'z talablarini qo'yadi. Ta'lim muhitini axborotlashtirishning hozirgi tajribasi shuni ko'rsatadiki, avvalambor, ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishga aynan axborotli muhit juda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Shu sababdan ta‘lim sohasining boshlang‘ich bo‘gi‘ni maktabgacha ta‘lim yoshidan boshlab bolalarni multimediali jarayonga olib kirish, maktabgacha ta‘limda AKTdan foydalanish, bolalarlarda bilim olishga qiziqish uyg‘otishda va qisqa muddatda

ko‘proq informatsiya olishiga o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim amaliyotida AKTdan foydalanish asosan quyidagicha amalga oshiriladi:

- ta’limiy faoliyat uchun illyustratsion va qo'shimcha materiallarni tanlash;
- bayramlar va boshqa tadbirlarning ssenariylari bilan tanishish;
- masofaviy shaklda tajriba almashish;
- davriy electron nashrlar bilan tanishish,
- raqamli kameralar va fotosuratlarni tahrirlash dasturlaridan foydalanish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida ish yuritishda kompyuterdan foydalanish asosida turli xil ma'lumotlar bazalarini yaratish;
- elektron pochta va sohaga oid saytlar xizmatidan foydalanish;
- turli professional tanlovlarda ishtirok etish;
- aqlli gadjetlardan foydalanib, ta’limni axbotot olamidagi yangilklar asosida tashkil etish;
- Power Point dasturida prezentatsiyalar, portfoliolar yaratish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda multimedia (inglizcha «multimedia» - ko'p komponentli muhit)li materiallardan foydalanish ta’lim jarayonini yorqinroq, hissiyotliroq, ovozli effektlar va video yozuvlardan foydalangan holda animatsiyali illyustratsion materiallar asosida amalga oshirishga imkon beradi. Shu sababli multimediali ta’lim shaklining ikkita asosiy afzalliklarini ko’rish mumkin - interaktivlik, ya'ni bolaning guruh ichidagi faolligi qobiliyati va mashg’ulotlarni ovozli, musiqali, animatsiyali tarzda amalga oshishi. Multimedia o’rganish jarayonini osonlashtiradi, ta’lim faoliyatini yanada qiziqarli va dinamik rivojiga imkon beradi, bolani ma'lum bir muhitga «etadi», birgalikdagi yangi va jonli g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi. Biroq, AKTdan muntazam foydalanishda bolalar bunday shu tarzdagi faoliyatga o’rganib qolishlari va boshqa shakldagi ta’limiy faoliyatga o’z qiziqishlarini yo'qotishlari mumkin. Tarbiyachi nafaqat kompyuter va zamonaviy multimedia uskunalaridan foydalana olishi, balki o'z ta'lim

resurslarini yaratishda foydalanishi, ulardan o'z faoliyatida eng muhim vaqtda foydalana olishi kerak.

Tarbiyachilar esa zamon bilan hamnafas bo'lishi, bolani yangi texnologiyalar olamiga yo'l ko'rsatuvchisiga aylanishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bolalarni uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichiga har tomonlama rivojlangan holda o'tishini ta'minlashi shart. Buning uchun maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan o’z o’rnida foydalanish talab etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida AKTdan foydalanishning maqsadi ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini faol joriy etish orqali ushbu ta'lim sifatini oshirish bo’lib hisoblanadi va quyidagi vazifalarni hal etadi:

-Maktabgacha ta’lim jarayonining axborot resurslarini tizimlashtirish, yangilash va to'ldirish;

-Mashg’ulot jarayonida axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;

-Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompyuterli o'quv dasturlari, didaktik va uslubiy materiallar bankini yaratish.

AKTdan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan olingan bilimlarni o'zlashtirishni yanada yuqori darajaga olib chiqadi.

Bolalar bog'chasida ta’lim-tarbiya jarayonida AKTni joriy etilishing afzalliklari:

- Elektron ta'lim vositalaridan foydalanish imkoniyatini beradi, chunki ular an'anaviy vositalardan ko'ra tezroq va aniq ma'lumot olishni ta’minlaydi;
- Illyustratsion material hajmini kengaytirish orqali materialni idroki sifatini oshirishga imkon beradi;
- Mashg’ulotda o'zaro munosabatlarda bolalarning birgalikdagi firlash imkoniyatlarining oshib borishi, bolalar o'rtasida interaktiv munosabatlarni amalga oshirish;

- Vizualizatsiyani ta'minlash orqali materialni idrok etish va yaxshiroq anglash;
- Grafik, matnli, audiovizual ma'lumotlardan foydalanish;
- Kundalik hayotda ko'rish qiyin bo'lgan hayotiy vaziyatlarni namoyish qilish (masalan, hayvonlar bilan tanishtirish, tabiat, transport, samo va boshqalar);
- Mashg’ulot materialini samarali o'zlashtirishning yuqori dinamikasi, bolalarning xotirasi, tasavvuri, ijodkorligini rivojlantirish;
- Ta’limni individualizatsiya qilish imkoniyati.

Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bizga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Bolalarning texnik va fikrlash imkoniyatlarini tekislash;
- o'zini sinab ko'rish;
- Tarbiyachilarning professional aloqalarini kengaytirish va ta’lim berish sifatini oshirish.
- Namoyish materiallari, illyustratsiyalar, videokliplarni namoyish etish;
- Tarbiyachi-bola-ota-onalar zanjiridagi hamkorlik.
- Ta'lim jarayonini tezlashtirish orqali vaqtni tejash.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, savod, hisoblash va boshqalarni mashq qilish uchun samarali o'yin vositasi.

Pedagogik jarayonni optimallashtirish, kognitiv rivojlanishning turli darajalariga ega bolalarni har tomonlama (Jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq, muloqot, o’qish va yozish, bilish, ijodiy) rivojlantirishni individualizatsiya qilish va psixologik-pedagogik faoliyat (bolaning moslashuvi, muloqoti, jamoaviy harakatlar) samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Shuningdek, axborot kommunikatsiya vositalari orqali o’yinli-ta’lim berish faoliyati til va nutq vositalarini, muloqot qobiliyatlarini shakllantirish va

rivojlantirish uchun vaqtni sezilarli darajada qisqartirish, maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan xotira va diqqatni rivojlantirish, aqliy funksiya (og'zaki-mantiqiy fikrlash, hissiy-irodaviy soha) larni rivojlantirishda muhim vosita sanaladi. Aqilli" gadjetlar asosiqida o`yinlar tashkil etish va o`tkazishda turli talablarga rioya etish zarur. Bunday ta‘lim avvalambor tarbiyachining nazorati ostida amalga oshirilishi kerak.

Kompyuterda matematika, tasviriy faoliyat, tabiat bilan tanishtirish, nutq o`stirish, atrof olam bilan tanishtirish, ingliz tilida gaplashishni o`rganamiz mashg`ulotlari uchun didaktik materiallar yaratish.

Kompyuterda o'yin faoliyatining vazifalari oddiy bo'lishi kerak. Binobarin, o'yinlarda ta'limiy vazifa ustun bo'lishi lozim. Ushbu mashg'ulotlarda bolalarning ta‘lim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli bu mashg'ulotlar didaktik o'yinli mashg'ulotlar deb ataladi.

MTTda o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinichiliklarni yengish va maqsadni aniq qo'yish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

“Didaktik materiallar asosida innovatsion texnologiyalar bo`yicha tajriba o`tkazish

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarni faollashtiruvchi va kognitiv imkoniyatlarini jadallashtiruvchi faoliyat sifatida tashkil etilish talab etiladi. Bunda didaktik materiallar asosida innovatsion texnologiyalar bo`yicha tajriba o`tkazish, kompyuterda matematika, tasviriy faoliyat, tabiat bilan tanishtirish, nutq o`stirish, atrof olam bilan tanishtirish, ikkinchi tilga o‘rgatish mashg`ulotlari uchun didaktik materiallar yaratish zarur.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan kompyuterlar, prezentatsiya-slaydlar, televizor, elektron doskalar yordamida namoyish etiladigan materiallar asosida bolalarga matematik bilimlar berishda asosiy mavzu sifatida geometrik shakllar, sanoq, vaqt va fazoviy tushunchalar, mo‘ljal olish, miqdor va matematik munosabat, o‘lcham kabi mavzular tanlanadi. Mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishda ko‘rsatma-qo‘llanmalarni to‘g‘ri tanlashning ahamiyati katta. Matematik tasavvurlarni shakllantirishda ham, bolalarni dastlabki umumlashtirishlarga keltirish (qo‘shni sonlar orasidagi bog‘lanishlar va munosabatlar, «teng», «ortiq», «kam», «butun», «qism») borasida ham ko‘rsatmalilik asos bo‘lib xizmat qiladi. Hamma mashg‘ulotlarda kundalik turmushda ishlatiladigan buyumlar, o‘yinchoqlar, tabiiy materiallardan keng foydalaniladi. Hamma bolalar o‘yinchoqlar bilan o‘ynashlari uchun o‘yinchoqlarning tasvirlari ko‘p miqdorda tanlanadi. Tasviriy faoliyat mashg’ulotlarida turli narsa va buyumlarni tasvirlashdan oldin uning turli ko’rinishlarini ekranda namoyish qilish bolada o’zgacha tasavvur uyg’otadi. Tabiat va uning hodisalarini o‘rganish, tevarak-atrof bilan tanishish, nutq o‘stirish bilan bog‘liq faoliyatda aqlli gadjetlarning o‘rni beqiyos. Xususan, bolalarga notanish bo‘lgan muhitni aks ettirish va unga munosabatni tarbiyalashda turli dasturlar: virtual borliq,

gologramma, youtube, AR dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy vazifa, tarbiyachining ushbu dasturlarni to‘liq qamrab olishi va kerakli vaqtda ulardan foydalanishni bilishi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, bolalarga oz ona tilida so‘zlashish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida so‘zlovchi alifbo, so‘zni top, bu qaysi ertak kabi o‘yinli mashqlar taklif etiladi.

O'yin - mehnat va o’qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli o'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog’liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'lishi lozim.

Kompyuterli o'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag’ishlanishi lozim.

Ular quyidagilar.

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Shuni ham inobatga olish zarurki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qanchalik ijobiy, ulkan potensialga ega bo'lishidan qat'iy nazar, ular tarbiyachi va bola o'rtasidagi jonli aloqaning o'rnini bosa olmaydi va almashtira olmaydi. Buning uchun multimediali vositalarni tanlash va qo’llashda quyidagi talablarni amalga oshirish zarur:

- Monitor suyuq kristalli yoki plazmadadan iborat bo'lishi ma'qul.
- Bolada ko'rish qobiliyatini buzilishidan saqlashga qaratilgan o'yinlardan foydalanish kerak.

- Muntazam ravishda ko'zlar uchun mashqlar olib borilishi: mashg’ulotda vaqti-vaqti bilan har 1,5-2 daqiqada bolaning ko'zini monitordan siljitish uchun mashg’ulot davomida faoliyat turini o'zgarish ham muhimdir.
- Frontal mashg’ulotlar uchun proektoridan foydalanib, ekrandan bolalargacha bo’lgan masofa 2 - 2, 5 metrni tashkil qilishi lozim.

Kompyuterda “Farqini top”, “Yil faslini top” “To`g`risini tanla”, “Alifbodan tanla” dadaktik o`yinlarini, “Archa yonsin chiroqlaring”, “Labirint” o`yinlarini yaratish. Kompyuterda innovatsion didaktik o`yinlar taqdimotini tayyorlash. Maktabgacha ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishning yuqori darajaga ko'tarilishiga olib keladi. Bolalar obrazli ma'lumot turini egallab boradilar, ta’lim faoliyatining samarasi uchun tarbiyachining ishini qulaylashtiradi. Xususan, “Farqini top”, “Yil faslini top” “To`g`risini tanla”, “Alifbodan tanla”, dadaktik o`yinlarini, “Archa yonsin chiroqlaring”, “Labirint” o`yinlarini yaratish hamda kompyuter vositasida innovatsion didaktik o`yinlar taqdimotini tayyorlash zarur.

“Farqini top” o’yinida bolalar rasmga qarab frontal tarzda mahsulotlarning turini umumlashtirib, ulardan shu to’plamga tegishli bo’lmaganini topishi va fikrini izohlab berishi lozim. Dastlab mavzu materialiga mos rasmlar tanlanib, ekran monitorida taqdimot slaydi yoki grafik dasturlar yordamida oldindan tayyorlanib, bolalarga namoyish etilishi kerak. Bunda to‘g‘ri javobni aytgan bolalar rag‘batlantiriladi. Qolganlar esa, to‘g‘ri javob orqali yangi ma‘lumotni egallaydilar. Masalan:



5.2.1-rasm. „Farqini top“ o‘yini

Ushbu o'yin faoliyati davomida kompyuter vositalaridan foydalangan holda bolada nazariy fikrlash, rivojlangan tasavvur, harakat natijasini bashorat qilish qobiliyati, fikrlash fazilatlari va boshqalar rivojlanadi va ijodiy qobiliyatlarning keskin o'sishiga olib keladi.

“Yil faslini top” o’yini. Ushbu o’yinda monitorda fasllar ko’rinishi aks ettiriladi. O‘yin mashqida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolaning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining turli jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uni qo'llash bilan rivojlanayotgan faoliyat yanada yorqinroq va jadalroq bo'ladi. Fasllar bilan tanishtirishda kompyuterli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini jozibali va chinakam zamonaviy qilishga, aniqlik asosida kognitiv va ijodiy vazifalarni hal qilishga imkon beradi. O‘yinda bolalar

yilning to‘rt fasllarning nomlarini to‘liq aytadilar. Nima sababdan ular turlicha bo‘lishi, bunga ob-havoning ta‘siri haqida tarbiyachi monitorga qarab gapiradi.



5.2.2-rasm. “Yil faslini top” o’yini.

“To`g`risini tanla” oyin – mashqi. O’yinda tarbiyachi dastlab bolalar diqqatini monitor ekraniga qaratadi. Ekranda aks etgan hayvonlar, ularning bolalari bilan bolalarni tanishtiradi. Bolalarga har bir hayvon ro’parasiga uning bolasi turishi kerakligini aytadi. Rasmdagi hayvonning ro’parasiga uning bolasini qo’yish uchun nima qilish kerakligini so’raydi. Bolalarga strelkalar yordamida ularni birlashtirishni aytadi.



5.2.3-rasm. “To`g`risini tanla” oyin – mashqi

Keyingi vazifa har bir hayvonning uyini topish vazifasi bo‘lib, strelkalar yordamida ularga uyini topishga yordam berish vazifasi qo‘yiladi. Bunday o‘yinlar o‘g‘zaki ravishda tashkil etilsa, natijasi unchalik samarali bo‘lmaydi. Ekran namoyishi orqali bolalarning diqqati, tasavvuri va tafakkuri yanada samarali rivojlanadi.



5.2.4-rasm. “To`g`risini tanla” oyin – mashqi

Birgalikdagi tashkiliy faoliyat uchun ta‘limiy materialni tayyorlash va taqdim etishning eng muvaffaqiyatli shakllaridan biri taqdimot prezentatsiyalarini tayyorlashdir. Bunday rangli tasvirlar ma'lumotlarni idrok etish va o‘rganish jarayonini osonlashtiradi: ***»Men eshitdim - va unutdim, ko'rdim - va esladim»***.

“Alifbodan tanla” o’yini. Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasining maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi va tarbiyasining Davlat standartida maktab ostonasiga qadam qo’yayotgan bola sodda va murakkab gaplarni nutqida qo‘llay olishi, so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lishi, bo‘g‘inli kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuza olishi, so‘z, tovush, bo‘g‘in, gap haqida tushunchaga ega bo’lishi, sarlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o‘qiy olishi, bolalar adabiyoti janri nomini (ertak, she’r, hikoya) hamda mashhur

yozuvchi va shoirlar nomini bilishi kerak. Shu talabni amalga oshirish esa tayyorlov guruhi tarbiyachisining vazifasi sanaladi. Harf va tovushlar bilan bog’liq o’yinlarni multimedialar va illyustratsiya orqali amalga oshirish savodga o’rgatish sifatini yanada oshiradi. Sabzavotlarni nomlah, qaysi harf bilan boshlanishini so’rash, harfni bosma shaklini alifbodan toppish vazifalari bolada harf, tovush, so’z tushunchalarini anglashga yordam beradi.



5.2.5-rasm. “Alifbodan tanla” o’yini.

Yoki har bir harf ifodalagan so‘zlarga yana bittadan qo‘shimcha so‘z topish vazifasi bolaga harflar orqali yangi so‘z topishga va bolada fikrlash qobiliyatini faollashtirishga samarali ko‘maklashadi.



5.2.5-rasm. “Alifbodan tanla” o’yini.

“Archa yonsin chiroqlaring” o'yini bolaning qandaydir vazifa (misol yechish, harfni topish) ni uddalashi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ekranda aks etgan archaning o’yinchoqlari va chiroqlari ushbu vazifalarni bajarish orqali yonadi, degan gap orqali bolalar diqqati ekranga qaratiladi.



5.2.6-rasm. “Archa yonsin chiroqlaring” o'yini

“Labirint” o`yini. Ushbu o’yinda bolalar turli yo’llar orqali maqsad sari harakatlanishni o’rganadilar. Bir urinishda bajara olmagan vazifani ikkinchi urinishda uddalash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.



5.2.7-rasm. Labirint mashqi

Labirintning boshqa ko’rinishlari ham bolalarga qiziqish uyg’otadi. Ular rangiga qarab har bir mushukka tegishli bo’lgan quttilarni topishlari kerak. Bu esa bolada ziyraklik, chaqqon harakatlar, markaziy hamda periferik ko’rish sifatlarini tarbiyalaydi



5.2.8-rasm. Labirint mashqi

Tarbiyachi predmetli to'plamlar (illyustratsiyalar, fotosuratlar, videokliplar, modellar va ularni katta ekranga proyeksiyalash) dan foydalanishi mumkin. Ma'lumotlarni ekranda o'yin uslubida namoyish qilish bolalarda katta qiziqish uyg'otadi va harakatlar, ovoz, animatsiya uzoq vaqt davomida ularning xotirasida saqlanadi. Bunday o'yinlar mashg‘ulotlarni xilma-xil qilishga, ularni yanada samarali qilishga yordam beradi. Masalan, bolalarga topshiriqlar beriladi: interaktiv doskada tasvirlangan geometrik shakllar yordamida turli narsa va buyumlarni tasvirlash.



5.2.9-rasm. Geometrik shakllar yordamida hosul qilish mumkin bo’lgan tasvirlardan namunalar

Har bir o'yinning **didaktik maqsadi** bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo’llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning **tarbiyaviy maqsadi** mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o’quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratiladi.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatishni nazarda tutadi.

Axborot vositalari orqali tashkil etiladigan o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan. Illyustratsiya vositalari yordamida o’yinning mazmuni

va tuzilmasi shunday shakllanishi va shunday tuzilishi kerakki, unda shunga mos malaka va qobiliyatlar har bir ishtirokchida butun o'yin davomida shakllansin.

Nazorat savollari

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida AKTdan foydalanishning maqsadi nimadan iborat?
2. Har bir o'yinning didaktik maqsadi nima?
3. O'yinning tarbiyaviy maqsadi nimadan iborat?
4. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosi nimadan iborat?

TEST SAVOLLARI

1. **Ta’lim sohasidagi asosiy texnologiyalarni nacha guruhga ajratish mumkin?**
   b) 4 ta
   c) 6 ta
   d) 5 ta
2. **Mashg’ulot shaklidagi innovatsiyani qanday shaklda ko’rishimiz mumkin?**

a) standart, nostandart, virtual shakllarda

b) noan’anaviy mashg’ulot shaklida

c) verbal mashg’ulot shaklida

3. **Ta’limning maqsadi nima?**

a) jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, jamiyatning yangi a’zosini tarbiyalash.

b) ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, jamiyatning yangi a’zosini tarbiyalash

c) jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish

4. **Interaktiv treninglarni tashkil etish qanday shakllarda amalga oshirilishi mumkin?**
   a. Individual, juftlik, kichik guruh
   b. Faqat kichik guruh
   c. Juftlik va kichik guruh

5. **Interfaol texnika qanday tarzda o'rganishga asoslangan?**
   a) Mustaqil o’rganishga

b) Harakat asosida o’rganishga

c) Individualo’rganishga

6. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonununing qaysi moddasi aynan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya”ga bag’ishlangan?

a) 7-moddasi

b) 9-moddasi

c) 8-moddasi

7. Rossiyaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida”gi nizomida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining qanday asosiy vazifalari keltirilgan?

a) bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash, hissiy jihatdan sog‘lom bo‘lishi haqida g‘amxo‘rlik qilish

b) bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash

c) shaxsiy rivojlanishni ta’minlash

8. Rossiya Federatsiyasi Hukumatining qarori bilan «Maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida namunaviy nizom» qabul qachon qilindi?

a) 2014-yilda

b) 1989-yilda

c) 1995-yilda

9. Qachon Budapeshtda Qozog‘istonning Boloniya deklaratsiyasiga qo‘shilishi haqida yakuniy qaror qabul qilingan?

a) 2019-yilda

b) 2010-yilda

c) 2015-yilda

10. Ta’lim sifatini ta’minlash borasida xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish uchun Qozog‘iston Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi tomonidan qanday muhim ish amalga oshirildi?

a) Akkreditatsiya agentliklari milliy reestri

b) Qozog‘iston Ta’lim sifatini nazorati bo‘yicha mustaqil agentligi

c) barcha oliy ta’lim tashkilotlarida kreditlash texnologiyalari joriy etildi

11. Fransiya maktabgacha ta’limga necha yoshdan qabul qilinadi?

a) 3 yoshdan

b) 2 yoshdan

c) 4 yoshdan

12. Fransiyada maktabga tayyorlov guruhlarida qamrov necha foizni tashkil etadi?

a) 87 foiz

b) 98 foiz

c) 100 foiz

13. Ispaniyaning ta'lim tizimi necha bosqichga bo'lingan ?

a) 5

b) 3

c) 4

14. Ispaniyaning ta'lim tizimining necha bosqichi majburiy hisoblanadi?

a) 3

b) 2

c) 4

15. Janubiy Koreyaga bolalar bog‘chasiga necha yoshdan qabul qilinadi?

a) 2 yoshdan 3,5 yoshgacha

b) 3 yoshdan 5 yoshgacha

c) 3 yoshdan 4 yoshgacha

16.Janubiy Koreyaga bog‘chalarida asosan qaysi mashg‘ulotlar o‘tiladi?

a) musiqa, rasm, hisoblash

b) ingliz va koreys tili

c) matematika, tasviriy faoliyat

17.Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim qanday shaklda tashkil etiladi?

a) Majburiy va pullik

b) majburiy va bepul

c) majburiy emas

18.Yaponiyada mashg‘ulotlar qaysi oydan boshlanadi?

a) **aprel oyida**

b) may oyida

c) mart oyida

19. Loyiha faoliyati texnologiyalari qanday shaklda amalga oshiriladi?

a) jamoaviy shaklda

b) yakka shaklda

c) mustaqil shaklda

20. Muammoli o'rganishning necha darajasi mavjud?

a) 3 ta

b) 2 ta

c) 4 ta

21. Simulyatsiya texnologiyasi nima?

a) hayotiy muammolarni modellashtirish va ularni hal qilish yo'llarini izlash

b) teatrlashgan faoliyat

c) kognitiv jarayon

22. Portfolio nima?

a) bolaning rivojlanish xaritasi

b) bu bolaning turli xil faoliyatdagi shaxsiy yutuqlari, uning muvaffaqiyatlari papkasi

c) hujjatlar yig’ma jildi

4. Innovatsiyaning maqsadi nimadan iborat?

a) yangilikni kiritish

b) o‘zgartirish

c) sarflangan mablaq` yoki kuchdan maksimal natija olish

5. Faoliyatni yangilash necha bosqichda amalga oshiriladi va ular qaysilar?

a) 2 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish

b) 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish

c) 4 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish, joriy etish, natija

6. Shaxs rivojlanishida qanday omillar muhim ahamiyat kasb etadi?

a) irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati

b) irsiyat, muhit, tarbiya

c) inson faoliyati

7. Rivojlantiruvchi muhit necha talab asosida shakllantiriladi?

a) 2 ta

b) 4 ta

c) 3 ta

8.Ta’limiy o`yinlarning didaktik ahamiyati nimada?

a. bolalar aqliy faoliyatini, ongini o`stiradi

b. bolada diqqat, xotira, tafakkurni shakllantiradi

c. bolada jismoniy sifatlarni rivojlantiradi

9. Ta’limiy o`yinlarning qanday turlari mavjud?

a. buyum va o`yinchoqlar bilan o`ynaladigan, stol-bosma, og‘zaki-so`z o`yinlari

b. buyum va o`yinchoqlar bilan o`ynaladigan o`yin turlari

c. og‘zaki-so`z o`yinlari.

10. Musiqaviy ta’limiy o'yinlar orqali qanday sifatlar shakllanadi?

a. Sensor sifatlar

b. Psixologik sifatlar

c. tovushlarni bir-biridan ajrata olish, ritmik usulni farqlash

11. Stol-bosma o’yinlari qanday o‘yinlar turiga kiradi?

a. tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash imkonini beruvchi o‘yin turi

b. qurish-yasashga o‘rgatuvchi o’yin turi

c. jamoaviy xarakterdagi o‘yin turi

29. Bolalar o‘zbek xalq amaliy san’ati turlaridan qaysilari bilan tanishtiriladi?

A) zargarlik, zardo‘zlik, misgarlik, ganchkorlik

B) kashtachilik, pichoqsozlik, temirchilik

c) novvoylik, kandakorlik, holvapazlik

12.Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish metodlari qaysilar?

a. Kuzatish, og’zaki, tajriba
b. Amaliy, og’zaki, suhbat
c. Amaliy, ko’rgazmali, og’zaki

13. 6-7 yoshdagi bolalar qaysi buyuk allomalarining hayoti va ijodi bilan tanishtiriladi?

a. Alisher Navoiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, musavvir Kamoliddin Behzod
b. Alisher Navoiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino
c. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur

14. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ko‘rgazmali usullardan foydalanish qay tarzda amalga oshiriladi?

b. Mulyajlar, maketlar, tarqatma vositalardan foydalanish
c. kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish
d. multfilm va multimedia ilovalaridan foydalanish

15.. Iqtisodiy tushunchalarning ta'rifi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) Moddiy mehnat, informatsion resurslar, ishlab chiqarish, tadbirkorlik
b) Tovar, ta'lim muassasalarini boshqarish, nazorat, baholash
c) rahbarlik qilish, suhbat, tekshirish, akt tuzish

33. “Bozor” o’yini qanday vazifalarni hal etadi?

a) tovar va xizmatlarni bir-biri bilan bog'laydi
b) xaridor bilan sotuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar haqida ma’lumot berish
c) matematik tushunchalarni qo’llash malakasini rivojlantirish

34. MTTlarda mehnatni tashkil etish shakllari qaysilar?

a) 0'z-o‘ziga mehnat qilish, topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi mehnat, navbatchilik, qo'l mehnati, jamoa mehnati

b) Maishiy-xo'jalik mehnati

c) Bolalarning o'z mehnati

35. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalari qaysilar?

a) bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish

b) bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojiantirish

v) bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish

36. O'yin qanday turlarga bo'linadi?

a) ijodiy, qoidali

b] syujetli-rolli, sahnalashtirilgan

c) qurish-yasash, didaktik

37. O'yin MTTlarda qaysi paytlarda o'tkaziladi?

a) ertalab nonushtagacha, kunning ikkinchi qismida

b) mashg'ulot o'rtasida, uyqudan keyin

c) sayr vaqtida

38. O'yinchoqlarga qanday talablar qo'yiladi?

a) pedagogik, gigiyenik, badiiy talab

b) psixologik, gigiyenik talab

c) pedagogik, psixologik talab

39. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning qanday shaklini o’rgatish lozim?

a) dialogik va monologik

b) monologik

c) dialogic

40. Til qanday vositalar bilan kuchaytiriladi?

a) tembr, diapozon

b) imo-ishoralar, mimika

c) jest, mimika,

41. Agrammatizm nima?

a) Grammatik nutq shakli

b) eshita olmaslik

c) so'zlarni grammatik jihatdan to'g'rilay olmaslik va gaplar tuza olmaslik

42. TRIZ texnologiyasidan foydalanishning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) **ijodiy kashfiyotlar quvonchini singdirish va ularda qandaydir vazifalarni uddalay olishiga ishonch hislarini shakllantirish**

B) fikrlash, ijodkorlik, tasavvur va mantiq rivojlantirish

C) turli qarama-qarshiliklarni, obyektlarning, hodisalarning xususiyatlarini aniqlash

43. TRIZning maqsadi nimadan iborat?

a) nutq, tashabbus hamda individuallikni ko'rsatish

b) izlanish, tadqiqot va ixtirochilik faoliyatini amalga oshirish

c) hodisalarning xususiyatlarini aniqlashga va turli muammolarni hal qilishga o'rgatish

44. TRIZ-pedagogika tizimi maktabgacha ta’lim tizimida qachon rivojlana boshladi?

a) 1954-yildan

b) 1950-yildan

c) 1980-yilning boshidan

45. **Elementar matematika mashg‘ulotlari oldida qanday maqsadlar qo‘yilgan?**

a) **ta’limiy, tarbiyaviy va amaliy maqsadlar**

b) ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar

c) ta’limiy, tarbiyaviy va ijodiy maqsadlar

46. **Maktabgacha tayyorlov guruhi uchun elementar matematik tasavvurlarn rivojlantirish mashg’ulotlari yilda necha soat tashkil etiladi?**

a) Haftada 1 soat, yil davomida 36 soat

b) **Haftada 2 soat, yil davomida 72 soat**

c) Haftada 3 soat, yil davomida 98 soat

47. **Har qaysi yosh guruhi dasturi qanday bo‘limlardan iborat?**

a) 4 bo’limdan, Miqdor va sanoq, kattalik, geometrik figuralar, fazoda mo‘ljal olish

b) 5 bo’limdan, Miqdor va sanoq, kattalik, geometrik figuralar, fazoda mo‘ljal olish, vaqt bo‘yicha mo‘ljal olish.

c) 3 bo’limdan, Miqdor va sanoq, kattalik, geometrik figuralar

48. **Illyustrasiya vositalariga nimalar kiradi?**

a. ko‘rgazma, plakatlar, guruhlarda tashkil etilgan turli faoliyat markazlari

b. **AKT vositalari, ko‘rgazma, plakatlar, guruhlarda tashkil etilgan turli faoliyat markazlari**

c. ko‘rgazma, plakatlar, mulyajlar

49. **Mujassam mashg‘ulotlar nima?**

a) aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga qarqtilgan mashg’ulot

b) mantiqiy tafakkurni o‘stirish uchun mashg’ulot

c) bolalarga kompleks ravishda yangi bilim beriladigan mashg’ulot

50. Matematika mashg‘ulotlari kunning qaysi qismida tashkil etiladi?

a) ertalabki doira qismda

b) kunning ikkinchi qismida

c) kunning birinchi yarmida

51.Assotsiativlik nima?

a) bola uchun rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish

b) birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan yanada samaraliroq rivojlanishi

c) bu narsa va hodisalardagi bog'lanish va o'xshashlikni ko'rish qobiliyati

52. Dialektiklik nima?

a) har qanday tizimdagi qarama-qarshiliklarni ko'ra bilish, ziddiyatlarni bartaraf etish

b) birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan yanada samaraliroq rivojlanishi

c) bolalarning emotsional hissiyotiga ta’sirini oshirish

53. Tasavvur nima?

a) ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ishlar

b) tasvir shaklida yangi narsalarni yaratish

c) barqaror kognitiv qiziqishlar

54. Ijodiy rivojlanish sohasining kichik sohalari nechta?

a) 3 ta

b) 2 ta

c) 4 ta

55. Virtual reallik nima?

a) **bu sun’iy hosil qilinadigan axborot muhiti**

b) axborotning asosiy an’anaviy manbai

c) fikriy faoliyatning umumlashtirilishi

56. Ta’limning an’anaviy uslubi qanday ko’rinishda bo’ladi?

a) **ta’lim beruvchi (tarbiyachi) ta’lim jarayonining markazida bo‘lib, ta’lim oluvchi (tarbiyalanuvchi) passiv eshituvchi va ishtirokchi**

b) ta’lim shaklini qulaylashtirish

c) bolalarning xotiralarini rivojlantirish

57. Axborotning qanday turlarini mavjud?

a. matn, grafika, sxema, tasvir, musiqa

b. matn, grafika, sxema

c. sxema, tasvir, musiqa

58. Maktabgacha ta’lim tashkilotida AKTdan foydalanishning maqsadi nimadan iborat?

a) ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini faol joriy etish orqali ushbu ta'lim sifatini oshirish

b) bolani kompyuter bilan tanishtirish

c) ta’limda innovatsiyalarni olib kirish

59. Har bir o'yinning didaktik maqsadi nima?

a) jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish

b) bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo’llash

c) diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o’quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirish

60. O'yinning tarbiyaviy maqsadi nimadan iborat?

a) diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o’quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirish

b) bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo’llash

c) mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalash

61. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosi nimadan iborat?

a) o’quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirish

b) bolalarni faollashtirish va kognitiv imkoniyatlarini jadallashtirish

c) estetik dunyoqarashni shakllantirish

62. Italiyada o'qish necha yoshdan boshlanadi?

a) 4

b) 6

c) 3

63. Boshlang'ich maktabda qanday saboqlar majburiy hisoblanadi?

a) barcha asosiy darslar

b) o'qish, yozish, rasm chizish, matematika

c) o'qish, yozish va boshqa

64. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning necha foizi bog‘chalarga qatnaydilar?

a) 80%

b) 60**%**

c)70**%**

65. Internatsional bolalar bog‘chalarida qanday mashg‘ulotlar o‘tkaziladi?

a) ijod qilish, syujet-rol o‘yinlari, eksperimentlar, tabiat

b) Maslennitsa, 8-mart, Yangi yil kabi bayramlarga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar

c) kubiklar o‘ynash, konstruktorlar yig‘ish

TERMINLAR LUG‘ATI (GLOSSARIY)

1.	**Yondashuv**	bu pedagogik faoliyatning o'ziga bog'liq bo'lgan g'oyalar, tushunchalar va usullar majmuyini qo'llashga undaydigan metodologik yo'naltirish.
2.	**Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv**	pedagogning butun diqqat-e'tiborini bola shaxsining yaxlitligiga qaratilishi, uning nafaqat aql-zakovati, fuqarolik mas'uliyati hissi, balki emotsional, estetik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish g'amxo'rlik qilishga yo'naltirilgan yondashuv.
3.	**Individual yondashuv**	ta'lim beruvchining guruhdagi har bir faol harakati va dam olish paytida barcha ehtiyojlarini e'tiborga olish zarurligini anglatadi. Bu guruhdagi barcha material va jihozlar, umuman o'qitish muhiti har bir bolaning rivojlanishiga xizmat qilishini hamda mo'ljallanayotgan faoliyat turlari bolalar rivojlanishidagi farqni e’tiborga olishi
4.	**Ta'limning rivojlantiruvchi muhiti**	bola rivojlanishi- ni ta'minlaydigan shart-sharoitlar (o'yinlar, o'yin predmetlari va jihozlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, bolalarning turli faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun mo'ljallangan uskunalar) o'zaro bog'liqligini belgilab beradigan hal qiluvchi ko'rsatkichlar.
5.	**Inklyuziv ta'lim**	har bir bolaning, shu jumladan, alohida talab-ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olish imkoniyatiga ega ekanini ko'zda tutuvchi ta'lim turi.
6.	**Model (lotincha - me'yor, namuna)**	hodisa yoki jarayonning tabiat va jamiyatdagi tavsifi.

7.	**Sifatli pedagogika**	- bolalarni o'yin shaklida qiziqarli va zavqlantiruvchi tarzda o'qitish, bolalarning sog'lig'ini (ham ruhiy, ham jismoniy) ta’minlash imkoniyatini yaratadigan, ularni maktabga muvaffaqiyatli kirishga yordam beradigan o'qishga qiziqish va xohish uyg'otadigan dasturlar bo'yicha o'qitish, ota-onalarning ijobiy bahosi, o'qitishda ijtimoiy natijalar, salomatlik va tarbiyalanuvchilarning individual rivojlanishi.
8.	**Integrallashgan rejalashtirish**	bu bolalarni o'qitish va rivojlantirish integrallashgan jarayondir, bola rivojlanishining har bir sohasi uning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq. Ta'lim- tarbiya ishlarini rejalashtirishda ularni bir-biridan ajratmaslik, bir butun majmua sifatida qarash lozim. Shu ma'noda turli sohalardagi ta’lim jarayoni o'zaro bog'liq va bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan jarayondir.
9.	**Rejalashtirish vositalari**	bu faoliyat mazmuni turli sohalarda kutilayotgan natijalarga erishish imkoniyatlarini (resurslarni) belgilab olish uchun pedagog tomonidan qo'llaniladigan vosita, usul va uslublardir.
10.	**Kuzatuv**	bola ishlayotgan yoki o'ynayotgan paytda uning faoliyatiga aralashmagan holda kuzatish jarayoni.
11.	**Qayd qilish**	bu bolalar faolligini kuzatish asosida hujjatlashtirish. Aksariyat pedagoglar tomonidan tabiiy ravishda amalga oshiriladigan bu ishga bolalarni tizimli (muntazam) kuzatish asosida yondashishni joriy etish, u haqida to'liq ma'lumot

		olish imkoniyatini yaratadi
12.	**Pedagogik diagnostika**	**(yunoncha - «bilish, «aniqlash» ma'nosini anglatadi) -** bu muayyan bosqichlarda bolaning individual xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkoniyatini beradigan mexanizm
13.	**“Men” konsepsiyasi**	insonning o'z hayotiy faoliyati, boshqa kishilar bilan o'zaro aloqalari, o'zi va boshqalarga munosabatini shakllantirishga xizmat qiladigan, uning o'zi haqidagi anglangan va his etadigan tasavvurlari.
14.	**Pedagogik strategiya**	bu bolalarning kutilgan maqsadlariga erishishga imkon beradigan pedagog qo'llaydi- gan muayyan uslublar yig'indisi.
15.	**Rejalashtirish**	bu zarur shart-sharoit, foydalanilayotgan vosita, shakl va uslublarni ko'rsatgan holda, ta'lim-tarbiya ishini amalga oshirishning tartibi va ketma- ketligini oldindan belgilash jarayoni.
16.	**Bolaga yo'naltirilgan yondashuv**	bu bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, talab-ehtiyojlari, uning ta’lim maqsadlariga erishish uchun yordam beradigan maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgunga qadar to'plagan tajribasini e'tiborga oladigan ta’lim shakli.
17.	**Rivojlantiruvchi yondashuv**	bolaning tabiiy ravishda ulg'ayishiningmuhimligini baholash va tahlil etish imkoniyatini yaratadigan rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv.
18.	**Istiqbol reja**	bolalar faoliyatining barcha turlarini va ularga

		xos kundalik ish shakllarini (mashg'ulot, o'yin, mehnat, individual ishlash, ota-onalar bilan ishlash) o'zida aks ettiruvchi bolalar bilan ishlashda asosiy hujjat hisoblanadi.
19.	**Kundalik reja**	bir-ikki haftaga mo'ljallab tuzilib, unda butun ish kuni davomidagi faoliyat - konspekt shaklida batafsil yoritiladi.
20.	**Bola huquqlari to’g’risidagi Konvesisiya**	bu butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Birlashgan Millatlar tashkilotining shartnomasidir. U bolalar rivojlanishining turli bosqichlarida bolalar farovonligining mavjud mezonlarini aniqlaydi va bolalar huquqlarini himoya qiladi.
21.	**Bilish faoliyati**	boladagi individual o'zgarishlar sur'atini e’tiborga oigan holda tashkil etiladi. Bunda didaktik harakatlarning takrorlanishi va mazmuni jihatidan yakka yutuqqa erishiladi.
22.	**Didaktika**	pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmoqdir. Didaktika ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismdir. Didaktika yunoncha so'z bo'lib, «didasko» - o'qitish, «Didaskol» - o'rganuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. Didaktika pedagogikaning «Nimaga o'qitish», «Nimani o'qitish'’ va «Qanday o'qitish» kabi savollarga javob izlaydi.
23.	**Bilish**	inson tomonidan voqelikni aks ettirish jarayoni. Bilish jarayoni sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psixik protseslarda ifodalanadi.

24.	**Bilish usullari**	bilish jarayonmmg qonun-qoidasi, mezoni, tamoyili, shakli va usullari hamda vositalari, shuningdek bilish jarayoniga qo'yiladigan talablar tizimlari- ning majmuasiga bilish usullari deyiladi.
25.	**Amaliyot-**	nazariy bilimlarni bevosita amaliy jarayonga qo'Ilash.
26.	**Ijtimoiylashtirish**	ikki tomon jarayonini baholash uchun qo'llaniladi. Bir tomondan shaxsni atrof-muhit, davlat, ijtimoiy jamiyat, tabiat va ijtimoiy muhit institutsional tuzilmalari bilan o'zaro munosabatda shakllanishini belgilaydi. Insonning hayotiy holatlarga, atrofdagi odamlarga ta'sir etish vositasi bilan o'zini shaxs sifatida tanitish jarayoni.
27.	**Ijodiy faoliyat**	bu barcha ruhiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiyot holati - ilhomlanish, shuningdek ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahti bilan hal etish istaklari majmuasi.
28.	**Ijtimoiy yo'nalganlik**	ta'limda yangicha yo'nalganlik bo'lib, u insonga fuqaro sifatida, ijtimoiy va kasbiy uyushmalar a'zosi sifatida ijtimoiymehnatga bo'lgan qobiliyatni, fidoyiligiga, mas’uliyatli va ma'naviyatli bo'lish sifatiga qo'yilgan talablar.
29.	**Visual ma'ruza (VM)**	ko'rgazmali ma'ruzadir. Bunda asosiy o'qitish metodi ko'rgazmali namoyish kino, tele va video

		kadrlar, slaydlar, diskdagi axborotlar pedagog tomonidan sharhlanadi.
30.	**Diagnostika (tashxislash)**	pedagogikaning bo'limi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorgarliklari, bilim, ko'nikma, malaka va mahoratlarini, o'quvchi va maktabgacha yoshdagilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi.
31.	**Ijodiy qobiliyatlar**	bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga solish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash va toppish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (... kashfiyot), ixtiro, san'at ertaki, tavsifnoma va h.k. qobiliyatlaridir.
32.	**Ijodiy yondashuv**	bu pedagogikada zamonaviy yo'nalish bo'lib, u ta'lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo'nalishlarini topishga undash jarayonidir. Bunda o'quvchi- talabaning faoliyatiga demokratik asosda rahbarlik qiladi va ularning shaxsiy tashabbuskorligini qo'llab-

		quvvatlaydi, ular bilan hamkorlikda ishlaydi.
33.	**Integratsiya**	o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish
34.	**Intellekt**	insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati, tushunish, mulohaza, tafakkur, aql ma’nosini anglatadi.
35.	**Interfaol mashg'ulot**	Pedagog va ta’lim oluvchi o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot. Bu jarayon o'zaro hamkorlikda kechadi
36.	**Interfaol usul**	bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikdagi ta'lim usuli bo'lib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi. «Inter” so'zi lotincha bo'lib, o'zbek tilidagi «oraliq», «o'zaro» kabi ma'nolarni bildiradi.
37.	**Integratsiyalash**	lotincha so'z “integer» - umumiylik, «integerara» - to'ldirish, yaratish, tiklash demakdir. Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullangan sohasi hisoblanadi. Bu tishuncha - muhim ilmiy termin bo'lib, u umumlashtirish, xulosalashda metodologik vosita bo'lib hisoblanadi, chunki uning yordamida jarayon va hodisalar mazmunlari orasidagi umumiy uyg'unlik algoritmlari yaratiladi.
38.	**Ixtisoslik**	birorta kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turr uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi.

39.	**Iqtisodiy madaniyat**	madaniyatning bu qismini o'zlashtirish ko'rsatkichlari va natijalari - iqtisodiy layoqatlilikni: zamonaviy iqtisod, ishbilarmonlik faoliyati asoslari to'g'risida tasavvurga ega bo‘lish, tadbirkorlik asoslarini bilish
40.	**Ijodiy o'yinlar**	bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yin mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar.
41.	**Didaktik o'yin**	bolalarning yoshi va imkoniyatlariga mos keladigan o’yinli ta'lim berish metodi.
42.	**Konsepsiya**	maqsadga yetishishning xomaki rejasi mazkur sohada mavjud qonuniyatlar bilan asoslab berilgan bosqich konsepsiya yoki ilmiy asoslangan taxmin

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. T.: 2020 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori
4. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 372-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”
6. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutqi. T.: “O‘zbekiston”, 2016.
7. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: “O‘zbekiston”, 2017.
8. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti, T.: 2018.
9. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. — Т., «Ўқитувчи», 1993.
10. Altshuller GS, Zlotin BL va boshqalar. Yangi g'oyalarni izlash: tushunchadan texnologiyagacha (ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi va amaliyoti). - Kishinyov: Kartya Moldoveneaske, 1989 yil.
11. Азларов Ю. Болаларни севиш санъати. — Т., 1992.
12. Ахмедов М., Шоумаров О. Ватан маҳалладан бошланади. Ҳаёт ва иқтисод. 1992.
13. Axmedova X., Raximova L. Bolaga yo’naltirilgan ta’lim» dasturini tashkil etish. T.: 2012 y
14. A.Adhamjonov. Qiziqarli matematika. Toshkent.: Adabiyot uchqunlari,

2016 y

15. Bashayeva T. Bolalarda shakl, rang, tovushni qabul qilishning rivojlanishi. T.: 1997
16. Bikbaeva N.U. va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. T.: 1995.
17. Bikbaeva N.U., Ibragimova Z. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun matematik o'yinlar. T.: O'zPFITI, 1995
18. Bikbaeva N.U., Umarova T.K. Oilada 5-6 yoshli bolalarning elementar matematik tasavvurlarini rivojlantirish. O'zPFITI, 1995
19. Джанпеисова Г.Э. Знакомство детей 3-4 лет с геометрическими фигурами. Методическое пособие для воспитателей и родителей. Т., 2002.
20. Джанпеисова Г.Э. Знакомство детей 4-5 лет с геометрическими фигурами. Методическое пособие для воспитателей и родителей. Т., 2002.
21. Джанпеисова Г.Э. Знакомство детей 5-6 лет с геометрическими фигурами. Методическое пособие для воспитателей и родителей. Т., 2002.
22. Джанпеисова Г.Э. Знакомство детей 6-7 лет с геометрическими фигурами. Методическое пособие для воспитателей и родителей. Т., 2002.
23. Джанпеисова Г.Э. Методические приёмы формирования и развития элементарных геометрических представлений у дошколников. Методическое пособие. Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2017
24. Джанпеисова Г.Э. Современные аспекты математического образования дошколников. Методическое пособие. Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2017
25. Джанпеисова Г. Мактабгача ёшдаги болаларнинг элементар геометрик тасаввурларини шакллантириш ва ривожлантириш усуллари. Услубий қўлланма. Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2017.
26. Fayzullaeva M. va boshq. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish".T.: 2015

33. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1990.
34. Hasanboeva.O.U.va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi».T..,

«Ilm ziyo» 2006.

35. Иващенко Е.В. Профессиональная подготовка будущего учителя начальной школы к оценке учебных достижений младших школников //Начальная школа/. - 2007. № 11.
36. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.
37. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.
38. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog–o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008.
39. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste’dod, 2010.
40. Kryuchko C., Azarenko T. Katta maktabgacha bo’lgan bolalarning bilish qobiliyatini rivojlantirishda ko’rgazmali modellashtirish usulidan foydalanish. M.Prosvesheniye, 1996
41. Kurmakaeva R., A’zamova M., Normatova S., Yusupova M., Elementar matematika rejalari. T.: 1992.
42. Мавлонова Р.А., То‘раева О.Т., Холиқбердиев У.М.Педагогика. — Т.: Ўқитувчи, 2001.
43. Минавваров А. Педагогика. — Т., « Ўқитувчи ». 1996.
44. Mo’minova L., Ayupova M. Bolalarni savodga o’rgatish metodikasi. To’plam.T.:1996
45. Nizomova K. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish”. T.: 2006.
46. Omonov B. Oilada matematika. T.: O’qituvchi, 1996.
47. Oxunjanova S. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash haqida. T.: 1999
48. Ражабов С. Педагогика фанининг алломалари. Т., 1991.
49. Rasulova M. Bolalarni maktabga tayyorlash dasturiva

tayyorligini aniqlash mezonlari. T.: O’zPFITI 1994

50. Sharipova. D.J. “Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigienik tarbiyasi haqida”. T.: Ilm ziyo. 2007.

51. Саифназаров И. Бозор иқтисодиёти ва шахс камолоти. — Т., 1996.

52. Tixomirov T. Bolalarning bilish qobiliyatini rivojlantirish. Yaroslavl.: Rivojlanish akademiyasi., 1996.

53. Tolipov U., Usmonboeva M.Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. -T.: 2006.

54. Umarova T., Pedgayetskaya E. Bolalarning maktabgacha matematik tayyorgarligini ta’minlash. T.: O’zPFITI, 1995

55. Xayrullaev M., Haqberdiev M. Mantiq: Tuzatilgan va to’ldirilgan. 2-nashr. - T.: O‘qituvchi, 1993. - 304 b.

56. Юсупова П. Мактабгаcha тарбия педагогикаси. — Т., «Ўқитувчи». 1993.

57. Ношимов К., Нишонова С., Иномова М. Педагогика тарихи. — Т., «Ўқитувчи». 1996.

58. Ўқувчиларни тарбиялашда оила, маҳалла, мактаб ҳамкорлиги концепцияси. — Т., « Ўқитувчи», 1998 .

59. Ўзбекистон педагогикаси антологияси. — Т., «Ўқитувчи» 1995.

60. Усмонов. И.Одобни ҳаётдан ўргандим. — Т., «Ўқитувчи», 1995.

INTERNETDAN OLINGAN SAYTLAR:

1. www.uzedu.uz.
2. www.multimedia.uz
3. www.ziyonet.uz.
4. www.mtv.uz.
5. www.kitob.uz.
6. www.jlmt.uz.
7. www.multimedia.uz

MUNDARIJA:

Kirish.....3

I-BO`LIM. INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI FANIGA KIRISH

1.1.Innovatsion ta'lim texnologiyalari tushunchasi, uning ta'riflari, metodikadan farqi.....8

1.2 Maktabgacha ta'lim tashkilotida interfaol usullarni qo`llash……...……...…21

II-BO'LIM. XORIJIY DAVLATLARNING ILG`OR PEDAGOGIK TAJRIBALARI

2.1. Rossiya va Qozog`istonning ilg`or innovatsion pedagogik tajribalarini o`rganish va tahlil qilish.....35

2.2. Fransiya va Ispaniyaning maktabgacha ta'lim tizimini va ilg`or pedagogik tajribalarini kuzatish va tahlil qilish 43

2.3. Italiya va Germaniyaning maktabgacha ta'lim tizimi va ilg`or pedagogik tajribalarini o`rganish.....49

2.4.Koreya va Yaponiyaning ilg`or pedagogik tajribalarini o`rganish va tahlil qilish.....56

III-BO`LIM. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

3.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalardan foydalanib tarbiyalash.....64

3.2. .Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy shaxsiy xislatlarini tarkib toptirishda ijodiy fikrlash qobiliytlarni shakllantirvchi innovatsion metodlarni o`rganish.....78

IV-BO`LIM. TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

4.1. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish……...84

4.2. Ta’limiy o`yinlarning turlari va o`tkazishning innovatsion texnologiyalari..……94
4.3. Atrof - olam bilan tanishtirish jarayonida qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar……..…101
4.4. Buyuk siymolar va tarixiy merosimizni o`rgatish hamda kishilar mehnati va kasb-kori bilan tanishtirishda innovatsion texnologiyalarni qo`llash……..…….111
4.5. Nutq, muloqotga o`rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O`yin orqali bola tafakkurini va nutqini o`stirish hamda so`zlashishga o`rgatish…….……120
4.6.Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini, grammatik qurilishini rivojlantishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish……132
4.7. Turli yosh guruhlarda bolalarning nutqni rivojlantirishda TRIZ (IMEN) usullaridan foydalanish.....146
4.8.Ilk matematik tushunchalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish…..…….……...151
4.9. Buyumlarning shakli, hajmi, katta-kichikligini farqlashga o`rgatish bo`yicha qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar…….…..……..168
4.10. Bolaning ijodiy rivojlanish sohalari bo`yicha innovatsion texnologiyalardan foydalanish……..……..190
V-BO`LIM. KOMPYUTERDA INNOVATSION DIDAKTIK O`YINLAR VA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH
5.1. Kompyuterda innovatsion didaktik o`yinlar va didaktik materiallar yaratish texnologiyasi……..…….205
5.2. “Aqlli” gadjetlar asosida o`yinlar tashkil etish va o`tkazish, didaktik materiallar yaratish……...……..224
TEST SAVOLLARI……..…...242
TERMINLAR LUG‘ATI (GLOSSARIY)..... 255
ADABIYOTLAR RO`YXATI…..……..……..….....**263**